

81  
M-54

**I. MIRZAYEV**

**TAHLILIIY**  
**O'QISH**

N<sup>x</sup> M I  
S<sup>o</sup> A E R P  
M Q<sup>y</sup> B D L  
G<sup>t</sup> H<sup>m</sup> J<sup>o</sup> K  
R G J<sup>o</sup> T  
z v

01  
M-54

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

I.K.MIRZAYEV

# TAHLILIIY O'QISH

*Darslik*

Samarqand-2022

UDK 494.3

**Mirzayev I.K.**

**Tahliliy o'qish. Filolog-bakalavriant, magistrant va doktorantlarga mo'ljallangan darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 248 bet.**

**Mas'ul muharrir: Yo'ldoshev Q. p.f.d, professor**

**Taqrizchilar: Ismoilov S., f.f.n., professor  
Hamroyev G., p.f.f.d. (PhD)  
Narziyeva M., o'qituvchi**

*Ushbu darslikda matnni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, she'rshunoslik yutuqlari asosida tahlil qilish namunalari berilgan bo'lib, matnlar fonetik, orfografik, orfoepik, leksik, frazeologik, grammatik, stilistik, adabiy tahlil nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Unga til va adabiyot fanlari bo'yicha nazariy bilimlar hamda qo'shimcha o'qish uchun materiallar ilova qilingan.*

*Darslik filolog-bakalavriant, magistrant va doktorantlarga mo'ljallangan.*

*Darslik SamDU Kengashining 2021-yil 30-dekabrda 6-sonli yig'ilishi qaroriga asosan chop etishga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-8180-7-1**


©Samarqand davlat universiteti, 2022

## So'zboshi

Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'limga innovatsion yondashish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda talabalarga zamonaviy bilim berish, ularning mustaqil ta'lim ustida ishlashlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 571-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Tahliliy o'qish" – innovatsion ta'lim usulini o'qitish yo'lga qo'yildi. Bu fanning amaliy ahamiyati shundaki, ona tili va adabiyot fanlarini bir-biridan ajratmagan holda o'rganib, matn tahlili uchun fonetik, leksik, grammatik, stilistik vositalardan foydalanish bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan, badiiy, ilmiy va shu kabi matnlarni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopragmatika, lingvopoetika nuqtayi nazaridan tahlil qilish metodikasini egallashdan iborat. Shuningdek, talabalar mashg'ulotlar jarayonida aynan bir fikrni turli lisoniy vositalar yordamida ifodalab, matn mazmuni bo'yicha qo'yiladigan savollarga, birinchidan, axborot uzatuvchi lisoniy birliklar, ikkinchidan matnda muayyan kayfiyat hosil qiluvchi birliklar tahlili asosida javob beradilar.

Ta'limning boshlang'ich davrlarida asosiy e'tibor matnni til (fonetik, orfografik, orfoepik, leksik, frazeologik, grammatik, adabiyot, poetika) muallif uslubidan kelib chiqib tahlil qilishga qaratiladi. Bu esa adabiy talaffuz, ifodali o'qish va boy lingvistik zaxiraga ega bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun mazkur fan bo'yicha o'tilgan dars mashg'ulotlari so'zlarning ma'no nozikliklari, sinonim, antonim, omonim, paronimlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga, shuningdek, barcha uslubiy va sintaktik vositalarni (trop va figuralarni) farqlay olish va mustaqil tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishga o'rgatadi. Shu talablarga muvofiq tarzda ta'lim oluvchilar tizimli mashqlar bajaradi va ularga qo'shimcha topshiriqlar beriladi.



“Tahliliy o‘qish” metodi yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga emas, balki o‘quvchi-talabalarning umumiy intellektual hamda kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan e‘tiborga molikdir.

# TAHLILIIY O'QISH

## I qism

## **BIRINCHI DARS**

### **“Alpomish” dostonidan parchaning fonetik tahlili**

Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakanining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri shoy edi. Bu ikkovi ham farzandsiz bo'ldi.

Ana endi o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida bir chupronto'y bo'ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar ham to'yga keldi. To'ydagi kattalar ilgariqiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: “Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi”, — deb otini o'zlari bog'lab, ma'rakai majlisga kelib o'tira berdi.

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib, ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar aytdi: “Bizlar o'n olti urug' qo'ng'iro'tning boyi ham shoyi bo'lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni xushlar edinglar, bu daf'a bizdan nima ...o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?”

Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida paygabetdan turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: “Ey, Boybo'ri bilan Boysari! Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi og'ziga odam kirib ketadi”. Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa bo'ldi. Xafa bo'lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti. Ikkovi qildi maslahatti. Bu so'z ikkoviga juda botib ketdi. Boybo'ri turib aytdi: “Boysari uka, qariganda bizning molimiz besohibga chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?” Boysari turib aytdi: “Tortib olib bo'lmasa, sotib

olib bo'lmasa, xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!" Boybo'ri aytdi: "Shu yerdan Shohimardon pining ravzasi uch kunchalik yo'l kelar ekan, har kim borib tinar ekan: davlat talab davlat tilar ekan, farzand talab farzand tilar ekan, oxirat talab imon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazr-u niyozimizni bersak, Shohimardon pining ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab ko'rsak". Shunda bu gap boylarning ikkoviga ham ma'qul tushib, bir-biriga: "Rost aytasan", — deb, nazr-u niyozni olib, biylar ikkovi Shohimardon pining ravzasiga qarab jo'namoqchi bo'lib, mindi bedov otdi, uch kun tinmay yo'l tortdi. Uch kun yo'l yurib, Shohimardon pining ravzasiga yetdi. Olib borgan nazr-u niyozini shayxlarga berib, biylar ravzani tunab yotdi. Oradan bir kam qirq kun o'tdi. Bir kam qirq kun deganda ravzadan ovoz keldi: "Ey, Boybo'riman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men bo'lsam, bir kam qirq kundan beri bir oyog'im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermayman dedi". Biylar bu ovozni eshitib: "Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaratgan sheri siz bo'lsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, xudoga sherligingiz yolg'on. Bor unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik", — deb, tappa tushib, ravzada, turbatning ostida yotdi. Qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: "Boybo'ri, senga xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi. Yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari, senga xudoyim bir qiz berdi. Egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman".

...Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin yetdi. Biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa", — deb bu o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi. Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqti yaqin yetdi. Ne kampirlar kelib, tulkini inlatgan toziday bo'lib,



boybichalarni angrib, o'rtaga olib turibdi. Biylar shu vaqtda ovdan qaytdi. Bu yoqdan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar ziyoda vaqti xush bo'lib, mazgiliga kelib, joy olib, vaqti xushligidan har tarafga xabar yuborib, to'y-tomoshalar qilmoqchi bo'lib, chog'lanib, sozlanib, o'n olti urug' Qo'ng'irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarni yig'dirib, "to'y qilamiz", deb maslahat qildi. O'n olti urug' Qo'ng'irot elining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo'lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og'zidan "to'y qilamiz", deganini eshitib, to'yning asboblarini tuzab, qancha so'qim mollarni so'yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shul alpozda o'n olti urug' qo'ng'irotning bor odami to'yni qilib, hammalari jam bo'lib, qirq kecha-yu qirq Kunduz to'y qilib yotdi. ...To'y tarqaydigan kun bo'ldi. Bir vaqt, shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko'rinib kelaverdi. Xaloyiqlar ham ko'rdi: tarzi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir. O'zga kishilarga u qalandarning holi-ahvoli ma'lum emas. Ravzadagi so'zlagan ovozni eshitgani sababli: "Shohimardon pirim shul kishi bo'lmasa", — deb, biylar o'rmidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon piring etagiga soldi. Shohimardon pir Boybo'rining o'g'lini otini Hakimbek qo'ydi. O'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lini o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizini otini Oybarchin qo'ydi. Ana shunda Shohimardon pir Hakimbekka Oybarchinni unashtirib, beshikkerti qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin. Omin, Oллоhu akbar", — deb, fotihani betiga tortdi. Shohimardon pir turib, jo'nab ketdi, odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lib ketdi. Ana shuytib, biylarning to'ylari ham tarqab ketdi. Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchchovini ham maktabga qo'ydi. Ular maktabda o'qib yurib, yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o'qib, yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'ribiy: "Endi o'g'lim savodi chiqib, mulla

bo'ldi. O'g'limga endi shohlik, sipohlik ilmini o'rgatayin", — deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo'riga taassub qildi. Bul ham Oybarchin qizini maktabdan chiqarib oldi. "Chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin", — dedi.

Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib aytdi: Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpnging biri bo'lib, sanaga o'tdi", — dedi. Oxiri Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpnging biri bo'lib, sanaga o'tib, alplik otini ko'tardi, yetti yoshida Alpomish ot qo'yildi.

### Savol va topshiriqlar:

- I. O'qituvchi berilgan matnni ifodali o'qib beradi.
- II. Matn navbat bilan o'quvchilar tomonidan o'qiladi.
- III. Matn bo'yicha savol va topshiriqlar:
  1. Matndan notanish so'z va iboralarni toping va izohlang.
  2. Matndagi "alp", "biy", "urug'", "xaloyiq", "elatiya" "merosxo'r", "botmon", "yoy" so'zlarining ma'nolarini izohlang va ma'nodoshlarini toping.
  3. Quyida berilgan matnni o'qing va dostonda bir necha o'rinda keltirilgan "o'n olti urug' Qo'ng'iro't eli" jumlasini izohlang.

*Urug'* — bir ajdoddan tarqalib, umumiy bir nom bilan ataluvchi qon-qarindoshlik jamoasi. O'rta Osiyo xalqlari ko'pgina qabila va urug'larga bo'lingan. Masalan, o'zbeklar 92 urug'dan ortiq, turkmanlar 100 dan ortiq, qozoqlar 300 dan ortiq urug'larga bo'linadi. Barlos, qiyot, qushchi, qo'ng'iro't, uyshun, nayman, chimboy, qarluq, kenagas, do'rmon, mang'it, nukuz, uyg'ur, xitoy, toymas, qipchoq, tuman, ming va boshqalar.

4. Topshiriq. Ikkinchi xatboshini husnixat asosida ko'chiring. Parchada keltirilgan "chupronto'y" so'zini quyidagicha tahlil qiling:

- a) "chupronto'y" so'zi qanday so'z?
- b) Qanday tovushlar yordamida hosil bo'lgan?
- c) So'zdagi *u*, *o*, *o'* unli tovushlarini tilning vertikal harakatiga ko'ra, tilning gorizontaal harakatiga ko'ra va lablarning ishtirokiga ko'ra tasnif qiling.
- d) Til oldi undoshlarini aniqlang va tasnif qiling.
- e) Ushbu so'z necha bo'g'indan iborat va qaysi bo'gin turlari qo'llangan?
- f) So'zning sinonimlarini toping va ushbu to'yni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan marosimlar haqida gapirib bering.
- g) To'y bilan bo'g'liq bo'lgan quyidagi maqollarni davom ettiring:  
To'y ginasiz bo'lmas.  
To'y siltovi bilan to'n bitar.  
To'y -- to'nliniki.  
To'yga borsang, burun bor,  
Burun borsang, o'rin bor.  
To'yga borsang, to'yib bor,  
Yomonliging qo'yib bor.  
To'yga borsang, to'yib bor,  
To'y to'ningni kiyib bor...

5. Topshiriq. "Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyga yetti. Ikkovi qildi maslahatti". Matnni fonetik tahlil qiling:

- a) "chechib", "mindi", bedov so'zlarining unli va undosh tovushlarini tahlil qiling.
- b) Bo'g'inlar turlari bo'yicha tahlil qiling.
- c) Matndan tovush o'zgarishlari bilan bog'liq so'zlarni topib, asos va qo'shimchalarga ajrating.

6. "...Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin yetdi. Biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir

*nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa", — deb bu o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi"* berilgan parchadan harfiy birikmalar ishtirok etgan so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

7. Berilgan parchadan *ng* harfiy birikmasi ishtirok etgan so'zlarni toping va daftaringizga ko'chiring.
8. Berilgan gaplarni o'qing. Avval burun tovushlari ishtirok etgan so'zlarni toping va daftaringizga ko'chiring. Burun tovushlarining tagiga chizing.

*"Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, xudoning yaratgan sheri siz bo'lsangiz. Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, xudoga sherlingingiz yolg'on. Bor unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik"*.

9. Quyidagi gaplarni daftaringizga ko'chiring va harfiy birikmalarni topib, tagiga chizing.

*"Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi"*.

10. Topshiriq. *"O'g'linga endi shohlik, sipohlik ilmini o'rgatayin"*. Berilgan gapni quyidagicha fonetik tahlil qiling:

- 1) Gapda nechta harf va tovush bor?
- 2) Nechta harfiy birikma qo'llangan?
- 3) Leksik ma'no urg'usining o'rnini belgilang.
- 4) Unlilarni tahlil qiling:
  - a) Tilning ko'tarilishiga ko'ra;
  - b) Lab ishtirokiga ko'ra;
  - c) Tilning gorizontol holatiga ko'ra.
- 5) Undoshlarni tahlil qiling:
  - a) Hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
  - b) Paydo bo'lish usuliga ko'ra;
  - c) Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra.

6) Bo'g'inlar miqdori va turini belgilang.

7) Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni aniqlang.

11. *Topshiriq*. Matndagi tovush tushishi, ortishi va almashishi bilan bog'liq so'zlarni daftaringizga uch ustunga bo'ling hamda asos va qo'shimchalarga ajrating.

*Namuna*: Tovush tushishi      Tovush ortirilishi      Tovush almashishi  
o'g'li-o'g'il+i      shunda-shu+da      oyog'ini-oyoq+i+ni  
ko'ngli-ko'ngil+i      qattiq-qot+iq...

12. Matnda qo'llanilgan atoqli otlarni topib, daftaringizga yozing.

13. "*Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi*". Ushbu qo'shma gapning turini toping va vergul qo'yilish sababini izohlang.

14. "*Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa*", — deb bu o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi" gapini qo'shma gap turlari bo'yicha tahlil qiling va bog'lovchi vositalarni tagiga chizing.

15. "*Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi*" jumlasini sharhlang.

16. "*Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi*" jumlasini izohlang.

17. Matn mazmunini qisqacha gapirib bering.

18. Uygaz vazifa. Dostondan parcha yod oling.

## IKKINCHI DARS

### “Alpomish” dostonidan parchaning leksik-frazeologik tahlili

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o‘qib o‘tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi. Boybo‘ribiy shunda o‘g‘li Alpomishdan: “Kishi nimadan baxil bo‘ladi, nimadan saxiy bo‘ladi?” — deb so‘radi. Shunda o‘g‘li turib aytdi: “Vaqti-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joy bor turib, joy yo‘q, deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqti-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo o‘qib o‘tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o‘tganda, chap oyog‘ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqiga duo qilmay o‘tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.

Bul so‘zni Boybo‘ribiy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: “Men o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elining ham boyi bo‘lsam, ham shoyi bo‘lsam, men kimga zakot beraman. Mening davlatimda yolg‘iz inim Boysari baxillikka chiqib ketmasin”, — deb o‘z ko‘nglida: “Boysaribiy ukam menga zakot berishi kerak ekan”, — deb o‘yladi. O‘ylab: “Boysariga boringlar, Boysari o‘z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin. Zakot o‘rniga o‘tar-da, Boysari baxil bo‘lib, baxillikka chiqib ketmasin”, — deb o‘n to‘rt mahramni buyurdi.

Boysaribiy o‘n ming uyli qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borib, Ko‘kqamish ko‘lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib, yaylovda joylab yotib edi. O‘n ming uyli qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, shag‘al (*qattiq*) mast bo‘lib, o‘z kayf-safosi bilan o‘tirib edi. Ana shunda otining bo‘yniga tilla qo‘tos (*oltin tumor*) taqilgan o‘n to‘rt mahram Boybo‘ridan Boysarini so‘rab borib qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshikka chiqib, mahramlarning otini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo‘l bo‘lsin, qilib savol so‘radi. Mahramlar savolga javob berib aytdi: “Biz akangdan kelgan zakotchi bo‘lamiz, bugun bizlar

sening molingni zakot qilamiz. “Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar”, deb yuborgan”, — dedi. Bu soʻzlarni mahramlardan eshitib, Boysari koʻngliga ogʻir olib, aytdi: “Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot boʻlmagan, endi akamiz oʻgʻilli kishi boʻlib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan boʻlibdi-da”. Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi oʻzining odamlariga buyurdi:

“Ushla, bachchagʻarlarni!” — dedi.

Boyvachchalar mahramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. U yettovining quloq-burnini kesib, oʻzlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otning ustiga tortib boylab, “Mana buni zakot deb aytadi”, — deb Qoʻngʻirot tarafiga haydab yubordi. Shunchalik ishni qilsa ham, Boysaribiyga zakot degan gap nihoyatda oʻtib ketgan ekan: “Endi biz oʻz yurtimizda sigʻindi boʻlib, oʻz akamizga zakot berib yuradigan boʻlsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmadi”, — deb, oʻn ming uyli qoʻngʻirot eliga qarab: “Endigi maslahat nima boʻldi?” — deb turgan ekan:

Oh urganda koʻzdan oqar selob yosh,  
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh,  
Qoʻngʻirot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh!  
Qursin, Hakimbegi mulla boʻlibdi,  
Bezakot mollarni harom bilibdi,  
Qoʻngʻirot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh.  
Dardli qul dardimni kimga yoraman,  
Ayriliq oʻtiga bagʻri poraman,  
Mina1 elda sigʻindi boʻp turaman,  
Oʻz akama qanday zakot beraman?!  
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh!  
Mina elda men ham bekman, toʻraman,  
Oʻz akama qanday zakot beraman?!  
Oʻz akama oʻzim zakot berguncha,  
Qalmoq borib juzʻya berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu soʻzlarni aytdi. Shu turgan xaloyiqlardan hech bir sado chiqmadi. Shu majlisda bir Yartiboy

oqsoqol degan bor edi. Majlisli kun bo'lsa, to'rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, paygabetda yotar edi. To'rdan o'tirgan kattaman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin paygabetdan Yartiboy o'rnidan turib, maslahat shul-da, — deb Boysarining so'ziga javob berib turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysariboyga,  
Osilmaymiz Boybo'rining doriga,  
Biring — aka, biring — uka, Boysari,  
Maslahatni, shohim, o'zing bilasan.

...Biz bilmaymiz Boybo'rining ishini,

Maslahatga yig'ib shuncha kishini,

Kim maslahat bersa, kesar boshini.

Maslahat bermaymiz Boysaribiyga,

Osilmaymiz Boybo'rining doriga.

Boysaribiy Yartiboydan bu so'zni eshitib, tag'i o'zi bu turgan odamlarga qarab, bir so'z dedi:

Quloq soling Boysarining tiliga,

Ko'chib ketay menam Kashal eliga.

Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,

Semurg' qushlar salom berar qoshiga,

Quloq soling Boysari nolishiga,

Qalmoq borib qo'nsam Chilbir dashiga.

Kalma shahodat musulmonning tiliga,

Azarnat bosh berar dinning yo'liga,

Turarim yo'q Boysin-Qo'ng'irotda eliga.

O'z elim deb yana bunda turganicha,

O'z akama o'zim zakot berganicha,

O'z akamdan bunday xo'rlik ko'rganicha,

Qalmoq borib juz'ya bersam bo'lmaymi?

Zakot degan gapni akam chiqarib,

Mening toza ulsizligim bildirdi.

Boysaridan bu so'zni Yartiboy eshitib, Yartiboy ham Boysaribiyga qarab bir so'z dedi:



Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,  
Boshing eson, davlatingni kam dema,  
Sen ketar bo'lsang Qalmoq yurtiga,  
Bul elatni qolar deb ham g'am yema.  
Qayga ko'chsang, bizlar birga boramiz,  
Bolalarni jahongashta qilamiz...

Yartiboy oqsoqolning aytgan gapi o'n ming uyli qo'ng'irot eli katta-kichigining bariga ma'qul tushdi. Hammasi: "Boysari ko'chsa, bizlar ham ko'chib ketayik, Boysari o'lik yerda — o'lik, tirik bo'lsa — tirik; endi Boysin-Qo'ng'irot yurtini Boybo'riga bo'shatib berayik, Boysin-Qo'ng'irot yurtini bir o'zi joylab olsin", — dedi.

O'n olti urug' qo'ng'irot elidan o'n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan eliboylar ayrilib, Boysariga qo'shildi. Bular hammasi boy — qo'yli, tuyali. Molining soni yo'q edi. Bularning ichida moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yining sonini, adadini o'zlari ham bilmas edi. Bir qo'ra, ikki qo'ra, o'n qo'ra deb, sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to'qayda yuribdi, ikki uyur falon to'qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini o'tkazar edi. Boysariboyning yilqisining soni shul edi: to'qson to'qay yilqisi bor edi. To'qson to'qay degani — yilqisi har yerlarda: to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoyilib yurar edi. To'qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysariboyning to'qson to'qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini hech bilmas edi.

...O'n ming uyli qo'ng'irot talato'p bo'lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, "Ha!" — deb ko'cha berdi. Hammasi birdan ko'chib, o'n ming uyli el Boybo'ridan araz urib, ...Boysari bilan birga ko'chib jo'nay berdi. Ayollarga ham yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar ham otlarni minib, chog'lanib, jo'namoqchi bo'lib, Barchinoyga, enasiga qarab turdi. Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo'natmoqchi bo'lib, Barchinoy uchun to'riq yo'rg'a otni tabladan olib kelib, ustiga mayin, toza, mu'oyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib keldi. Ana shunda enasining

bul otni yetaklab olib kelganini ko'rib, Barchinoy shunday qarasa, o'n ming uyli qo'ng'iroq elining hammasi ko'chib talato'p bo'lib, shovqin qilib borayotibdi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o'qing.
2. Notanish so'zlarni toping va izohlang.  
*Namuna:* tabla – ot bog'lanadigan joy, otxona; lo'k – yuk tashiydigan tuya; norcha – yosh erkak tuya; bel – dovon; qaba – tartibsiz, o'zgaruvchan.
3. Ikkinchi xatboshini husnixat bilan ko'chiring.
4. *Topshiriq.* Matnda qo'llanilgan shevaga xos so'zlarni toping va ikki ustunda adabiy til varianti bilan yozing.

*Namuna:* tag'i                      yana  
                    kattakanining              katta akaning  
                    chechib                      yechinib...

5. Berilgan parchadan iboralarni toping va daftaringizga husnixat bilan ko'chiring.
6. "zakot", "mahram", "eliboy", "qo'ra" so'zlarini sharhlang va ma'nodoshlarini keltiring.


*Namuna:* Zakot (arab. – tozalanish, sadaqa berish) – mol-mulk va daromadidan beriladigan sadaqa, xayr-ehson. Islomning besh asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot beruvchi kishining mablag'i o'zi va qaramog'idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lishi lozim. Zakotning asl hikmati faqir va muhtojlarning hojatini chiqarmoqdir.

7. *Topshiriq.* Quyida berilgan gaplardagi tagiga chizilgan so'zlarni leksik tahlil qiling.

*Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan.*

*Leksik tahlil:*

- a) So'zning o'z yoki o'zlashgan qatlamga xosligini aniqlang;
- b) So'zning o'z yoki ko'chma ma'nosini aniqlang;



- c) So'zning bir yoki ko'p ma'nolik xususiyatini aniqlang;
- d) So'zning omonimlik, sinonimlik, antonimlik va paronimlik xususiyatlarini aniqlang;
- e) So'zning qaysi uslubga xosligi belgilang.

8. *Topshiriq.* Quyida berilgan matndagi iboralarni toping va frazeologik tahlil qiling.

“Biz akangdan kelgan zakotchi bo‘lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. “Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar”, deb yuborgan”, — dedi. Bu so‘zlarni mahramlardan eshitib, Boysari ko‘ngliga og‘ir olib, aytdi: “Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo‘lmagan, endi akamiz o‘g‘illi kishi bo‘lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo‘libdi-da”. Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldidagi o‘zining odamlariga buyurdi:  
 “Ushla, bachchag‘arlarni!” — dedi.

Frazeologik tahlil:

- a) Matndan frazeologik birliklar ajratib ko‘rsating.
  - b) Iboralarning frazeologik ma‘nosi va uslubiy bo‘yog‘ini aniqlang.
  - c) Frazeologizmlarning omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatlari aniqlang.
9. Matndagi antonim so‘zlarni ajrating.  
*Namuna:* baxil-saxiy, ...

10. Quyidagi parchada qo‘llanilgan ko‘chma ma’noli so‘zlarni toping:

*Dardli qul dardimni kimga yoraman,  
 Ayрилиq o‘tiga bag‘ri poraman,  
 Mina elda sig‘indi bo‘p turaman,  
 O‘z akama qanday zakot beraman?!*

11. *Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,*

*Boshing eson, davlatingni kam dema,  
 Sen ketar bo‘lsang Qalmoq yurtiga,  
 Bul elatni qolar deb ham g‘am yema.*

*Qayga ko‘chsang, bizlar birga boramiz,*

*Bolai arni jahongashta qilamiz... Jumllarining ma‘nosini izohlang.*

12. Dost onda keltirilgan epik qoliplar haqida fikr yuriting.

Epik qoliplar – dostonlarda an’anaviy uslubga xos belgilardan biri — dostondan dostonga ko‘chib yuruvchi, tayyor, qolip holiga kelib qolgan misralar, ikkiliklar, ifodalar – doimiy uslubiy shakllar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan: ”Dam shu damdir o‘zga damni dam dema”, ”Kokillarim eshilgandir tol-tol”, ”Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘ldimi, so‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ndimi”, ”Qiyg‘ir degan qush o‘ltirar qiyada”, ”Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi, botirni ingratar nayza yarasi”, ”Uchqur eding qanotingdan qayrilding, yugrug bo‘lsang tuyog‘ingdan toyrilding”, ”Oshiqning fahmidir qorong‘i kecha”, ”Yomg‘ir yog‘sa, halqob yerlar loylansin”, ”Bahorda ochilgan bog‘ning gulisan”, ”Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha”.

13. Aka-uka biylarning to‘yda izza qilinishi sababini izohlang. izza bo‘lgan biylar qanday holatga tushdilar?

14. Zakot voqeasi tasviriga tayanib, Boybo‘ri bilan Boysari munosabatlarini izohlang. Bu aka-ukalarning xarakteri va ichki dunyosini qanday baholaysiz?

15. Boysarining zakotni noto‘g‘ri tushunishi sababini sharhlang.

16. Yartiboy obrazi sizda qanday taassurot qoldirdi?

17. Doston tasviriga tayanib, eliboy qo‘ng‘irotlarning boyligi haqida qanday tasavvurga ega bo‘ldingiz?

18. O‘z yurtidan Qalmoqqa ko‘chib borayotgan Barchin, umuman, barcha eliboylarning kayfiyati, kechinmalariga diqqat qiling.

19. Doston avvalida berilgan Dobonbiyning avlod shajarasini qaytib o‘qing, uni chizma shaklida ifodalang. Kattalar ko‘magida o‘zingiz mansub bo‘lgan ajdodlaringiz shajarasini tuzishga harakat qiling.

20. Uyga vazifa. Dostondan parcha yod oling.

## UCHINCHI DARS

### “Alpomish” dostonidan parchaning morfologik tahlili

*Qo'ng'irotlarning Boysindan Qalmoqqa ko'chib borganlariga yetti yil bo'lganda, Oybarchin bo'y yetib, suluv qizga aylanadi. Qizning ta'rifini Surxayil kampirdan eshitgan qalmoq alplari unga og'iz solishadi.*

...Toychi viloyatida, Qalmoq muzofotida bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo'r kampir edi, bu kampirning yetti o'g'li bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko'kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko'kaman der edi, Ko'kqashqa der edi, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo'shquloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tirlashgani qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni olib kelib, Kashal g'oridan joy berib, bularni To'qayistonda boqib yotar edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp. Har qaysisi to'qson botmon temirdan sovut kiygan, har kuniga to'qson shirbozning etini tatil qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'p zo'r polvonlar. Boysarining qizi Barchinni bular ko'rgani yo'q. Shul vaqtlarda Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yag'rini o'n besh qarich keladi. Bu ham alp. Orqavaron eshitib, shu musofir boylarda bir qiz bor emish, deb bular ham o'zavonda maslahat qiladi. Goh biri olmoqchi bo'ladi, goh bari olmoqchi bo'ladi, goh hammasi o'rtada xotimli bo'lib qolmoqchi bo'ladi. Necha vaqtlar ko'rmasi shu maslahatni qilib yurdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: “Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas. Yuringlar, to'qsonimiz ham boraylik. O'zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik. O'rtada javlik xotimli bo'lib qolaylik deb, javlik otlandi. Otini minib, Kashal g'oridan jo'nab, To'qayistonni oralab, Chilbir cho'liga chiqib, ko'p elga qarab, Boysarinikini so'rab, alplar borib qoldi. Hammasi Boysari uyining tevaragida jam bo'ldi. Alplar to'planib turdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh: “Kelganboy!” — deb chaqirdi. Boysari uyda o'tirib edi: “Labbay”, — deb uyidan chiqdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: “Kelganboy, sening bir qizing bor ekan. Qani, birimizga

berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi yo barimiz olaylikmi? Shu soʻzga nima javob aytasan?” Bu soʻzni eshitib, Boysari nima javob aytarini bilmay, xayoli qochib, nashʼasi uchib, oʻylanib: “Hoy alplar, ertan choshkagachayin muhlat beringizlar. Ertan choshkada aylanib kelinglar. Yo biringizga berayik, yo baringizga berayik, biz bir oʻylashib koʻrayik”, — dedi. Ertan choshkagachayin muhlat berib, alplar qaytdi.

...Endi Boysari semiz qoʻylarni soʻyib, oʻn ming uyli qoʻngʻirot elining odamman deganini jiyib, shoʻrvasiga toʻyib, goʻshtini korsonga sop, oldiga opkep qoʻyib: “Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zoʻrga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz?” — deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat soʻrab turgan ekan:

Oh tortganda koʻzdan oqar selob yosh,  
Barchinoyim boʻy yetgandir qalamqosh.  
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh,  
Alplar kelsa nima javob beraman?!  
Tong otganCHA muhlat olib turaman,  
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!  
Yuragim toʻlgandir diydai gʻamda,  
Barchinoyini oʻz tengiga qoʻshmasam,  
Mahshar kuni Barchin qoʻli yoqamda.

Bu soʻzni eshitib turgan xaloyiqlardan hech sado chiqmadi. Bir Yartiboy oqsoqol degani bor edi. Boysariga qarab, Yartiboy bir soʻz deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan soʻzimdi,  
Bu ellarga boshlab kelgan oʻzingdi.  
Tortinmay beraber endi qizingdi,  
Hazil bilma, mening aytgan soʻzimdi.  
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,  
Mina elga toza erkin boʻlamiz.  
Bolalarni togʻa-jivan qilamiz...

Bu soʻzni Yartiboydan eshitib, Boysarining koʻngli buzilib, bu ham bir soʻz deb turgan ekan:

...Yuragimda koʻpdir alamli dardlar,

Mening qizim — sening singling, nomardlar.

Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,

Suyagimni yongan o'tga solasan...

Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar ekan deb, Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so'zlarini eshitib, otasining ko'ngli buzilganini bilib, Barchin ham bir so'z deb turgan ekan:

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,

Maslahat berdi-ku qavm-u qardoshing,

Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim,

Eshitmagin qarindoshlar so'zini,

Qarindoshlar bera qolsin qizini!

Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi,

Diyda giryon bo'lib bag'rim ezildi.

Xafa qilma, ota, menday qizingdi,

Qo'ya ber alplarga mening o'zimdi.

Bul so'zni Barchindan eshitib, o'n ming uyli qo'ng'irotdan hazar qildi:

— “Bu ham o'zboshimcha juvormak, alplarga baland-past gapirar, buning kasofatiga hammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob bergich bo'lsa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob bersin”, — dedi. O'n ming uyli qo'ng'irotdan chiqarib, Barchinning o'tovini ko'tarib, ho', anaday ovloq tepaning boshiga tikib qo'ydi. Bul o'tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o'tirdi. Kunning burni bilan ...to'qson alp yig'ilib kep turibdi: “Qani, Kelganboy, maslahatni qayerga qo'yding? Birimizga bermoqchi bo'ldingmi, barimizga bermoqchi bo'ldingmi?” Boysari turib aytdi: “Biz maslahat qip, yil ag'darib ko'rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o'n to'rtga chiqqan ekan. Biz o'zbekning rasmi shunday bo'ladi: qiz o'n to'rtga chiqqan so'ng o'z ixtiyori o'zida qoladi. Bizning aytganimizga ko'nmay, tepaning boshiga o'tovini tikib o'tiribdi. O'ziga boringizlar, o'zidan so'rangizlar”. Shunda qalmoqlar do'g'ilib, Barchinning ustiga qarab bora berdi. To'qson alpnig zo'ri Ko'kaldosh: “Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt”. — dedi. Barchin bir so'z deb turgan ekan:

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,

Meni olar kelmas sening qo'lingnan.

Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo'lingnan,  
Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar.  
Mening to'ram bilsang, Boysinning xoni,  
Unga qurbon menday oyimning joni,  
Oti Hakimbekdir elda davroni,  
Ko'p aylanma bunda, qalmoq, bema'ni.  
Xabar etsa, alp Alpomish kelmaymi?  
Qaimoqlarga qiyomat kun bo'lmaymi?  
Armon bilan senday alplar o'lmaymi?  
Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmaymi?!

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alp turib aytdi: "Bu o'zbekning qizining dami baland ekan. Ko'kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa!" Ko'kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo'rqib, uyning to'rida to'planib turgan. Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Ko'kaman alp Barchinning burumidan ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin o'zini o'ng'arib qo'lini uzatdi. Bir qo'li Ko'kamanning yoqasiga yetdi, bir qo'li bilan belbog'idan tutdi. "Yo, Shohimardon pirim!", — deb ko'rib, chalqaramon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'ydi. Og'zi-burnidan dirak-dirak qon ketdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: Ko'kamanga qaranglar, bu ko'rinmay, bu yoqqa chiqmadi. O'zbekning qizi bilan aylanishib qoldimi? Shunday kelib birovi ot ustidan qarab, Ko'kamanni ko'rib: "Ey, o'zbekning qizi Ko'kamanni bosib o'ldirib qo'yibdi", — dedi. Bu so'zni eshitib, bir kam to'qson alp otdan tashlay berdi. Barchin alplarning achchiq bilan otdan tushganini bilib, qarab ko'rdi. Alplarning zo'ri Ko'kaldosh ekanini bildi: zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor. Boshidagi sarjig'ani ko'rib, alplarning zo'ri ekanini bilib, undan olti oyga muhlat so'rab, bir so'z deb turgan ekan:

Saman o'tli, sarjig'ali bek yigit,  
Bir oltoyga sizdan muhlat so'rayin.  
Qo'ng'iro't elga arza berib ko'rayin,  
Oltoygacha men yo'liga qarayin,  
Kelsa kelar qo'ng'iro't eldan Alpomish,



Kelmasa, men taqdirimdan ko'rayin.  
...Olmadayin so'lgan gulday tarzim bor,  
Mushtiparman, sizga aytar arzim bor.  
...Muhlat so'rab turgan menday gajakdor,  
Oltoy muhlat bergin, davlatli shunqor.

Bu gap endi Ko'kaldoshga xush kelar... "Bizda ko'ngli bor ekan",  
— deb Ko'kaldosh alp vaqti xush bo'lib: "Alplarning ichida meni  
xohlaganday bo'ldi, balki mening zo'rligimni ham bildi, bizga ko'ngil  
qildi", — deb, — "Bor, olti oy muhlat!" — deb yubordi.

...Barchin o'n ming uyli qo'ng'irotning yigitidan o'n yigitni saylab  
oldi. Otasining to'qson to'qay yilqisidan o'n otni saylab oldi. Otlarni  
sovutib, tayyor qildi. Shunday arza yozdi Barchin: "Oltoychilik yo'lga  
keldim, qalmoqning eliga keldim. Zo'r yovning qo'lida qoldim. Olti  
oyga muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa,  
javobimni bersin". Arzani o'n boybachchaga topshirdi. Otlarni egarlab,  
choqqlab, yaxshi bor deb, duo qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilgan to'lgan oy,  
Savashli kun tortiladi parli yoy.  
Bandam desin, rahm aylasin bir Xudoy,  
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.  
Borsang, salom o'ynab-o'sgan ellara,  
Ko'kqamishday mazgil joyim, cho'llara.  
Qalmoqlar yig'latdi menday sanamdi,  
Yuragimga to'lgan dog'-u alamdi.  
Albatta, so'ranglar maktab jo'ramdi.  
Mug'oyib so'z aytar menday mushtipar,  
Kecha-kunduz shabgir torting, xizmatkor,  
Jilovdoring bo'lsin imom, chiltonlar.  
...So'z aytar sizlarga mendayin sanam,  
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,  
Qalmoqning zulmidan yig'ladi enam.  
Sen borib ko'rarsan qo'ng'irotni elimdi,  
Boshimdan ko'tarsin qayg'u zulmimdi...

### Savol va topshiriqlar:

1. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
2. Notanish so'zlarni toping va izohlang.  
*Namuna: javlik – hamma, yoppa; jiyib – yig'ib, to'plab; do'g'ilib - yig'ilib, to'dalashib; burumi – soch o'rimi; shabgir tortish – tinmaslik, dam olmaslik; shobir – xabar, ovoza, belgi; narmoda – erkak-urg'ochiligi noma'lum odam, xunasa, gey.*
3. Uchinchi xatboshini husnixat bilan ko'chiring va fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarni topib tagiga chizing.
4. *Topshiriq. ...Otlar qorsoqday gotgan, to'qson kecha-kunduz yo'l tortgan, balki choparlar bilan bila bitgan.* Berilgan gapni morfologik tahlil qiling.

#### *Morfologik tahlil shartlari:*

1. Berilgan so'zning turkumini aniqlang;
2. Mustaqil so'z turkumi;
3. Yordamchi so'z turkumi;
4. Alohida olingan so'zlar turkumi;
5. Har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tahlil qiling.
5. Matnda uchraydigan shevaga xos so'zlarni ajrating va daftaringizga ko'chiring.
6. *“Bul arzani hech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib tashladi”.* Tagiga chizilgan so'zni quyidagicha tahlil qiling:
  1. Fe'lni ajrating.
  2. Nimani atab kelishiga ko'ra fe'lning qaysi turiga kirishini aniqlang.
  3. O'timli yoki o'timsiz fe'l ekanligini belgilang.
  4. Nisbat shaklini aniqlang.
  5. Bo'lishli-bo'lishsiz fe'lni guruhlang.
  6. Yordamchi, ko'makchi fe'lni aniqlang.
  7. Vazifa shaklini aniqlang.
  8. Zamon shaklini belgilang.
  9. Mayl va shaxs-son shaklini aniqlang.

7. "Narmoda" so'zini morfologik tahlil qiling. Nima uchun Barchin Alpomishni "narmoda" deb ataydi?
8. *Topshiriq.* "Bu o'zbekning qizining dami baland ekan. Ko'kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa!". Matni kuzatib, matndagi otlarni quyidagicha tahlil qiling:
  1. Narsa yoki shaxs bildiruvchi so'zni toping.
  2. Aniqlangan so'zni atoqli va turdosh otlarga ajrating.
  3. Turdosh otni aniq va mavhum, sanaladigan va sanalmas ekanligini aniqlang.
  4. Atoqli otni shaxs, narsa, o'rin-joy nomi ekanligi belgilang.
  5. Tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.
  6. Tub yoki yasamaligini belgilang.
9. *Topshiriq.* Qaldirg'och o'yming akasiga murojaatida berilgan sifatlarni toping va quyidagicha tahlil qiling:
  - a) Gaplar tarkibidagi sifatlarni kuzating.
  - b) Sifatlarning grammatik ma'no turini aniqlang.
  - c) Sifatning lug'aviy ma'no turini aniqlang.
  - d) Oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi va ozaytirma sifatni ajrating.
  - e) Sifatning tuzilish turini aniqlang.
  - f) Matnda qo'llangan sifatning ma'nodosh, shakldosh, vazifadosh va zidiari qatorini tuzing.
10. Matnda qo'llanilgan hisob so'zlarini toping va izohlang.
11. *Topshiriq.* "Bir qo'li Ko'kamanning yoqasiga yetdi, bir qo'li bilan belbog'idan tutdi. "Yo, Shohimardon pirim!", — deb ko'rib, chalqaramon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'ydi. Og'zi-burnidan dirak-dirak qon ketdi". Ushbu parchada berilgan yordamchi so'zlarni toping va quyidagicha tahlil qiling:
  - a) Yordamchi so'zni aniqlang.
  - b) Yordamchilarning ma'no va vazifasiga ko'ra turi.
  - c) Qo'llanilishiga ko'ra turi.
  - d) Sof yoki vazifadosh ekanligini aniqlang.
12. Matni morfologik tahlil qiling:

- a) "Bu gap endi Ko'kaldoshga xush kelar..." gapidagi tagiga chizilgan so'zni turkumini aniqlang va tahlil qiling.
- b) "Bog'onog'i tush ko'rgan Qorajon qalmoq nomoz vaqti o'rnidan kalima aytib turdi" gapidagi ajratib ko'rsatilgan so'zni turkumi bo'yicha tahlil qiling.
- c) "Ko'rinmaydi qalmoqlarning gorasi, Yaqin qoldi Boboxonning orasi". Berilgan parchadagi tagiga chizilgan so'zni turkumini toping va tahlil qiling.
13. Oybarchin nutqida qo'llanilgan yordamchi so'z turkumlarini toping va daftaringizga uch ustunga bo'lib ko'chiring.
14. *Topshiriq. "Oltoychilik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim. Zo'r yovning qo'lida goldim. Olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin".* Ushbu parchadagi olmosh so'z turkumiga oid so'zni toping va quyidagicha tahlil qiling:
- a) Olmoshning ma'noviy guruhini aniqlang.
- b) Tuzilishiga ko'ra turini aniqlang.
- c) Olmosh qatnashgan so'z birikmasini ajratib yozing.
- d) Olmoshning gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsating.
- e) Matnda qo'llangan olmoshning ma'nodosh, uyadosh, shakldoshlari qatorini toping.
15. Quyida berilgan she'riy parchadagi ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni toping va ma'no ko'chish usulini aniqlang.
- Kechani munavvar qilgan to'lgan oy,  
Savashli kun tortiladi parli yoy.  
Bandam desin, rahm aylasin bir Xudoy,  
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.  
Borsang, salom o'ynab-o'sgan ellara,  
Ko'kqamishday mazgil joyim, cho'llara.  
Qalmoqlar yig'latdi menday sanamdi,  
Yuragimga to'lgan dog'-u alamdi.*
16. Kampir obrazi o'zbek xalq og'zaki ijodida ko'pincha *yalmog'iz, jodugar, alvasti, ajina, sehrGAR kampir, shum kampir*

- atamalari bilan yuritiladi. Alpomish dostonidagi Surxayil kampir qanday xarakterga ega?
17. Qalmoq alplarining Barchinga xaridor bo'lib Boysarining uyiga borishlari, o'zlarini tutishlarida ularning qanday jihatlari namoyon bo'ladi?
  18. *"Qalmoqlarga qizim qanday beraman?! Yuragim to'lgandir diydai g'amda, Barchinoyni o'z tengiga qo'shmasam, Mahshar kuni Barchin qo'li yoqamda"* degan ota holatini izohlang.
  19. Qalmoqlar qaysi jihatdan Barchinoyga teng emas edi?
  20. Boysarining: *"Mening qizim — sening singling, nomardilar"* so'zlarini aytgandagi holatini sharhlang.
  21. Yartiboyning maslahatiga munosabat bildiring va uning asar boshidagi maslahatlari bilan solishtiring.
  22. *"... Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim, Eshitmagin qarindoshlar so'zini, Qarindoshlar bera qolsin qizini!"* so'zlari Barchinoy tabiatining qaysi jihatlari bildiradi?
  23. Barchinoyning oqilaligi, jasurligi namoyon bo'lgan o'rinlarni topib, izohlang.
  24. Barchinoy nutqiga mansub bo'lgan she'riy parchani yod oling.

## TO'RTINCHI DARS

### “Alpomish” dostonidan parchaning sintaktik tahlili

*Boybo'ri o'g'li Alpomishni qalmoq yurtiga yuborgisi kelmaydi.  
O'g'lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikni yilqichi  
Qultoyga tayinlab qo'yadi.*

Qultoyga aytdi: “Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi. Bul ish yomon bo'пти, lekin o'zi zo'r-ku, zo'r bo'lsa ham juda qo'rqqoq, sal do'qdan ham qo'rqadi. Urib-so'kib, yilqi bermay, do'qlab qaytarib yuborgin”. ...Bul gapdan bexabar orqalanib Alpomish boryapti. Qultoyga yaqin yetdi. Qultoy Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi tayog'ini qo'lga ushlab, juda shamiyon qaytarib, do'qlab, bu so'zni aytib, Alpomishga qarab aytib turgan so'zi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,  
Oblo sening aql-u hushing oldimi,  
Boybo'ri o'lib, moli senga qoldimi?

Alpomish buni eshitib, Qultoyga bir so'z deb turgan ekan:

Bobo, sir-u holim ma'lum qilayin,  
Sendan endi bir bedovni so'rayin,  
...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,  
Ajrati b kelayin biyning qizini.  
Men sachratib borsam minib bir tulpor,  
O'zima yor, bobo, senga xizmatkor...

Bu so'zni eshitib, Qultoy ham bir so'z deb turgan ekan:

...Tur yo'qol, enag'ar, tayin o'lasan,  
Bu yerda serrayib, nima qilasan?  
...Bu so'zdi aytib mardning aqlin oladi,  
Uch-to'rt tayoq qayqaytirib soladi.  
Yegan tayoqlaring — yilqi bo'ladi!  
Hakimbekning ko'zi alanglab qoladi,  
Shunday do'qlab Qultoy qildi siyosat,  
Tayoq yegan bekda qolmadi toqat,  
O'ldirar qaytmasam dedi vallamat.  
...Bul bobosi ko'p siyosat qiladi.

Juda aylantirib, ancha uradi,  
Bobom urdi dedi, qaytib jo'nadi,  
Ko'tarinib qaytib ketdi yo'liga...

Alpomish Qultoyning qoshidan qaytdi, ko'tarinib borayotib edi. "Bulay-shulay deb Qultoy do'qlasa, akam qaytip kep qo'yardan ham toymas, o'z ko'zimiz bilan jo'natib yuboraylik", — deb qirquin kanizlari bilan Qaldirg'ochoyim kelayotib edi, oldidan chiqib qoldi. Alpomish yerga qarab borayotib edi. Shunday boshini ko'tarib qaradi: qarshi manglayiga kanizlari bilan singlisi kep qopti. Qizlarni ko'rib, uyalgan kishi bo'lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo'l ustida yonboshlab yotdi. Qaldirg'ochoyim ustiga borib, bu so'zni aytib turibdi:

Aytgan so'zning poyimini bilsang-chi,  
Ko'z kuyugi, ey narmoda, o'lsang-chi.  
Kecha-kunduz Haqqa fig'on etmagan,  
O'z moliga o'zin vaji o'tmagan.  
...Qultoyning do'qidan qaytib kelasan,  
...Sen ham odamman deb qanday yurasan?..  
Bilsang, Qultoy – yilqiboqar xizmatkor,  
Ko'p do'qlabdi ahvolidan bexabar.  
Sen so'rasang, ular senga javobgar,  
Bu yurishing, bek aka, qanday bo'lar?  
Odam ko'rsa, yurishingga kuladi,  
Bu yurishing elga gap bo'p qoladi...  
Bu so'zlarni aytdi shunday mushtipar,  
O'rnidan turgandir davlatli shunqor.  
Egar-abzalini yig'ib ushladi,  
Shul zamon egniga qoqib tashladi,  
Qultoyqulga tag'in yo'lni boshladi.  
Yo'lga tushib, Qultoyqulga qaradi,  
Urgan yerda hali Qultoy turadi.  
Qaytay desa, bul singlisi keladi,  
Tag'i urarmikin deb, ketib boradi.  
Bu qizlar bilmaydi Hakimbek o'yin,  
Hakimbek ilgari singlisi keyin...

Qultoyning qoshiga yaqinlashib bordi. Singlisi kanizlari bilan ancha keyin qoldi. Qultoy ham Alpomishni ko'rdi. Bog'onog'i urgan yerda Qultoy zinkiyib turdi. Yaqinlab bordi. Qultoy tag'i do'qlab, bu so'zni aytib kela berdi:

Bobongning so'zini hazil bilasan,  
Sen g'arbachcha, nega aynalib kelasan.

Sen enag'ar, bildim tayin o'lasan,  
Nimishing bor, tag'i nega kelasan?  
Yana birov yo'lda ko'ngling bo'ldimi?

Tag'i sening tayoq yeging keldimi?  
Siyosat qip Qultoy yaqin keladi.

...Uzalib, Qultoyning belidan tutdi.

Chalqaramon qilib, yerga qo'yibdi,  
Tizzasini ko'krakka qo'yib turibdi.

"Bobo, qani ushlab bergin!"

"Qo'ya ber, o'g'lim, ushlab berayin",

— dedi. "Yo'q, yotgan yeringda ushlab berasan!" — dedi. "Turmasam, qaytib ushlab beraman", — dedi. "Esa meni nimaga buncha urasan?" Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir "qur-hayt" tortdi: to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga yetdi. Hamma yilqilar jam bo'lib turibdi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo'riqni Hakimbekning qo'liga berdi. Hakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi. "Saman soriga tush, yo olapocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush", — deb qo'riqni soldi. Yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi. Ko'nglidagi bo'lmay, otdan ko'ngli to'lmay: "Ko'p nozik uchradi", — deb, bu otni qo'yib yubordi. Yana qo'riqni soldi — tag'i shuning bo'yniga tushdi. "Taqdirdagi shul ekan-da", — deb belbog'ini otning bo'yniga solib, egar-abzalining qoshiga yetaklab kela berdi. Egari-abzalining qoshiga borib, u yoq-bu yog'ini ko'ra berdi. ...Qaldirg'ochoyim ham kanizlari bilan kela berdi. Akasining tarziga qaradi. Akasining ...otdan ko'ngli to'lmay, xafa bo'lib turganini bildi. Otning tizginini akasining qo'lidanolib, sag'risini silab, u yoq-bu yog'iga qarab: "Xafa bo'lma, bu oting, balki tulpor chiqar, yomon dema. Bui oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko'p yerlarni ko'radi,



maqsadini Haqdan topib qoladi”, — deb akasining ko‘nglini ko‘tarib, “Qullu bo‘lsin” qilib, bir so‘z aytib turgan ekan:

O‘zi shunday kelgan ekan chovkar ko‘k,  
Quyruq‘idan berisinda kiri yo‘q,  
Minganlarga bo‘ladakan ko‘ngil to‘q,  
Buni minsang, aka, senga dushman yo‘q.  
...Chibar ot o‘ynatib bundan borasan,  
Buni minsang aka, yo‘lli bo‘lasan.

...Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab, Arpali ko‘lidan otlana berdi. Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinjdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. “Mabodo dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo‘larmi, odam bilmaydi, kerak bo‘p qolarmi”, — deb yoyini egarning qoshiga solib oldi. Qaldirg‘och akasini otlantirib, ot-anjonuni chog‘lab, yaxshi bor deb, bul so‘zniaytib turdi:

Qayda borsang, Shohimardon yor bo‘lsin,  
O‘nikimom, chilton jilovdor bo‘lsin.  
Dushmanlaring ko‘rsa, seni xor bo‘lsin,  
Sog‘ borib, salomat kelgin, bek og‘a.  
Eshitgin, quloq sop aytgan nidoga,  
Ishingni solganman qodir Xudoga,  
Sog‘ borib, salomat kelgin, bek og‘a.  
Xudoyim saqlagay bandani omon,  
G‘arib qulga egam bo‘lgay mehribon.  
Xolsanilla duo qildim bul zamon,  
Sog‘ borib, salomat kelgin, Alpinjon.  
El ko‘chirib, Olatovdan oshirdim,  
Ulug‘lanib, ostonaga bosh urdim,  
Borgin, emikdoshim, Haqqa topshirdim...

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Matnni ifodali o‘qing.

2. "Qayqi", "Shamiyon qaytarib", "Poyim", "Bog'onog'i", "Zinkiyib", "Nimish", "Qo'riqi", "Yo'lli", "O'nikimom", "Chilton" so'zlarining ma'nolarini izohlang.

3. Keltirilgan parchadan shevaga xos so'zlarni toping va adabiy tildagi ifodasi bilan solishtiring.

Namuna: bo'pti-bo'libdi, aytip-aytib, qaytip kep-qaytib kelib, ...

4. "botmon" so'zi qanday so'z?

a) Qanday tovushlar yordamida hosil bo'lgan?

b) So'zdagi o unli tovushini tilning vertikal harakatiga ko'ra, tilning gorizontal harakatiga ko'ra va lablarning ishtirokiga ko'ra tasnif qiling.

c) Til oldi undoshlarini aniqlang va tasnif qiling.

d) Ushbu so'z necha bo'g'indan iborat va qaysi bo'gin turlari qo'llangan?

e) So'zning sinonimlarini toping.

5. *Topshiriq.* Matndagi undalmali gaplarni toping va daftaringizga husnixat asosida ko'chiring. Undalma haqida ma'lumot bering.

6. *Topshiriq.* "Qizlarni ko'rib, uyalgan kishi bo'lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo'l ustida yonboshlab yotdi" gapini so'z birikmalari bo'yicha tahlil qiling.

#### Tahlil tartibi:

1. Gapni birikmaga ajrating.

2. So'zlararo aloqaning erkin yoki turg'unligiga ko'ra birikma turi:

a) barqaror birikma;

b) erkin birikma.

3. Erkin birikmaning fikr yoki tushuncha ifodalashiga ko'ra turi:

a) fikr ifodalovchi (ega+kesim);

b) tushuncha ifodalovchi (so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi).

4. Tushuncha ifodalovchi birikmaning sintaktik aloqaga ko'ra turi:

a) teng aloqa;

b) tobe aloqa.

5. Tobe aloqaning turiga ko'ra:

a) boshqaruv;

b) moslashuv;

c) bitishuv.

6. Bosh so'zning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra turi:

a) otli birikma;

b) fe'lli birikma.

7. Bog'lovchi vositaning turiga ko'ra:

a) grammatik qo'shimcha yordamida bog'langan;

b) yordamchi so'z vositasida bog'langan;

c) so'z tartibi vositasida bog'langan.

7. So'z birikmasining ta'rifini ayting va quyidagi parchani so'z birikmalariga ajrating.

*"...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,*

*Ajratib kelayin biyning qizini.*

*Men sachratib borsam minib bir tulpor,*

*O'zima yor, bobo, senga xizmatkor..."*

8. Gapda so'zlar qanday bog'lanadi? Dostondagi parchadan misollar keltiring.

9. Alpomishning Qultoyga aytgan nutqidagi otli va fe'lli so'z birikmalarini ajrating hamda daftaringizga ikki ustunda yozing.

*Namuna: fe'lli birikma*

*otli birikma*

*bedovni so'rayin*

*sening hushing...*

10. Undalmani ta'rifini ayting. Matndan undalmali gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring.

*Namuna: "Bobo, sir-u holim ma'lum qilayin, Sendan endi bir bedovni so'rayin".*

11. Topshiriq. *"Aytgan so'zning poyimini bilsang-chi, Ko'z kuyugi, ey narmoda, o'lsang-chi. Kecha-kunduz Haqqa fig'on etmagan, O'z moliga o'zin vaji o'tmagan"*. Ushbu gaplardagi undov so'zni aniqlang va quyidagicha tahlil qiling:

a) Undovni topib tagiga chizing.

b) Ma'no guruhini aniqlang.

c) Sintaktik shaklga munosabatini va gapdagi vazifasini aniqlang.

d) Undov bilan kelgan so'zlarda tinish belgisini qo'yilish sababini izohlang.

12. *Topshiriq.* Gapning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering va "Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi" gapini tahlil qiling.

- a) Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi.
- b) Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turi.
- c) Gapning tuzilishiga ko'ra turi.
- d) Qo'shma gapning turi.
- e) Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vosita aniqlanadi.

13. *Topshiriq.* Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering. Matndan misollar topib daftaringizga ko'chiring.

*Namuna:* "Esa meni nimaga buncha urasan?", "Boybo'ri o'lib, moli senga qoldimi?" – *so'roq gap.*

14. Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering va matndan misollar topib daftaringizga ko'chiring.

15. "Qaldirg'ochoyim ham kanizlari bilan kela berdi". Gapning kesimini tahlil qiling:

- a) Kesimni toping.
- b) Kesimning turi: mustaqil kesim yoki nomustaqil kesim.
- c) Kesimning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra turi: ot kesim yoki fe'l kesim.
- d) Kesimning tuzilishiga ko'ra turi: sodda yoki murakkab kesim.

16. "Qayda borsang, Shohimardon yor bo'lsin, O'nikimom, chilton jilovdor bo'lsin". Parchani gap bo'laklariga ajrating. Gap bo'laklari tartibi haqida ma'lumot bering.

17. *Topshiriq.* Parchadan uyushiq bo'laklarni toping va qaysi gap bo'laklari uyushayotganligini ayting.

18. Gapning uyushiq bo'laklari, ajratilgan bo'laklar bo'yicha matndan misollar topib, daftaringizga ko'chiring.

19. Dostonda keltirilgan joy nomlarini toping va izohlang, daftaringizga ko'chiring.

20. Otasining ra'yiga zid bo'lsa-da, akasini xatarli safarga undayotgan Qaldirg'och xatti-harakatlariga munosabat bildiring.

21. Barchin bilan Qaldirg'och obrazlarini solishtiring. Ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni ko'rsating.

22. "Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'ri botmon birinidan bo'lgan parli yoyi bor edi". Ushbu gapni quyidagicha tahlil qiling:

- a) Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi.
- b) Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turi.
- c) Gapning tuzilishiga ko'ra turi.
- d) Gapdagi bosh bo'laklarning ishtirokiga ko'ra turi.

23. *Topshiriq.* Dostondagi qahramonlar nomlari (antroponimlari) haqida ma'lumot bering.

*Namuna:* **Boybo'ri** va **Boysari**larning ismlari etimologiyasi, hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan "boy" ma'nosida emas, balki qadimgi turk tili ma'nosida – "qabila, urug'". Shunday qilib, Boybo'ri (Boy + bo'ri) va Boysari (Boy + sari) qabilaviy bo'lib, so'zma-so'z tarjimasini – "bo'ri" qabilasi boshlig'i, "sari" qabilasi boshlig'i ma'nosini bildiradi. *Surhayl* o'g'illaridan ba'zilarining ismi ham qadimgi totem va astral kultlarning sarqitlaridan xabar beradi. **Ko'kqashqa** (Ko'k+qashqa), **Boyqashqa** (Boy+qashqa) zoomorf antroponim bo'lib, so'zma-so'z "ot qabilasi"dan degan ma'noni anglatadi. **Ko'kaman** (Ko'k+man) – "qo'y qabilasidan" kabi.

24. *Topshiriq.* Dostondagi joy nomlarini tahlil qiling.

*Namuna:* Bosh qahramonlarning tug'ilgan joylari **Boysun** (Boy+sun) "butun qabila" ma'nosiga muvofiq keladi. Bu sujetning dramatik yechimiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Aynan kelishmovchilikdan so'ng Boysari o'z qavmini qalmlar yurtiga boshlab ketgach, butun qabila ikkiga bo'linadi, ular vataniga, ya'ni Boysunga qaytgach, yana bir butungacha aylanadi.

25. Qultoy obraziga ta'rif bering. Qaldirg'ochning Qultoy haqidagi gaplari o'rinlimi? Fikr yuriting.

26. Boybo'ring xatni Alpomishdan yashirishi tog'rimi? Fikr yuriting.

27. Uyga vazifa. Dostondan keltirilgan parchadagi Qaldirg'ochning nutqida keltirilgan she'riy parchani yod oling.

## BESHINCHI DARS

Ertaklar. "Uch o'ga-ini botirlar" ertagi tahlili

*Bolang aqlli bo'lishini istasang,  
ertak o'qib ber. Yanada aqlli  
bo'lishini istasang yana ertak o'qib  
ber.*

*Albert Eynshteyn*

### UCH OG'A-INI BOTIRLAR

*(Ertak)*

Bor ekan, yo'q ekan, bir zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Boy ham, kambag'al ham emas ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan. Uchovi ham o'qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan. To'ng'ichi yigirma bir yoshda, o'rtanchasi o'n sakkiz yoshda, kenjasi o'n olti yoshda ekan.

Otasi bir kuni ularni oldiga chaqirib, har birining peshanasini silab:

– O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdanda keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yarog' ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz. Bundan boshqasini o'zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko'k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo'ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim. Baxtingiz yo'lda, topib olmoq uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing, dunyoni tanimay dunyo kishisi bo'lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr, o'g'illarim, – deb turib ketdi.

Uch og'a-ini safarga otlandi. Yo'lda ular kechasi navbatmanavbat poyloqchilik qilib chiqishga kelishadi. Birinchi kecha To'ng'ich botir o'zlariga hujum qilmoqchi bo'lgan sherni o'ldiradi. Ikkinchi kecha O'rtancha botir ajdarni yengadi. Uchinchi kecha Kenja botir podshoh xazinasiga tushmoqchi bo'lgan o'g'rilarni qirib tashlaydi. Ertasi kuni botirlar shaharga kirib, bir joyga qo'nadi.

Joy egasi bu botirlarni o'rdaga borishga taklif qildi. Bular piyoda asta-sekin o'rdaga bordi. Podshoh bularning musofir ekanligini bilib, alohida bir ziynatlangan uyga kirgizib qo'ydi. Boshqa musofir bo'lmaganidan, ularga juda diqqat-e'tibor bilan qarab, sir olmoqni bir vazirga topshirdi. Vazir aytdi: «Bulardan to'g'ridan to'g'ri so'rasak, ehtimol, aytmalar, o'z hollariga qo'yib, tashqaridan quloq solib turamiz, nima desalar, so'zlaridan sirini topamiz», – dedi. Bu xonada bulardan boshqa hech kim yo'q edi. Bir vaqt dasturxon yozildi, xilma-xil noz-ne'matlar keltirib qo'yildi. Ikkinchi bir xonaning teshigidan podshoh bilan vazir quloq solib jim o'tirishdi. Birozdan keyin uch og'a-ini botirlar o'zaro suhbat qila boshlashdi. To'ng'ich botir dasturxondagi ovqatni ko'rsatib:

– Shu go'sht qo'zi go'shti ekan, biroq shu qo'zi it emib katta bo'lgan, – dedi.

O'rtancha botir aytdi:

– To'g'ri aytasiz, podshoh degani it go'shtidan ham qaytmaydi.

Saralab yemoq faqirning ishi, qo'yni boqib qo'yibdimi? Men ham bir narsaga hayron bo'lib turibman, mana shu shinnidan ham odam isi keladi.

Kenja botir aytdi:

– To'g'ri, podshohlik – qonxo'rlik demakdir. Qon qo'shilgan bo'lsa, ehtimoldan uzoqmasdir. Lekin yomonning qoni bo'lsaku, mayli, begunohning qoni qo'shilgan bo'lmasin. Men ham bir narsaga hayron bo'ldim. Shu nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekan, taxlovchi novvoyning o'g'li ekan.

– To'g'ri bo'lsa kerak, – debdi To'ng'ich botir. – Podshoh bizni bu yerga o'rda voqeasi bilan chaqirgan. Albatta, bizdan savol so'rar, nima deymiz?

– Albatta, yolgʻon soʻzlamaymiz, – debdi Oʻrtancha botir. – Bu voqeaga aralashgan boʻlsak, aytmoq lozim.

Kenja botir:

– Uch kunlik yoʻlda qanday voqealarni koʻrgan boʻlsak, oʻrtaga tashlaydigan vaqt keldi, – dedi.

Toʻngʻich botir birinchi kechada sher bilan olishganini aytib, belidagi tasmasini oʻrtaga olib qoʻydi. Oʻrtancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona uchun tasmani oʻrtaga tashladi. Kenja botir uchinchi kechadagi voqeani aytib, olgan narsalarini oʻrtaga tashladi.

Podshoh bilan vazir sirdan xabardor boʻlishdi. Faqat goʻsht, shinni, non toʻgʻrisidagi gaplarni tekshirib koʻrmoqchi boʻlishdi. Birinchi qoʻychivonni chaqirtirishdi. Podshoh qoʻychivondan soʻradi:

– Toʻgʻrisini ayt, kecha soʻyilgan qoʻzining onasi itmididi?

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, aytaman.

– Oʻtdim, toʻgʻrisini soʻyla!

– Qishning oʻrtasida bir qoʻy tugʻib, oʻzi oʻlib qoldi, shu vaqtda bir katta itim ham tugʻgan edi. Qoʻzichoqqa rahmim keldi. Yetim qoʻzini och qoldirgim kelmadi. Nochor oʻsha itga emizdirib, katta qilgan edim. Boshqa qoʻzi qolmagani uchun oʻshani yuborgandim, – dedi.

Podshoh bogʻbonni chaqirib:

– Toʻgʻrisini ayt, shinniga odam qoni qoʻshilganmi? – dedi.

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan oʻtsangiz, bir voqea boʻlgan edi, aytardim, – dedi.

– Ayt, oʻtdim, – dedi. Bogʻbon:

– Oʻtgan yozda, bogʻdagi uzumzorga har kecha bir odam oʻgʻirlikka tushib, sizga olib qoʻygan eng yaxshi uzumdan oʻgʻirlab olib keta boshladi. Bir kuni agar qoʻlimga tushsa, oʻldirib, shu tokning tagiga koʻmib qoʻyay, deb qasd qildim. Bir kecha poylab yotdim. Yana keldi. Shashpar toʻqmoq bilan boshiga urdim. Boshi pachoq-pachoq boʻlib ketdi. Hech kim bilgani yoʻq. Shu tok tagiga chuqur kovlab koʻmib qoʻydim, kelasi yili tok kuchlanib, chunon hosil qildiki, bargidan ham uzumi koʻp edi. Lekin mazasida ozgina oʻzgarish



paydo bo'ldi. Men uzumdan sizga yubormay, butunicha shinni qilgan edim, – dedi.

Nonni podshoh o'zi taxlagan edi. Bu shohning otasi novvoy edi.

Podshoh haqiqatlar bilinganidan keyin bularning zakovatiga qoyil qolib, botirlarning oldiga kirdi. Salom berib ko'rishdi. Hech bir narsa so'ramay:

– Sizlarning hamma aytganlaringiz to'g'ri bo'lib chiqdi, mening sizlarga muhabbatim ortdi. Botir mehmonlar, ijozat bersangiz, bir arzim bor edi, agar qabul qilsangiz, aytar edim, – dedi.

To'ng'ich botir:

– Aytganlaringiz to'g'ri kelsa, qabul qilarmiz, ayting! – dedi.

Podshoh:

– Mening uchta qizim bor, o'g'lim yo'q. Men ertaga butun shaharni to'yga chaqirib, qirq kun osh berib, qizlarimni sizlarga nikohlab bersam, mening o'g'illarim bo'lib bunda qolsangiz, – dedi.

To'ng'ich botir:

– Xo'p yaxshi aytasiz, lekin bizning ham shartimiz bor. Bizlar podshoh bolasi emasmiz. Otamiz boy ham emas. Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo'l kuchi bilan tarbiya topganmiz. Elimiz bir bo'lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo'lar ekan? – dedi.

Podshoh:

– Men bir iqlimning podshohiman, sizni otangiz qo'l kuchi bilan tarbiya qilib, sizday botirlarning otasi bo'lgan ekan, mendan nima kamligi bor? Haqiqatda, mendan ortiqdir. Tarbiyangiz orqasida jahon podshohlari oshiq bo'lib yig'lab yurgan qizlarning otasi sizga o'z qizlarini yig'lab tutadi, – dedi.

Bular qabul qilishdi. Shaharda qirq kun to'y-tomosha bo'lib, botirlar podshoh qizlariga uylanishdi. Qizlar yo'qotgan tillalariga gavhar qo'shib oldilar. Yaxshi tarbiya orqasidan yigitlar baxt qushini qo'lga kirgizdilar.

Podshoh hamma kuyovidan ham Kenja botirni ko'proq yaxshi ko'rardi. Kunlardan bir kun podshoh bir salqin joyda uxlab yotgan edi, yonidagi ariqdan ilon chiqib, podshohga zahar solmoqchi bo'lib turganda, to'satdan kelib qolgan Kenja botir uni ko'rib, belidan qilichini

sug'urib, chopib, ikki bo'lib tashladi. Yana qilichini qiniga solib turganida podshoh uyg'onib qoldi. Dilida: «Qizimni berganimga qanoat qilmay, meni o'ldirib, podshoh bo'lmoq xayoli bor ekan», – deb shubha qildi. Vazirga chiqib voqeani aytdi. Vazirning botirlarga hasad-advovati bo'lib, qulay paytni kutib yurgan ekan, yaxshi bahona bo'ldi.

Vazir podshohga:

– Shunday bebaho qizlaringizni, mendan bir maslahat so'ramay, yaxshi tarbiya ko'rgan deb, musofirlarga berib qo'ydingiz, endi mana bir uchini sizga ko'rsatdi. Eng yaxshi deb sevgan kuyovingiz sizni o'ldirmoqchi bo'lgan ekan, yana bir kuni boshqacharoq hiyla bilan sizni o'ldirib qo'yar, – dedi.

Podshoh vazirning so'ziga ishonib:

– Zindonga solinsin! – deb buyurdi.

Kenja botirni zindonga solishdi. Kenja botirning qallig'i juda xafa bo'ldi. U botirni nihoyatda yaxshi ko'rardi. Yig'lab-yig'lab kelinchakning yuzlari so'liy boshladi.

Bir kuni qiz otasining oyog'iga boshini qo'yib, yig'lab, qallig'ini afv etishni so'radi. Podshoh qizining yuzidan o'tolmay, Kenja botirni zindondan oldirib keldi. Shunda podshoh Kenja botirga qarab:

– Botir, siz shunday vafosizmisiz? Ko'rmayapsizmi, mening qizim sizga qanday mehribon. Shu qizimni ham rioya qilmay, qay ko'ngil bilan meni o'ldirmoqchi bo'ldingiz? – dedi. Kenja botir podshohga qarab bir hikoya aytdi.

### *HIKOYA*

Qadim zamonda bir podshoh bo'lib, uning yaxshi ko'rgan to'tisi bor ekan. Podshoh to'tisini shunday yaxshi ko'rar ekanki, bir soat ko'rmasa turolmas ekan. To'ti ham podshohga juda mehribon bo'lib, har turli shirin so'zlar aytib, xursand qilar ekan. Bir kuni to'ti podshohdan so'rabdi:

– Mening Hindiston degan yurtda ota-onam, aka-ukam, opasingillarim bor, falakning gardishi bilan sizning dargohingizga

kelib qolgan edim. Shukurlar bo'lsin, aql-idrokim, yaxshi xulqim, shirin so'zim orqasidan sizday podshohga hamsuhbat bo'ldim. Endi

iltimosim shuki, meni qafasdan bo'shatib, yigirma kunga javob bersangiz, olti kun borishim, olti kun kelishimga ketsa, bir hafta, otanam, aka-ukalarimni ko'rib, diydoriga to'ymog'im uchun yetar.

Podshoh:

– Yo'q, senga javob bersam, yana kelmay qolsang, men sog'inaman, juda xafa bo'laman, – debdi.

To'ti:

– Yo'q, podshohim, sizning menga ko'rsatgan iltifotingiz yomon yo'lga boshlamaydi, qanday bo'lsayam va'da – ulug', muqaddas narsa, uni buzish yaramaydi. Va'dani buzmoq – og'ir gunoh. So'z beraman – so'zimda turaman, – debdi.

– Xo'p bo'lmasa, agar tezda kelsang, ikki haftaga ruxsat beraman, – debdi podshoh.

– Xayr, endi qanday bo'lsa ham chiqay, – deb to'ti o'n besh kunga ruxsat olibdi. Devorga qo'nib turib xayrlashibdi. Janub tomonga qarab uchib ketibdi. Podshoh orqasidan qarab qolibdi. U to'tining qaytib kelishiga ishonmas ekan.

To'ti olti kun deganda Hindiston degan mamlakatga borib, otanalarining oldiga yetibdi. Bechora to'ti juda xursand bo'lib, tog'dan tog'ga, bog'dan bog'ga, shoxdan shoxga sakrab, uchib, o'ynab-kulib, ota-onasining diydoriga to'ydi, qarindosh-urug'iga mehmon bo'lib, uch kunni qanday o'tkazganini bilmay qoldi. Ertasi yana qafas tomonga, tutqunlikka ucmog'i kerak ekan. Ota-onasi, aka-ukalaridan ajralmoq juda og'ir bo'libdi. Bir tarafda va'da bor, va'daga vafosizlik xavfi turadi. Bechora to'tining quvonchi tugabdi. Shodligi g'amga almashibdi. Qanotlari so'libdi. Ikkinchi qaytib kelish yo bor, yo yo'q. Qarindosh-urug'lar bir joyga to'planishibdi. Hammasining ko'zi g'amli to'tida ekan. Qanday bo'lsa ham qaytmaslikni maslahat berishibdi.

To'ti aytibdi:

– Yo'q, yana qaytmoq uchun va'da berganman, va'daga vafo qilmasa bo'ladimi?

Bir to'ti aytibdi:

– Va'da bergan podshohingda insof bo'lsa, seni uch yil qamoqda saqlab, faqat ikki haftaga javob berarmidi? Seni sevar ekan, seviklisini qafasda tutmoq yarashadimi? Dunyoga qafasda turmoq uchun keldingmi? Bir kishining xushvaqtligi uchun erkinlikni qo'ldan berma! Podshoh deganning marhamatidan qahri ortiq, podshoh bilan sherga yaqin bo'lmoq hikmatdan emas.

Podshohning to'tisi aytibdi:

– Menga bir yo'l ko'rsating, men ham erkinlikka chiqay, ham va'da yolg'on bo'lmasin.

Ona to'ti aytibdi:

– Shunday bo'lsa men ham bir maslahat beraman. Bizning joyda bir daraxtning mevasi bor, har kim bir donasini yesa, qari chol bo'lsa, yigitlik holiga, kampir bo'lsa, qiz kabi yoshlik holiga qaytadi. Podshohga shundan uch donasini olib borgin, bu bebaho mevani berib, o'zingning butunlay ozod etilishingni so'ra, shoyad insofga kelib, butunlay ozod etsa, – debdi.

Bu gap ma'qul tushibdi. Shu chog'da uch dona meva olib kelibdilar. To'ti uni changalida mahkam ushlab, xayrlashib, shimol tomonga qarab uchibdi. Qarindoshlari zo'r umid bilan orqasidan qarab qolishibdi.

To'ti olti kun deganda podshohning saroyiga yetib kelibdi. Podshoh bilan ko'rishib, olib kelgan tortiqni unga beribdi, xosiyatlarini bir-bir aytibdi. Podshoh juda xursand bo'libdi. Ozod qilmoqqa va'da beribdi. Bir donasini xotiniga berib, ikki donasini vazirga ko'rsatmoq uchun bir piyolaga solib qo'yibdi. Ertasiga vazirga ko'rsatib, xosiyatlarini aytibdi. Vazirning bunga hasadi kelibdi. Ichida xafa bo'libdi. Ishni boshqacha yo'lga burmoqni ixtiyor qilibdi:

– Siz bu parrandaning olib kelgan narsasini yemay turing, oldin bir tajriba qilib ko'raylik, durust bo'lsa yemoq qochmaydi, – debdi.

Bu gap podshohga ma'qul tushibdi. Vazir vaqtini topib, piyoladagi ikki dona yoshartiruv mevasiga zahar aralashtirib qo'yibdi. Bir kundan keyin vazir aytibdi:

– Endi yoshartiruv mevasini bir tajriba qilaylik.

Buning uchun zindondan ikki nafar odamni olib chiqib yediribdilar. Ikkalasi shu zumdayoq o'libdi.

Vazir aytibdi:

– Agar siz yesangiz, nima bo'lardingiz?

– Men ham o'lardim, – debdi podshoh.

Bechora to'tini qafasdan olib chiqib, kallasini tanasidan uzib tashlabdilar.

Bir kuni podshoh bir odamni g'azab bilan o'ldirmoqchi bo'libdi. Bu kishi keksa ekan. Qolgan bir dona mevani yemoqqa buyuribdi. Haligi odam mevani yegan ekan, oqargan sochlari tushib ketibdi, tishlari butun bo'lib, ko'zlarining nuri ortib, yigirma yashar yigit holiga kelib qolibdi. Podshoh vazirdan shubhalanib, piyolani olib kelib qaragan ekan, zahar qo'shilganligini bilibdi. Podshoh vazirni ham o'ldirib yuboribdi. Bechora to'tining begunoh o'lganiga qayg'uribdi, lekin ish o'tgan ekan. To'ti podshohga yaqin bo'lganining «mukofoti»nigina ko'ribdi.

– Endi men o'zimning qilgan yaxshiligimni aytay, – debdi Kenja botir va ariqdan chiqqan ilon voqeasini aytibdi. O'sha joyda ikki bo'linib yotgan ilon tanasini olib kelib ko'rsatibdi. Podshoh qilgan ishidan pushaymon bo'libdi. Kenja botirdan uzr so'rabdi.

Kenja botir aytdi:

– Olampanoh, endi ruxsat bersangiz, bizlar o'z yurtimizga qaytsak.

Podshoh yalinib-yolvorib qolishlarini so'radi. Uch og'a-ini qabul qilmadi.

– Biz saroy kishisi bo'lolmaymiz. Biz mehnat bilan, kasb-hunar bilan yashaymiz, – deyishibdi.

Podshoh:

– Bo'lmasa qizlarim qolsin, – degan ekan, qizlari ham rozi bo'lishmabdi.

Ular:

– Biz kuyovlarimizdan ajralmaymiz, ruxsat bersangiz, biz ham ular bilan birga ketsak, sizni ko'rgani har yili kelib turamiz, – deyishibdi.

Podshoh nochor ruxsat beribdi. Botir yigitlar o'z xotinlari bilan ikki yil deganda otalarining oldiga olti kishi bo'lib kelibdilar. Botirlar otalari bilan quchoqlashib ko'rishib, xotinlarini tanishtiribdi. Otasi ham

bularning kelishini eshitib, uch bo‘lak hovlibog‘ tayyorlab qo‘ygan edi. Har birlari tayinlangan joyga ko‘chib kiribdi. Qizlar kuyovlari bilan rohat-farog‘atda yashab, murod-maqsadlariga yetibdi.

### ***I. Savol va topshiriqlar:***

1. Ertakni o‘qing.
2. Xalq og‘zaki ijodi va ertak haqida fikr yuriting.
3. “Ertak” so‘zining ma‘nodoshlarini ayting.
4. “Varsaki” so‘zi yana qanday ma‘nolarga ega?
5. “Ertak”, “matal”, “ushuk”, “varsaki”, “cho‘pchak” so‘zlarining etimologiyasi haqida ma‘lumot bering.
6. Ertaklarning mavzuiy guruhlarini davom ettiring: 1) hayvonlar haqida ertaklar, 2)...
7. “Sehrli ertaklar”, “fantastik ertaklar” bir xil tushunchalarni ifodalaydimi? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.
8. Hajviy ertaklarga misollar keltiring.
9. “Xalqimiz yaratgan xayoliy hikoyalar orasida shunday turkum ertaklar borki, ularni biz hayotiy-maishiy ertaklar deb ataymiz” gapini sharhlang. Ya‘ni xayoliy ertaklar hayotiy-maishiy ertaklarmi? Avval o‘quvchi ertakni (bir marta lozim bo‘lsa 2-3 marta o‘qib beradi).
10. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida otaning o‘g‘illarini tarbiyalashida uch narsaga amal qiladi. Bu qanday amallar edi?
11. Uch og‘a-ini nimaga amal qilgani uchun xavf-xatarlardan omon qoladi?
12. Ertakka ko‘ra nega va‘dani buzish yaramaydi?
13. Kenja botir shohni o‘ldirmoqchi bo‘lmaganini qanday isbotlab beradi?

### ***II. Matnni fonetik tahlil qiling.***

1. Fonetika haqida ma‘lumot bering.
2. O‘zbek tilida qancha tovush bor?
3. Tovush va harfni farqlaysizmi?
4. Sizningcha, o‘zbek tilida necha harf bor?
5. Urg‘u nima? Urg‘u olgan tovush qanday talaffuz qilinadi?

6. O'zbek tilida urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushadi?
7. O'zbek tilida urg'u barqarormi yoki o'z o'rnini almashtirib turadimi?
8. Nima deb o'ylaysiz: "ertakchi", "matalchi" so'zlari ertak, matal to'quvchinishi yoki ularni aytib beruvchini ifodalaydi; -chi bilan yasalgan so'zlarga misollar keltiring.
9. Yovuz, mukofot, shunday kabi so'zlardagi *i* bilan uyg'un, ushuk, mavzu, uy, kuy singari so'zlardagi *i* bilan bir xil tovushni ifodalaydimi?
10. Unli tovushlar qanday hosil bo'ladi? Undosh tovushlar-chi? "H" tovushining hosil bo'lishiga e'tibor bering va xulosangizni ayting.
11. "O'zbek tilining imlo lug'ati"da tarkibida "u" bo'lgan so'zlar talaffuziga e'tibor qiling.
12. "So'z yasalishi" deganda nima nazarda tutiladi?
13. Ertakdan *-chi* va *-lik* qo'shimchalari bilan hosil qilingan so'zlarni toping va ular qanday ma'nolarni (aniq, mavhum) ifodalayotganiga e'tibor bering.

### **III. Husnixat va imlo ustida ishlash**

1. Husnixat – o'ziga xos san'at, deyishadi. Siz buni qanday tushunasiz? Imlo deganda-chi?
2. Berilgan ertakning birinchi xatboshisini daftaringizga husnixat asosida ko'chiring.

### **IV. Matnning leksik tahlili**

1. *Ertak, ushuk, matal, varsaki, cho'pchak* qanday (tub yoki yasama) so'zlar? Ular qaysi tillarga mansub.
2. *Hayvon, ayyor, munofiq, sehrli* so'zlari qanday ma'nolarni ifodalaydi va ular qaysi tillardan olingan?
3. *Boy, kambag'al, o'git* so'zlarning ma'nodoshlarini toping va ular asosida yasalgan so'zlarni keltiring.
4. Ertakdan yovvoyi va uy hayvonlari nomlarini toping.
5. *Odam* so'zining shakldosh va ma'nodoshi, zid ma'nolarini toping va u bilan yasalgan so'zlar qatorini keltiring. *Odam* so'zi bilan *Odam Ato* o'rtasida etimologik bog'liqlik bormi?

6. Tarkibida *odam* soʻzi boʻlgan 10 ta maqol keltiring.
7. *Ota* soʻzining maʼnodoshlarini ayting. *Otalik* va *otaliq* soʻzlari maʼnolarini izohlang.
8. *Qoʻsh* soʻzi bilan yasalgan soʻzlar qatorini keltiring. Namuna: *qoʻsh, qoʻshiq, qoʻshchi, Quchimurod...*

#### **V. Matnning morfologik tahlili**

1. Morfologiya qanday fan? U faqat tilshunoslikda qoʻllanadimi?
2. Dastlabki morfologik izlanishlar qaysi davrlarga toʻgʻri keladi.
3. Morfologiyaning sintaksis bilan aloqasini tushuntirib bering.
4. Til morfologiyasi, oʻsimliklar morfologiyasi deganda nima nazarda tutiladi?
5. Soʻz turkumlari sonini Arastu keyinchalik Mahmud Koshgʻariy uchta deb koʻrsatgan. Hozir toʻqqiz-oʻnta deb koʻrsatiladi. Buni qanday tushuntirish mumkin?
6. Morfologiyada birlamchi soʻz turkumlari deganda nima nazarda tutiladi? Ikkilamchi soʻz turkumlari degandachi?
7. Soʻz turkumlari sonini belgilashda nimaga asoslaniladi (oʻquv materiallarigami yoki matn tahliliga)?
8. Ertakdan mustaqil soʻz turkumlarini toping va ulardan qanday yasalganini tushuntiring.
9. Quyosh, Oy, Yer kabi sayyora nomlari soʻz turkumlarining qaysi guruhiga kiradi?

#### **VI. Matnning sintaktik tahlili**

1. Soʻz birikmasi grammatikaning qaysi boʻlimida oʻrganiladi? Nima uchun?
2. Soʻz birikmasi gapdan nimasi bilan farq qiladi.
3. Soʻz birikmasi turlarini ayting.
4. Ertakdan ot soʻz birikmalarini toping va ularning tagguruhlarini koʻrsating.
5. Feʼl soʻz birikmasi haqida maʼlumot bering.
6. Soʻz birikmasi, gap boʻlagi va sintagmani farqlaysizmi? Quyidagi gapdan soʻz birikmasi, gap boʻlagi va sintagmalarni toping:  
*Podshoh hamma kuyovidan ham Kenja botirni koʻproq yaxshi koʻrardi. Kunlardan bir kun podshoh bir salqin joyda uxlab yotgan edi, yonidagi*



*ariqdan ilon chiqib, podshohga zahar solmoqchi bo'lib turganda, to'satdan kelib qolgan Kenja botir uni ko'rib, belidan qilichini sug'urib, chopib, ikki bo'lib tashladi.*

### **VII. Matnning stilistik tahlili.**

1. Stilistika nimani o'rganadi? Stilistkaning boshqa turdosh fanlar bilan aloqasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Stilistik vositalar tasnifini daftaringizga yozing.
3. Ertak matnidan metafora va metonimiyaga misollar keltiring, misollar asosida bu ikki stilistik vositaning umumiy hamda xususiy jihatlarini ko'rsatib bering.
4. "Yaxshi tarbiya orqasidan yigitlar baxt qushini qo'lga kiritdilar" gapini stilistik tahlil qiling.
5. Matndan ibora (frazeologik birlik)larni toping va daftaringizga yozib oling.
6. Ushbu matn ertak janri uslubida yozilgan. Unda ish uslubidan chekinilgan holatlar kuzatiladimi?

### **VIII. Matnning adabiy tahlili**

1. Epik deb qanday badiiy asarlarni tushunasiz? Ertak epik turga kiradimi? Fikringizni isbotlang.
2. Ertakda sujet voqealarining asosini nima tashkil qiladi? (Uydirma)
3. Nimaga asoslanib, ertaklar shartli ravishda hayvonlar haqidagi, ertaklarga, sehrli ertaklarga, maishiy ertaklarga va hajviy ertaklarga bo'linadi? (obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni, konflikt, sujet va kompozitsiya, tili va uslubiga ko'ra).
4. Ertaklarning asosiy vazifasi nima?
5. "Uch og'a-ini botirlar" ertagida hikoya ham keltirilgan. Bu nima? Ertak ichidagi qoplama hikoyami yoki hikoya janri o'z xususiyatini yo'qotganmi?

Eslatma: 1. Oxirgi darsda talabalar "Uch og'a-ini botirlar" ertagi asosida insho yozadi.

**HIYLAGAR BEDANA  
(ERTAK)**

Bor ekanda yo'q ekan, bitta zag'izg'on bo'lgan ekan. U bir tup do'lananing tepasiga in qo'yibdi va beshta bola ochibdi. Bolalari endi uchirma qilishga yaqinlashgan kunlarda undan bir och tulki xabardor bo'lib qolibdi. Tulki zag'izg'onga do'q qilib, bolalarini yeyish payiga tushibdi. U do'lananing tagiga kelib:

— Ey zag'izg'on, bitta bolangni tashlasang tashlading, tashlamasang do'lanangni tagidan ag'daraman, qizil qoningni shimiraman, etingni yeb, suyaklaringni kemiraman, bolalaring bilan bitta qo'ymay hammangni qiraman, — deb qo'rqita boshlabdi.

Bechora zag'izg'on qo'rqib ketganidan bitta bolasini yig'lab-yig'lab tashlab yuboribdi. Tulki uni ko'tarib jo'nab ketibdi. Ertasiga tulki ovqat topib eyolmay yana do'lananing tagiga kelib, zag'izg'onga kechagidek do'q qila boshlabdi:

— *Do'lanangni to'miraman*

*Qonlaringni shimiraman.*

*Suyagingni kemiraman,*

*Bitta qo'ymay qiraman.*

— Yana bitta bolangni tashla, yaxshilikcha tashlamasang, o'zing bilasan, — debdi. Zag'izg'on boshqa bolalarim omon qolar-ku, — degan niyat bilan jonidan aziz bo'lgan bolasining ikkinchisini qurbon qilibdi. Tulki zag'izg'onning ikkinchi bolasini ko'tarib, jo'nab qolibdi. O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, degandek tulki to'rt kun deganda zag'izg'onning to'rtta bolasini yeb qo'yibdi. Beshinchi kuni zag'izg'on bittagina bolasi bilan qolib, yig'lab o'tirgan ekan, uning oldiga birdan bir bedana uchib kelibdi. Yig'lab o'tirgan zag'izg'onga ko'zi tushib, bedana uning holini so'rabdi. Zag'izg'on o'z ahvolini so'zlab beribdi. Dono bedana zag'izg'onning nodon va qo'rqqiligiga ko'p achinibdi. Keyin unga shunday deb o'rgatibdi.

— E zag'izg'on, tulki yana sening oldingga kelib:

— *Do'lanangni to'miraman,*

Qonlaringni shimiraman...

— deb do‘q qilsa, sen «to‘mirsang to‘miraver, shimirsang shimiraver», deb tura ber. Qolgan bolangni tashlama, — debdi.

Bedana ketgandan so‘ng, tulki kelib qolibdi. Tulki kundagi do‘qini qilib, zag‘izg‘onni qo‘rqitmoqchi bo‘lgan ekan, zag‘izg‘on:

— Do‘lanani to‘mirsang to‘miraver, kemirsang kemiraver, endi sendan qo‘rqmayman, — debdi. Shunda tulki:

— E zag‘izg‘on, bu so‘zlarni senga kim o‘rgatdi? — debdi. Zag‘izg‘on:

— Bu so‘zlarni menga bedana o‘rgatdi, — debdi. Tulki:

— Bedana qayoqqa ketdi? — deb so‘rabdi.

Zag‘izg‘on bedana ketgan tomonni tulkiga ko‘rsatib beribdi, endi tulki bedananing orqasidan izlab ketibdi. Bedana bir o‘tloqqa borib uxlab yotgan ekan. Tulki uning izidan borib topib, ustalik bilan bedanani tutib olibdi. Bedana:

— E tulki, meni nima qilmoqchisan? — degan ekan, tulki:

— Sen zag‘izg‘onga gap o‘rgatganing uchun u bolasini tashlamadi. Endi seni yemoqchiman, — debdi. Bedana tulkiga aytibdi.

— Meni yeganing bilan hech bir baraka topmaysan, qorning ham to‘ymaydi, mening bir barmoqchalik ham etim yo‘q. Sen meni yemasang, seni yaxshilab to‘ydiraman.

Tulki:

— Qanday qilib meni to‘ydirasan? — deb so‘rabdi. Bedana aytibdi:

— Katta yo‘lga chiqib turamiz, sen bir to‘da xashakning ichiga kirib berkinib turasan, xotinlar dasturxonlarda turli narsalarni tugib o‘tadilar. Men ularning oldiga tushib, hurpayib turaman. Xotinlar meni ko‘rib: «Mana bu bedanani ko‘ringlar», deydilar. Shunda men ucholmay, yo‘rg‘alab qochaman. Xotinlar dasturxonni qo‘yib meni ushlamoqchi bo‘ladilar. Men sekin-sekin yo‘rg‘alab, sekin-sekin uchib, ularni uzoqroqdagi bir tepaning orqasiga olib ketaman. Sen shu vaqt xashak orasidan chiqib, dasturxonlarni ochasan, eng yaxshi narsalarni olib qocha berasan.

Bu tadbirni eshitgan tulki shodlanibdi. Tulki bilan bedana katta yo'lning bir chetiga chiqib turibdilar. Tulki xashak orasiga kirib yashirinibdi. Shunda uzoqdan uch-to'rtta xotin katta-katta dasturxonlarni ko'tarib kela beribdi. Bedana xotinlarning oldiga chiqib hurpayib tura beribdi. Xotinlardan bittasi:

— E, ana u bedanani qaranglar, — debdi.

Boshqa bir xotin:

— Mening bolamning bedanasi uchib ketgan edi. U har kuni bedana deb xarxasha qiladi. Kelinglar, hammamiz o'rab tutib olamiz. Bu bedana ucholmaydiganga o'xshaydi, — debdi.

Xotinlar tugunlarini yerga qo'yib, bedanani ushlash uchun quvlabdilar. Bedana avval yo'rg'alabdi, keyin kalta-kalta uchibdi, oxiri xotinlarni qiziqtirib, tepaning orqasiga olib o'tibdi. Xotinlar: «Bu bedananing qanotlari yulingan bo'lsa kerak, zo'rg'a uchyapti», deb o'ylab turgan ekanlar, bedana birdan «pirr» etib uchib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Xotinlar dasturxonga bir talay non va go'shtlarni solib, chimildiq uzdiga ketayotgan ekanlar. Tulki dasturxonlar xoli qolganini ko'rib, darrov ochibdi, non va go'shtlarni yeb juda ham to'yib ketibdi. U yana bedanani qidirib topibdi. Shunda tulki:

— E bedana, meni ko'p to'ydirib yubording, ovqatni hazm qilishim qiyin bo'lib qoldi. Endi menga bir qiziq tomoshalarni ko'rsatib, aylantirib kelgin va meni kuldiringin, — debdi. Bedana uchib borib, bir sigir sog'ib o'tirgan kampirning oldiga yaqinlashibdi. Pirr etib uchib sigirning shoxiga qo'nib olibdi. Kampir buni ko'rib cholni chaqiribdi.

Chol bedanani urib olmoqchi bo'libdi. Mo'ljallab turib tayoq otgan ekan, bedana uchib ketibdi, sigirning shoxi sinibdi, hurkib ketgan sigir kampir sog'gan sutni to'kib yuboribdi. Buni ko'rgan tulki kula berib, ichagi uzilay deb qolibdi. Bedana xira tulkidan uzoqlashib, u bilan xayrlashmay jo'nab qolibdi.

Tulki ertasi erta bilan yana bedanani qidirib ketibdi. Bedana bir o'tloqda o'tlarning urug'larini yeb yurgan ekan, birdan zavq bilan sayrab yuboribdi. Agar u sayramaganda, tulki uni kechgacha ham topolmas ekan. Tulki bedanani ko'rib, buyruq qilibdi: -

— Ey, bedana, bugun ham meni to'ydirib, xursand qilasan, bo'lmasa o'zingni yeb qo'yaman, — debdi.

Bedana ichida: «Bu xira tulkidan qutulish kerak, u xatarli dushman, chunki uxlab qolganingda ushlab olsa, yeb qo'yishi mumkin» deb o'ylabdi. Bedana tulkiga:

— Xo'p, bugun ham to'ydiraman, lekin bu yaqinda to'n ham yo'q, kechagidek dasturxon ko'targan xotinlar ham yo'q, shuning uchun qishloqqa yaqin joyda bir parcha go'sht ko'rgan edim, shunga boshlab boraman, — debdi. Tulki rozi bo'libdi.

Bedana bu gal tulkini cho'ponlarning qopqoniga boshlab boribdi. Qopqondagi go'shtni ko'rgan tulki bora solib o'zini go'shtga uribdi. Qopqonning ilgagi chiqib tulkining bo'ynidan qisib olibdi. Ayyor tulki o'z tumshug'idan qopqonga ilinib, ko'p azob chekib o'libdi. Bedana ham, zag'izgon ham xira va ayyor dushmanidan qutulib qolibdi. Cho'ponlar qopqondagi tulkini ko'rib, juda xursand bo'libdilar.

## «UCHTADAN OXIRI BOR ERTAKLAR» TURKUMIDAN HURISHNI EPLOLMAGAN KUCHUKCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, hurishni eplolmaydigan bir kuchukcha bo'lgan ekan. U na hura olarkan, na miyovlay olarkan, na ma'rashni va na kishnashni bilarkan, qisqasi, hech bir maxluq tilida gapirishni uddalay olmaydigan shunday bir go'rso'xta ekan. Asli-naslini so'rasangiz, o'zi bir mushtdaygina, juda ham oddiy kuchukcha ekan. Ilgarilari kuchuk asari ko'rinmaydigan bu qishloqda uning qayerdan paydo bo'lib qolganini hech kim bilmas ekan. Albatta, shundoq bo'lgandan keyin «men nega hurishni bilmayman-a?» degan o'yni xayoliga ham keltirmas ekan. Lekin kunlarning birida kimdir uni savolga tutibdi:

— Qiziq, sen nega sira hurmaysan?

— Hurish?.. Bu nima deganingiz? Axir men bu yerlik emasman, men hurishni bilmayman...

— Obbo jinqarcha-yey! Nahotki, hamma kuchuklar vov-vov deb hurishini bilmasang?

— Nimaga huradi?

– «Nimaga» deganing nimasi? Axir kuchuk bo'lgandan keyin huradi-da! O'tkinchilarga qarab huradi, ko'ziga shubhali ko'ringan mushuklarga qarab huradi.

Oyga qarab huradi, hayotidan mamnun bo'lganda huradi. Jahli chiqqanda, g'ashi kelganda huradi. Ko'pincha kunduz kunlari huradi, lekin tunda hurgan paytlari ham bo'ladi.

– Gapingizda jon borku-ya, lekin men...

– Sen o'zi kim bo'libsan? Yoki sen to'g'ringda gazetalarda yozishlarini xohlaysanmi?

Kuchukcha nima deb javob berishni bilmay, jimib qolibdi. U hurishni bilmagani uchun ham uni qanday o'rganishga aqli yetmabdi-da.

– Unday bo'lsa, men nima qilsam, sen ham shunday qil, – kuchukchaga ichi achiganidan maslahat solibdi xo'rozcha. U o'zining jarangdor tovushi bilan bo'ynini gajak qilib bir necha marta «Qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqiribdi.

– Bu sen o'ylaganchalik osonga o'xshamaydi, – debdi kuchukcha.

– Be, shu ham gap ekanmi! Yaxshilab quloq sol, mening tumshug'imga diqqat qil. Qisqasi, men nima qilsam, sen ham shunday qil. Xo'rozcha yana «qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqiribdi. Kuchukcha unga taqlid qilmoqchi bo'libdi-yu, biroq tomog'idan qandaydir beo'xshov «qih-qih» degan ovoz chiqibdi, xolos. Shu yerda donlab yurgan tovuqlar cho'chib har tomonga qochib qolibdi.

– Hechqisi yo'q, – tasalli beribdi xo'rozcha, – birinchi martaga bu juda yaxshi chiqdi. Endi esa takrorla. Qani! Kuchukcha yana bir marta qichqirishga urinib ko'ribdi, biroq yana hech narsa chiqmabdi. Shunda u kunda-kunda oz-ozdan mashq qila boshlabdi, goho u o'rmonga kirib ketarkan-da, u yerda xalaqit beruvchi hech kim bo'lmay, ko'ngli istagancha qichqirar ekan.

Kunlardan bir kun ertalab u shunaqangi qotirib qichqiribdiki, azbaroyi ovozi tiniq va jarangdor chiqqanidan o'zi ham zavqlanib ketibdi. Xo'roz qichqirig'i qulog'iga chalingan tulkivoy o'zicha:

«Xudoga shukur, xo'rozvoy holimdan xabar olgani keldi! Bu himmati uchun unga darrov minnatdorchiilik izhor qilib qo'yishim kerak», – deb o'ylabdi o'zida yo'q suyunib. U xo'rozcha

istiqboliga oshiqibdi. Albatta, pichoq, vilka va salfetka olishni ham unutmabdi, chunki o'zingizga ma'lumki, tulki uchun babaq xo'rozdan shirinroq taom dunyoda bo'lmaydi. Lekin babaq xo'roz o'miga dumida cho'nqayib o'tirgancha ovozining boricha paydar-pay «qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqirayotgan kuchukchani ko'rganda, tulkivoyning qanchalik hafsalasi pir bo'lganini aytmasa ham o'zingiz bilsangiz kerak.

– Eh, – debdi tulkivoy, – bu ahvolda qopqonga tushib qolmasam go'rga edi!

– Qopqonga deysanmi? – ajablanib so'rabdi kuchukcha.

– Ha-da! Men seni ataylab o'zini o'rmonda adashib qolganga solib, xo'roz bo'lib qichqiryapsanmi deb o'ylabman. Yaxshiyamki, paytida ko'rib qoldim seni. Lekin bunday ov qilish g'irromlikdan boshqa narsa emas. Kuchuklar, odatda, ovchi kelayotganidan ogohlantirib, hurib ovoz beradilar.

– Yolg'on gapirsam, o'lay agar... Ov qilish mening xayolimga ham kelgani yo'q. Men bu yerga faqat mashq qilgani kelganman.

– Mashq qilgani kelganman deysanmi? Nimani mashq qilasan?

– Men hurishni o'rganyapman, ancha o'rganib qoldim ham. Quloq solgin-a, juda yaxshi hura olaman. Shunday deya kuchukcha yana «qu-qu-qu-quvvv!» deb

baralla qichqiribdi. Tulki ichaklari uzilgudek qotib-qotib kulibdi. Yerga dumalab, qornini ushlab shunaqangi kulibdiki, sira o'zini to'xtatolmabdi. Kalaka qilib kulganlaridan kuchukcha qattiq xafa bo'libdi: axir buni o'rganguncha ozmuncha mehnat qildimi! Bechora yig'lamoqdan beri bo'lib, dumini qisgancha uyga qaytibdi. Bir vaqt yo'lda u bir kakkuga duch kelibdi. G'amgin ketayotgan kuchukchani ko'rib, kakkuning unga rahmi kelibdi va ko'ngil so'rabdi:

– Senga nima bo'ldi, kuchukvoy, tinchlikmi?

– Hech narsa bo'lgani yo'q.

– Bo'lmasa nega buncha g'amgin ko'rinasan?

– Eh... so'rab nima qilasan?.. Hamma balo hurishni eplolmaganimdan. Buning ustiga, birov o'rgatib qo'yay ham demaydi.

– Gap faqat shunda qolgan bo‘lsa, men senga ko‘z ochibyumguncha o‘rgatib qo‘yganim bo‘lsin. Yaxshilab quloq sol, men sayrayman: kuk-ku, kuk-ku! Bildingmi?

– Unchalik qiyinga o‘xshamayapti...

– E, oppa-oston! Men juda kichkinaligimdan kukulashni bilaman. Qani, takrorla: «Kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku!...»

– Ku, – sayrashga urinibdi kuchukcha, – ku...

U mana shu «kuk-ku»ni yana ko‘p martalab takrorlabdi, o‘sha kuni kechgacha va ertasiga ham faqat shuni mashq qilibdi, bir haftadan keyin esa ajabtovur kukulaydigan bo‘lib qolibdi. U o‘ziga o‘zi qoyil qolib, o‘ylabdi: «Mana, nihoyat, men chinakam huradigan bo‘lib qoldim. Endi meni hech kim kalaka qilib ustimdan kulolmaydi». Ayni shu kunlari ov mavsumi boshlangan paytlar ekan. O‘rmonda ko‘p ovchilar paydo bo‘libdi. Ular ichida to‘g‘ri kelgan tomonga va duch kelgan jonivorga qarab o‘q otaveradiganlari ham bor ekan. Agar ovozlari quloqqa chalingudek bo‘lsa, bulbullarni ham ayab o‘tirishmas ekan. Ana shunday ovchilardan biri o‘rmonda ketayotib butalar orasidan: «Kuk-ku, kuk-ku...» degan ovozni eshitib qolibdi. Ovchi darhol miltig‘ini qo‘liga olib mo‘ljallabdi-da, ustma-ust: «Paq-paq!» – o‘q uzibdi.

Xayriyat, o‘q kuchukchaga tegmabdi. Xuddi qulog‘ining ostidan vizillab o‘tib ketibdi. Bechora kuchukchani shunaqangi o‘takasi yorilibdiki! Qochib ketayotib, o‘zicha o‘ylar emish: «Hoynahoy, bu ovchining esi joyida bo‘lmasa kerak, bo‘lmasa, kelib-kelib hurishni biladigan kuchukka qarab o‘q uzadimi?...»

Ovchi esa bu paytda o‘ljasini qidirish bilan ovora ekan. U mo‘ljalga aniq urganiga shubha qilmagan ekan-da. «Hoynahoy, urgan qushimni allaqayoqdan paydo bo‘lgan haligi kuchukcha ilib ketgan», o‘ylabdi u. Alamini bosish uchun ovchi inidan mo‘ralab turgan sichqon bolasiga qarab o‘q uzibdi, lekin bu ham mo‘ljaiga tegmabdi. Kuchukcha bo‘lsa, chopib ketaveribdi, ketaveribdi...

### *Ertakning birinchi tugashi*

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt bir sigir bemalol o‘tlab yurgan o‘tloqzordan chiqib qolibdi.

– Qayoqqa shoshib ketyapsan, kuchukvoy?



- O‘zim ham bilmayman.
- Unday bo‘lsa to‘xtab birpas damingni ol. Bu yerning o‘tlog‘ini qara, ko‘m-ko‘k.
- Eh, gap o‘tloqda bo‘lganda-ku, o‘zim bilardim-a...
- Ha, nima bo‘ldi? Tobing yo‘qmi?
- Undan battari. Men hurishni bilmayman!
- Seni qara-yu, dunyoda eng oson narsa shu-ku! Quloq sol: «Mo‘-o‘! Mo‘-o‘! Mo‘-o‘!...» Xo‘sh qalay, yoqdimi?
- Durust. Lekin bir narsani ko‘nglim sezib turibdi, menga kerak bo‘lgan narsa bu emas. Chunki, sen sigirsan...
- Ha, albatta, sigirman...
- Men esa sigir emas, kuchukchaman.
- Kuchukcha bo‘lmay nimasan? Kuchukchasan. Xo‘sh, nima bo‘pti shunga? Mening tilimda gapirishni o‘rganib olsang, buning nimasi yomon ekan?
- Bu bilan sen juda zo‘r fikrni o‘rtaga tashlaganingni bilasanmi?
- Qanaqa fikrni?
- Mana, hozirgina mening miyamga kelgan fikrni-da. Men barcha hayvonlar tilini o‘rganib olaman-da, sirkda tomosha ko‘rsataman. Hamma meni olqishlab qarsak chaladi, men boyib ketaman va shoh qiziga uylanib olaman. Kuchuklar shohining qiziga, albatta...
- Barakalla, juda yaxshi o‘ylabsan buni! Qani, belni mahkam bog‘lab ishga kirishaver. Yaxshilab eshitib ol: «Mo‘-o‘-o‘! Mo‘-o‘-o‘!»
- Mo‘-o‘...- o‘zicha g‘o‘ng‘illabdi kuchukcha.

Hurishni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o‘rganishda zo‘r qobiliyatga ega bo‘lgan kuchukcha qaysi desa, hech ikkilanmay shuni ko‘rsatavering, yanglishmaysiz.

### *Ertakning ikkinchi tugashi*

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi... Yo‘lda unga bir dehqon uchrabdi.

- Buncha shoshib, qayoqqa ketyapsan, hoy kuchukvachcha?
- O‘zim ham bilmayman...
- Unda men bilan yur. Menga xuddi senday bir kuchukvachcha juda zarur edi – tovuqxonamni qo‘riqlaysan.

– Siz bilan jon deb borar edim-u, lekin bir aybim bor – hurishni bilmayman.

– Ayni muddao-da! Hurishni biladigan kuchuklar faqat o'g'rilarga qo'l keladi – cho'chitib o'g'rini qochirib yuboradi. Sening ovozingni esa ular eshitmaydi, yaqinroq keladi, shunda sen ularni shappa tutib olib, talab-talab tashlaysan, ular qilmishiga yarasha jazosini oladi.

– Bo'pti, roziman, – deb javob beribdi kuchukcha. Shu tariqa hurishni bilmaydigan kuchukcha o'ziga munosib ish topib olibdi, bir umr bo'yniga zanjir tushib, kunda bir kosa suyak nasibasi bo'libdi.

### **Ertakning uchinchi tugashi**

*Kuchukcha chopib ketaveribdi, chopib ketaveribdi... Birdan qulog'iga qandaydir maxluqning: «Vov-vov! Vov-vov!» degan g'alati ovozi chalinibdi-yu, taqqa to'xtabdi. «Qulog'imga tanish va issiq eshitilyaptimi?»* – *o'zicha o'ylabdi kuchukcha. – Garchi bu qanaqa jonivor ovozi ekanini bilmasam ham, yuragimga jiz eib tekkanday bo'ldi-ya».*

– *Vov-vov!*

– *Balki bu jirafadir. Yo'q, bu timsoh bo'lsa kerak. Ha, bu xuddi o'sha serjahl timsoh... Ehtiyot bo'lish kerak.*

*Kuchukcha butalar orasiga bekinganicha «vov-vov!» degan ovoz kelayotgan tomonga emaklab ketibdi. Yo xudoyim, bu ovoz uning yuragini buncha o'ynatib yubormasa!*

– *Bu hech shubhasiz, kuchuk bo'lishi kerak! To'ppa-to'g'ri! Tag'in kelib-kelib kimning kuchugi deng: kukulagan ovozni eshitib haligina o'q uzgan ovchining kuchugi bo'lib chiqsa-ya!*

– *Salom, kuchuk!*

– *Salom, kuchuk!*

– *Nega bunaqa ovoz chiqaryapsan?*

– *Ovoz! Shuni bilib qo'yki, bu shunchaki ovoz emas, balki hurishdir.*

– *Hurish deysanmi? Hali sen hurishni bilasanmi?*

– *Bilganda qandoq. Axir, ko'rib turibsan-ku, filga o'xshab dunyoni boshimga ko'tarayotganim yoki sherga o'xshab na'ra tortayotganim yo'q.*

- Unda menga ham o‘rgat hurishni.
- Iye, hali sen hurishni bilmaysanmi?
- Yo ‘q...
- Unday bo‘lsa, quloq sol. Bu mana bunday qilinadi: «Vovvov!...»
- Vov-vov! – kuchukcha birdaniga hura ketibdi. Sevinchi ichiga sig‘may: «Nihoyat, yaxshi ustozni topib oldim!» deb o‘ylabdi o‘zicha. Shu topda dunyoda undan baxtiyor maxluq yo‘qday tuyulibdi unga.

### **«TELEFONDA AYITILGAN ERTAKLAR» TURKUMIDAN QUTBDAGI GUNAFSHA**

Bir kuni ertalab Shimoliy qutbda katta ayiq uyqudan uyg‘onibdi. Uyg‘onibdi-yu, havoni hidlay boshlabdi. O‘ng tomonga qayrilib hidlabdi – hech nimaning isi kelmabdi, chap tomonga o‘girilib hidlabdi – birdan g‘alati bir hid sezibdi.

– Hm, – deb to‘ng‘illabdi ayiq yonidagi urg‘ochi ayiqqa, – bu tomonga biror ekspeditsiya kelib qolganga o‘xshaydimi? Lekin shu payt ayiq bolalari sal naridan binafsharang gunafsha topib olishibdi. Gunafsha juda nimjon, poyasi ham ingichka ekan. U sovuqda dir-dir qaltirarmish, lekin sira bo‘sh kelmay dadil hid taratarmish, chunki bu uning burchi ekan-da.

– Oyi! Dada! – deb qichqirishibdi ayiqchalar.

– Shu atrofda g‘alati bir narsa bor deb darrov aytdim-a, – debdi oq ayiq oilasiga. – Lekin, menimcha, bu baliqqa o‘xshamaydi.

– Albatta, baliq emas, – debdi ona ayiq. – Qush ham emas.

– Ha, to‘g‘ri aytding, – debdi ayiq xotinining gapini chuqur o‘ylab olgach. Kechga borib bu yangi gap butun qutbga tarqalibdi. Bepoyon ko‘z ilg‘amas muz sahrosida ushoqqina binafsharang jonivor paydo bo‘lib chor atrofga g‘alati bir xushbo‘y hid taratarkan. U birgina ingichka oyoqchasida qad ko‘tarib turarmish va o‘lmas emish. Gunafshani tomosha qilgani kelganlarning son-sanog‘i yo‘q emish. Sibirdan bug‘ular chopib kelishibdi. Amerikadan ho‘kizsimon hayvon darak topib kelibdi, morj va tyulenlar suzib kelishibdi, qayoqdandir uzoq-uzoqlardan oq shimol tulkisi kelib qolibdi, bo‘rilar yetib kelishibdi, birinchi bo‘lib albatta chaqimchi dengiz zag‘izg‘onlari yetib kelishibdi.

Hamma bu g'alati. yovvoyi gulni, uning ingichka qaltiroq poyasini ko'rib hang-u mang bo'libdi, uning nafis xushbo'y hididan to'yib-to'yib nafas olishibdi. Shunisi qiziqi, uning hidi kech kelganlarga ham yetibdi. Eng so'nggi daqiqada ham u avvalgiday hid taratib turibdi.

– Doimo shunday xushbo'y hid taratib turish uchun, – debdi tyulen, – butun bir omborxonaga ega bo'lish kerak. Uning muz tagida, qayerdadir hoynahoy ombori bo'lsa kerak.

– Men buni darrov sezgandim, o'sha zahoti aytdim-a, – debdi oq ayiq. – O'sha yerda bir nimasi bor! Ayiq hecham bunaqa demagandi, albatta, lekin hech kim uning gapirgan-gapirmaganini eslayolmabdi.

Hammadan keyin chayka qaytib kelibdi, uni g'alati notanish haqida biror narsa bilib kelgin deb janubga jo'natishgan ekan, u nafasini rostlab olgach bu kichkina xushbo'y jonivorning gunafsha deb atalishini, boshqa joylarda – janubda ular millionlab topilishini gapirib beribdi.

– Yuborgan elchimizni qarang-u, – debdi tyulen ensasi qotib.

– Biz biror yangi gap bilganimiz yo'q. Xo'sh, bu gunafsha boshqa yerga emas, xuddi shu joyga qanday kelib qoldi? Yo'q, to'g'risini aytсам, nima gapligiga hech aqlim yetmay qoldi, juda hayron bo'lib qoldim.

– U nima dedi, nima bo'lib qoldim dedi? – shivirlab so'rabdi ayiq xotinidan.

– Hayron bo'lib qoldim deyapti, – urg'ochi ayiq ham shivirlab javob beribdi. – Xullas, boshi qotib qolganmish-da, qaysi oyog'ini bosishni bilmasmish.

– Ha, ha, – deb gapni ilib ketibdi ayiq. – Men xuddi shunday deb o'ylovdim-a, ko'nglimda xuddi o'sha so'zlarni takrorlovdim-a. O'sha kuni kechasi butun qutb kuchli qars-qurs va gumburlashdan larzaga kelibdi. Butun-butun muz parchalari dag'-dag' qaltirab, yupqa oynaday chirs-chirs sinibdi. Bechora gunafsha muzday havoga o'zidagi bor muattar hidini taratibdi, go'yo u bu bepoyon muz sahrosini bir zumda eritib, iliq moviy dengizga yoki ko'm-ko'k maysa bilan qoplangan poyonsiz ko'kalamzorga aylantirmoqchi bo'layotganday edi. Keyin gunafsha holdan

to'yib, boshini egib, qaddini bukibdi-yu, shu-shu boshqa o'rnidan

turolmabdi.

Tongda hamma gunafshaning soʻlib qolganini koʻribdi, u ingichka tolasida egilib, oppoq qor ustida rangsiz va jonsiz yotganmish. Agar uning oxirgi oʻy-fikrlarini soʻzda ifodalash mumkin boʻlsa, biz, hoynahoy quyidagi soʻzlarni eshitgan boʻlardik: «Mana, men oʻlyapman. Lekin kimdir boshlashi kerak edida. Qachonlardir bu yerda million-million gunafsha ochilib yotadi. Muzlar eriydi, orollar hosil boʻladi, ulardan bolalarning qoʻngʻiroqday shoʻx kulgisi eshilib turadi».

## OLTINCHI DARS

### Hadislar tahlili

[Hadis (*arab. xabar, gap, yangilik*), - Muhammad s.a.v. aytdan soʻzlari, qilgan ishlari, iqrorlari toʻgʻrisidagi rivoyatdir. Hadis Qurʼoni Karimdan keyin turadigan manba hisoblanadi. Hadislar matn va sanaddan iborat boʻladi. Hadislar kimniki ekanligiga qarab, ikkiga boʻlinadi: 1) hadisi qudsiy (Allohning hadisi) va 2) hadisi nabaviya (Muhammad s.a.v. hadisi). Eʼtiborga olinishi nuqtayi nazaridan hadislar uch xil boʻladi: 1) sahih (ishonchli) hadislar; 2) hasan (yaxshi) hadislar va 3) zaif hadislar. [Quyida Imom Buxoriy hadislaridan namunalar keltiriladi].

## HADISLAR

(«*Al-jomeʼ as-sahih*»dan)

### SALOM BERISH ISLOM AMALLARIDANDIR

Sahoba Ammor<sup>1</sup> aytdan: «Uchta xislatni oʻzida mujassam qilgan kishining imoni mukammal boʻlgʻaydir:

- insofli va adolatli boʻlmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambagʻalligida ham sadaqa berib turmoq».

Rasululloh<sup>2</sup> sollallohu alayhi vasallam<sup>3</sup>dan bir kishi soʻradi: «Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir?» Dedilar: «Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik».

### GʻAZABNI BOSMOQ HAQIDA

Alloh taoloning shu xususdagi qavl<sup>4</sup>i: «(Alloh) gunohi azimlardan va fahsh ishlardan oʻzini olib qochuvchilarni... va gʻazablangan taqdirda ham kechira oluvchilarni, tanglikda ham, moʻlchilikda ham xayr-ehson qiluvchilarni, gʻazabini yutuvchilarni, odamlarning gunohlarini

<sup>1</sup> Ammor ibn Yosir (564–657) – hazrat Alining yordamchilaridan, sahoba.

<sup>2</sup> Rasululloh – Allohning elchisi, paygʻambar.

<sup>3</sup> Sollallohu alayhi vasallam – paygʻambarimizning haqlariga aytilgan duo.

<sup>4</sup> Qavl – soʻz.

o'tuvchilarni... (yaxshi ko'rgaydir). Darhaqiqat, Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi». Abu Hurayra roziyallohu anhu<sup>3</sup> rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Birovni (kurashib) yiqitgan polvon emas, balki g'azablangan vaqtida jahlini yutgan odam polvondir!» – dedilar». «Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga: «Menga nasihat qiling!» – deb edi. Janob Rasululloh: «G'azablanmagin», – deb bir necha bor aytdilar».

### YETIM BOQQAN ODAMNING FAZILATI

Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz», – deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini juft qilib ko'rsatdilar».

### ILMNING FAZILATI TO'G'RISIDA

Alloh taolo oyati karimasida: «Alloh taolo sizlarning orangizdagi imon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Alloh taolo qilayotgan ishlaringsizdan xabardordir», – deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: «Yo Rabbi, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!» – deyilgan.

### ILM O'RGANMOQ VA ILM O'RGATMOQNING FAZILATI

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Alloh taolo menga yuborgan hidoyat (Alloh taolo bandalariga ko'rsatgan to'g'ri yo'l, yo'llanma) singari ilm ham ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni emmasdan, o'zida to'playdi, undan Alloh taolo bandalarini foydalandiradi. Odamlar suvdan ichadi, hayvonlarini va ekinlarini sug'oradi. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni

<sup>3</sup> Roziyallohu anhu – mazkur sahoba haqiga aytilgan duo.

o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi. Bularni quyidagicha muqoyasa qilish mumkin: Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran o'rganadi, teran tushunadi va undan manfaatlanadi va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadi. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir».

### **YAXSHI MUOMALA QILINMOG'IGA KIM HAQLIROQ?**

Abu Hurayra<sup>6</sup> roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: «Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroqdir?» – deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» – deb aytdilar. U: «Yana kim?» – deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!» – dedilar. U: «Yana kim?» – dedi. Janob Rasululloh: «Onang!» – dedilar. U: «Yana kim?» – deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): «Otang!» – deb javob qildilar».

### **ODAM OTA-ONASINI HAQORAT QILMAYDI!**

Abdulloh ibn Amr<sup>7</sup> rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Odam qiladigan gunohi azimlardan biri – otaonasini haqorat qilmoqdir!» – dedilar. Shunda: «Yo Rasululloh, odam o'z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog'i mumkin?!» – deyishdi. Janob Rasululloh: «Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur», – deb javob qildilar».

### **QARINDOSHLARIGA MEHR-OQIBATLI ODAMNING RIZQI ULUG' BO'LMOG'I HAQIDA**

Abu Hurayra roziyallohu anhu: «Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: «Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa,

<sup>6</sup> Abu Hurayra – sahoba. 676-yilda vafot etgan.

<sup>7</sup> Abdulloh ibn Amr - sahobalardan biri.



qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin!» – deganlarini eshitganman», – dedi.

Anas ibn Molik<sup>8</sup> rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kimki rizqim ulug', umrim uzun bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr oqibatli bo'lsin!» – deganlar».

### KIBR HAQIDA

Horisa ibn Vahb al-Huzo'iy rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Ahli jannat kimlar ekanligin aytaymi?» – dedilar-da, odamlardan javob kutmay: «Har bir zaif va bechorahol odamdir, u gar Allohni o'rtaga qo'yib qasam ichg'aydir, so'zsiz ustidan chiqq'aydir», – dedilar. So'ng: «Ahli do'zax kimlar ekanligini (ham) aytaymi? Har bir qo'pol, quruq gerdaygan, beqanoat va dimog'dor odam ahli do'zaxdir», – dedilar».

### BOLAGA RAHMDILLIK QILMOQ, UNI O'PIB QUCHOQLAMOQLIK HAQIDA

Sobit Anasdan naql qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam Ibrohimni qo'llariga olib o'pdilar, hidladilar».

Nabiy sollallohu alayhi vasallamning jufti halollari bo'lmish Oysha onamiz Urva ibn az-Zubayrga bunday deb aytgan erkanlar: «Bir ayol ikki qizalog'ini yetaklagan holda huzurimga tilanchilik qilib keldi. U yoq-bu yoqni qarab bir dona xurmodan bo'lak hech narsa topolmadim. O'sha xurmoni unga bergan edim, o'zi yemay ikki qizalog'iga bo'lib berdi. So'ng o'rimdan turib chiqib ketdi. Shu asnoda Nabiy sollallohu alayhi vasallam kirib kelgan erdilar, bo'lgan voqeani aytib berdim. Janob Rasululloh: «Kimki ana shunday qizaloqlarga muruvvat qo'lini cho'zsa, ular uni do'zax otashidan parda bo'lib to'sib turadilar», – dedilar».

Umar ibn al-Xattob roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga bir qancha asirlarni olib

<sup>8</sup> Anas ibn Molik – sahobalardan biri.

keldilar. Ularning ichida bir ayol ham bo'lib, o'z oralaridan biror go'dakni topib olsa, darhol uni bag'riga bosib emizar edi.

Janob Rasululloh (buni ko'rib) bizga: «Nima deysizlar, anavi ayol o'z bolasini o'tga tashlay oladimi?» – dedilar. Biz: «Yo'q, aslo tashlay olmas!» – dedik. Shunda janob Rasululloh: «Alloh taolo o'z bandalariga bolasiga mehribonchilik qilayotgan manavi ayoidan ham mehribonroqdir!» – dedilar («Insonki o'z bolasini o'tga tashlay olmas ekan, Alloh taologa ham o'z bandasini do'zax o'tiga tashlamoqlik g'oyat og'irdir»).

### **ILM-U HIKMATNI ORZU QILMOQ**

Hazrat Umar roziyallohu anhu bunday degan: «Boshliq bo'Imasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz ermas: biri – kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi – kishiga Alloh taolo ilm-u hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliymaqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa», – deganlar».

### **QARINDOSHLARIGA ZAKOT BERMOQ HAQIDA**

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Qarindoshlariga zakot bergan odamga ikkita savob tekkaydir – biri qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun», – dedilar.

### **MO'MINLARNING BIR-BIRLARIGA**

#### **KO'MAKLASHMOQLARI (LOZIMLIGI) HAQIDA**

Alloh taolo: «Yaxshilikka ko'mak bergan kishi yaxshi nasiba oladi, yomonlikka ko'mak bergan kishi yomon nasiba oladi! Alloh hamma narsaga qodirdir!» – deydi.

Abu Muso rivoyat qiladi: «Nabiy sollallohu alayhi vasallam, agar biror gado yoki hojatmand kishi huzurlariga kirib kelsa: «Ko'mak

qilingiz, savob topg'aysiz! Alloh taolo o'z rasulining tilidan uning istagan narsasini aytirib, hojatini chiqaradi!» – dedilar.

### **RIYO<sup>9</sup> VA SHUHRATPARASTLIK HAQIDA**

Jundub<sup>10</sup> roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kimda-kim xayrli ishlarini shuhrat topmoq niyatida ovoza qilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni sharmanda qilib, ovoza qiladi, kimda-kim xayrli ishlarini odamlar meni ko'rib qo'ysinlar deb ko'z-ko'z qilsa, Alloh taolo ham qiyomatda uni barcha bandalari o'rtasida izza qiladi», – dedilar».

### **ZOLIM KIMDIR?**

Alloh taolo: «Alloh taolo nozil qilgan yo'l-yo'riqlarga muvofiq hukm qilmaydiganlar – zolimdurlar!» – deydi.

#### ***I. Savol va topshiriqlar***

1. Hadislarni o'qing.
2. Hadislardan notanish so'z va iborlarni toping va daftaringizga ko'chiring.
3. Berilgan hadislarni mavzuiy guruhlariga ajrating.
4. Vatandosh hadisnavislar kimlar? Ular haqida ma'lumot bering va hadis to'plari nomlarini keltiring.
5. "Arbain" qanday janr? Arbain yozgan mumtoz va hozirgi shoirlar kimlar?
6. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy tarjimayi hollari haqida gapirib bering.
7. Kesh, Marv, Makka, Madina, Balx, Hirot, Bog'dod, Basra, Nishopur, Misr shaharlarini xaritadan ko'rsating.
8. Imom al-Buxoriy va Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad orasida kechgan muloqot haqida so'zlab bering.
9. Xartang qishlog'i haqida ma'lumot bering.

<sup>9</sup> Riyo – *ikkiyuzlamachilik*

<sup>10</sup> Jundub ibn Abdulloh – *sahobulardan biri*.

## **II. Fonetik tahlil**

1. “Kishi” soʻzini talaffuz qiling va uni “кише” (yongʻoqning bir turi), “книга” soʻzlari aytilishi bilan qiyoslang. Xulosangizni boshqa misollar bilan isbotlang.
2. Matndan ochiq va yopiq boʻgʻinda kelgan “i” tovushli soʻzlarni toping.
3. “Lisoniy (til sathida olingan) fonema” va “nutqiy fonema” tushunchalarini farqlaysizmi?
4. Fonemaga taʼrif bergan rus tilshunoslari kimlar?
5. Tovush oʻzgarishlari (fonetik jarayonlar) haqida umumiy maʼlumot bering.
6. Kombinator oʻzgarishlarga misollar keltiring.
7. Artikulyatsiya qanday jarayon?

## **III. Leksik tahlil**

1. *Alloh, islom, Qurʻon, nabiy, muhadis, vahiy, sahih, hasan, roviy, sanad, farz, vojib, amal, insof, jannat, doʻzax, ilm, bilim, hidoyat, shafolat, savob, gunoh, kibr, halol, xarom, sahoba, joiz, roʻza, namoz, zakot, farz, vojib, fahsh, ziro, mustahab* soʻzlarining etimologiyasini aniqlang.
2. “Salom bermoqlik” birikmasidagi -lik qoʻshimchasi haqida mulohaza bildiring. Mazkur birikma bilan “salom bermoq” birikmasi maʼnolari orasida farq bormi? “Minnatdorlik” va “ninnatdorchilik” soʻzlari haqida nima deysiz?
3. “Soʻz”, “luqma”, “qavl”, “leksika”, “leksema” maʼnodosh soʻzlarmi? Ular qaysi tillardan olingan?
4. Soʻz maʼnosining kengayishi va torayishiga misollar keltiring.

## **IV. Morfemik, morfologik, sintaktik tahlil**

1. “Rasullulloh” soʻzini morfemik tahlil qiling.
2. “Alayh” soʻzida nechta tovush va nechta harf bor?
3. “Muhaddis” soʻzidagi “mu” prefeksi maʼnosini koʻrsating.
4. “Sallolohi” soʻzini boʻgʻinlarga ajrating. Boʻgʻin turlariga misollar keltiring.

5. “Qarindoshlarga zakot bergan odamga ikkita savob tekkaydir” gapini morfologik tahlil qiling.
6. Quyidagi gap tarkibini aniqlang va uni sintaktik tahlil qiling:

### **YETIM BOQQAN ODAMNING FAZILATI**

Sahl ibn Sa’d rivoyat qiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz», – deb ko’rsatkich va o’rta barmoqlarini juft qilib ko’rsatdilar».

## YETTINCHI DARS

### Hadislardan parchaning morfologik va sintaktik tahlili

#### *Qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli odamning rizqi ulug' bo'lmog'i haqida*

Abu Hurayra raziyallohu anhu: "Men Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning "Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin!" deganlarini eshitganmen", — deydilar.

#### *Bemorlik kafforati va Alloh taoloning "Kimning qilmishi yomon ersa, jazo tortg'usidir!" degan kalomi sharifi xususida*

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zavjalari Oyisha onamiz raziyallohu anho bunday degan ekanlar: "Musulmon kishiga yetadigan har bir musibat, hattoki badamining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo'lg'usidir".

\* \* \*

Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday deydirlar: "Mo'min odam balo-qazolarga toqat etmoqlikda sabza giyoh monanddir. Chunki mo'min har taraftin shamol esganda egilib, so'ng yana qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir. Fojir (osiy) odam ersa, mo'rt arz (kedr) og'ochi kabidir, Alloh taolo uni, istasa, birdaniga sindira olur!".

\* \* \*

Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday degan ekanlar: "Alloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko'rsa, o'shanga biror musibatni yuborgaydir".

\*\*\*

#### *Mast qiluvchi ichimliklar haqida*

Ibn Umar raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar: "Har bir mast

qiladigan narsa xamrdir va har bir mast qiladigan narsa haromdir. Kim dunyoda xamr ichsa va vafot etsa va u unga mukkasidan ketgan bo'lsa, oxiratda ichmaydi".

\* \* \*

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Kimki bu dunyoda mast qilguvchi ichimlik ichgan bo'lsa-yu, keyin ichganiga tavba qilmagan bo'lsa, oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydur!" — dedilar.

### *Mo'min kishi o'zini bir inga 3 ikki marta chaqtirmasli gi haqida*

Abu Hurayra raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): "Mo'min kishi o'zini bir inga ikki marta chaqtirmaydi", — dedilar.

### *Gumon qilish haqida*

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): "Gumondan saqlaning, zero, gumon so'zlarning yol'gonidir. Josuslik qilmang, bir-biringiz bilan raqobatlashmang, o'zaro adovat qilmang, bir-biringizga hasad qilmang va g'azab qilmang, Allohning solih bandalari bo'ling!" — dedilar.

\* \* \*

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu aytdilar: "(Narsasi) o'g'irlangan odam gumon qila-qila hatto o'g'ridan ham (gunohi) kattaroq bo'la boshlaydi".

### *Yaxshilikka yaxshilik qilish haqida*

Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh(s.a.v.): "Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin. Yaxshilik qilishga qurbi kelmasa, u kishini g'oyibona maqtasin, chunki maqtash tashakkur o'rnida o'tadi. Ammo u kishining yaxshiligini yashirsa, undan tongan, yaxshilikni bilmagandek bo'ladi. Kim o'zida yo'q narsani menda falon narsa bor deb maqtansa, ikki qavat kiyim bilan o'ralgan hisoblanadi", — dedilar.

### *Yaxshi xulq sama rasi*

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): “Islom jihatidan saviyasi balandlaringiz xayrli bo‘lganidek, axloq jihatidan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir”, — dedilar.

\* \* \*

Muoviya ibn Abu Sufyon raziyallohu anhu aytdilar: “Men Rasululloh(s.a.v.)dan bir so‘z eshitdim. Shu so‘z tufayli Alloh taolo menga manfaat yetkazadi. Rasululloh (s.a.v.): “Sen kishilarning aybi va kamchiligini surishtirib yursang, ularni buzib qo‘yasan”, degan edilar. Shuning uchun men ularni buzib qo‘ymay deb kamchiliklarini tekshirib yurmayman”.

#### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Abdulloh ibn Amri rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam (s.a.v.): “Odam qiladigan gunohi azimlardan biri — otanasini haqorat qilmoqdir!” — dedilar. Ushbu parchadagi otlarni morfologik jihatdan tahlil qiling.

Tahlil namunasi:

- a) Qaysi so‘roqqa javob bo‘lishi.
- b) Ma‘no turi.
- c) Yasalish va tuzilishga ko‘ra turi.
- d) Gapdagi vazifasi.

2. “Alloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko‘rsa, o‘shanga biror musibatni yuborgaydir”. Berilgan parchadagi tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni toping va ularni fonetik tahlil qiling.
3. Chunki mo‘min har tarafdin shamol esganda egilib, so‘ng yana qaddini tiklab olg‘uvchi sabza giyoh yanglig‘ balo-qazolarga chidab, yengilmag‘aydir. Ushbu parchadagi yordamchi so‘zlarni toping va ularning ma‘nosiga diqqat qiling.
4. Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zavjalari Oyisha onamiz raziyallohu anho bunday degan ekanlar: “Musulmon kishiga yetadigan har bir musibat, hattoki badanining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo‘lg‘usidir”. Ushbu



- gapda ishtirok etgan tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nosini izohli lug'atdan toping, umumlashing.
5. Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday degan ekanlar: "Alloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko'rsa, o'shanga biror musibatni yuborgaydir". Ushbu parchadagi fe'llarni topib, ularning sintaktik vazifasiga to'xtaling.
  6. "Musulmon kishiga yetadiringan har bir musibat, hattoki badanining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo'lg'usidir". Ushbu parchadagi otlarning turlarini ayting.
  7. "Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur", — deb javob qildilar". Ushbu parchadagi fe'llar tarkibida qatnashgan qo'shimchalarning turlarini ayting.  
Namuna: so'kkan — sifatdosh qo'shimchasi, ...
  8. Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zavjalari Oyisha onamiz raziyallohu anho bunday degan ekanlar: "Musulmon kishiga yetadiringan har bir musibat, hattoki badanining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo'lg'usidir". Ushbu parchadagi ko'chirma gapning qolipini yozing.
  9. "Mo'min odam balo-qazolarga toqat etmoqlikda sabza giyoh monanddir. Chunki mo'min har tarafdin shamol esganda egilib, so'ng yana qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir. Berilgan parchadagi ot va sifatarning sintaktik vazifasini toping. Masalan: odam — ega, ...
  10. Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday debdirlar: "Mo'min odam balo-qazolarga toqat etmoqlikda sabza giyoh monanddir. Chunki mo'min har tarafdin shamol esganda egilib, so'ng yana qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir. Fojir (osiy) odam ersa, mo'rt arz (kedr) og'ochi kabidir, Alloh taolo uni, istasa, birdaniga sindira olur!". Yuqorida berilgan parchada ishtirok etgan o'xshatishlarni ajrating. Masalan: Mo'min odam ... sabza giyoh monand, ...

11. Quyidagi gapning shaxs-son qo'shimchalarini aniqlang:  
*Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lar", -- deb javob qildilar".*
12. Fojir (osiy) odam ersa, mo'rt arz (kedr) og'ochi kabidir, Alloh taolo uni, istasa, birdaniga sindira olur!". Ushbu parchadagi "fojir" va "mo'rtaz" so'zlarining ma'nosini izohlang va ularni fonetik tahlil qiling.
13. "Men Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning "Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin!" deganlarini eshitganmen", -- deyдилar. Yuqoridagi parchani sintaktik tahlil qiling.
14. Berilgan parchadagi otlarni morfologik tahlil qiling. Chunki mo'min har tarafdin shamol esganda egilib, so'ng yana qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir. Fojir (osiy) odam ersa, mo'rt arz (kedr) og'ochi kabidir, Alloh taolo uni, istasa, birdaniga sindira olur!
15. Berilgan gapdagi fe'llarni toping va ma'nosini izohlang. Chunki mo'min har tarafdin shamol esganda egilib, so'ng yana qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir.
16. *Musulmon kishiga yetadigan har bir musibat, hattoki badanining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo'lg'usidir.* Ushbu gapni sintaktik tahlil qiling.
17. *Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): "Islom jihatidan saviyasi balandlaringiz xayrli bo'lganidek, axloq jihatidan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir", -- dedilar.* Berilgan parchadagi mustaqil so'zlar sonini aniqlang.
18. *Muoviya ibn Abu Sufyon raziyallohu anhu aytdilar: "Men Rasululloh(s.a.v.)dan bir so'z eshitdim. Shu so'z tufayli Alloh taolo menga manfaat yetkazadi. Rasululloh (s.a.v.): "Sen kishilarning aybi va kamchiligini surishtirib yursang, ularni buzib qo'lasan", degan edilar. Shuning uchun men ularni buzib qo'ymay deb*

*kamchiliklarini tekshirib yurmayman*". Ushbu parchadagi omonim va sinonimlik xususiyatga ega bo'lgan so'zlarni toping.

19. *Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh(s.a.v.): "Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin.* Ushbu parchadagi fe'ning mayl shakllarini toping.
20. *Abdulloh ibn Umar raziyallohu anku aytdilar: "(Narsasi) o'g'irlangan odam gumon qila-qila hatto o'g'ridan ham (gunohi) kattaroq bo'la boshlaydi*". Ushbu parchadagi tovush o'zgarishiga uchragan so'zlar tarkibida nechta til undoshlari ishtirok etgan?
21. Quyidagi berilgan parchadagi otlashgan so'zlarni toping: *Rasululloh (s.a.v.): "Islom jihatidan saviyasi balandlaringiz xayrli bo'lganidek, axloq jihatidan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir", — dedilar.*

\* \* \*

22. *Muoviya ibn Abu Sufyon raziyallohu anhu aytdilar: "Men Rasululloh(s.a.v.)dan bir so'z eshitdim. Shu so'z tufayli Alloh taolo menga manfaat yetkazadi. Berilgan parchadagi shaxs-son shakllarini izohlang.*
23. *Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Kimki bu dunyoda mast qilguvchi ichimlik ichgan bo'lsa-yu, keyin ichganiga tavba qilmagan bo'lsa, oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydur!" — dedilar.* Ushbu parchadagi olmoshlarni morfologik tahlil qiling.

Tahlil namunasi:

- a) Ma'no turi.
  - b) Tuzilishiga ko'ra turi.
  - c) Qaysi so'z bilan bog'lanishi.
  - d) Qaysi so'z o'rnida qo'llanganligi.
  - e) Gapdagi vazifasi.
24. *Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): "Gumondan saqlaning, zero, gumon so'zlarning yolg'onidir. Josuslik qilmang. bir-biringiz bilan raqobatlashmang, o'zaro adovat qilmang, bir-biringizga hasad*

*qilmang va g'azab qilmang, Allohning solih bandalari bo'ling!*" — dedilar. Ushbu parchada ishtirok etgan qo'shma fe'llarni toping. Masalan: rivoyat qilinmoq, ...

25. *Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu aytdilar: "(Narsasi) o'g'irlangan odam gumon qila-qila hatto o'g'ridan ham (gunchi) kattaroq bo'la boshlaydi"*. Berilgan gaplardagi so'zlar tarkibida nechta lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ishtirok etganini ayting.
26. *Josuslik qilmang, bir-biringiz bilan raqobatlashmang, o'zaro adovat qilmang, bir-biringizga hasad qilmang va g'azab qilmang, Allohning solih bandalari bo'ling!*" — dedilar. Berilgan parcha tarkibida nechta fe'l qatnashgan va ulardan nechtasi qo'shma fe'l?
27. Berilgan gapdagi "ichi bo'sh so'zlar"ni toping va ularning sintaktik vazifasini izohlang: Kimki bu dunyoda mast qilguvchi ichimlik ichgan bo'lsa-yu, keyin ichganiga tavba qilmagan bo'lsa, oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydur!
28. Berilgan parchadagi kesim vazifasida kelgan fe'llarni toping: Sen kishilarning aybi va kamchiligini surishtirib yursang, ularni buzib qo'yasan.
29. Islom jihatidan saviyasi balandlaringiz xayrli bo'lganidek, axloq jihatidan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir. Ushbu gapni leksik tahlil qiling.
30. Berilgan parchani diqqat bilan o'qing va ishoralarning qo'yilish sabablarini izohlang: Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): "Gumondan saqlaning, zero, gumon so'zlarning yolg'onidir. Josuslik qilmang, bir-biringiz bilan raqobatlashmang, o'zaro adovat qilmang, bir-biringizga hasad qilmang va g'azab qilmang, Allohning solih bandalari bo'ling!" — dedilar.
31. Yuqorida berilgan matnning tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzing.

## SAKKIZINCHI DARS

### Hamzaning "Vatan" she'ri tahlili

*Millatim nasli bashardur<sup>11</sup>, Vatanim kurrai arz<sup>12</sup>.*

*Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindan jon qarz*

Madrasa tahsilini Qo'qonda olgan va yoshligidayoq "o'zbekcha, forschaga tom savodli" bo'lgan Hamza o'qishni davom ettirish maqsadida 1908-yilda Namanganga, 1909-yilda Buxoroga boradi. 1912-yilda haj safari munosabati bilan Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Rossiya kabi mamlakatlarda bo'ladi, Qo'qonga aytib, maktablar ochadi, boshlang'ich sinflar uchun "Yengil adabiyot, "Qiroat kitobi"ni yozadi. U Marg'ilonda "G'ayrat" nomli kutubxona tashkil qilgan va birinchi bo'lib sahna asari yozgan.

#### Vatan

Vatan, vatan der edilar, na der edim bilmay oni<sup>13</sup>,  
Endi bilsam, vatan erkon<sup>14</sup> bu tanlarning shirin joni.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale<sup>15</sup>, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Sensan ekan bizlara chin tug'mish bir munglig' ano<sup>16</sup>,  
Boqg'ung tirik bo'lsak, agar o'lsak quchog'ingda yano.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Ko'zlarni ko'r bo'lgan uchun hech tanimas bo'ldik sani,  
Og'rindi ko'ngling yuzaga og'lo<sup>17</sup> siring chiqsin qani?  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

<sup>11</sup> *Bashar* – odam, kishilik, inson.

<sup>12</sup> *Kurrai arz* – yer kurrasi

<sup>13</sup> *Oni* – uni.

<sup>14</sup> *Erkon* – ekan.

<sup>15</sup> *Bale* – ha, to'g'ri.

<sup>16</sup> *Ano* – ona.

<sup>17</sup> *Og'lo* – yig'la.

Essiz, essiz tug'gonlaring<sup>18</sup> ko'z yumib o'q otib sani,  
Bog'lab qo'ling, boyonlarga<sup>19</sup> ne oldilar sotib sani?  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

San onaizor ekan-da, achingoning bor ekan-da,  
O'lmay laxta qonlar to'kib, xor bo'lib yuror ekan-da.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Bilguvchilar qo'l tutmadi, bizga sani tonutmadi,  
Bilmam nelarga aldanub Tangri buyrug'in tutmadi<sup>20</sup>.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Bilimsizlar anglashmadi, oh-u voying tinglashmadi,  
Bilguvchilar burchi ekan o'ng'aylamoq<sup>21</sup>, o'nglashmadi.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Nihon yig'lab qon yutunur, kechmog'lig'ingni<sup>22</sup> o'tinur,  
Mundin buyon o'g'lonlaring chandon<sup>23</sup> tonurg'a tutinur.  
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,  
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

## *I. Savol va topshiriqlar*

1. She'rni ifodali o'qing.

<sup>18</sup> *Tug'gonlaring* – tug'ganlaring, bolalaring.

<sup>19</sup> *Boyonlarga* – boylarga.

<sup>20</sup> *Tangri buyrug'in tutmadi* – Tangrining buyrug'ini bajarmadi.

<sup>21</sup> *O'ng'aylamoq* – tuzatmoq, o'nglamoq.

<sup>22</sup> *Kechmog'lig'ingni* – kechirmoqligingni

<sup>23</sup> *Chandon* – juda, yaqindan.

2. She'rdagi uchraydigan notanish yoki eskirgan so'z va iboralarni toping.
3. She'rdagi vatanning qanday xususiyatlari tarannum etilgan?

## II. Fonetik tahlil

1. "E" unlisi qo'llangan so'zlarni toping, ularni "e" unlisining talaffuziga qarab, guruhlariga ajrating, kirill alifbosidagi variantlari bilan qiyoslang. Namuna: *echki* – эчки, *behi* – беху. Hozirgi o'zbek imlosida *behi*, *men*, *sen* so'zlaridagi "e" ning qanday ifodalanishini misollar bilan ko'rsatib bering.

2. "Quchog'ingda", "siring, tomirlaring, achingoning, Tangri, anglashmadi, ohu voying, tinglashmadi, o'ng'aylamoq, o'nglashmadi, kechmog'lig'ingni, o'g'lonlaring" so'zlaridagi -ng harf birikmasimi yoki alohida tovushlarmi? Ikki harf bir tovushni bersa, qanday fonetik hodisa hosil bo'ladi va u qanday nomlanadi? Shuningdek, *ongli*, *tonggi* kabi so'zlardagi -ng harflari qanday tovushlarni ifodalayotganini izohlang.

3. *Ko'z*, *ko'r*, *to'kib*, *bo'lib*, *o'ng'aylamoq*, *o'tinur*, *o'g'lonlaring* so'zlaridagi "o" unlisi talaffuziga e'tibor qiling va uni *o'nglamoq*, *o'zbek*, *ko'p*, *o'rta*, *to'g'ri* so'zlaridagi "o" bilan qiyoslang.

4. Ng harflari ikki tovushni ifodalaydigan misollar keltiring.

5. Qayerda ikki xil talaffuz bo'lsa, u yerda ikki tovush borligiga ishonch hosil qilish uchun *bo'lmoq* (tayyor bo'lmoq) va *bo'lmoq* (guruhni ikkiga bo'lmoq) so'zlarini obdan qiyoslang va yana shunday misollar keltiring. Yuqoridagi fe'llarni shakldosh (omonim) fe'llar, ularning tarkibidagi o' tovushlari shakldosh tovushlarmi? *Atlas* (geogr. xarita) va *atlas* so'zlari va "a" tovushlari-chi? Shunday holatlarga yana misollar keltiring.

## III. Leksik-frazeologik tahlil

1. Ma'lum bir davrda amal qilgan leksik birliklarni toping, ularni hozirgi tilimizdagi variantlari bilan almashtiring?

2. Ikkinchi bandning ikkinchi misrasi oxirida kelgan "yano" so'zining yozilishiga e'tibor qiling va buning sababini izohlang.

3. She'rning birinchi misrasidagi *na* so'zi qanday ma'noda qo'llangan va uning *na* inkor yuklamasi bilan aloqasi bormi?

4. *Chin* soʻzining sheʼrdagi va hozirgi tildagi maʼnolarini qiyoslang. “*Chin qushin*” birikmasi maʼnosini sharhlang. Izoqli lugʻatdan *bale* soʻzi qanday sharhlanganiga eʼtibor qiling.

5. “... *siring chiqsin*” birikmasi maʼnosini aniqlang va uning maʼnodoshlarini keltiring. “*Sir*” soʻzi bilan hosil qilingan bir necha ibera va maqolni eslang.

6. “*Suyguli*” soʻzi hozir qanday yoziladi va aytiladi?

7. “*Laxta*” soʻzining maʼnosi etimologik va izoqli lugʻatda qanday berilganini kuzating.

8. “*Qoʻl tutmadi*”, “*Tangri buyrugʻin tutmadi*” birikmalarining maʼnolarini izohlang, hozirgi maʼnodoshlarini keltiring.

9. “... *qon yutunur*” birikmasidagi “*yutunur*” feʼli maʼnosi va grammatik xususiyati (zamon, mayl, nisbat kabi) haqida soʻzlab bering.

10. “*Oʻgʻlon*” soʻzi maʼnosini sharhlang. Uning kishi ismi “*Oʻgʻlon*”ga qanday aloqasi bor.

#### IV. Grammatik tahlil

1. Sheʼrdan atoqli otlarni toping va ularni guruhlang.

2. Rus va Yevropa tilshunosligida “*Quyosh*”, “*Oy*”, “*Yer*” sayyora nomlari yakka otlar sifatida taʼriflanadi. Bu haqida siz nima deb oʻylaysiz? Qayd etilgan atoqli otlar soʻzning oʻz maʼnosidagi obyektiv tarzda mavjud yakka otlardir.

3. “*Vatan*”, “*Siz*” (olmoshi) qanday holatlarda bosh harflar bilan yoziladi va nima uchun?

4. “*Tugʻonlaring*”, “*bilganlar*”, “*bilimsizlar*”, “*bilguvchilar*”, “*bilganlar*”, “*nelar*” soʻzlarining morfologik maqomini belgilang. Boshqa turkumga kiruvchi soʻzlarning otga oʻtishi substantivatsiya (otlashish) deyiladi. Ular sifatga, songa, feʼlga, olmoshga oʻtsa qanday nomlanadi?

5. Sheʼr matnidan leksikalizatsiya, morfologizatsiya, grammatikalizatsiyaga uchragan soʻzlardan misollar keltiring.

6. Sheʼrning beshinchi bandida 3 marta kelgan “*ekan-da*” soʻzi kimga qaratilgan?

7. “*San onaizor ekan-da, achingoning bor ekan-da, oʻlmay laxta qonlar toʻkib, xor boʻlib yuror ekan-da*” gaplarini hozirgi tilimizga



“tuzatib” yozing. Bu sintaktik soletsizm (xato)mi yoki shoir yashagan davr tili unsurimi?

8. She’ring birinchi bandidagi gaplarning sintaktik maqomini belgilang. Shu band bir gapdan iboratmi yoki bir necha gapdan? Shu bandning oxirgi misrasini morfologik tahlil qiling.

9. She’rda gapning qaysi turi ko‘proq qo‘llangan va nima uchun?

### **She’r tahlili**

1. She’r nima? Uning prozadan (nazm) farqi bormi? Bunga ishonch hosil qilish uchun berilgan poetik matnning birinchi bandi oxirgi ikki misrasini nasrga aylantiring, ularni ichingizda va ovoz chiqarib o‘qing (har kim o‘zicha).

2. Shu she’ring uchinchi misrasidagi “*ey suyguli*” undalmasi kimga (nimaga) qaratilgan? ikkinchi undalma haqida nima deysiz? U “*ey suyguli*” undalmasining takrorimi yoki alohida sintaktik maqomga egami?

3. She’rshunoslik qanday fan? Uning predmeti nima? Aruz haqida yozgan shoir va adabiyotshunoslarni bilasizmi?

4. She’ring 4-bandi birinchi, ikkinchi misrasi ma’nosini o‘z so‘zlaringiz bilan aytib bering. Bu 2-misra sodda gapdan tuzilganmi yoki qo‘shma? 1-misradagi “*ko‘zlarmi*” so‘zidagi “*mi*” so‘roq yuklamasining sintaktik vazifasini tushuntiring.

5. Shuningdek, 5-banddagi birinchi va ikkinchi misrani tashkil qilgan gap ma’nosini tushuntiring, tuzilishiga, maqsadiga va hishayajonni ifodalash-ifodalamasligiga ko‘ra sintaktik maqomini belgilang.

6. She’rshunoslikka bag‘ishlangan ishlarda misraning boshi, o‘rtasi va oxiri, ular orasida esa misra boshi va oxiri, ulardan esa misra oxiri kuchli o‘rinlar hisoblanadi. Bu fikrlarga munosabat bildiring va o‘z fikringizni misollar bilan isbotlang.

7. Akad. A.M.Shcherbak: “Dastlabki turkiy she’rlarning eng kuchli o‘rmi misra boshi hisoblangan, shuning uchun qofiyadosh so‘zlar misra boshida kelgan. Bu poetik an’ana hozir faqat yoqut tilida saqlanib qolgan”, – deb yozadi. Bu fikrni isbotlash uchun turkiy she’riyat tarixiga bag‘ishlangan maqolalarni internetdan topib o‘qing.

8. Qofiya nima? Bu haqida chuqurroq ma'lumot olish uchun adabiyotshunoslik nazariyasiga doir darslik va qo'llanmalarni (I.Sulton, N.Shukurov, D.Quronov, H.Umurov va b.) akad.A.Rustamovning "Qofiya nima?" risolasini topib o'qing.

9. Qofiyani tashkil qiluvchi birlik nima deb o'ylaysiz? Shunday vazifani bo'g'in bajaradimi yoki tarkibida ohangdosh tovushlar bo'lgan so'zlarmi?

### **Stilistik tahlil**

1. Jonlantirish (personifikatsiya) usuli haqida nazariy ma'lumot bering va berilgan matndan misollar kelturing.

2. *Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni, Vatan*

*Sensan, bale bilganlarga jonlarni joni, Vatan* misralarida kelgan aniqlovchilarning (*tomirlaring, jonlarni*) turini aniqlang. 2-aniqlovchi (*jonlarni*) xato yozilganmi yoki vazn, ritm va qofiya talabiga bo'ysundirilganmi? Agar u xato yozilgan bo'lsa, sababini tushuntiring (masalan, sheva ta'sirida), to'g'ri yozilgan bo'lsa, qanday poetik vositani tashkil qilgan?

3. She'rning 2-bandi birinchi va ikkinchi misralarida biror poetik san'at kuzatilyaptimi?

### **Adabiy tahlil**

1. She'rni yana bir marta diqqat bilan o'qing. Shoir (adresant) murojaat qilayotgan personaj (adresat) nechta deb o'ylaysiz?

2. Shoir Vatanni yurakdan his etgandan keyin uni nimaga mengzayapti? Uni bilmagan yoki tan olmagan kishilarning holatini qanday baholaydi?

3. Vatanni tanimaslik sababi she'rning qaysi bandida va qanday izohlangan?

4. Shoir "Vatan" haqidagi mushohadalarini optimistik ruhda yaqinlaganini ko'rsatuvchi satrlarni toping.

5. She'rni yod oling.

6. "H.H.Niyoziy va Vatan madhi" mavzusida insho yozing.

## TO'QQIZINCHI DARS

### G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidan parcha tahlili (qissadan parcha)

...Bu qishloqda Sariboy bo'lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga ephil qo'lli xizmatkor doim zarur bo'lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqti bo'lgani uchun menga o'xshash oshtomog'iga yuradigan arzonqo'l kishilarni eshigidan quvlas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo'shxonada yotishga qaror berdim. Uzunchi menga yo'l boshlovchi bo'lib ko'rsatib qo'ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go'ja ustida edilar.

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o'z o'rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog'i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganingda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan... – degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

Yotishda ham shular o'rtasida qoldim. Yaxshi olmalarni joylab uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavot qildim. Boshimga olma o'raydigan yog'ochqirindisidan yostiqliq qilib rohat-rohat uyquga ketdim.

Bu uyqu eshon xonaqosiga qaraganda juda shohona edi. Hech bo'lmasa, bu yerda tong azonda avrodchi<sup>24</sup> so'filarning qichqirib g'o'ldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi. Erta bilan bo'lisning oldiga bordim. Bir qancha silkilashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiqlik aralash, ona sutidan halol ikki pud o'n yetti qadoqdan olma beradigan bo'ldi. Shu paytda boyning avzoyini ko'rib mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. «Mendan

<sup>24</sup> Avrodchi – duolar, oyatlar o'quvchi.

nima ketdi, bir shart qo'yib qo'yay, bir kun boshimga biror ish tushib qolsa, shu bahona qutulib ketarman» degan xayol bilan: «Boy buva, – dedim, – endi-ku, savdoyimiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda, hamma aybini aytib sotsa halol bo'lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo'yganim yaxshi».

– Xo'sh, nima aybing bor? Siyg'oqmisani, tutqanoqmisani?

– Yo'q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo'lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg'on gapirib qo'yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqi, mayli, siz aytgancha bo'lsin.

– Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin!

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa, xomxatala olmalarni aravaga ortib Darvoza, Sariog'och atroflardagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa, mol emaydigan olmalarni cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doyga alishaman.

Sariboy bo'lis haligacha xo'jayinlarimning ichida eng xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda «innaykeyin» deb so'raydigan odati bor edi. Ana shu «innaykeyin»ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo'rg'onda ko'rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, «qandil olma pishibdi» deb aysangiz, u sizga «innaykeyin» deb savol beradi. Siz albatta: «Shu pishgan olmani terish kerak», – deysiz. Yana xudo qarg'agan «innaykeyin» deydi. Xayr, «sotish kerak», deysiz. Yana «innaykeyin» deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom. «Innaykeyin» degan savolga hech hojat yo'q. Ana shunaqa o'rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak eysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o'ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dastgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog'i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo'jayinga ma'qul tushib qolib, darrov o'sha yerdan

bitta do'ndiqqina qirg'iz xotinni olib, bir borgancha o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi. Olmalar pishib to'kilib ketayotibdi, xo'jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga em-xashak yo'q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimningyuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan «innaykeyin» savolidan hamma qo'rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o'tirib qanday qilib boyni o'z joyiga chaqirib kelish to'g'risida maslahatlashdik ham kim borishini o'ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki «innaykeyin» dardidan keyin boyning o'zining tinkasi quriydigan bo'lsin.

Chek menga chiqdi.

Erta bilan bir otga minib boyning oldiga qarab yo'l soldim. Yo'l-yo'lakay ming xil xayollarga botib o'ylayman. Qanday qilib «innaykeyin»ga javob topish kerak?

Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qilib o'tirgan ekan. Salom berib sekingina poygakka tushib o'tirdim.

– Xo'sh?!

– Shunday o'zim, sizni sog'inib bir ko'rib kelay deb kelgan edim.

– Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo'sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo'ygan shartim esimga tushib qoldi. «Shart qilgan yolg'onni endi gapirmasang, qachon gapirasan?» – dedim-da, gap boshladim:

– Anavi, haligi, dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga «innaykeyin» savoli yog'ila boshladi.

– Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro'zg'orda mening pichog'imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

– Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

– Iyya?! – dedi boy. – Tozining terisini mening dandon sopli pichog'imda shilasanlarmi, o'zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

– Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.

– Nima qilib o‘ldi?

– Harom o‘lgan otning go‘shini ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.

– Harom o‘lgan ot go‘shiti qayoqda ekan?

– Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘shini yeb o‘ldi-da, begona ot emas.

Boy alang‘lab qoldi.

– Hay-hay, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Xo‘sh, to‘riq qashqa nima qilib o‘ldi?

– Xomlik qilib o‘ldi.

– Nimaga xomlik qiladi?

– Hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib suv tashigan edik, zo‘riqib o‘ldi.

– Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib mening birdan bir boqib qo‘ygan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padarla‘natilar?

– Ha, o‘t tushgandan keyin uning uloqchiligiga qarab o‘tiradimi, duch kelganini qo‘shib, ishqilib bir chelak bo‘lsa ham suv tashiy beradida!

Boyning chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham darmoni qolmadi.

Og‘zidan olib qo‘ydi-da, baqrayganча menga tikilib:

– O‘zing jinni-pinni bo‘ldingmi? O‘t tushdi deganing nima deganing, qayerga o‘t tushdi, nimaga tushadi?

– Sog‘man, xo‘jayin, o‘t, avvalo, og‘ilxonaga tushdi. Ot sho‘rliklarning hammasi nobud bo‘lib ketdi-da, xo‘jayin.

– Iyya, og‘ilxonada o‘t nima qiladi?

– Mening ham fikrim shu, boshqa xizmatkorlaringizning ham fikri shuki, o‘t ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

– Axir, omborda o‘t chiqadigan narsa yo‘q-ku? Bug‘doy bor edi, to‘g‘ri, guruch bor edi, to‘g‘ri, yog‘ bor edi, gazmol bor edi, to‘g‘ri, shulardan o‘t chiqadimi?

– Berdisini aytguncha shoshmang, xo‘jayin, omborga qo‘rg‘ondan o‘tibdi.

Og‘ilxonaga ombordan o‘tgan bo‘lsa kerak.

Shunaqa qilib bir-biriga tutashib ketgan-da.

– Iyya, hali qo‘rg‘on ham yondi degin!

– Qo‘rg‘on ham yondi, ombor ham yondi, og‘ilxona ham yondi, otlar ham o‘ldi, pichog‘ingiz ham sindi.

– Qo‘rg‘onga qayerdan o‘t ketibdi?

– Shamdan tutashib ketibdi, shamdan.

– Hoy, o‘zing jinni bo‘lib qolibsana, o‘g‘lim! Axir, mening dargohimda shamga kun qoldimi? Qator-qator lampalar, o‘zim Toshkentdan atay sotib olib kelgan qirqinchi fanorlar qayoqqa ketibdi? Kerosin bo‘lsa bir yilga yetariligidini bochka-bochka zapas qilib qo‘ygan edim. Nimaga sham yoqasanlar?!

– Xo‘jayin, – deyman, – o‘zingiz ham odamni juda xit qilib yuborar ekansiz-da! Butun boshlik o‘likning arvo‘higa sham yoqmay lampa yoqiladimi? Kelgan arvo‘h nimaning shu‘lasi bilan o‘ynashadi? Axir, kosaga suv quyib, ustiga olma shoxi qo‘yiladi.

Kelgan arvo‘h avval shoxga qo‘nib o‘tiradi. Bir nafas damini rostlagandan keyin haligi shamning pirqirab turgan shu‘lasi bilan o‘ynashadi. Mening entak-tentak so‘zlarimdan boy talmovsirab qoldi. Go‘yo shu gaplarni eshitgisi kelmaganday, sekin, qo‘rqa-pisa so‘radi:

– Kim o‘ldi?

Shu yerda men yuzimga qalbaki qayg‘ular chiqarib, ho‘ngrab yig‘lab yubordim.

– Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha, terakka chiqib chumchuq bolasini olaman deb yiqilib tushib, bir marta «dada» dedi-yu «g‘iyq...» etib jon berdi. Boy gaplarimning keyingi jumlalarini eshitdimi, eshitmadimi – bilmayman, choy ichib turgan piyolasini boshiga urib chakkasini yordi-yu, soqolini yulib dodlab yig‘lamoqqa boshladi. Men ham qo‘shilib yig‘lar edim.

Bir nafas ayyuhannos solib yig‘lagandan keyin men to‘xtadim, boy ham to‘xtadi. Boyning juda ham o‘pkasini uzib yuborganimdan endi uni yupatish uchun o‘zimdanda bir gap to‘qimoqchi bo‘ldim.

– Xo‘jayin, – dedim, – xudo berardan qismasin, xafa bo‘lmang, bordi-yu, o‘g‘lingiz o‘lib, uyingizga o‘t tushgan bo‘lsa, it nobud bo‘lgan bo‘lsa, pichoq singan bo‘lsa, hammasining o‘rnini bosadigan bitta xushxabar ham topib kelganman.

Boy hiqillab turib so‘radi:

– Xushxabaring qursin, padarla‘nat, qanaqa xushxabar?

– O‘rtancha qizingiz Adol opam dunyoga arziydigan bitta o‘g‘ilcha tug‘dilar.

– Iyya! – dedi boy ko‘zlarining shox soqqasi chiqquday, – Adol opang hali erga chiqmagan-ku!

– Biz ham shunisiga hayronmiz-da, xo‘jayin. Xudo beraman desa, erga tegmasa ham berar ekan. Bolani ayting-a, xo‘jayin. Badal aravakashingiz bor-ku, quyib qo‘yganday o‘shaning o‘zginasi.

Boy ortiq chidab tura olmadi. Hushidan ketib yiqildi. Men ham qamchi o‘rimidan eydigan kaltakni nasiya qilib jo‘nab qoldim. Mendan biror soatlardan keyin tulpor saman otda barlari osilib ketgan alpang-talpang, bir ko‘zi yerda, bir ko‘zi osmonda, egar qoshiga qamchi dastani tirab yig‘lab boy kelib qoldi.

«Yana biron falokat yuz berib qolmasin», deb o‘zimni chetga oldim. Boyning yig‘lab kelishini uy ichlari eshitib, ular ham «bir balo bo‘libdi shekilli», deb uydan yig‘lab chiqa boshladilar.

Bir-birlarini quchoqlab arosat boshlanib ketdi. Yig‘i tamom bo‘lgandan keyin bir-birlarini anglashib surishtira boshladilar. Keyin ma‘lum bo‘lishiga qaraganda, na ot, na it o‘lgan, na qo‘rg‘onchaga o‘t tushgan, na pichoq singan. Bo‘riboyvachcha bo‘lsa so‘lakayini oqizib o‘zi chiqib qoldi.

O‘sha kuni men ko‘rinmay yurdim. Ertasiga boy meni qidirib chalpak qilib ko‘tartirib olib keldi. Avval qurtakkina qilib yigirma qamchini bosh-ko‘z aralash edik. So‘ngra so‘radi:

– Hoy itdan tarqagan, bu qilig‘ing nimasi?!

– Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay xo‘jayin, har zamonda bir yolg‘on gapiraman deb.

– Bu o‘sha yolg‘oningmi?

– Lekin hammasi emas edi.



– Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la‘nat seni, qorning oshga to‘ymasini, juvonmarg bo‘!! Haydang bu kazzobni.

Haydab chiqarmoqchi bo‘ldilar. Ketish oldidan boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy-u o‘n to‘qqiz kun ishlagan ekanman. Haligacha bergan yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chippta qopga solib berdi. Men shunga ham shukr qilib namozshom yo‘lga tushdim.

Yana o‘sha darbadarlik, yana o‘sha makonsizlik balosi. Qo‘ndoqdan ajragan kakku bolasiday qo‘narga shox-butoqsiz. Kalasdan yuqoriroq tomon o‘rlab ketar edim.

Qirga chiqqandan keyin uzoqda bir o‘tov ko‘rindi. Shunga qarab bordim. O‘tovning eshigini qoqib «xudoyi qo‘noq» dedim. Bu kecha tunab ketishga ijozat so‘radim. Avval menga bir sidra shubha bilan qarab chiqqanlaridan keyin, qabul qildilar. Orqamdagi yukni ko‘rib o‘g‘ri deb xayol qilgan bo‘lsalar kerak. Qopning og‘zini ochib bolalarga ikkita-ikkitanidan olma olib berdim. Boshlari ko‘kka yetib ketdi. Ular meni tuya suti – qimron bilan mehmon qildilar. Qozonga yopilgan nondan yarimtasini oldimga ushatib qo‘ydilar. Qorin to‘ygandan keyin qopni boshga qo‘yib uyquga ketdim.

Tong azonda turib o‘tov egalari, er-xotin bilan xayrlashib «Sariog‘och qaydasan?» deb yo‘lga tushdim. O‘sha kezlarda mening toleyim juda ham sho‘r edi. Qaysi qishloqqa borsam, bozorning ustidan chiqar edim. Aksiga olib bugun Sariog‘ochning bozor kuni edi.

Mendan boshqa ham bozorga olma keltirganlar ko‘p edi.

– Kep qoling, armonda qolasiz, sotaman-u ketaman! Buni yeganlar non emaydi, shinavandaga sotaman, – deb javrab, maqtab peshinda arang sotib tugatdim. G‘aladonni hisoblab ko‘rsam, olti tanga bir miri bo‘pti. Keyingi bir necha oy mobaynida belbog‘ga tugilgan naqdina shundan iborat edi. Pul ko‘p, qayg‘u yo‘q. Bozorni aylanib yurib hamma narsaga xaridor bo‘lib ko‘raman. Hamma narsaning narxini bilgim keladi. Bir kishining tunuka vannasiga xaridor bo‘lib kam so‘raganim

uchun undan yaxshigina so'kish ham eshitib oldim. Kiyim bozorga kirib qunduz yoqalik bobrik paltolarga xaridor bo'lib ko'raman.

Qo'y bozoriga kirib shoxlari mullavachchalarning sallasiday buralib-buralib ketgan do'ngpeshonalik, katta bir qo'chqorga xaridor bo'lib turganimda ko'zim tanish bir basharaga uchradi.

U qo'shoqlangan bir qo'ra qo'y ustida kuzatib turar edi. Bu kim, qayerda ko'rgan ekanman? Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar menga juda tanish.

Yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko'zimga issiq-issiq ko'rinadi. Lekin egnidagi qozoqi chakmon bilan boshidagi teskari ag'darilgan telpak, qo'lidagi boshi cho'qmor kaltagi menga tanish emas. Undan ko'zimni uzmay tikilib turaman. U ham menga g'ilt-g'ilt etib tikilib turadi.

Birdan qichqirib yubordim:

– Omon!!

Bir-birovimizning quchog'imizga otildik, yalab-yuiqashdik, holahvol so'rashdik. O'z boshimdan kechirganlarimni bir chetdan hikoya qilib berdim. Sarguzashtimning oxiri yonimdagi tanga-chaqa aralash olti tanga bir miri pulni jaraqatib qo'yish bilan tamom bo'ldi.

U ham boshidan o'tganlarini so'zlab ketdi...

Xayr, bu achchiq-tiziqlar ham uzoqqa cho'zilmadi. Yana yurib ketdik. Lekin Omonning ba'zi harakatlaridan uning menga jiddiy kek saqlaganligi sezilib turar edi. Kun og'ib, peshin bo'ldi. Uvat yoqalab yo'lga chiqib olishni mo'ljallar ekanmiz, bir paykalda uch-to'rtta odam uymalashib yurgan ekan.

– Hormanglar-ov!

Yonlariga bordik. Yo'l so'ramoqchi bo'ldik. Bu kishilar sabzi kavlab qoplamoqda edilar. Ulardan Qorasaroyning yo'lini so'radik. Ular bizning ust-bosh, g'arib vaziyatimizni ko'rdilar. Oralaridan bir mo'ysafid kishi:

– Bolalarim, bozor-o'charing bo'lmagandan keyin shaharda pishirib qo'yibdimi, bizga ko'maklashinglar, sabzi kavlashinglar, bir-ikki kun ishlab biror qop sabzi qilib ketsalaring, choychaqa bo'ladi, – dedi.

Bizning ko'zimizga chol xuddi karomati bordek ko'rindi. «Yopiray, bu chol bizning sanqib yurgan darbadarligimizni qayerdan bildiykin?» deb o'yladik. Omon:

– Shaharda ham uncha ishimiz yo'q. Shunchaki ish-pish qidirib kelayotibmiz-da, – dedi.

– Ey bolalarim-ey, ishni qidirib yurmaydilar, ish deganning o'zi oyoqning tagidan o'rmalab chiqadi. Bu yerdagi cho'pni bu yerga olib qo'ysang ham ish-da, kelinglar, sabzi kavlashinglar, inshoollo, sizlarga ham bo'ladi, bizga ham bo'ladi, – dedi chol.

Bu gap ikkovimizga ham ma'qul tushdi. To'n-telpakni pushtaga qo'yib, sabzi kavlashga tushib ketdik. Sabzisi qurg'ur juda ham bitgan ekan, eng kichkinasi qayroqtoshday. Biroz kavlagandan keyin bitta-ikkitanadan sabzini etakka artib, tozalab, qarsillatib maza qilib yeb oldik. Qorin ochligidanmi, bilmadim, juda mazali tatib ketdi. Besh-olti ketmon urib, bir sabzini cho'tal qilib turar edik. Shu xilda qilib sabzi kavlab dehqonning qoplaridan bir nechtasini tikladik. Shu qatorda o'zimizning «qop»larimiz ham xiyla tiklandi. Kechga yaqin otga minib xo'jayin kelib qoldi. Xo'jayinning qorasini ko'rgandan keyin biz yana g'ayratga minib ketdik. Xo'jayin kelib «horma, bor bo'l» qilishgandan keyin, ishboshi

choldan bizning kim ekanligimizni so'radi. Chol bizni ta'rifavsiflab ketdi:

– Bu baraka topkurlarni bizga Xudo yetkazdi. Yo'l ketib turgan juda ham qobil yigitlar ekan. Bir og'iz gapimni siylab ikkovi ham peshindan buyon talay sabzi kavlab tashladi.

Boy bizga mehribonchilik bilan qaradi:

– Unday bo'lsa, bu yigitlarni qo'rg'onga olib boringlar, ovqat qilishsin. Bunday halol yigitlarga har kim ham non beraveradi, – dedi.

Boy ketgandan keyin yana bir nafas ishladik. Sabzilarni aravaga yuklab qo'rg'onga ketdik. Omonning rangi sal bo'zaribroq turibdi, orachora qornini silab qo'yar edi.

Kechki ovqatga xo'jayinnikida moshxo'rda qilingan ekan. Boyning himmati tutib ketib moshxo'rdani beo'lchov tog'orada olib chiqib o'rtaga qo'ydi. Omon bilan mening qo'limga uzun dastali,

barakaligina, no'g'oy qoshiqqa qaraganda ikki baravar «yuk» ko'taradigan qo'lbola yog'och qoshiq to'g'ri kelib qolibdi. Moshxo'rda biz uchun juda ham tansiq edi. Boshqalarga gal bermasdan hash-pash deguncha tog'orani bo'shatdik. Biz bilan sabzi kavlaganlar hasharchi qo'ni-qo'shnilar ekan. Ular ovqatdan keyin fotiha o'qishib o'z uylariga tarqalishib ketdilar. Biz boynikida qo'nadigan bo'ldik. Og'ixonaga kiradigan yo'lak yonidagi g'ulom gardish<sup>25</sup>dan yotishga joy ko'rsatdi. Biz yotadigan joyda bitta eski arqon karavot turar edi. Ko'p vaqtdan beri karavotda yotishni orzu qilib yurgan Omon tagiga bir po'stak solib, chakmonini ustiga yopib, karavotga cho'zildi. Mening yoshim undan kichikroq bo'lgani uchun yerda yotdim. Lekin Omonning karavot g'ijirlatishi menga uyqu bermas edi. Dam o'tmay o'rnidan turib, ingrab tashqariga chopib chiqib kelar edi. Chamasi, ovqatlar ichida «xushhazm» bo'lgan mushak sabzi hunarini ko'rsatmoqda edi. Men bo'lsam, eshik sanab yurib har xil xashaki ovqatlarga o'rganib qolganim uchun moshxo'rda mening qomimda o'z uyida yotganday tinch, rohatda edi. Omon tong otguncha shu xilda yugur-yugur bilan g'ingshib chiqdi.

Erta bilan vaqqli hovuzdan yuz-ko'zimizni yuvib, xo'jayinning xizmatiga hozir bo'lib turdik. Lekin Omon bechoraning, ancha rangi olingan edi.

Xo'jayin bir qumg'onda jiyda po'stloq solingan choy damlab ikkita non bilan olib chiqdi. Choy o'rtasida xo'jayin bizni gapga soldi:

– Xo'sh, yigitlar, endi nima qilmoqchi bo'lasizlar? Mana shu qo'rg'onchada sizlardan boshqa yana bir-ikkita xizmatkorlarim bor, ular kecha qirga somonga ketishgan edi. Agar qolaman desalaring, oldi qish, ovqat-ozuqlaring bemalol, qishda unchalik ish ham bo'lmaydi, mol-holga qarab, mana shu yerda gulxan yoqib maza qilib yotasizlar, kiyim-boshlaringni chaqmoqday qilib qo'yaman. Boringki, haftada choychaqangizni ham berib

turay, illo boshqa pul vajidan uzr...

– Xo'p, xo'jayin, o'ylashib ko'ramiz, – dedi Omon. Xo'jayin ichkariga kirib ketgandan keyin Omon ikkovimiz maslahatlashdik.

<sup>25</sup> G'ulom gardish – xizmatkorlar (qadim o'tmishda qullar) yashashi uchun qurilgan boshpana.

Darvoqe, xo'jayinning aytgani to'g'ri, oldi qish, boradigan, yotadigan makonimiz yo'q. Bundan ko'ra durust joyning topilishi ham gumon. Mendagi olti tanga bir miri bilan qish chiqarish qiyin.

Shu yerda qolishga rozi bo'ldik.

– Bo'lmasa, – dedi xo'jayin, – cho'zilib choy ichishib o'tirmanglar, ukalar.

Bittang bu yerda qol, bittang, otameros, boshing toshdan bo'lgur sigirim bor, shuni olib chiqib ekindan bo'shagan yerning uvatlarida yetaklab yurib boqib kelasan, bu yerda qolganing bitta-yarimta mehmon-izlom kelsa, choy-poyga qarab turasan, – dedi.

Omon uyda qolishni yoqtirib qoldi. Chunki samovarning jag'illaganiga quloq solib, mehmonlarning gapini tinglab o'tirishni yaxshi ko'rar edi. Undan tashqari, bugun kechasi bechora besh-olti marta «qatnaganidan» dalaga chiqib sigir o'tlatib yurish unga xiyla jabr bo'lar edi.

Shunday qilib, sigirmi men boqadigan bo'ldim. U uyda qoladigan bo'ldi. Xo'jayin og'ilxonadagi ola sigirmi ko'rsatib olib chiqishni buyurdi. Sigir jonivor og'ilxonadan olib chiqishda juda yuvosh ko'rindi. Yetaklab olib ketdim. Sigir orqamdan ergashib kelardi. Biroz yo'l yurib to'qayga yaqinlashganda sigirning qadami sustlashib qoldi. Orqaga tortildi. Jonivor charchab qoldi, shekilli, deb o'ylab, orqasiga qo'lindagi xipchin bilan bir urarmanmi, sigir o'zini yerga ko'tarib urdi. Ko'zlari olayib ketgan, og'zidan ko'pik chiqarib, dag'-dag' titrab, oyoqlarini silkitar edi. Juda ham kayfim uchib ketgan, nima qilishimni bilmasdan sigirning atrofida parvona bo'lib aylanar edim. Yordamga chaqiray desam, hech kim yo'q...

Shu ahvolda tipirchilab yotgan, tering sangob<sup>26</sup>da chirigur sigir birdan irg'ib o'rmidan turib dumini xoda qilib bir qochib berdi. Qani endi bu harom o'lgur o'ziga yetkazsa. Xo'jayinning otameros, qadrdon sigiri bo'lgani uchun ko'zdan yo'qolmasin deb men ham oyoq-poyoqlarimga tikan-cho'kirtak kirganiga qaramasdan jonimning boricha uni quvlar edim. Go'shting olaqarg'aga xomtalash bo'lgur, men yetib borgunimcha

<sup>26</sup> Sangob – teri oshlash uchun qilingan ohak yoki qum eritmasi.

o't chindib turadi, yetib borganimdan keyin, menga bir qarab qo'yadida, xuddi sag'risiga bo'ka<sup>27</sup> tushganday yana o'ynoqlab qochadi. Kechgacha shu zaylda sigir quvlab umrim o'tdi. Kun bo'yi uning boshbog'ini qo'lga kirita olmadim. It quvlagan tulkiday holdan toygan edim. Kun botishga og'ganda butun kuchimni oyog'imga to'plab, astoydil chopib boshbog'ini qo'lga kirgizdim. Ming siltashiga qaramasdan mahkam ushlab siltay boshladim. Ming mashaqqatlar bilan qo'rg'onga yetkazib og'ilxonaga bog'ladim. Rangim o'chib ketgan bir holatda Omonning yoniga keldim. Omon o'zining muhabbat qo'yan arqon karavotida yonboshlab yotar edi. Hol-ahvol so'radim:

– Ha, ishing qalay, Omon og'ayni?

– E, so'rama, o'rtoq, – dedi, – bo'kib qoldim.

– Iye, nimaga bo'kasan?

– Sen ketganingdan keyin xo'jayinning bir-ikki qur oshnalari mehmon bo'lib kelishdi, uyda desang, yangalarim tushmagur juda ham pazanda ekan, ming turli noz-ne'matlarni pishirib chiqarib turibdi, hali manti, hali tandir kabob, hali lag'mon, hali holvaytar deysanmi, ishqilib, noz-ne'matlarning ichiga ko'milib ketdim. Bitta-bitta cho'qilab, qornim yorilguday bo'lib ketdi. Kechagi sabzixo'rlikning bugun hissasi chiqdi. Undan keyin mehmonlar tarqalishdi. Xo'jayinning uch-to'rtta qo'shni dehqonlardan olasi<sup>28</sup> bor ekan, menga cho'tni<sup>29</sup> qo'ltiqatib oldilar, orqalaridan ergashib yurdim. U qarzdor dehqonnikiga boramiz, bu qarzdor dehqonnikiga boramiz. Hammasi ham: «Qani, bu yoqqa, bu yoqqa», – deb taklif qilishadi. Cho't ko'targanimni ko'rib, «boyning mirzasi» deb bechoralar meni ham siylashadi.

Palov deysanmi, sho'rva deysanmi, qo'y-chi, og'ayni, meni gapga solma, juda og'ir bir ahvolda bo'lib, bo'kib yotibman, ovqat bosdi, ovqat!

Bu noz-ne'matlarning ko'pini men faqat otinigina eshitgan edim. Juda ham Omonning baxtidan kunlashar<sup>30</sup> edim. Endi qanday bo'lsa

<sup>27</sup> Bo'ka – hayvonlar terisi ustiga tushadigan parazit hasharot.

<sup>28</sup> Olasi – oladigani, undiradigan haqi.

<sup>29</sup> Cho't – to'rtburchak ramkaga mahkamlangan temir simlarga tizilgan donalarni surib, qo'shuv va ayiruv amaliari bajariladigan sodda hisob moslamasi.

<sup>30</sup> Kunlashmoq – hasad, rashk qilmoq.

ham Omonni laqillatish kerak edi. Chunki ertaga egang o'lgur, tutqaloqlik sigirni u o'tlatgani olib borsa, cho't qo'ltiqlab mehmondorchilikda yursam degan fikr boshimdan ketmas edi.

– Xo'sh, sening ishing qalay? – deb so'radi Omon.

– E, meniki ham. qo'yaver, tozayam maza qildim-da, bu jonivor sigir shunday yuvvosh, shunday bir baraka topgur ekanki, yetaklab olib yurib, bir uvatga qo'yaman, xuddi qoziqqa bog'lab qo'yganday o'sha yerdan bir qarich qimirlamasdan o'tlaydi, o'tlab turgan joyida o't sob bo'lib qolsa, «naryoqqa o'tsam mumkinmi», deganday qilib menga sekin qiya qarab qo'yadi. «Ha, jonivorgina» deb yetaklab nariroqqa jildirib qo'yaman. Shunday qilib, qarasam, sigir emas, jonning rohati ekan, keyin bir sero'troq uvatga yetaklab olib borib qo'ydimda, ariq bo'yidagi tolning salqinida maza qilib uyquni urdim. Ikki-uch kundan buyon bo'lgan hamma hordiqларim chiqib ketdi. Yaxshi ham bu yerda qolmaganim, mehmonlarga xizmat qilaverib toza ham charchagan bo'lar ekanman. Omon ham mening gapimga «puk» uchgan bo'lsa kerak, ikki gapning birida «haha-haha» deb qo'yar edi.

Kechqurungi ovqatga xo'jayinnikidan ayron-atala chiqdi. Ovqatning sal «xashaki»roqligidan taajjublanib Omonga qaradim. Omon fahmladi shekilli:

– Bu ovqat lekin menga to'g'ri keladi, – dedi. – Bu kungi yegan ovqatlarimning hammasi ham zo'r, issiq mijoz ovqatlar edi, endi shuni ichib olsam, bas, shu bilan ichimda qalashib qolgan haligi ovqatlarni hazm qilib yuboraman, – deb icha boshladi.

Men ham:

– Xayr, bizning nasibamiz ham shu ekan, kun bo'yi uxlagandan keyin zo'r ovqatni ham ko'tarmaydi, – dedim-da ichaverdim.

Erta bilan uyqudan turib xizmatga qoim<sup>31</sup> turganimizda, xo'jayin yana kechagiday ikki non, bir choydush jiyda po'stloq choy ko'tarib chiqdi.

– Xo'sh, yigitlar, – dedi u, – bugun nima qilamiz? Kim nima ish qiladi?

– Xo'jayin, bir maslahati bo'lar, – dedi Omon.

<sup>31</sup> Xizmatga qoim – xizmatga tayyor.

Xo'jayin ichkariga kirib ketgandan keyin Omon:

– Insof ham kerak, – dedi, – bugun sen ziyofatda qol. Men sigir boqishga bora qolay, lekin senga aytib qo'yadigan bir nasihatim bor, uka. Xo'jayin hali mehmondorchilikka borish oldidan yarimta nonga suzma surtib chiqarib beradi. Sen uni ema. Buning ma'nosi shuki, «Agar mehmonga olib borishda to'ydirib olib bormasam, suqlik qilib meni uyaltirib qo'yadi, ne qilsa tagipast, badnafs ochko'z-da» degani bo'ladi. Sen xo'jayinga rahmat degin-u suzma nonni ernagin, – dedi.

Men ham unga sigir boqish to'g'risida ba'zi maslahatlarni berdim.

– Omon, – dedim, – mening fikrimcha, arqon karavotini ola ket. Kecha zaxda yotaverib mening belim og'rib qopti.

Hozir kuz tushib qolgan vaqt, ayniqsa, to'qay yer, zaxkash, sigirni o'tlatib qo'lasan-da, o'zing karavotni bir salqin joyga qo'yib maza qilib uxlayverasan. Mening maslahatimga Omon, Omonning maslahatiga men unadim. Omon borib og'ilxonadan sigirni echdi. G'ulom gardishdan arqon karavotni orqalab olib chiqib ketdi. Bir nafasdan keyin ichkaridan xo'jayin chiqdi.

– Omonboy qani?

– Xo'jayin, bugun sigirni u boqqani olib ketdi.

– Yaxshi, yaxshi, – dedi xo'jayin, – choyni maza qilib ichib oldingizmi. qani bo'lmasa turing! O'rnimdan turdim, qo'limga ketmon bilan bolta-teshani berdi. Qo'rg'onning orqasiga olib chiqib tepasi yer baravar kesilgan ikkita terak to'nkasini ko'rsatib:

– Qani, bir g'ayrat qilib mana shu to'nkalarini kavlab chiqarib bering, qishda o'zlaringiz maza qilib gulxan qilasizlar. Kecha Omonboy baraka topkur ham toza g'ayrat ko'rsatdi-da, bundan ham katta ikki to'nkani kavlab chiqardi. Halol yigit ekansizlar, baraka topkurlar, – dedi.

Men dilimda: «Mehmonlar kelguncha bittasini kavlar ekanmanda», – deb o'yladim. Tamom g'ayrat bilan ishga tushib ketdim. Kun qiyomdan og'ganda qo'lida yarimta nonning yuziga suzma surtib xo'jayin chiqib qoldi.

– Ha, barakalla, azamat, barakalla! Qani, mana buni bir maza qilib yeb oling.



«Bugun xo'jayinnikiga mehmonlar kelishmaydiganga o'xshaydi. Endi cho't qo'ltiq lab qarz qistagani borar ekanmizda», – deb o'yladim.

– Yo'q, xo'jayin, qorin to'q. Hech nima egim kelmay turibdi, – deb suzma surtilgan nonni olmadim. Xo'jayin ko'p qistab ham o'tirmadi:

– Mayling bo'lmasa, sizlar hali yosh, ichlaringizda moy qaynaydigan yigitlarsiz, – deb nonni qaytarib qo'rg'onga olib kirib ketdi.

«Yo qarz qistashga boramiz, yo mehmondorchilikka boramiz», – deb umidvor edim. Hali kutaman-hali kutaman, hech gapning daragi yo'q. Mehmondorchilikka borishning shirin xayolida, ochligimga ham qaramasdan, birinchi to'nkani kavlab chiqarib, ikkinchisining ham bir tarafini ochib qo'ydim. To'nkalar juda ham chatoq, serildiz ekan. «Endi bo'ldi», deganingizda tagidan yana bitta yo'g'on ildiz chiqib qoladi. Kun botishga yaqin ikkinchi to'nkani ham qulatdim. Juda tinkadan qolgan edim. «Uh» deb borib o'rnimga cho'zildim.

Shu paytda Omon ham kelib qoldi. Yelkasida karavot, rangi bo'zday oqarib ketgan, sigirni mahkam ushlagan, «horma-bor bo'l» ham qilmasdan karavotni yerga qo'yib sigirni olib borib og'ilxonaga bog'ladi.

Har ikkovimiz bir-birimizni aldaganimiz uchun andisha qilar edik. Omon meni eski keki yuzasidan aldagan ekan, men uni shunchaki qiziqchilik qilib aldagan edim. Chamasi, devona sigir kechagi menga qilgan «hunar»ini ikki baravar oshirib Omonga ham ko'rsatibdi. Karavotni qo'yib sigirga qaray desa, birov o'g'irlab ketishi mumkin, sigirni qo'yib karavotga qaray desa, sigir bir zumda ko'zdan yo'qoladi. Xuillas, bechora Omon karavotni orqalab olib kun bo'yi sigir quvlabdi. Yelkaları shilini ketibdi. Oyoqlariga tikanlar qadalib to'libdi.

U menga gapirmas edi. Men biyronlik qilib uni yupatdim:

– Shukur qil, og'ayni, yaxshi ham karavoting temir karavot emas ekan.

Bir nafas tersayishib o'tirdik.

– Ko'zdek og'aynimiz, Omon! – dedim. – Bunday bir-birimizni aldab yurishimiz yaxshi emas. Kel, hali ham kekni tashlaylik.

«Maslahatli to'n tor kelmas», – deganlar. Bir ish bo'lsa maslahat bilan qilaylik. Men ham bugun «ziyofat» eyaverib juda ham sassiqkekirdak bo'lib ketdim. Rostini aytsam, xo'jayinga «mirza»lik qilishdan ham bo'larim bo'ldi.

– Durust, – dedi Omon. – Kel, uka, shaharga tushib ketaylik, axir, ochdan o'lmasmiz. Bu xo'jayining juda xudo urgan odam ko'rinadi... Bugun kechasi bir amallab qochamiz.

– Quruqdan-qurug'-a?

– Ha, bo'lmasa nima qilar eding, tom teshib, tim urarmidik?

– Muzdini<sup>32</sup> chiqarib ketsak bo'lar edi.

Boyagi, men domlanikida, eshonnikida yuraverib xiyla qo'li egrilikka o'rganib qolganman. Egasi yo'q mol afandiniki, degan ma'qul gapga ko'nikib ketganman. Omonni yo'ldan chiqarib, boyning birorta molini o'lja qilib ketish payida edim.

Uzoq tortishuvlardan keyin Omon ham ko'ndi. Bizni ikki kundan buyon sargardon qilgan tentak sigirni so'yib, uning go'shtini ko'targanimizcha olib, shuni sotib tirikchilik qilmoqchi bo'ldik.

Kechki ovqatga xo'jayin shirqovoq qildirgan ekan, olib chiqib oldimizga qo'ydi va qovoqning mo'jiza ekanini maqtabmaqtab, buni ichgan kishi do'zax betini ko'rmasligi to'g'risida gapirib ketdi. Ovqatdan keyin xo'jayin darvozani qulflab ichkariga kirib ketdi. Biz yana joyimizda yotib uyquga ketdik... Yarim kechadan o'tganda Omon uyg'otdi. Ikkovlashib oyoq uchi bilan og'ilxonaga kirdik. Men ne qilsa ham eshak so'yib korasta<sup>33</sup> bo'lib qolgan sallox<sup>34</sup>. Jinni sigirni yiqitib oyog'ini boyladik. Omon yonidan pichoqni olib berdi. Pichoqni bir-ikki yonimga qayradim-da: «Bismillo, Ollohu akbar», – deb sigirning bo'g'ziga pichoq tortib yubordim. Naridan-beri ichak-chovog'ini ag'darib tashlab, terisini shilib, eng yaxshi joylaridan suyaksiz qilib uch pudcha<sup>35</sup> go'shtni og'ilxonadagi kunjara solib qo'yilgan qopni bo'shatib, o'sha qopga to'ldirdik. Men to'nka bo'lib turdim. Omon tomga chiqdi.

<sup>32</sup> Muzd – xizmat haqi, to'lov.

<sup>33</sup> Korasta – tajribali, ko'pni ko'rgan.

<sup>34</sup> Sallox – qassob, teri shiluvchi.

<sup>35</sup> Pud – 16,38 kilogrammga teng og'irlik o'lchov birligi.

Avval qopdagi go'shtni, undan keyin arqon bilan meni tortib olmoqchi bo'ldi.

Oy botib, kecha qorong'ilashib qolgan. Juda avaylab, tusmol bilan harakat qilamiz. Omon tomida. Lekin mening ko'nglimga sal shubha kelib qoldi. «Balki bu gal rostakam qilib mendan o'chini olar, o'zi ketib qolar-da, men bu yerda xumchaga tushgan sichqonday qamalib qolarman», – deb o'yladim-da, darrov qopdagi go'shtni bo'shatib, ichiga o'zim tushib oldim. Qopning labiga bitta kesak o'rab, arqonni mahkam qilib bog'lab «tort» dedim. Omon zo'r bilan tortib oldi.

Men o'sha paytlarda uch puddan ortiq kelmas edim. Omon meni go'sht deb o'yladi. Darhaqiqat, mening fikrim to'g'ri chiqdi. Qopni tortib olgandan keyin pastga qarab:

– Qo'lga tushding-ku, qani endi xo'jayinga javob berib ko'r, ha, nomard! – dedi-da, inqillab-sinqillab, sekin, avaylab qopni arqon bilan ko'chaga tushirdi. O'zi tomning pastroq joyini mo'ljallab sakrab tushdida, qopni ko'tarib jo'nab qoldi.

Shunday qilib, bir butun sigir go'shtidan bir chaynam ham bizga nasib bo'imadi. Shuncha ovoragarchilik boshimizga yuk bo'ldi.

Omonning orqasida juda sekinlik bilan nafas olib borar edim. Yo'lda «uh» deb qopni yerga qo'yib, bir-ikki joyda dam ham oldi. Bilmayman, qaysi qishloqqadir kirib borar edik. Men qopning ichida bo'lsam ham kun yorishayotganligini sezar edim.

Yo'ldan bir it chiqib qoldi. Omonni taladi, qishloqning har tomonidan vovillashib boshqa itlar yetib keldi. Omonni o'rab olib atrofida turar edilar. Itlardan biri kelib qopni tishladi. Itning tishi qopkiyim-bosh aralash bo'ksamga xanjar urganday botgan edi. Chidab turolmadim:

– Voydod, Omon, yuqoriroq ko'tarib ol! – deb qichqirib yuborganimni o'zim ham sezmay qoldim. Omon sigir go'shti tilga kirganligidan qo'rqib ketib, qopni tashlab yubordi. Ana shunda bir qop go'shtday yerga shilqillab tushdim.

– Bu senmisan, go'shtmisan? Go'sht bo'lsang, o'zing qani, o'zing bo'lsang, go'sht qani?

Omon dovdirab, nima deyaotganini ham bilmas edi. Qopdan chiqdim. Ikki kishi bo'lib qolganimizni ko'rgan itlar asta-sekin chekina boshladilar.

– Qani, yuraver, berdisini keyin aytaman.

Omon xomush edi. Bir-birimizga qaramay tong azonda qishloq yo'lida ketib borar edik...

## ***I. Savol va topshiriqlar***

1. Mattni o'qing.
2. Matnda uchraydigan notanish so'z va iboralarni daftaringizga ko'chiring hamda eslab qoling.
3. Matnda qo'llanilgan frazeologik birliklarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring. Ularning matndagi ahamiyati haqida fikr yuriting.

## ***II. Fonetik tahlil***

1. "O't ombordan o'tgan bo'lsa kerak" – gapidagi "o'" tovushi talaffuziga e'tibor qiling. "O't", "o'tgan", "bo'lsa" so'zlaridagi "o'" bir xil tovushmi? "O'zbek tilining imlo lug'ati"dan "o'" tovushli so'zlarni o'qing va mos kelmaydiganlarini ustunlarga yozing. Namuna: o't (olov, alanga) – o't (odam jismi) – xo'jayin.

2. "Uzun" (olmosh) – "uzum" (meva) – "uy" so'zlaridagi "u" tovushini talaffuz qiling, farqli jihatlarini nutq organlari orqali ko'rgazmali namoyon qiling.

3. "Hushidan ketib yiqildi" gapidagi "u" tovushini qanday ta'riflaysiz? "Shubha" so'zidagi "u" unlisini-chi? Yana qiyoslang: yuz, yuzlashmoq, yutinmoq so'zlarida "yu" harf birikmasi yalovchi bir tovushmi yoki alohida-alohida o'qiladigan ikki tovushmi?

## ***III. Leksik-frazeologik tahlil***

1. "Qishloq", "bo'lis", "tanob", "qo'shxona", "eshon", "pud", "xonaqoh", "shariat", "tanga", "qo'rg'oncha", "shiypon", "dandon", "chelak", "lampa", "fanor", "arosat", "o'tov", "sidra", "miri", "qoziq", "g'ulom", "qiyom", "to'nka" so'zlarining etimologiyasini aniqlang.

2. Quyidagi so'zlar ma'nosini izohlang: "o'shtomoq", "arzonqul".

3. "Juvari go'ja", "jaydari non", "manti", "tandir kabob", "lag'mon", "holvaytar"dan tashqari yana qanday milliy taomlar nomini bilasiz?

4. "Qamchi", "tulpor", "to'riq", "qashqa", "egar" so'zlari qaysi lug'aviy mavzuga tegishli?

5. Matndan uy-joy nomlari bilan bog'liq so'zlarni toping.

6. "o'tov" so'zining etimologiyasini aniqlang. "O'tov" so'zning ma'nodoshlarini toping.

7. Matndan joy nomlarini (toponimlarni) toping va ularni qaysi viloyat hududida joylashganini aniqlang.

8. "Kazzob" so'zining qaysi tildan olinganini ko'rsating va ma'nodoshlarini toping.

9. "Lampa", "kerosin", "fanor", "bochka", "yashik", "bobrik" so'zlari qaysi tildan o'zlashgan? Muallif o'zbekcha so'zlardan foydalansa bo'lmasmidi?

10. Matndan 10 ta ibora (frazeologik birlik) topib sharhlang, iboraga doir bilimlaringizni takrorlang.

11. Matnda maqollar uchraydi. Ularni toping va nima maqsadda qo'llanganini tushuntiring.

#### *IV. Morfologik tahlil*

1. "Qishloq", "oshtomoq", "arzonqul", "bug'doykar", "qo'rg'oncha", "bahavo", "kechqurun", "poygak", "dehqon", "xomlik", "uzumchi", "qayroqtosh", "moshxo'rda", "beo'lov", "jag'illamoq" so'zlarining yasalish usullarini aniqlang.

2. Bir turkumga kiruvchi so'zning boshqasiga o'tishi transpozitsiya deyiladi. Konversiya a) affiksatsiya va b) konversiya usullari yordamida amalga oshadi. Yuqorida keltirilgan so'zlar affiksatsiya (perifiks va suffiks) bilan yasalgan. Bir turkumga kirgan so'zning har qanday o'zgarishlarsiz (qo'shimchalarsiz) boshqa turkumga o'tishi (konversiya) deyiladi. Masalan, "Yaxshi bola, yaxshi o'qiydi" gapida sifat deb qaraladigan "yaxshi" so'zi birinchi holatda sifat, ikkinchi holatda ravish bo'lib kelgan. Yana e'tibor qiling: uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo'lar-bo'lmas yerda "innankeyin" deb so'raydigan odati bor edi. Ana

shu “innankeyin”ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasiz” gapida konversiya bormi? Bo‘lsa, izohlang. Matnda yana konversiyaga uchragan so‘zlarni toping.

3. “Rohat-rohat”, “mayli-mayli”, “ikkita-ikkidadan”, “achchiq-tiziq”, “mehmon-izlom” so‘zlari qanday so‘zlar, qanday yasalgan? Takroriy so‘zlar haqida ma’lumot bering va shunday so‘zlardan yana o‘ntasini keltiring.

4. Turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida ham sondan keyin ko‘plik son ishlatilmaydi: ming bir kecha, bir to‘p odam, bir qur polvon, besh talaba. “Shum bola” matnida shu qoidaga amal qilinmagan holatlar bor. Siz ularni qanday izohlaysiz?

### ***V. Sintaktik tahlil***

1. Sintaksisning ta’rifi va predmetini eslang.

2. Matndan o‘nta ot so‘z birikmasi va o‘nta fe’l so‘z birikmasini toping. Namuna: ot so‘z birikmasi katta yer egasi, epchil qo‘lli xizmatkor, juvari go‘ja. Fe’l so‘z birikmasi: yo‘lini topib olmoq, tez gapirmoq, toza ishlamoq.

3. Ot+ot, sifat+ot, son+ot, olmosh+ot qolipli so‘z birikmalariga bittadan misol keltiring.

4. “Bu qishloqda sariboy bo‘lis degan katta yer egasi bor ekan” gapini avval morfologik, keyin sintaktik tahlil qiling. Undagi so‘z birikmalarini ajratib yozing.

5. So‘z birikmasini gapdan farqlaysizmi? O‘z fikringizni misollar bilan tushuntirib bering.

6. “Juda mehribonlik bilan o‘z o‘rtalariga qabul qildilar” gapi tuzilishiga, maqsadiga, shaxsi ma’lum va shaxsi noma’lumligiga ko‘ra qanday gap?

7. “Yaxshi olmalarni joylab uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavat qildim” gapida ifodalangan fikrni yana qanday ifodalash mumkin? Bunda transformatsiya usulidan foydalaning.

8. Ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni farqlaysizmi? Ularning ta’rifini bering: “ – Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib

edi, shuning xabarini bergani keldim” gapini o‘zlashtirma gapga aylantiring.

9. “Bir nafas ayuhannos solib yig‘lagandan keyin men to‘xtadim, boy ham to‘xtadi” gapini sintaktik tahlil qiling.

10. “Salom berib sekingina paygakka tushib o‘tirdim. – Xo‘sh?! – Shunday o‘zim, sizni sog‘inib bir ko‘rib kelay deb, kelgan edim” matnidan “Xo‘sh?!” gapining ma‘nosi va sintaktik maqomini aniqlang.

11. Har bir shoir, adib ayni paytda til ijodkori hamdir. Shunday shoirlardan biri, shubhasiz, G‘afur G‘ulomdir. “Shurn bola” matnidan u ijod qilgan so‘z hamda iboralarni toping, ularning qanday usul bilan yasalganligini misollar bilan sharhlang. Namuna: - Obbo bachchag‘arcy, quv ko‘rinasa-an, ha, mayli-mayli. Lekin ko‘p yolg‘onlashmagin!

12. *“Yusuf kontorning bog‘i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bining xo‘jayinga ma‘qul tushib qolib, darrov o‘sha yerdan bitta do‘ndiqqina qirg‘iz xotinni olib, bir borgancha o‘n-o‘n besh kunlab kalasga qaytmaydigan bo‘lib qoldi”.* Keltirilgan gapni sintaktik tahlil qiling va so‘z yasash qoidalari asosida yangi so‘z hosil qilishga harakat qilib ko‘ring.

### VI. Stilistik tahlil

1. Matnda “Xudo” so‘zi kichik harf bilan yozilganini nima bilan aniqlash mumkin? Masalan, quyidagi gapdagi kabi: “Yana “xudo” qurg‘agan “imankiyin” deb so‘rab qoladi”. Bu uslubiy xatomi yoki malʼumaviy.

2. “Siymoq”, “siydik”, “duyg‘oq” kabi so‘zlar kundalik nutqimizda odatda, ma‘nodoshlari (“peshob”, “peshob qilmoq” va b.) bilan almashtirilgan holda ishlatiladi. Matnda esa “siyg‘oq” so‘zi ishlatilgan. Bu holatni qanday ifodalash mumkin? Yana shunday “pardalanib” aytiladigan qanday so‘zlarni bilasiz?

3. “Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo‘lar-bo‘lmas yerda «innaykeyin» deb so‘raydigan odati bor edi. Ana shu «innaykeyin»ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, «qandil olma pishibdi» deb aytasangiz, u sizga «innaykeyin» deb savol beradi. Siz albatta: «Shu pishgan olmani terish kerak», – deysiz. Yana

xudo qarg'agan «innaykeyin» deydi. Xayr, «sotish kerak», deysiz. Yana «innaykeyin» deb so'rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom". Ushbu matndagi "Vaholanki, shu yerda gapning o'zi tamom" jumlasini bugungi kun nuqtayi nazaridan usluban g'aliz ko'rinadi. Shuning uchun uni qanday "tuzatsa" bo'ladi. Umuman, shu matnning qayta yaratishga harakat qiling, albatta, muallif uslubini saqlagan holda.

4. Matndan troplar deb ataluvchi stilistik vositalarni toping va ularni guruhlarga ajrating.

5. Quyidagi matnda kuzatiladigan troplarni aniqlang, hosil bo'lish sababini ko'rsating. "Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib qoqi qilaman. Bog' qo'riyman. Ba'zida xo'jayinga pul zarur bo'lib qolsa, xomxatala olmalarni aravaga ortib Darvoza, Sariog'och atroflardagi bug'doykor qishloqlarga olib borib sotib kelaman. Molga to'g'rab bersa, mol emaydigan olmalarni cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doyga alishaman".

6. Lisoniy tejamkorlik va ortiqchalik (pleonasm) haqida nima bilasiz? Ular tilda qanday vazifa bajaradi? Matndan shu ikki lisoniy-uslubiy hodisani toping va izohlang.

### **VII. Adabiy tahlil**

1. "Shum bola" avtobiografik asarmi?

2. "Shum bola"da o'zbek xalqi hayotining qaysi davr voqealari tasvirlangan.

3. Omon va Shum bola obrazlarini qiyoslang, ularning har biriga xos xarakter va xatti-harakatlar nimalarda namoyon bo'ladi.

4. Nega Shum bola boylardan, o'ziga yomonlik qilganlardan o'ch olishga harakat qiladi? Uning bundan kuzatilgan maqsadi nima?

5. Shum bola bilan Omon, Shum bola bilan Sariboy bo'lis orasida kechgan dialogni yod oling va ular asosida mo'jaz bir spektakl qo'ying. Dialoglar ssenariysini tayyorlang.

6. "Shum bola" qissasini to'liq o'qing.

7. "Shum bola" qissasi kompozitsiyasi haqida so'zlab bering.

8. "Shum bola" qissasi asosida insho yozing.



**O'NINCHI DARS**  
**Oybekning "Navoiy" romanidan parcha tahlili**  
**(romandan parcha)**

Mirzo Yodgor erka o'sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, may, musiqiy olamining yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha edi. Uning ixtiyori beklari, jahongashta tarbiyachilari qo'lida bo'lganidan ular mirzoning nozik, xayolchan ko'nglini qonli mojaro, tantana va hokimiyat havaslari bilan yoqishga tirishadilar. Davlat ishlarida tadbirli ayol va umuman, bilimdon, oqila hisoblangan ammasi Poyanda Sultonbegim ham uni Xuroson taxti uchun kurashga undaydi. Buning ustiga, u turkman sultoni Hasanbekdan katta ko'mak oladi. G'ururlangan shahzoda Jurjon hokimi amir Zohid Tarxiyning ustiga yurish qilib, uni qulaygina yengadi. Jurjonn qo'lga olib, poytaxt Hirotni bosish, toj kiyish umidi bilan urinadi...

Mirzo Yodgor isyoni to'g'risida Hirotda xabar olinishi bilan Navoiy Husayn Boyqaroni ildam o'tlanishga undagan edi. Xurosonda Husayn Boyqaro hokimiyatining barqaror bo'lishini orzu qilishi u bilan go'daklik zamonlarda boshlangan do'stlik xotirasi uchungina emasdi. Navoiy Husayn Boyqaroda shoirlik, ilmparvarlik sifatlarini ko'rdi. So'ngra Husayn Boyqaro harbiy san'atni durust bilar edi. Jang maydonlarida bir necha dapqir ro'y-rost urushib, bahodirlik ko'rsatgan edi. Yurtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi.

Shoir chodirda tinch yashagandek ko'rinsa ham, haqiqatda shovqin-suronsiz, katta g'ayrat bilan qo'shinni mahkamlashga harakat qilardi. O'ziga yaqin yigitlar orqali dushman kuchlarining vaziyati haqida, Mirzo Yodgorning qay turda harakat qilish maqsadida ekanligi va boshqa ma'lumotlar olishga tirishar edi. Bu bema'ni, behuda qon to'kishlarning tezroq to'xtatilishini sabrsizlik bilan kutardi. Nihoyat, qat'iy, hal qiluvchi kunlar keldi. Husayn Boyqaro kengash chaqirdi.

Tongga yaqin Sulton Husayn atrofi maxsus posbonlar bilan qo'riqlangan hashamatli shohi chodirdan chiqdi. Uzoqda, ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar ustida siyrak yulduzlar xira ko'zlarini horg'in

qisadi, dalaning salqin shamoli tinib, chodirning ipagini yengil mavjlantiradi. Podshoh ishbilarmon beklari bilan rusumoti jang haqida soʻzlashdi. Rusumoti jangni yaxshi biluvchi beklar oʻz mulohazalarini bildira boshladilar: Mirzo Yodgorga qilinajak hujumni qay yoʻsinda olib borish, turli qismlarga kimlarni sardor tayinlash toʻgʻrisida takliflarni oʻrtaga otdilar. Husayn Boyqaro ularning chora-tadbirlarini maʼqulladi. Oʻtirganlarga koʻzlarini bir-bir tikib, qandaydir ichki shavq va yengillik bilan dedi:

— Endilikda soʻz osmon kitobida qoldi! Yoki xato qilurmenmi?

Chorpaxil, besoʻnaqay Islim barlos qalpoqli boshini ogʻir tebratdi-da, osmonni koʻrmasa ham, qahrli koʻzlarini yuqoriga — ipak chodirning koʻrkam uqalari, rang-barang ipak shokilalari osilib turgan shippga tikdi va salmoqlanib, dedi:

— Albatta... Yulduzlar ne der ekanlar?..

— Munajjimni qoshimizgʻa chorlaylik. Shoyad safarimizga tole yulduzining intizorligini bizga eʼlon qilsa, — dedi podshoh Navoiyga qarab.

— Munajjim aksini soʻzlasa, ul chogʻ hazratlari ne qilurlar? — tabassum bilan soʻradi Navoiy.

Husayn Boyqaro taraddudlanmadi.

— Tole soatini kutmoqdan oʻzga ilojimiz yoʻq. Toleimiz oʻz yulduzini egallagan kun biz ham otlarimizga minurmiz.

Beklar goh podshohga, goh Navoiyga qarab, jim oʻtirishardi.

— Podshoh hazratlari, — nazokat bilan murojaat etdi Navoiy, — bizning fikrimizcha, har bir ishda aqlni rahnamo qilmoq lozimdir. Zeroki, insonlar haq yoʻlini hamisha aqlning nuri bilan topmishlar. Har turli mushkulotlarni ham aql bilan hal etmishlar. Zafaringiz uchun barcha holat muhayyo ekan, yulduzlar bilan mashvaratni zarur, deb bilmasmen. Maʼlumingizki, men harb kishisi emasmen, ammo har ikki tarafning kuchini, har ikki yoqdagi sharoitni uzoq mulohaza etdim. Taraddudga aslo hojat yoʻq. Tong chogʻi quyosh bayrogʻi bilan bir vaqtda zafar bayroqlaringizni koʻtarishingiz kerak.

— Janoblariga maxfiy emaski, — ishonch bilan gapirdi Husayn Boyqaro, — jangning vaqti-soati tayin etilmagan taqdirda, zafar oʻz yuzini

teskari o'girurar qadamda mushkulotlar kelib chiqur. Shu jihatdan jang arafasida munajjimlarning maslahati bilan ish ko'rmoqni arbobi jang farz, deb bilurlar.

— Tarix ko'rsaturkim, — dedi Navoiy hammani bir-bir ko'zdan kechirib, — munajjimlar bilan bahamjihat bo'lgan ko'p safarlar benihoyat foje oqibatlar tug'dirmushdir. Munajjimlarning mulohazasida haqiqatdan ko'ra xurofot ziyodaroqdir. Yana takror aytamenki, tong bilan dushmanga shikast bermoq kerak.

Oz so'zlovchi, sodda bahodir Zunnun Arg'unbek yo'g'on barmoqlari bilan keng, qahrli yuzidagi dag'al soqolini qashib, muzokaradan zerikkanday, azamat gavdasini tikladi, keng ko'kragi bilan og'ir so'lish oldida, odati bo'yicha, zarda qilgan kabi, keskin gapirdi:

— Hazrat shoirning so'zida ma'ni ko'p... Ko'p topqir sinaganmiz, yoldashlarning tilida qaror yo'q. Ko'p vaqt kulgisi yig'iga aylanadi!

Husayn Boyqaro ikkilanib, o'ylanib turarkan, Navoiyning o'z bahasidagi muvofiq topgan boshqa beklar ham podshohga dalda bera tashlata teta. Alloh taoloning madadiga sig'inib, shu bugun dushmanga boshqarib yetib beradilgini o'ptirdilar. Majlis tarqaldi.

Ushbu amaldarining yoshlari bilan Husayn Boyqaro egniga sovt, tushiga ibodatga kirgide. Qandolun yo'rangorang qimmatbaho toshlar bilan o'zlangan, ajoyib natijalar namunasini ko'rgan qilichni taqdi. Yana shunday chiroqli sodog'ini, o'q'yoyni osdi. Qadamlarini tetik bosib, dabdaba bilan chodirdan chiqdi. Maxsus mulozimlar egar-jabduqlari oltin, la'l, yoqutdan ishlangan o'ynoqi otni ehtiyot bilan yetaklab keltirdilar-da, podshohni qo'ltiqlab mindirdilar...

Shoir tevaragini Shirim qorovul boshliq maxsus posbonlar qo'riqlagan hashamatli ipak chodirga kirdi. Zarrin to'shakda o'tirgan Husayn Boyqaroga ko'zi tushishi bilan uning vaziyatini allanechuk boshqacha sezib, hayratlandi-da, rasmiy ta'zimdan so'ng, podshohning ishorati bilan unga yaqin o'tirdi. E'timodli beklar, vazirlar yo'q. Muqovasi ajoyib, go'zal yangi bir kitobni tizzasiga qo'yib, shoir Hasanali Jaloyir o'tirardi. Har xil bahona bilan podshoh qoshiga kirishga, u bilan suhbatlashishga tirishgan Majididdin Muhammad undan quyiroqda gerdayib, tiz cho'kkan. Bulardan tashqari, vazifasi har vaqt podshoh

huzurida hozir bo'lish, ham uni zeriktirmaslik uchun har nav latifa va hikoyalar to'qishdan iborat bo'lgan ikki-uch hamsuhbat endi podshohning g'azabli ko'zlarini uchratmaslikka tirishar edi. Navoiy bunda anglashilmas bir sir ko'rmadi. Chunki vaziyatning og'irligini bilar edi. Mirzo Yodgor jangda qattiq mag'lub bo'lgan esada, Husayn Boyqaroning g'alaba shodliklari uzoq cho'zilmadi. Keyingi vaqtlarda har kun bir-biridan sovuq xabarlar eshitila boshlandi: "Mirzo Yodgor ko'p lashkar to'plagan emish, Amir Hasanbek unga muncha ming navkarni ko'makka yuborgan emish, Xurosonga hujum uchun Sulton Mahmud qo'shin bilan Amu yoqasida turgan emish...". Bundan tashqari podshohga gina saqlaganidanmi yoki Mirzo Yodgor bilan zimdan til biriktirganidanmi, bir ko'p beklar va yigitlar o'rdugohdan qocha boshlagan edi.

Navoiy g'amgin va g'azabli podshohga dadil qarab, hol-ahvolso'radi. Husayn Boyqaro Hirotdan chopar kelganini aytib, jig'ali boshini allaqanday ma'nodor silkib, ahvolning og'irligini ifodaladi. So'ng zarrin to'shak ostidan bir maktub chiqarib, shoirga uzatdi. Navoiy diqqat bilan qog'ozga ko'z yugurtib, keyin maktubni sekingina tizzasiga qo'ydi. Boshini quyi soldi, ikki qosh o'rtasi tugunchak bo'lib, yana qog'ozga tikildi. Voqeani butun ildizi bilan tasavvur etgach, maktubni bukib, yoniga, atlas ko'rpachaga qo'ydi-da, podshohga qaradi. Uning ko'zlari har vaqtgi ishonch va fikrchanlikni saqlar edi. Podshoh o'z hayajonini yashirolmay, achchiq shikoyat bilan dedi:

— Dorissaltanatta bir guruh razil avboshlarning fitnasini daf etmoq uchun ne chora buyursak ekan? Bu xususda umaromizning ra'ylarini bildik. Ma'qul va maqbul tadbirni shoyad siz janobdan eshitgaymiz...

Navoiy o'ziga xos ulug'vorlik, nazokat, muloyimlik bilan dedi:

— Podshoh hazratlari, mulki Xurosonning taqdiri va hayoti sizning qo'lingizdadir. Sizning muborak xotiringiz, bu alamangiz hodisa xususida ne fikr bayon qilur?

— Bu toj-u davlatni qilich bilan olibmiz, — bir nafas sukutdan so'ng keskin gapirdi Husayn Boyqaro, — uni yana ayni qilich bilan poydor qilmoqqa harakat qilg'umizdir. Bu so'zlar shoirni cho'chitmad. Dunyoning yarmi ustida qilich o'ynatgan oqsoq jahongirning bu avlodi

qilich tutishni yaxshi bilsa, qilich bilan faxrlanishni sevsa ham, lekin qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga ko'proq moyil edi. Shoir aqli kengash bilan uni to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkinligiga ishonardi ham. Lekin arzimagan bir bahona goho uning g'azabiga, olovni birdan gurullatgan shamolday ta'sir qilar edi. Navoiy vazminlik bilan murojaat etdi:

— Xoqon, yaralik ko'ngillarning shifosi uchun siz hakimi hoziq bo'lmoqlig'ingiz kerak. Kaminaning fikricha, bu yerda qilichning also hojati yo'qdir! Husayn Boyqaro, xayol surganday, chodir shipiga qarab qoldi. Hamsuhbatlar, yelkalaridan bir nima bosganday, past cho'kib o'tirdilar. O'rtadagi og'ir jimjitlikni Majididdin Muhammad buzdi:

— Darhaqiqat, — dedi u gerdaygan bir turda Navoiyga qarab, — podshohi olam hazratlarining fikrlari aqli salim mevasidir. Johil olomoni tarbiyalamoq uchun tig', loaqal tayoq lozimdir. Olomon shafqat va marhamatning qadriga yetmas. Navoiy titrab, kinoyali kuldi. — Masala adolat va haqiqat masalasidir, — javob berdi Navoiy o'zini tutishga tirishib. — Haqiqat olomon tarafidadir. Haq so'zni aytgan og'izlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq zarur. Zakot yig'moq davlat ishidir, lekin bir necha badnafs, chirkin maxluqlar uchun boylik manbayi emas!

Bundan so'ng butun Xurosonda jamiki fuqaro tirikchiligini nazarda tutib, zakotni isloh etmoq kerak. Bu idorani shiraga o'ch chirkin pashshalardan tozalamoq zarur! Takror aytamanki, elning qahri, g'azabi asoslidir. Uning ovozig a quloq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamizdir. Majididdinning rangi quv o'chib, tili kesildi.

### *Savol va topshiriqlar:*

- I. O'qituvchi berilgan matnni ifodali o'qib beradi.**
- II. Navbat bilan matn o'quvchilar tomonidan o'qiladi.**
- III. Matn bo'yicha savol va topshiriqlar:**

1. Matndagi notanish so'z va iboralarni toping va izohlang.

2. "Rusumoti jang", "shahzoda", "isyon", "dapqir", "bek", "uqa", "shokila", "munajjim", "mashvarat", "arbovi jang", "xurofot", "sovut", "dubulg'a", "sadoq" "*dorissaltanat*", "*E'timodli*", "*Hakimi hoziq*",

“avboshlar”, “johil” soʻzlarining maʼnolarini “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dan topib oʻrganing.

3. Matnda qoʻllanilgan eskirgan soʻzlarni topib, tarixiy va arxaik kabi ikki guruhga ajrating.

4. Matn tarkibidagi koʻp maʼnoli soʻzlarni toping.

5. Matn tarkibidagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzlarni toping va maʼno koʻchish usulini aniqlang.

6. Matn tarkibidagi juft soʻzlarni toping va qismlarining maʼno-munosabatini izohlang.

7. Matn tarkibidagi kompozitsiya usulida yasalgan soʻzlarni toping.

8. Matn tarkibidagi sinonim soʻzlarni toping va izohlang.

9. Matn tarkibidagi bitishuvli soʻz birikmalarini toping va sonini aniqlang! *“Podshoh hazratlari, mulki Xurosonning taqdiri va hayoti sizning qoʻlingizdadir. Sizning muborak xotiringiz, bu alamangiz hodisa xususida ne fikr bayon qilur?”*

10. *“Haq soʻzni aytgan ogʻizlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa koʻtarilgan qoʻllarni kesmoq zarur. Zakot yigʻmoq davlat ishidir, lekin bir necha badnafs, chirkin maxluqlar uchun boyluk manbayi emas! Bundan soʻng butun Xurosonda jamiki fuqaro tirikchiligini nazarda tutib, zakotni isloh etmoq kerak. Bu idorani shiraga oʻch chirkin pashshalardan tozalamoq zarur! Takror aytamanki, elning qahri, gʻazabi asoslidir. Uning ovozigiga quloq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamizdir. Majididdinning rangi quv oʻchib, tili kesildi”.* Berilgan matn tarkibidagi hol ergash gapli qoʻshma gaplarni toping.

11. Yuqoridagi berilgan parchada asosan qoʻshma gaplarning qaysi turi koʻproq?

12. Shoirning: *“Haqiqat olomon tarafidadir. Haq soʻzni aytgan ogʻizlarni qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa koʻtarilgan qoʻllarni kesmoq zarur”* soʻzlari podshohga qanday taʼsir qildi?

13. Asarda Yodgor Mirzo tabiatiga xos belgilar tasviriga eʼtibor qiling. Undan Navoiy orzu qilgan hukmdor chiqmasligiga asos toping.

14. Shoirning Boyqaro hukmdorligi mustahkamlanishini istashi sababini izohlang.

15. Matn tarkibidagi ikki ma'noli qismga bo'linadigan so'zlarni aniqlang.

16. Parchadagi qo'shma fe'llarni toping. Dunyoning yarmi ustida qilich o'ynatgan oqsoq jahongirning bu avlodi qilich tutishni yaxshi bilsa, qilich bilan faxrlanishni sevsa ham, lekin qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga ko'proq moyil edi.

17. Boshqaruv munosabatidagi so'z birikmalarini toping.

18. Affiksatsiya usulida yasalgan so'zlarni toping va qaysi turkumga tegishlilikini aniqlang.

19. *"Bundan so'ng butun Xurosonda jamiki fuqaro tirikchiligini nazarda tutib, zakotni isloh etmoq kerak. Bu idorani shiraga o'ch chirkin pashshalardan tozalamoq zarur! Takror aytamanki, elning qahri, g'azabi asoslidir. Uning ovozig quloq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamizdir. Majididdinning rangi quv o'chib, tili kesildi"*. Parcha tarkibida omonim so'zlarni toping va shakldoshlari bilan birgalikda izohlang.

20. Parchada berilgan frazeologik birliklarni toping va frazeologik tahlil qiling.

## O'N BIRINCHI DARS

### Odii Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidan parchaning fonetik, morfologik tahlili (romandan parcha)

Mirzo Ulug'bek qirmizi poyandoz to'shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yonida oq ko'pikka cho'milgan bir necha otlarni ko'rdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo'lida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi. "Tag'in noxush xabar!" — xayolida dedi Mirzo Ulug'bek.

— Qayda yuribsiz, hazratim? — dedi shayxulislom hansirab. — Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

— Tag'in ne mujda? — Mirzo Ulug'bek to'xtab nomaga qo'l cho'zdi. Bir parcha sariq qog'ozga pala-partish yozilgan nomada amir Iskandar shahzoda Abdullatifning hirovull qo'shinlari pistirmadan chiqib, uning qalb qo'shinlariga hamla qilganini yozgan edi. Amirningxabar berishicha, shahzodaning qo'shinida fillar ham bor. Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko'rgan...

Mirzo Ulug'bek ko'zlarini nomadan uzib, o'g'li bilan shayxulislomga qaradi. U endigina koshona yonida turgan bir guruh saroy mahramlariga ko'zi tushdi. Mahramlar orasida jiyanalari: shahzoda Abdulla bilan Abu Said Mirzo ham turar, zarbof to'n ichidan suvoriy so'vut, boshlariga tilla hoshiyali dubulg'a kiygan bu ikki shahzodaning ham ko'zlarida taraddud, harakatlarida toqatsizlik sezilib turardi. Mirzo Ulug'bek jo'rttaga ovozi ko'tarib:

— Shahzoda lashkari yurish boshlabdur, — dedi.

— Lashkarlarida fillar bor ermish.

Shayxulislom Burhoniddin rangi o'chib, boshini sarak-sarakb qildi:

— Davlatpanoh ne farmon bergaylar?

Mirzo Ulug'bek miyig'ida kulumsiradi.

— Ollo taolo peshonaga neni yozgan bo'lsa, shu bo'ladi, taqsir.

— Inshoolloh, peshonangiz yorug' bo'lg'ay. Va illo...



— Jang-jadal qilmoq!..

Shayxulislom cho‘qqi soqolini ushlab, bosh chayqadi va go‘yo saroy ahli eshitishini istamaganday:

— Dorussaltanaga qaytmoq darkor, onhazratim! — dedi sekin. — Qal‘a mustahkam...

Mirzo Ulug‘bek asabiy harakat qilib:

— Hayhot! — dedi.

— Shahzodada tosh otg‘uvchi arrodalar bordur, taqsir! Butkul shahar zer-zabar bo‘ladi! Butkul shahar! Chol yana asabiylashib boshini sarak-sarak qildi.

— Vallohi a‘lam bissavob! Va lekin shaharni ololmas, sultonim! Jamiki masjidlarga xutba o‘qiturmen. Barcha fuqaro oyoqqa turadur, davlatpanoh!..

— O‘yliab ko‘rmoq darkor, taqsir! — Mirzo Ulug‘bek qovog‘ini uyganicha koshona tomon yurdi. Yo‘lda turgan shahzodalar shoshapisha yo‘l berishdi. Koshonaning ikkinchi oshyonidagi devorlari firuzarang sopol parchinlar bilan bezatilgan katta xonaga shohi ko‘rpachalar to‘shalib, xontaxtalar qo‘yiigan, xontaxtalar yog‘liq patirlar, meva-cheva, qovurilgan g‘oz va kaboblarga to‘la edi.

Mirzo Ulug‘bek ichida kulib qo‘ydi: “O‘lim oldidan bazmi jamshid!”.

U to‘rga, bir mahallar bobosi Amir Temur o‘tirgan joyga o‘tirarkan, poygakda ta‘zim qilib turgan bakovulga yuzlanib:

— Boda keltir! — deb buyurdi. Lekin bodani bemalol ichish nasib etmadi. Bakovul chiqib, Mirzo Ulug‘bek joylashibroq o‘tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi chopar keltirgan nomani tutdi. Bu noma suyakli navkari Bobo Husayndan bo‘lib, birinchisidan ham vahimali edi. Shahzodaning o‘ng va chap qanot lashkari yurishni jadallatib, amir Sulton Jondor bilan amir Iskandar barlos qo‘shinlarini qopqonga tushirmoq harakatida ekan. Lekin eng yomoni — amir Sulton Jondor qayoqqadir qochgan, qo‘shinda yolg‘iz amir Iskandar barlos qolgan emish! Bobo Husayn buni xabar qilib, Mirzo Ulug‘bekka Samarqandga chekinishni maslahat bergan, o‘zi esa amir Iskandar barlos bilan Damashq atrofida jang qilib, shahzoda lashkarlarini to‘xtatib turish niyatida ekanini yozgan edi. Nomaga qaraganda shahzoda qo‘shinlari

ikki-uch farsax joyga kelib qolgan, Mirzo Ulug‘bek qanday qarorga kelmasin, bu qarorni darhol qabul qilmog‘i lozim edi!

...U hamon jang qilish, shahzoda bilan yuzma-yuz kelish istagi bilan yonar edi. Lekin Bobo Husayn yo‘llagan nomani o‘qirkan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi? Yo‘q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko‘nmas. Lekin Mirzo Ulug‘bekka minba‘d toj-u taxt kerak ermas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasalariga tegmasa, ma‘rifat yo‘lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg‘ul bo‘lsa — bas! Unga shundan boshqa ne kerak? Lekin shahzodani bu shartlarga ko‘ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo‘lsa ham, mudofaaga o‘tmoq darkor. Mirzo Ulug‘bek barcha ikkilanishlarga chek qo‘yib, to‘rda “churq” etmay o‘tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi.

— Siz Damashqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko‘mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to‘xtatgaysiz. Farmoni oliy ayonmi?

— Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopgaysen. Dorug‘a Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha a‘yon-u boyonlar darhol Ko‘ksaroyga yig‘ilsin. Mashvarat qilurmen. Mirzo Ulug‘bek shitob bilan o‘rnidan turdi. Boda to‘la kosasini bir sipqarishda bo‘shatdi-da, hech kimga qaramay koshonadan chiqdi.

### **Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:**

1. Yozuvchining qanday romanlarini bilasiz?
2. Quyida parchada keltirilgan otlarni fonetik jihatdan tahlil qiling: *“Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini nomadan uzib, o‘g‘li bilan shayxulislomga qaradi. U endigina koshona yonida turgan bir guruh saroy mahramlariga ko‘zi tushdi”.*
3. Quyidagi parchada qatnashgan jarangsiz juftiga ega bo‘lgan jarangli tovushlarni toping va fonetik tahlil qiling: *“Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopgaysen. Dorug‘a Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha a‘yon-u boyonlar darhol Ko‘ksaroyga yig‘ilsin. Mashvarat qilurmen. Mirzo Ulug‘bek shitob bilan o‘rnidan turdi”.*

4. Quyida parchadagi atoqli otlar tarkibida ishtirok etgan unilarning xususiyatlari bo'yicha tahlil qiling: *"Siz Damashqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko'mak bergaysiz, amir!"*
5. Quyidagi berilgan gapdagi harfiy birikmalar ishtirok etgan so'zlarni daftaringizga yozing va shu so'zlar ishtirok etgan maqollarga misollar toping: *"Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to'xtatgaysiz"*.
6. *"Mirzo Ulug'bek qovog'ini uyganicha koshona tomon yurdi"*. Ushbu berilgan gapni sintaktik tahlil qiling va so'z birikmalariga ajrating.
7. *"Lekin shahzodani bu shartlarga ko'ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo'lsa ham, mudofaaga o'tmoq darkor. Mirzo Ulug'bek barcha ikkilanishlarga chek qo'yib, to'rd a "churq" etmay o'tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi"*. Ushbu berilgan parchada ishtirok etgan yordamchi so'zlarni toping va ma'nosini izohlang.
8. *"Lekin shahzodani bu shartlarga ko'ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo'lsa ham, mudofaaga o'tmoq darkor"*. Ushbu parchada qatnashgan otlarni toping va ularni leksik tahlil qiling.
9. *"Mirzo Ulug'bek barcha ikkilanishlarga chek qo'yib, to'rd a "churq" etmay o'tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi"*. Berilgan parchadan yasama so'zlarni topib, ma'nosini izohlang.
10. *"Mirzo Ulug'bekka minba'd toj-u taxt kerak ermas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasalariga tegmasa, ma'rifat yo'lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg'ul bo'lsa — bas! Unga shundan boshqa ne kerak?"*. Berilgan parchadagi fe'llar qaysi zamonda ishtirok etgan?
11. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asaridan olingan quyidagi parchani sintaktik tahlil qiling: *"Amirning xabar berishicha, shahzodaning qo'shinida fillar ham bor. Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko'rgan..."*.

17. “Yo‘q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko‘nmas. Lekin Mirzo Ulug‘bekka minba‘d toj-u taxt kerak ermas!”. Yuqoridagi berilgan parchada ishtirok etgan “minba‘d” so‘zini leksik-morfologik tahlil qiling.

18. Berilgan parchadagi fe‘llarni tahlil qiling: “Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasalariga tegmasa, ma‘rifat yo‘lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg‘ul bo‘lsa — bas! Unga shundan boshqa ne kerak?”

19. “Amirning xabar berishicha, shahzodaning qo‘shinida filar ham bor”. Ushbu gapni sintaktik tahlil qiling.

20. “Mirzo Ulug‘bek barcha ikkilanishlarga chek qo‘yib, to‘rda “churq” etmay o‘tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi”. Ushbu gapdagi taqlid so‘zning sintaktik vazifasini aniqlang.

## O'N IKKINCHI DARS

### Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidan parchaning morfologik, sintaktik tahlili (romandan parcha)

Qorong'i tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug'bek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, Qohira bog'lariga kiraverishda, ot tuyoqlarining dupuri eshitilib, allaqanday g'alayon ko'tarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. So'ng bir guruh suvoriylar ot choptirib kelib, Mirzo Ulug'bekka yetmay to'xtadi. Mirzo Ulug'bek qilichini qinidan sug'urib oldi.

— Bu kim?

— A'lohazratlari. afv etsinlar! Biz dorussaltanaga borib qaytdik!.. Ketna-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon arg'umog'ini niqtab oldinga o'tdi.

— Davlatpanoh...

— So'zla!

— Darvozalar yopilgan. Salohdorlar darvozalarni ochmoqdin bosh tortadur, hazratim...

— Yolg'on! — Mirzo Ulug'bek xayolida baqirib yuborganday bo'ldi, lekin uning ovozi xirillab eshitildi-yu, bir zum og'ir jimlik cho'kdi. Qorong'ida shayxulislom Burhoniddinning: "Yo, Parvardigor!.." — deb pichirlagani va Mirzo Ulug'bekning hansirab nafas olgani eshitildi.

— Dorug'a Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

— Yo'q, onhazratim! Dorug'a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

— Bo'shat yo'lni! — Mirzo Ulug'bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o'rganmagan arabiy arg'umoq osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi...

Uning tuyoqlari ostidan otilib chiqqan tosh va kesaklar har tomon vizillab otilar, osmonda uchgan xazonlar ayovsiz savalar, lekin u hech narsani sezmas, qalbida tug'yon urgan alam og'riqni bosib ketgan edi. Xayolan u hamon ko'kka tavallo qilar, osiy bandangni kechirgaysen,

qarigan chog'imda bu xo'rlikni ravo ko'rmagaysen, deb iltijo etardi. Bog'lar chekinib, atrof xiyol yorishdi. Sal o'tmay, oldinda osmon bilan tutashgan dorussaltanat qo'rg'oni ko'zga chalindi. Qorong'ida qo'rg'onning kungurador devori shunday yuksak va mustahkam ko'rinar ediki, uni hech bir kuch zabt etolmaydiganday tuyulardi. Suvi ko'klamdayoq qurib qolgan chuqur xandaq yonida Mirzo Ulug'bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasida shahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan-bu yoqqa ot o'ynatib yurishar edi. Mirzo Ulug'bek shahzodalarga e'tibor bermay, chuqur xandaqdan ot choptirib o'tib, do'nglikdagi darvoza oldida to'xtadi. Otini niqtab borib, qilichi bilan darvozani "shaq-shaq" urgan edi, tepadagi minoradan:

— Bu kim? — degan ovoz eshitildi.

— Bu men! — dedi Mirzo Ulug'bek, yana qoni qaynab.

— Sohibi toj Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy!

— "Darvozai ohanin" namozi asrdan so'ng shoh-u gado — barchaga yopiqdir!

— Och darvozani, mal'un!

Mirzo Ulug'bek go'yo darvozani ag'dara oladigandek, ot soldirib bordi, asov oq bedov osmonga sapchib, oldingi oyoqlari bilan temir darvozani qarsillatib urdi-yu, orqaga tisarildi. Yuqorida bir daqiqa jimlik cho'kkach:

— A'lo hazratlari afv etsinlar! — dedi boyagi ovoz.

— Dorug'a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

— Sohibi saltanat men bo'lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erur!..

Darvozani och yo dorug'ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor! Mirzo Ulug'bek gapini tugatmagan ham ediki, devor tepasidagi minoradan qiqirlab bo'g'iq ovoz eshitildi:

— Salohdorning boshini olishga qo'ling kaltalik qiladur! Buning boshi emas, o'z boshingga ehtiyot bo'lg'il, Muhammad Tarag'ay! Mirzo Ulug'bek bir daqiqa tili kalimaga kelmay garang bo'lib qoldi. Bu

ingichka xirilloq ovozning egasi, har bir so'zidan zahar tomchilab turgan bu odam... amir Sulton Jondor edi!..

Voajabo! Bu mal'un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo'ldan o'tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?.. Bu beiymon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hamma yoqda makkorlik, razolat va riyokorlik! Mirzo Ulug'bek oyoqlarini uzangiga tirab, qaddini rostladi, vujud-vujudini larzaga solgan tug'yonni zo'rg'a bosib:

— Amir Sulton Jondor! — dedi. — Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa — sening baxting! Va lekin falakning gardishi bilan toj-u taxt qo'limda qolsa... esingda bo'lsin: oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't qo'yamen! — Mirzo Ulug'bek shunday dedi-da, amir Jondorning javobini kutmasdan, otining boshini orqaga burdi. Mirzo Ulug'bek handaqdan ot choptirib o'tishi bilan uni shahzodalar o'rab olishdi. Xayoli alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan Mirzo Ulug'bek shahzodalarning hayajonli so'zlaridan faqat bir narsani, “Shohruhiya qal'asi”, — degan so'zni tushundi-yu, “mayli!” deb, qo'l siltadi. U qayoqqa, nima maqsadda ketayotganini bilmas, xayolini faqat bir fikr — insonlarning riyokorligi, manfurlik va kazzobligi band etgan edi. Sal o'tmay, Shohruhiya qal'asiga ot choptirib ketgan shahzoda Abdulaziz qaytib keldi. U og'ir hansirar, g'uldirab allanimalarni aytar, lekin gapini tushunish qiyin edi. Mirzo Ulug'bek Shohruhiya qal'asi ham yopilganini, qal'a boshlig'i turkmanbegi Ibrohim Po'lat o'g'li ham sotqinlik qilganini uning g'uldirashlaridan arang ilg'ab oldi. Aqli bilan emas, allaqanday ichki tuyg'u bilan ilg'ab oldi-yu, labini qattiq tishlaganicha o'ylanib qoldi. U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina olishdi, so'ng, arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z zurriyotidan ko'rishga ahd qildi.

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Quyidagi parchada berilgan otlarni toping va ularni sintaktik tahlil qiling: Qorong'i tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug'bek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, Qohira bog'lariga kiraverishda, ot tuyoqlarining dupuri eshitilib, allaqanday g'alayon ko'tarildi, ilgarilab ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi.
2. Ushbu parchadagi undalmalarni toping va ularni fonetik tahlil qiling:  
— A'lohazratlari, afv etsinlar! Biz dorussaltanaga borib qaytdik!.. Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon arg'umog'ini niqtab oldinga o'tdi.
3. *"Mirzo Ulug'bek xayolida baqirib yuborganday bo'ldi, lekin uning ovozi xirillab eshitildi-yu, bir zum og'ir jimlik cho'kdi"*. Keltirilgan parchada qanday badiiy tasvir vositalari ishtirok etgan?
4. *"Qorong'ida shayxulislom Burhoniddinning: "Yo, Parvardigor!.." — deb pichirlagani va Mirzo Ulug'bekning hansirab nafas olgani eshitildi"*. Yuqoridagi parchadan fe'l turkumiga oid so'zlarni toping va ularni sintaktik vazifasini aniqlang.
5. Ushbu parchadagi ravishlarni toping va ularni morfologik tahlil qiling: *"Xayolan u hamon ko'kka tavallo qilar, osiy bandangni kechirgaysen, qarigan chog'imda bu xo'rlikni ravo ko'rmagaysen, deb iltijo etardi"*.  
Tahlil namunasi:
  - a) Qaysi so'roqqa javob bo'lishi.
  - b) Ma'no turi.
  - c) Daraja ma'nosi.
  - d) Yasalishiga ko'ra turi (tub, yasama).
  - e) Tuzilishiga ko'ra turi.
  - f) Otlashgan yoki otlashmaganligi.
  - g) Qaysi so'z bilan bog'langanligi va ma'no xususiyatlari.
  - h) Gapdagi vazifasi.



6. "Mirzo Ulug'bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasidashahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi". Yuqoridagi parchada atoqli otlarni toping va ularni fonetik tahlil qiling.

7. "Mirzo Ulug'bek go'yo darvozani ag'dara oladigandek, ot soldirib bordi, asov oq bedov osmonga sapchib, oldingi oyoqlari bilan temir darvozani qarsillatib urdi-yu, orqaga tisarildi". Ushbu keltirilgan qo'shma gapning turini aniqlang.

8. "— A'lo hazratlari afv etsinlar! — dedi boyagi ovoz. — Dorug'a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!". Ushbu gapdagi tarixiy so'zlarni toping.

9. Quyidagi parchada nechta so'z birikmasi bor?

"— Sohibi saltanat men bo'lurmen. Barcha farmonlarim amri vojib erur!.. Darvozani och yo dorug'ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor!".

10. "Buning boshi emas, o'z boshingga ehtiyot bo'lg'il, Muhammad Tarag'ay!". Ushbu parchadagi fe'llarni toping va mayl shakllarini aniqlang.

11. "Voajabo! Bu mal'un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo'ldan o'tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi? Berilgan parchadagi olmoshlarni toping va ularni sintaktik tahlil qiling.

12. Ushbu gapdagi "yolg'iz" so'zini tahlil qiling. "— Amir Sulton Jondor! — dedi. — Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur".

13. Quyidagi berilgan gapning kesimi qaysi shaxs-sonda ekanligini aniqlang: "A'lohazratlari, afv etsinlar".

14. "Lekin qachon, qaysi yo'ldan o'tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?".. Ushbu berilgan parchadagi gaplarni morfologik tahlil qiling.

15. "Xayoli alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan Mirzo Ulug'bek shahzodalarning hayajonli so'zlaridan faqat bir narsani, "Shohruhiya qal'asi", — degan so'zni tushundi-yu, "mayli!" deb, qo'l siltadi". Ushbu berilgan parchadagi ravishlarni toping.

16. Berilgan parchadagi otlarni toping va ularni fonetik tahlil qiling:  
*“Bu ingichka xirilloq ovoznining egasi, har bir soʻzidan zahar tomchilab turgan bu odam... amir Sulʼton Jondor edi!..”*
17. *“U ogʻir hansirar, gʻuldirab allanimalarni aytar, lekin gapini tushunish qiyin edi”*. Berilgan parchadagi kesim vazifasida kelgan soʻzlarni topib, maʼnosini izohlang.
18. Ushbu gapni morfemik tahlil qiling: *“U bir daqiqagina ikkilandi, koʻnglidagi gʻalayon bilan bir soniyagina olishdi, soʻng, argʻumogʻining boshini orqaga burdi”*.
19. Gapning turini belgilang: *“Qayga bormang, hamma yoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!”*
20. Mavzuga oid berilgan matnning tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlar lugʻatini tuzing.

## O'N UCHINCHI DARS

### O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi tahlili

O'zbekiston xalq yozuvchisi, "Urushning so'nggi qurboni", "Muhabbat" kabi hikoyalar, "Odamlar nima derkin?", "Shamollar esaveradi", "Ikki karra ikki besh", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" nomli qissalar, "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" nomli romanlar, "Qatag'on", "Inson sadoqati" nomli dramalar muallifidir.

Quyida iste'dodli adibning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi o'quvchi e'tiboriga havola qilinadi. Unda hikoya qahramoni Umri xola urush bo'layotgan joylardan minglab kilometr uzoqda bo'lsa-da, halok bo'lgani qiziqarli va ta'sirchan yozilgan.

### URUSHNING SO'NGGI QURBONI

(hikoya)

Shoikrom ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to'g'rida hech kim o'ylab ko'rmaganini u endi payqaganday g'ashi keldi. Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo'lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to'sinidagi uzun mixga ilig'liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o'ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko'zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong'oq shoxlari bir guvullab qo'ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko'zlari bilan o'sha tomonga bir qarab qo'ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo'labolishga boshini tashladi.

Shu ondayoq yana o'sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko'zi tushib,

tag'in g'ashlandi. «Ziqna bo'lmay o'! – deb o'yladi xotinini so'kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi».

Ichkarida chaqaloq yig'ladi. Beshikning g'ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday battar big'illay boshladi. Kattasi harn uyg'onib ketdi shekilli, qo'shilishib yig'lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rostladi.

– Ovozini o'chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi.

– Ovozi o'chsa koshkiydi! To'qqiz kechasida jin tekkan bunga! «Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi, – deb o'yladi Shoikrom ijirg'anib. – Shu kunimdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi».

Uni urushga olishmadi. To'qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi yo o'zi yaxshi ishlarmidi, harqalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urushning boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo'ldi-yu, zamona o'zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo'lsa yonidan o'tib ketsa ham boshqorong'i bo'laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo'larmishmi deb ketma-ket uchta qiz tug'ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo'lsayam, erta-inding Gitlarning to'ng'iz qo'pishi ko'rinib qolgan bo'lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko'lanka tashlab turibdi. Hali u qo'shninikida aza ochiladi, hali bu qo'shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g'iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko'zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko'rdi. U uylangandan keyin otadan qolgan hovlini o'rtadan ikki paxsa devor olib bo'lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo'lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqavergandan keyin Umri xola ro'zg'oring boshqa bo'lsa, o'zingga qayishasan deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O'zi kichik o'g'li Shone'mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko'ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq musulmon g'ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko'tarildi.

– Hali uxlamovmiding? – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab.

– Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchitmayapti. O‘zim itday charchaganman.

– Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, – dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. – Yotaver, bolam. – U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynona-kelin bir balo qilib bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib dasturxon ustiga qo‘ydi.

– Choy o‘lib qopti, – dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak<sup>36</sup> ko‘rpachaga o‘tirdi.

– Ol o‘zing ham, – dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi.

– Ovqatingdan qoldimi? – dedi u cho‘kkalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi.

– Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyotgandir...

– Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, – dedi Umri xola shoshilib. – Xayol surib yotib uyqum o‘chib ketdi... – U bir lahza jim oldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi. – Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi dedi.

– Hozir qo‘y suti qatta, – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yo‘g‘u... Shu paytda sigirimiz tug‘gan bo‘lardiya.

<sup>36</sup> Shaparak ko‘rpacha – qavilmagan ko‘rpacha.

Shoikrom xotining gapini eshitmadi. Birdan uning ko'z o'ngida deraza ostida pastak shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o'n kundan buyon holini so'ramaganiga afsuslanib, ichidan xo'rsiniq keldi. Shone'mat Rossiyadan ko'chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki yerga yopishib yotibdi. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi. O'shanda Shone'matning qoq suyak bo'lib qolganini, katta-katta ko'zlari nimagadir chuqur ma'no bilan o'ziga tikilganini ko'rgan edi.

«Yaqinda o'ladi, – deb o'yladi u onasining ko'ziga qaramaslikka harakat qilib, – baribir, o'ladi».

– Tuzukmi? – dedi u hammasi uchun o'zi aybdorday qovog'ini solib.

– Shukur, – Umri xola qult etib yutindi. – Hozir uxladi. – Onasi shu topda chiqib ovora bo'lmagin degan ma'noda gapirganini Shoikrom tushundi.

– Ertalab xabar olaman, – dedi u onasi o'rnidan turganda.

– Sendan nega gina qilarkan, bolam, – dedi Umri xola ayvon labida to'xtab. – Ko'rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo'lib ketadi, bolam. – Zinaga echgan kalishining bir poyi to'ng'ayib qolgan ekan, Umri xola oyog'ining uchi bilan to'ng'ayib deb ancha ovora bo'ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g'iyqillab ochilib yopildi.

– Padariga la'nat shunday turmushning! – dedi Shoikrom bo'g'ilib. Keyin dasturxonni yig'ishtirayotgan xotiniga o'shqirdi. – Seniyam padaringga la'nat! Tumshug'ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o'tirsang.

– Nega menga o'dag'aylaysiz? – Xadicha tovoqni qoshiqqa urib yig'lamsiradi. – Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotini-day so'yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo'lsangiz. Men uchta jo'ja bilan jonimni hovuchlab o'tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o'girib tishini g'ichirlatdi.

Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko'paydi. Erta bahorda ularning tug'ay deb turgan sigirini o'g'irlab ketishdi. O'sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko'ngli g'ash tortib uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o'tirishibdi. Xadicha og'iroyoq emasmi, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko'cha eshigi lang ochiq, yong'oqqa bog'log'liq sigir yo'q.

«Shu paytgacha sigir tug'ardi, ukamning og'ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o'yladi Shoikrom o'kinib. – Qani o'shalar qo'limga tushsa, chopib tashlardim».

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o'g'ri tushganini bilib xotin sho'rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo'ni-qo'shnilar qora qonga belanib yotganini ko'rishibdi.

– Shu kunda yana o'g'ri oralab qoldi, – dedi Xadicha ko'rpani qoqib tancha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasdan bitta qo'ymay terib ketishyapti.

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog'ini uyib. – Bolalar terib yegandir. O'g'ri qulupnayga keladimi?

– Og'ziga bir dona olgan bo'lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obchiqib sotsa, bir kosa jo'xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o'pirilib yotibdi?!

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom yana g'o'ldirab. Ammo bu safar o'zining yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko'nglida paydo bo'lgan g'ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi. «Rost-da, – deb o'yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, – bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo'xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha

yolg'on gapirmaydi. Bolalar yegan bo'lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo'latmaydi...»

Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo'lar deb ekkanmiz, norasidalarining nasibasiga tegmang deb bobillab beribdi. Shoikrom o'shanda onasining yoz bo'yi kelini bilan yuzko'rmas bo'lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi. «Xadicha anoyi emas, qurumsoq...»

U aylanib yong'oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham o'sha tomondagi devorning bir cheti o'pirilganini, ostiga tuproq to'kilganini ko'rib yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo'ralab turganday bo'ldi.

Yong'oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog'i ostida to'kilib yotgan devor tuprog'i ham shubhali, vahimali ko'rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o'chirib sandal chetiga yotdi-yu, ko'nglidagi g'ulg'ula kuchayib ketaverdi. Kuzda o'zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so'ritokdan g'arq pishib yotgan uzumlarni o'g'irlab ketishganini esladi.

Shamol borgan sari avjiga chiqar, hovlida yong'oq barglari shovullab, shoxlari shubhali g'ichirlar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.

Xadicha rost aytadi. O'zi kechalari smenada bo'lsa, xotini uchta jo'ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o'g'riga o'ljaning katta-kichigi bormi? Qo'liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o'zi yo'g'ida uyini o'g'ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... «Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak». Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlar uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g'unajinini o'g'irlagani uchun, o'lim to'shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq gasos olsinki o'sha xudo bexabarlardan.



U o'rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitolmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho'ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo'llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig'liq turgan ikki o'ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash'aladay yoritib berardi.

Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin! «Menga desa otib yubormaydimi! – deb o'yladi u ayvon labiga cho'qqayib o'tirgancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo'zni o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini eydi».

U chaqqon harakat qilarkan, a'zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o'zi payqamas, faqat bir so'zni takrorlard: «Menga desa otib yubormaydimi!» U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o'tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo'ydi. Keyin birdan bolalari kechasi hovliga tushsa nima bo'ladi degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko'tardi.

– Ha?

– Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! – dedi Shoikrom ko'zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, «xo'p» dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o'tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog'ini o'chirib yana uyga kirdi.

Har ehtimolga qarshi shundoq estik tagiga, namatga ko'ndalang yotib oldi. «Menga desa otib tashlamaydimi?» deb o'yladi yana o'shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o'yladi. Shone'mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom har kuni uni maktabdan o'zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poyiab o'tirardi. Otasi o'lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o'qirdi. O'shanda Shone'mat yig'lamagan, ammo ichikib kasal bo'lib qolgan edi. Endi bo'lsa besh kunligi qoldimi-yo'qmi, aka

bo'lib xabar ham ololmaydi. Shoikrom uxladimi, yo'qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig'ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog'iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o'rnidan turib ketdi. Ayvon chirog'ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko'rdi-yu dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi.

Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. «Boshqalari gochdi» degan fikr lip etib xayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahza ko'zlari olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

– Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchi borayotganini elas-elas his qilib o'zini yerga otdi. Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushtlay ketdi.

– Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo'li bilan uniqqan chit ko'ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko'rinib turar, boshqa qo'li bilan esa ilondek sinni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog'iga tekkanida yulqib olmoqchi bo'lgan-u, qo'liga o'ralashib yiqilgan edi. Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha o'zini onasining quchog'iga otdi.

– Oyijon, oching ko'zingizni! -- dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o'pib. U anchadan keyin o'ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig'layotganini payqadi. Boshini ko'tarishi bilan marza chetida o'tirgan Shone'matga ko'zi tushdi. Necha haftalardan buyon o'rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko'ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko'zlari vahima bilan boqar edi.

– Nima qilib qo‘ydim, ukam! – dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasini ko‘tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

– Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone‘mat ovozi titrab. Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

– Zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone‘mat yana o‘sha ohangda. Aftidan, u yig‘lay olmas, yig‘lashga madori yetmasdi.

– Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar. Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitilmadi. Foydasi ham yo‘q edi.

\* \* \*

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi.

– Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

### *Savol va topshiriqlar:*

1. O‘tkir Hoshimov haqida nimalar bilasiz? Gapirib bering.
2. «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyasini sinchiklab o‘qing. Asarning asosiy mazmunini so‘zlab bering.
3. Hikoyaning bosh qahramoni Shoikromning ko‘ngli g‘ashligi, diqqinapas holatiga nima sabab ekanini tushuntiring.
4. Urush odamlarni o‘zgartirib yuborganini hikoya qahramonlari so‘zlari orqali tushuntiring.
5. Shoikromni qotillikka undagan, ko‘rinmas o‘g‘ridan o‘ch olishga majbur qilgan, oqibatda o‘z onasining o‘limiga sabab bo‘lgan narsa nima?
6. Hikoya qahramonlari xatti-harakatlarini tahlil qiling. Umri xola xarakterini izohlang.
7. Hikoyadagi Umri xola va «Dunyoning ishlari» qissasidagi ona obrazi o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor?
8. Dafiaringizga hikoyada ishlatilgan maqol va iboralarni yozib oling. Ularni yozuvchi qaysi maqsadda qo‘llaganini tushuntirib bering.

9. Shoikromning o'g'rilar uchun qo'ygan tuzog'i tufayli Umri xola qurbon bo'ldi. Bu yerda, sizningcha, kim qotil?

10. "Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushlay ketdi". Gapni sintaktik tahlil qiling:

- a) Gapning ifoda maqsadga ko'ra turlari;
- b) Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari;
- c) Gapning tuzilishiga ko'ra turlari;
- d) Bosh bo'laklarning ishtirok etishiga ko'ra turlari.

11. "Shoikrom har kuni uni maktabdan o'zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o'tirardi". Tagiga chizilgan so'zlarni quyidagicha tahlil qiling:

1. Fe'lni ajrating.

2. Nimani atab kelishiga ko'ra fe'lning qaysi turiga kirishini aniqlang.

1. O'timli yoki o'timsiz fe'l ekanligini belgilang.

2. Nisbat shaklini aniqlang.

3. Bo'lishli-bo'lishsiz fe'lni guruhlang.

4. Yordamchi, ko'makchi fe'lni aniqlang.

5. Vazifa shaklini aniqlang.

6. Zamon shaklini belgilang.

7. Mayl va shaxs-son shaklini aniqlang.

12. Topshiriq. "Hamon shamol o'kirar, osmönning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rqitolmas edi". Berilgan gapni morfoiogik tahlil qiling.

*Morfologik tahlil shartlari:*

1. Berilgan so'zning turkumini aniqlang;

1. Mustaqil so'z turkumi;

2. Yordamchi so'z turkumi;

3. Alohida olingan so'zlar turkumi;

4. Har bir so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha tahlil qiling.

13. Topshiriq. "Sut ichmay zahar ichsam bo'lmasmidi" jumlasini husnixat asosida ko'chiring. Parchada keltirilgan "sut" so'zini quyidagicha tahlil qiling:

a) "sut" so'zi qanday so'z?

b) Qanday tovushlar yordamida hosil bo'lgan?

c) So'zdagi u unli tovushini tilning vertikal harakatiga ko'ra, tilning gorizontal harakatiga ko'ra va lablarning ishtirokiga ko'ra tasnif qiling.

d) Til oldi undoshlarini aniqlang va tasnif qiling.

e) So'zning sinonimlarini toping.

f) Sutning shifobaxsh xususiyatlari haqida gapirib bering.

g) Sutdan tayyorlanadigan maxsulotlarni sanab bering.

h) Sut bilan bo'g'liq bo'lgan quyidagi maqollarni davom ettiring va izohlang:

1. *Sut bilan kargan – jon bilan chiqar.*

2. Sut bermagan sigir etga so'yilar..

3. Sigir qora, ammo suti oq.

4. Sigirning tilida sut bor.

14. Uyga vazifa. Hikoya matnini o'qing va matn tarkibida ishlatilgan frazeologik birliklarni daftaringizga husnixat bilan ko'chiring. Frazeologik tahlil qiling.

Frazeologik tahlil:

a) Matndan frazeologik birliklar ajratib ko'rsating.

b) Iboralarning frazeologik ma'nosi va uslubiy bo'yog'ini aniqlang.

c) Frazeologizmlarning omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatlarini aniqlang.

## O'N TO'RTINCHI DARS

### “Asrga tatigulik kun” romanidan parchaning fonetik va leksik tahlili (romandan parcha)

Temir yo'lining ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik — Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi. Bo'ronli bekatidan to Naymandagi xesh-ajdodlar qabristoni Ona Bayitgacha temir yo'ldan hisoblaganda, kamida o'ttiz chaqirim keladi. Sario'zak dashti orqali to'ppa-to'g'ri kesib chiqilganda ham shuncha masofa. Mabodo, cho'lda adashib qolmay, yaxshisi, temir yo'l bo'ylab boraveray, degan odam qabristonga hali ancha uzoq yurishi kerak. Shunday qilganda, Qiyshiqsoy jarligidan o'tib, Ona Bayitga borguncha ancha-muncha aylanishga to'g'ri keladi. Boshqa yo'l yo'q edi. Shunday qilib, eng yaqin yo'ldan yurilganda ham borishi-yu kelishi oltmish chaqirim kelardi. Baribir Edigey o'z gapida turib oldi: — Qo'ysalaringchi, yigitning sha'niga to'g'ri kelmaydigan gaplarni, — deb tinchlantirdi u yoshlarni. — Bunday odamni ajdodlari yotgan joyga, Ona Bayitga qo'yishimiz kerak. Rahmatli o'zi shunday vasiyat qilgan. Kelinglar, gap sotib o'tirmay ishga o'taylik, dafnga tayyorlanaylik. Yo'limiz olis. Ertaga azonlab yo'lga tushamiz...

Edigeyning aytgani aytgan, buni hamma tushunardi. Shuning uchun ham hammalari rozi bo'lishdi. To'g'ri, Sobitjon biroz tixirlik qildi. U shu kuni yuk poyezdida (passajir poyezdlari bu yerda to'xtamay o'tib ketadi) yetib keldi. Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirikligini ham, o'lganini ham bilmasdi. Shunga qaramay, dafn marosimiga yetib kelgani Edigeyning ko'nglini yumshatib, quvontirib yubordi. Boshlariga tushgan og'ir musibatdan ikkalasi bir lahza quchoqlashib, yig'i-sig'i qilib olishdi. Edigey keyinroq o'zining nega bunday qilganiga ajablandi. Ikkalasi hovli sahnida — Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig'lab turishdi. Edigey nimadandir qattiq ta'sirlanganday bo'ldi. Sobitjonning yoshlik chog'lari esiga tushdi: u mushtday bola edi, otasining suyanchig'i edi. Temiryo'lchilarning bolalari uchun Qumbelda ochilgan maktab-

internatga olib borib joylashtirganlari yodida. Qo'llari bo'shadi deguncha, goh yo'lovchi poyezdda, goh tuyada ko'rgani borishardi. Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikin, o'zi biror nojo'ya ish qilib qo'ymadimikin, o'qishlari qalay ekan, o'qituvchilari u haqda nima derkin, deb xavotirlanib borishardi. Ta'til tugagan paytlari o'qishga kechikib qolmasin, deb ayozli kunda necha martalab po'stinlarga o'rab, tuyada qalin qor bosgan Sario'zak dashtligi erqali olib borib qo'yishardi. Ko'zyoshi qilib olishgach, hol-ahvol so'rashga o'tishdi, ishdan gap ochishdi. Shu lahzada ma'lum bo'lib qoldiki, arzanda, bilag'on o'g'il otasini izzat-ikrom bilan ko'ngildagidek dafn etishga emas, balki qarzdan qutilish uchun naridan beri ustiga tuproq tortib, tezroq qaytib ketishga kelgan ekan. U g'alati-g'alati gaplarni ayta boshladi: marhumni uzundan uzoq Ona Bayitga olib borib nima qilamiz, shunday ulkan Sario'zak cho'lida bir qabrga joy topilmaydimi? Ostonadan boshlab dunyoning narigi chekkasigacha joy degan narsa to'lib toshibiyotgan bo'lsa? Qabrni shu yaqin o'rtadan, o'zi umr bo'yi ishlab kelgan temir yo'l bo'yidagi biror do'nglikdan qazish kerak. Marhum o'tgan-ketgan poyezdlarning taraqa-turuqini eshitib yotadi... Sobitjon, hatto shu xususda aytiladigan qadimiy maqoini ham eslab qo'ydi: o'ladigan odamning o'lgani yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi. Munchalik cho'zib, bosh qotirib o'tirishning kimga keragi bor? O'lgan odamga qayerga ko'milishining nima ahamiyati bor? Bunday mahalda ish qancha tez bitirilsa, shuncha yaxshi!

...Edigey; qariganimda ham ahmoq ekanman, deb o'zini koyiy boshladi ichida. Mana shu laqma bilan sal avval quchoqlashib, ho'ngrab yig'lab yuborganidan nomus qilib, afsuslandi. Kazangapning o'g'li bo'lsa ham ablah ekan. Edigey o'rnidan turdi. Devor tagiga o'rindiqlik qilib yog'och shpal qo'yilgan bo'lib, o'rindiqlikda besh kishi maslahatga yig'ilishgan edi. Edigey ko'pchilikning oldida bir nima deb yubormaslik uchun o'zini arang tiyib turardi. Shunday qayg'uli bir kunda odamlar ichida haqorat gap aytsa, yaxshi bo'lmaydi. Kazangapning xotirasi hurmatini qildi. Shuning uchun u yotig'i bilan tushuntirdi:

— Atrofdagi yer ko'p, albatta, istaganingcha topiladi. Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko'mib ketaverishmaydi. Har

holda, bejiz bo'lmasa kerak. Axir, o'likka yer qahatmi? — U jimib qoldi, Bo'ronli ahli ham uning gaplarini jimgina tinglashdi. — O'zlaring hal qilinglar, o'ylab ko'ringlar, men u yoqda nima bo'layotganini bilib kelayin-chi. Edigey avzoyi buzilib rangi-quti o'chgancha, nariga odimlab ketdi, gunohdan uzoqroq bo'layin deb o'yladi, shekilli. Qoshlari chimirilib, qansharidagi ajini bo'rtib chiqdi. Tabiatan qo'rsroq, qiziqqonroq edi u — shuning uchun ham uni “Bo'ron” deb atashadi-da. Mana, hozir ham odamlar bo'lmaganida Sobitjonning hayosiz ko'zlariga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya. Umr bo'yi esidan chiqmaydigan qilardi. Edigey Sobitjon bilan bo'lgan suhbatdan so'ng ta'bi xira tortib, Qoranor oldiga bordi. Shunday bo'lishini u oldindan sezgan edi. Sobitjon otasining o'limiga kelganini minnat qilayotgan bo'lsa, jini qo'zimay nima ham qilsin. Unga otaning o'limi ortiqcha yukday, bu yukdan tezroq qutulishga harakat qilardi. Edigey ortiqcha gapirishni lozim ko'rmadi, baribir hamma og'irlik o'zining gardaniga tushardi. Har holda, qo'ni-qo'shni ham o'zlarini chetga olishmadi. Ko'pchilikning sadag'asi ketsang arziydi. Temir yo'lda zarurishi bo'lmagan kishilarning hammasi shu yerda, ertangi dafn marosimiga va ma'raka oshiga tayyorgarlik ko'rish uchun yordamga tutinishdi. Xotin-xalaj uyma-uy yurib idish-tovoq yig'ishdi, samovarlarni tozalashdi, xamir qorib, non yopa boshlashdi. Erkaklar suv tashib keltirishdi, ishdan chiqqan eski shpallarni arralab, o'tin tayyorlashdi. Dashtda o'tin-cho'p xuddi suvday aziz. Bu ishlarga faqat Sobitjongina xalal berardi. Oblastda kim qaysivazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to'g'risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg'itardi. Qaynotasining o'limiga kelin bola kelmaganidan u zarracha ham hijolat tortmasdi. Ajabo, deya yoqasini ushlardi Edigey, emishki, kelin allaqanday konferensiyada qatnasharmish, ana shu yig'inga qandaydir chet ellik mehmonlar tashrif buyurarmish. Cholning nevaralarini olib kelish to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ular o'zlashtirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirmoqchi bo'lgan odamning attestati toza bo'lishi kerak ekan. “Odamlarga nima bo'lgan o'zi? — deya xunob bo'ldi Edigey. — Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! — Bu fikr Edigeyning ich-etini tirnardi. — Modomiki, ularga o'lim



ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?"

Qoranor Bo'ronga jabduq urib bo'lgach, Edigey o'rnidan turg'azdi va kelbatini ko'rib mamnun bo'ldi. Hatto, o'z ishidan g'ururlanib ham qo'ydi. Ustiga rango-rang gajimli yopqich tashlangan, o'rkachlari o'rtasiga qoyilmaqom qilib egar urilgan Qoranor salobatli va mahobatli ko'rinardi. Ha, yoshlar ko'rib havas qilishsin, ayniqsa, Sobitjon ko'rib qo'ysin: munosib yashab o'tgan odamning o'limi ham hech kimga malol kelmaydi, tashvishi tushmaydi, aksincha, qayg'uli voqea bo'lsa-da, juda katta voqea ekanini, shu boisdan ham so'nggi manziliga izzat-hurmat bilan uzatilayotganini bilib qo'yishsin. Ba'zi xalqlarda dafn marosimida muzika chalishadi, bayroq ko'tarib borishadi, ba'zi xalqlarda osmonga o'q uzishadi, boshqa xalqlarda esa gulchambarlar qo'yib, marhumni gulga burkashadi...

Edigey Bo'ron bo'lsa, ertaga tongdayoq popukli yopqich tashlangan Qoranorda Kazangapni so'nggi abadiy manziliga — Ona Bayit mozoriga olib boradi... Poyonsiz, hayhotday Sario'zak dashtini kesib o'tishar ekan, u yo'l bo'yi faqat Kazangapni o'ylab boradi. Xesh-ajdodlar qabristonida do'stini tuproqqa uzatayotganida ham xayoli faqat marhumda bo'ladi. Ha, shart shundoq bo'lgan. Yo'lning uzoqligi yoki yaqinligidan qat'i nazar, hech kim, hatto, marhumning o'z o'g'li ham uning so'nggi xohish-irodasini bajarishdan bo'yin tovlay olmaydi... Edigey jabduq ishlari bilan ovora bo'lib turgan vaqtda Edilboydaroq payt topib, Sobitjonni bir chekkaga chaqirib oldi: — Qani, bu yoqqa soyaga kel, gaplashib olaylik. Gap uzoqqa cho'zilmadi. Edilboy ortiqcha tushuntirib o'tirmay, gapning po'stkallasini aytdi-qo'ydi:

— Xudoga ming qatla shukur qilgin, yaxshiyamki, olamda otangning Edigey Bo'ron degan do'sti bor ekan. Rasm-rusmini o'rniga qo'yib, dafn etishga sen xalal berma. Shoshilayotgan bo'lsang, ushlab turganimiz yo'q. Men sening o'ringga bir hovuch tuproq tashlab qo'ya qolaman!

— Mening otam, nima qilsam o'zim... — deb Sobitjon chaynala boshlagan edi, Edilboy gapini shartta kesdi:

— Ota-ku seniki, biroq sening o‘zing o‘zingniki bo‘lmay qolibsan.

— Ja, unchalik emas, — Sobitjon biroz yon berganday bo‘ldi.

— Bo‘pti, shunday kunda janjal chiqarmaylik. Ona Bayit bo‘lsa bo‘la qolsin, menga nima, faqat uzoqlik qilarmikin, deb o‘ylagan edim... Gapga nuqta qo‘yildi. Edige y Qoranorni hammaga ko‘z-ko‘z qilib keltirib qo‘yib, bo‘ronliliklarga qarata: “Qo‘ysanglar-chi, erkak kishining gapini qilaylik, bunday odamni Ona Bayit mozoriga qo‘yamiz”, — deganida hech kim e‘tiroz bildirmadi, hamma jimgina rozi bo‘ldi...

### **Savol va topshiriqlar:**

I. O‘qituvchi berilgan matnni ifodali o‘qib beradi.

II. Navbat bilan matn o‘quvchilar tomonidan o‘qiladi.

III. Matn bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Matndan notanish so‘z va iboralarni toping va izohlang.

2. Turkiy xalqlarning iftixori bo‘lmish Chingiz Aytmatov haqida ma‘lumot bering.

3. Yozuvchi asarlari ro‘yxatini tuzing.

4. Asarlarining janr xususiyati haqida fikr yuriting.

5. *Topshiriq.* “Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikin, o‘zi biror nojo‘ya ish qilib qo‘ymadimikin, o‘qishlari qalay ekan, o‘qituvchilari u haqda nima derkin, deb xavotirlanib borishardi”. Mazkur matndan chuqur til orqa undoshlari qatnashgan so‘zlarni ajrating va fonetik tahlil qiling.

6. Matndan tovush o‘zgarishlari mavjud bo‘lgan so‘zlarni topib, daftaringizga ko‘chiring va tahlil qiling.

7. Parchadan tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni topib, daftaringizga asos va qo‘shimchalarga bo‘lib ko‘chiring.

8. O‘zakda yuz beradigan tovush o‘zgarishi haqida gapirib bering va berilgan matndan misollar toping.

9. Qo‘shimchada qanday tovush o‘zgarishlari yuz beradi? Misollar topib izohlang.

10. Ham o'zak, ham qo'shimchada yuz beradigan tovush o'zgarishlari haqida ma'lumot bering. Asardan keltirilgan parchadan misollar toping.
11. Matnda qo'llanilgan iboralarni toping va ma'nodoshlari bilan almashtirib ko'ring.
12. Matnda qo'llanilgan ko'chma ma'noli so'zlarni toping va daftaringizga ko'chiring.
13. Metafora nima? Berilgan parchadan metaforalarga misollar toping.
14. *"Oqmoyaning kuch-quvvatiga-yu yo'rg'asiga ishonmaganda Sario'zakdek soqov cho'lga yo'l olishga jur'at eta olarmidi?!"*. Ushbu gapda so'z ma'nosi ko'chishining qaysi usuli qo'llangan?
15. Parchadan o'xshatishlarni toping va daftaringizga ko'chiring.
10. Sobitjonning ota jasadini shu yerning o'ziga ko'mib qo'ya qolishga urinishi sababini izohlang. Uning marhum vasiyatiga beparvoligi nimadan deb o'ylaysiz?
11. Edigeyning jasadni Ona Bayit mozoriga qo'yishga astoydil urinishi zamirida qanday ma'naviy-axloqiy asos bor deb o'ylaysiz?
12. Sobitjon bilan ko'rishib yig'lagan Edigeyning keyinroq o'zini ahmoq deb yozg'irishi sababini izohlang.
13. Edigeyning: *"Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?"* — degan o'ylari xususida mulohaza yuriting.
14. Edilboy bilan Sobitjon suhbatini qayta o'qib, izohlang. Suhbatdoshlar ma'naviyatini baholang.
15. Ko'mish marosimida ayoli va bolalarining qatnashmayotganidan Sobitjon nega xijolat bo'lmayapti, deb o'ylaysiz?
16. Odatda tili achchiq Edigeyning Sobitjonga qattiq gapirib yubormagani sababi haqida o'ylab ko'ring.
17. Uyga vazifa. Berilgan parchadan iboralarni toping.

## O'N BESHINCHI DARS

### “Asrga tatigulik kun” romanidan parchaning morfologik va sintaktik tahlili (romandan parcha)

*Bu voqea jungjanglar Sario'zak dashtlarini egallab olish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urush olib borgan zamonlarda yuz bergan edi. O'z yerlaridan ayrilishni istamagan mahalliy qabilalar tinimsiz kurash olib borishar, katta-kichik janglar orasida tinch damlar ham bo'lardi. Nayman ona fojiasi ayni shunday tinch kunlarning birida bo'lgandi...*

Ona Bayit qabristonining o'z tarixi bor. Rivoyatga ko'ra, o'tgan zamonlarda Sario'zakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilishar ekanlar. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo'shni o'lkalarga qul qilib sotib yuborishar ekan. Bu tutqunning omadi kelgan hisoblanar ekan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kuni o'z vataniga qochib ketishi mumkin ekan-da. Jungjanglarning qo'l ostida tutqun bo'lib qolganlarning esa sho'ri qurir ekan. Ular mahkumning boshiga teri qalpoq tortish yo'li bilan dahshatli bir tarzda qiynab, uning xotirasini yo'qotar ekanlar. Odatda bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar giriftor bo'lishardi. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini dastlab o'ngidan, so'ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungjanglarning chapdast qassoblari kattakon bir tuyani so'yib, terisini shila boshlaydilar. Ularni birinchi navbatda, eng qalin va eng og'ir bo'lgan bo'yin terisini ajratib bo'laklarga bo'lishar, hovuri chiqib turgan yopishqoq terisini shu zahotiyiq hozirda suzuvchilar kiyadigan qalpoqcha singari tutqunning yangi qirilgan taqir boshiga kiygizib qo'yishardi. Mana shu teri qoplash deyiladi. Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul yo dahshatli azoblarga bardosh berolmay o'lib ketar, yo xotirasidan umrbod mahkum etilib, o'tmishini eslay olmaydigan qulga – manqurtga aylanib qolar edi. Bitta tuyaning bo'yin terisi besh-oltita qalpoqqa yetadi. Qalpoq qoplangandan so'ng halokatga mahkum etilgan har bir qul qiynalganda boshini yerga

tegiza olmasin uchun bo'yniga yog'och bo'yinturuq bog'lashardi. Shu alfozda ularning yurakni ezuvchi, quloqni qomatga keltiruvchi dod-faryodlari eshilib qolmasin, deb odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yaydoq dalaga oyoq-qo'llarini bog'liq holda jazirama oftob tig'iga eltib tashlar edilar. Bu qiynoqlar bir necha kun davom etardi. Kerakli joylarga soqchilar qalin qo'yilib, asirlarning qabiladoshlari ularni qutqarishga kelib qolishsa, o'tkazmastik uchun chora-tadbir ko'rib qo'yilgan edi. Biroq qutqarishga urinishlar juda kam bo'lardi, chunki ochiq dalada qilt etgan sharpa darhol sezilib qolardi. Buning ustiga jungjanglar falonchini manqurt qilishibdi degan xabar tarqalgan taqdirda tutqunning eng yaqin birodarlari ham uni qutqazishga yoki pul evaziga qaytarib olishga urinmayoq qo'yardilar, chunki bu o'sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so'z edi. Faqat rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayolgina o'z o'g'lining bu taxlit achchiq qismati bilan murosqa qila olmadi. Sario'zak afsonasi shu haqda. Ona Bayit – Onayizor makoni qabristonining nomi shundan kelib chiqqan. Dalaga tashlangan asirlarning ko'pi Sario'zak quyoshi tig'ida dahshatli qiynoqlarga bardosh bero'lmay halok bo'lgan. Besh-oltita manqurtdan bitta yoki ikkitasigina tirik qolgan. Boshqalari ochlikdan emas, hatto tashnalikdan ham emas, kallaga qoplangan terining quyosh issig'ida qovjirab, qoq miyani chidab bo'lmas darajada siqishi natijasida jon taslim qilar edilar. Olov purkab turgan quyosh ostida teri qalpoq shafqatsiz ravishda torayib, qulning qirilgan boshini temirchambarak singari jingirtob qilib qisardi. Oradan bir kun o'tishi bilan jabrdiydalarning taqir boshida soch nish ura boshlaydi. Osiyoliklarga xos tikanday tik dag'al sochlar ba'zida xom terini teshib chiqardi, ko'p hollarda esa chiqishga yo'l topolmay yana qaytadan qayrilib, bosh terisiga qarab o'sardi va avvalgidan ham battar azob berardi. So'nggi sinov davomida tutqunlar es-hushlarini butunlay yo'qotardilar. Oradan besh kun o'tgachgina jungjanglar kelib tutqunlardan qay biri tirik qolganini ko'zdan kechirardi. Aqalli bitta tutqun tirik qolgan bo'lsa ham, maqsadga erishilgan hisoblanardi. Bunday qulni qiynoqdan bo'shatib, suv berib, asta-sekin kuchga kiritib, oyoqqa turg'izishardi. Biroq u endi baribir odam sanog'idan chiqardi,

zo'rlab es-hushidan judo etilgan qul – manqurtga aylanardi, xuddi shuning uchun ham bunday qul o'nta sog'lom tutqun quldan ko'ra qimmatroq turardi. Hatto shunday qonun-qoida ham bor ediki, o'zaro to'qnashuvda o'ldirilgan bitta manqurt uchun boshqa erkin tutqunga nisbatan uch baravar ortiq haq undirib olinardi. Manqurt o'zining kim ekanini, qaysi urug'-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlarini, otanasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo'lib, o'zining odamligini ham unutib yuboradi. O'zining insoniy qadr-qimmatini idrok etolmagan manqurt xo'jalik ishlari nuqtayi nazaridan bir qancha fazilatlarga ega edi. U notavon va zabonsiz bir maxluq bo'lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Qochaman qo'yaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Quldor uchun eng dahshatli narsa – qulning isyoni. Har bir qul siyomosida isyonkor ruh yashiringan. Yolg'iz manqurtgina bundan mustasno, isyon ko'tarish, bo'yin tovlash unga butunlay yot. Bunday tushunchalar unga begona! Unga soqchi qo'yishga, ayniqsa, buzuvchi niyatli kishi sifatida undan gumonsirashga hojat yo'q, manqurt xuddi it kabi faqat o'z egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo'q. Uning fikri-zikri qorin to'yg'azishda, shundan boshqa tashvishi yo'q. Ammo o'ziga topshirilgan ishni o'ylamay-netmay, o'lar-tirilarga qaramay muqarrar bajo keltiradi.

Manqurtlar, odatda, eng past, eng og'ir ishlarni bajarishga majbur etiladilar yoki bo'lmasa, ularga eng zerikarli, eng mashaqqatli, ovsarlarcha sabr-toqat talab etiladigan mashg'ulotlar topshirilar edi. Kimsasiz Sario'zak yaylovlaridagi tuyalar podasidan bir qadam ham nariga jilmasdan yakka-yu yolg'iz yashashga mahkum etiladigan manqurtgina azob-uqubatlarga chiday olishi mumkin edi! Birgina manqurtning o'zi bunday olis joylarda bir qancha tuyachining o'rnini bosa olardi. Boryo'g'i niyati — qorni to'ysa. Shunda u qishin-yozin demay, yolg'izlik azobiga ham, boshqa har qanday mahrumliklarga ham parvo qilmay, tinimsiz ishlayveradi. Xo'jayinning amri manqurt uchun farz ham qarz. Uning o'ziga esa xo'rak-u dashti biyobonda muzlab qotib qolmaslik uchun kifoya qiladigan ust-bosh bo'lsa bas. Bo'lak hech narsani talab

qilmaydi. Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o'lganda yana bir o'zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan-bir noyob fazilati — xotirasi, aql-idroki bo'lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir bu qanday bedodlik!? Undan ko'ra tutqunning qalbini poralab, istagancha ziyon-zahinat yetkazib, o'limga mahkum etishlari yoki bo'lmasa, bir yo'la boshidan judo etsa, yuzchandon yaxshi emasmi? O'zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko'chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa — insonning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar. Ular qullarni jonli xotiradan mahrum etish yo'lini o'ylab topdilar, shu bilan bani odam zotiga aql bovar qiladigan va bovar qilmaydigan yovuzliklar orasida eng qabih jinoyatga qo'l urdilar. Balki, shu boisdandir, manqurtga aylantirilgan o'g'lining g'am-g'ussasi olevida qovurilgan Nayman ona shunday zikr qildi: "Bo'talog'im, seni xotirangdan judo etayotganlarida, boshingga ko'rinmas teri qalpoq o'rnatib es-hushingdan ajratayotganlarida, yong'oq chaqadigan qisqichdek boshingga kiydirilgan tuya teri asta-sekin qurib qovjirab, bosh chanog'ingni jingirtob qilib siqayotganida, dahshatli qo'rquvdan ko'zlaring kosasidan iring'ib chiqqanida, Sario'zak dashtining dudsiz otashi o'lim talvasasi bilan olishib, labingni ho'llashga ham yer-u ko'kdan bir tomchi suv topolmay tashnalik azobida qovrilayotganingda, hatto borliqqa hayot baxsh etuvchi xurshidi olam senga so'qir, balo-qazo bo'lib, dunyedagi jamiki yulduzlar qaro zulmat bo'lib ko'ringandir? ...Tulporim, qiynoqlardan mayib-majruh bo'lgan aql-idrokingga mangu tun choyshabi yopilayotganda, xotirang rishtalari zo'rlik bilan yulib-sitib olinib; o'tgan umring bilan seni bog'lab turuvchi halqalardan, jon talvasasida o'zingni har yon urib ona nigohini, yoz kunlari qirg'og'ida sen o'ynab yurgan tog' jilg'asining shovullashini unutayotganingda, shuuringni parchalab, xotirangdan o'z nomingni, otangning nomini o'chirib tashlayotganlarida, atrofingdagi sen bilan unib-o'sgan odamlarning chehralari so'nayotganida va senga uyalib, iymanib tabassum qilayotgan mahbubaning jamoli qorong'ulashayotganida xotirasizlik jariga qular ekansan, o'z vujudida homila paydo etishga

jur'at etib va shu mudhish kun uchun seni yorug' dunyoga tavailud toptirgan onayi zoringga la'natlar yog'dirgandirsan?..”

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Berilgan matnni ifodali o'qing.
2. Matndagi tushunilishi qiyin so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.
3. Berilgan parchadan shaxs nomlari va joy nomlari bilan bog'liq atoqli otlarni toping. Daftaringizga ikki ustunga bo'lib ko'chiring.
4. Tuya va uning turlari haqida ma'lumot bering.
5. Manqurt so'zining ma'nosini izohlang va sog'lom odamning manqurtga aylanish jarayonini so'zlab bering.
6. Matndan qo'shma gaplarni toping va tahlil qiling:
  - a) Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi.
  - b) Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turi.
  - c) Gapning tuzilishiga ko'ra turi.
  - d) Qo'shma gapning turi.
  - e) Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vosita aniqlanadi.
7. Matndan zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarni topib, daftaringizga ko'chiring va tahlil qiling.
8. *Bo'lsa, esa* so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot bering va keltirilgan parchadan misollar toping. Daftaringizga ko'chiring.
9. Biriktiruv va ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplarga misollar toping va izohlang. Daftaringizga ko'chiring.
10. *Matnda qo'llanilgan uyushiq bo'laklarni toping. Daftaringizga ko'chiring va sintaktik tahlil qiling.*
11. “Quldor uchun eng dahshatli narsa – qulning isyoni”. Ushbu gapdagi tirening qo'yilish sababini izohlang. O'zbek tilida nechta tinish belgisi mavjud?
12. Matndan ergashgan qo'shma gaplarni toping va ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalarni tushuntiring.
13. Hol ergash gapli qo'shma gaplarni toping va hosil bo'lishini izohlang.



14. *"Hatto shunday qonun-qoida ham bor ediki, o'zaro to'qnashuvda o'ldirilgan bitta manqurt uchun boshqa erkin tutqunga nishatan uch baravar ortiq haq undirib olinardi"*. Ushbu gapni quyidagicha tahlil qiling:
- Gapning grammatik asos miqdoriga ko'ra (sodda gap yoki qo'shma gap);
  - Qoshma gapning turi;
  - Ergash gap va bosh gap;
  - Ergash gapning turi.
15. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qaysi tinish belgilari ishlatiladi. Berilgan matndan misollar toping.
16. *"Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul yo dahshatli azoblarga bardosh berolmay o'lib ketar, yo xotirasidan umrbod mahkum etilib, o'tmishini eslay olmaydigan qulga – manqurtga aylanib qolar edi"*. Berilgan parchani sintaktik tahlil qiling.
17. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqida ma'lumot bering va keltirilgan matndan misollar topib, daftaringizga husnixat asosida ko'chiring.
18. Ergashgan qo'shma gap turlari haqida ma'lumot bering. Berilgan asar parchasidan mos misollarni topib daftaringizga ko'chiring.
18. Boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering: bugungi kun jungjanglari kimlar? Ularning ko'zlagan maqsadlari nima? Kimlarni manqurtlashtirmoqchi bo'lishyapti?
19. Boshga teri qoplash jarayoni tasvirlangan lavhani qayta o'qing. Zamonamiz jungjanglarining teri qoplash usullari haqida mulohaza yuriting.
20. O'zining milliy qadriyatlari, diniy e'tiqodidan begona bugungi manqurtlar qiyofasi, xatti-harakati, umuman, ularning namoyon bo'lish shakllari to'g'risida o'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.
21. Yozuvchining quyidagi fikriga munosabat bildiring: *"O'zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko'chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa – insonning muqaddas insoniylik*

*mohiyatiga ham chang soldilar. Ular qullarni jonli xotiradan mahrum etish yo'lini o'ylab topdilar, shu bilan bani odam zotiga aql bovar qiladigan va bovar qilmaydigan yovuzliklar orasida eng qabih jinoyatga qo'l urdilar".*

22. Uyg'a vazifa. Berilgan parchadan sodda gap turlariga misollar topib keling.

**O'QISH UCHUN QO'SHIMCHA  
MATERIALLAR**

**II qism**

## MAQOLLARDAN NAMUNALAR

Aytar soʻzni ayt,  
Aytmas soʻzdan qayt.

Aytilgan soʻz — otilgan oʻq.

Anjom — uy ziynati,  
Soʻz — inson ziynati.

Ariqni suv bezar, Odamni — soʻz.

Achchiq savol berib,  
Shirin javob kutma.

Achchiq til — zahri ilon,  
Chuchuk tilga — jon qurbon.

«Barakalla»ga qul mehnat qilib oʻlar.

Bemorga shirin soʻz kerak,  
Aqlsizga — koʻz.

Bir tavakkal buzadi,  
Ming qaygʻuning qalʼasin.

Bir shirin soʻz bitkazar,  
Ming koʻngilning yarasin.  
Avrasang, oqil boʻlar,  
Bovrasang, botir boʻlar.

Aql koʻpga yetkazar,  
Hunar — koʻkka.

Barakat — mag'izda,  
Hunarli qo'l — og'izda.

Baxt belgisi — bilim.

Behunaming hunari — yalqovlik.

Bilagi zo'r birni yiqar,  
Bilimi zo'r — mingni.

Bilak bilan bitmagan  
Bilim bilan bitar.

Bilgan bilganin ishlar,  
Bilmagan barmog'in tishlar.

Bilgan bitirar,  
Bilmagan yitirar.

Bilgan o'zar,  
Bilmagan to'zar.

Bilgan o'qir,  
Bilmagan to'qir.  
Arafa kuni yolg'on gapirganning  
Namoz kuni yuzi qora.

Betga aytganning zahri yo'q.  
Boshingga qilich kelsa ham,  
To'g'ri so'zla.

Va'da — oltindan qimmat.  
Va'da — quruq, bajarilsa — ulug'.

Va'daga vafo — mardning ishi,

Va'dasiz — subutsiz kishi.

Adashmagan til,

Toyrilmagan tuyoq yo'q.

\*\*\*

Aytguvchi nodon bo'lsa,

Tinglovchi dono kerak.

\*\*\*

Achchig'ing chiqsa ham, aqling qochmasin.

\*\*\*

Aql bilan odob egizak.

\*\*\*

Aql bozorda sotilmas.

\*\*\*

Aql — boshda,

G'ayrat — yoshda,

Asl — toshda.

\*\*\*

Aql boshlaydi,

Oyoq tashlaydi.

\*\*\*

Aql boshlovchi,

Tana ishlovchi.

\*\*\*

Aql bo'y bilan o'lchammas.

\*\*\*

Aql toshi — inson boshi.

\*\*\*

Aql-farosat — nisbi karomat.

\*\*\*

Aql o'lchovi — so'z,

So'z o'lchovi — naql.

\*\*\*

Aqlga yondosh,

Jahldan qoch.

\*\*\*

Aqldan ortiq boylik yo'q.

\*\*\*

Aqli kaltaning tili uzun.

\*\*\*

Aqli kirmagan qaridan,  
Ziyrak tug'ilgan bola yaxshi.

\*\*\*

Aqling ko'r bo'lsa, ko'zdan ne foyda.

\*\*\*

Aqlli do'st – rohat,  
Aqlsiz do'st – ofat.

\*\*\*

Aqlli o'zini ayblar,  
Aqlsiz – do'stini.  
Dono bajarar ishni,  
Nodon sindirar tishni.

\*\*\*

Dono bilan yursang, dono bo'lasan,  
Ahmoq bilan yursang, rasvo bo'lasan.

\*\*\*

Dono qarisa ham, donoligi qarimas.

\*\*\*

Donoga ish – shon-u shuhrat,  
Nodonga ish – g'am-u kulfat.  
Avatiga chavati,  
Qum qozonga — loy tuvoq.

Ayol yerdan chiqqan emas,  
Erkak bolasi.  
Erkak ko'kdan tushgan emas,  
Ayo! bolasi.

## Ertaklardan namunalar: TULKINING JAZOSI

Kunlarning birida bir gala tovuq tulkining ustidan ayiqqa arz qilib boribdi.

– Taqsir, tulkining dastidan kun ko‘rolmayapmiz. U hech kimdan tap tormaydi. Hatto sizning ham yuz xotiringizni qilib, bir og‘iz so‘ramay, tovuqlarni qirgani-qirgan.

– Voy, yaramas-ey, – debdi ayiq g‘azablanib. – Men u muttahamning ta‘zirini beraman. U darrov tulkini chaqirtirib kelibdi.

– Men sizning biqiningiz yerga botmasin deb paryostiq qilish tashvishi bilan yurgan edim, – debdi tulki va qo‘ltig‘idagi yostiqni darrov ayiqning yonboshiga qo‘yibdi. – Bu miyasi yo‘q tovuqlar sizning g‘amingizda yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi. Ayiq yostiqqa suyanib, tovuqlarga o‘shqiribdi.

– Qani, ko‘zimdan yo‘qolinglar. Ikkinchi bunaqa bema‘ni gap bilan miyamni qotirmanglar. Shu kuni kechasi yana ikki tovuqning sho‘ri quribdi. Tovுqlar endi bo‘rining oldiga arzga borishibdi.

– Tulkining dastidan aziyat chekayapmiz. Yordam bering, – deyishibdi ular. Bo‘ri shu zahoti tulkini topdirib kelibdi.

– Bo‘ri janoblari, men tuni bilan mijja qoqmay sizga paryostiq tayyorladim, – tulki bo‘rining yonboshiga yostiq qo‘yibdi. – Bu nodonlar sizning g‘amingizda yurganimni bilmay, ustimdan arz qilishibdi. Bo‘ri tovuqlarni tiriqtirib quvibdi. «Tulki o‘z ishini bilib qiladi», deb urishibdi. Shu kuni kechasi uch tovuqning sho‘ri quribdi. Ertasiga tovuqlar tozi itga arzga borishibdi. Tulki unga ham paryostiq olib boribdi. Biroq tozi it yostiqqa qarab ham qo‘ymabdi.

– Bu shum tulkining sho‘rini quritinglar, – degan ekan, itlar tulkini rosa talashibdi. – Uni cho‘lga quvinglar. Bo‘lmasa u tovuqlarni qiyratib, patidan paryostiq tayyorlab, ishini bitirib yuraveradi. Shu-shu tulki cho‘lga badarg‘a qilinibdi. Adolatli tozi itdan qo‘rqib haligacha u bor joyga yaqin yo‘lmas ekan.



## CHUMCHUQVOY

Bor ekan-u, yo'q ekan. Bir uyning bo'g'otida chumchuq oilasi yasharkan. Ota bilan ona palaponlarga galma-gal ovqat tashishar ekan...

Chumchuq bolalari asta-sekin mayin pat chiqarishibdi. Keyin qalin patlar kiyib olishibdi. Bir kuni eng katta chumchuq bola tavakkal qilib inidan sakrab yerga tushibdi. Uning hech qayeri og'rimabdi. Chunki u sekin tushibdi. Uning sekin tushishiga qanotlari yordam beribdi. Chumchuqchanning o'z holicha ovqat yeyayotganini ko'rib ota-onasi xursand bo'libdi. Buni ko'rgan boshqa chumchuq bolalari ham inidan tushib kelishibdi. Ota-onasi ular oldida "chiriq-chiriqchiriq" deb parvona bo'libdi. Bu "chiriq-chiriq" degani "yashanglar, bolalarim", degani ekan. Shu tarzda oradan bir necha kun o'tibdi. Bir kuni Ahmad degan bola qo'lida roгатka bilan kelib qolibdi. U tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadigan bola ekan. Ahmadning daraxtda shoxdan shoxga qo'nib, qurt-qumursqa terib, yayrab o'ynab yurgan chumchuqlarni ko'rib g'ashi kelibdi. U roгатkasidan ona chumchuqni mo'ljallab tosh uchiribdi. Buni eng katta chumchuq bola sezib qolibdi. U ko'ksini qalqon qilib, onasini to'sibdi, lekin tosh zarbidan shu zahoti pitirlab yiqilibdi. Ahmad sevinib: "Tegdi, tegdi!" — deb qichqiribdi. Lekin o'ziga qarab irillab kelayotgan itni ko'rib qochib qolibdi. Ona chumchuq bolasi oldida gir-gir aylanibdi. Bolasining bir oyog'i singan ekan. Chumchuqcha bir necha bor "chiriq-chiriq" debdi. Bu: "Onajon, meni dunyoga keltirdingiz, boqdingiz, o'stirdingiz. Siz uchun jonimni berishga tayyorman", degani ekan. Shu payt it chumchuqchani asta labiga qisibdida, egasi Rahimjonning oldiga olib boribdi. Rahimjon darrov chumchuqchanning oyog'iga cho'p bog'labdi. Uni yashikka solib boqibdi. Ona chumchuq ham ovqat keltirib turibdi. Hozir chumchuqcha tuzalib ketganmish. Endi u o'zi mustaqil yasharmish. Lekin har kuni onasiga salom berib, Rahimjonga rahmat aytib o'tishni sira unutmasmish.

## DONO YIGIT

O'tgan zamonda bir donishmand chol yashagan ekan. Uning uch o'g'li bo'lgan ekan. O'g'illari voyaga yetgach, chol ularga shunday debdi:

— Bolalarim, men sizni yeyish-ichishdan kamsitmay o'stirdim. Endi otlaninglar, turli shaharlarga borib, qo'rg'on solib kelinglar! To'ng'ich o'g'li otasi topgan oltin-kumushlardan olibdi. Farg'ona vodiysining hamma shaharlariga boribdi. U yerlarga bittadan kattakon uy solibdi. O'rtancha o'g'il bo'lsa, Buxoro, Samarqand tomonlarga borib, qo'rg'onlar qurdiribdi. Kenja o'g'il oqil, dono ekan. U o'zicha: «Dadam turli shaharlarda qo'rg'on solinglar, deyish bilan har bir shahardan do'st, yor-birodar orttiringlar, demoqchi. Men boshqa shaharlarga borib, uy solib yurmayman!» debdi. Kenja o'g'il safarga chiqib ketipdi. U qayerga borsa, u yerda eng yaxshi, vafodor kishilarni topib, ular bilan do'stlashibdi. U o'z safari davomida o'rtoqlari orasida mashhur bo'lib ketipdi. U akalaridan avval uyga qaytibdi. Chol bir kuni:

— Qani, kim qaysi shaharga qanday qo'rg'on qurdi? Yuringlar, bir aylanib ko'rib kelamiz, — debdi. U o'g'illari bilan birga katta o'g'li qurgan qo'rg'onga boribdi. Qarasa, uy-joyning o'zi so'ppayib odamsiz turgan emish. Chol indamabdi. So'ngra o'rtancha o'g'ilning qilgan ishini ko'zdan kechiribdi. Uniki ham xuddi akasiniga o'xshar ekan.

— Bu qo'rg'onlarning odamlari qani? — deb so'rabdi chol. To'ng'ich va o'rtancha o'g'il unga javob bera olmabdi. Hammalari kenja o'g'ilning yor-birodarlari yashaydigan joylarga borishibdi. Ularni kenja o'g'ilning yor-u do'stlari izzat-hurmat bilan kutib olibdilar, ketma-ket ziyofatdan bo'shamay qolibdilar, shunda chol o'g'illariga qarab bunday debdi:

— Har bir shahardan orttirilgan do'st-u yerga bir qo'rg'on qurish bilan teng. Mening maqsadimni faqat kenja o'g'lim tushunibdi. Mening ismim, bilim-tajribam unga meros bo'lib qolsin.

**Ertak-dostondan namuna**  
**Hamid Olimjonning "Semurg" ertak-dostoni**

Sarvqomat Parizod  
O'sdi g'amlardan ozod.  
Bahor yanglig' ochildi,  
Gullar yanglig' sochildi.  
Chiroyidan ovoza,  
Elga tarqaldi toza.  
Har yerga doston bo'ldi,  
Dostonga bo'ston bo'ldi.  
Ko'rmaganlar ko'rishni,  
Ko'rganlar o'tirishni  
Qilar bo'ldilar orzu,  
Barcha toshu tarozu  
Shu gapni o'lchar bo'ldi,  
So'zlar oltin-zar bo'ldi.  
Shaydoilar ko'p beqaror,  
Yigitlar bo'ldilar zor.  
Tun keldi-yu shom ketdi,  
Uyqudan orom ketdi.  
Hamma bo'ldi xaridor,  
Qizidi katta bozor.  
Elchilar yog'ildilar,  
Katta g'avg'o qildilar.  
Lekin u odam sevmas,  
Doim o'zi bilan mast.  
Eldagi navqironlar,  
Navqiron pahlavonlar  
Unga aslo yoqmaydi,  
Oshiq'larga boqmaydi.  
Yuragida sevgi yo'q,  
Qalbi marmarday sovuq.  
U odamlilik qarzini,

Sevguvchining arzini  
Olib orqaga tashlar,  
Shuncha-shuncha otashlar  
Eshigida so'nadi,  
Otashdan kul unadi.  
Bahri ochilmaydi hech,  
Chehrasi kulmaydi hech.  
Elchi bo'lib kelganlar,  
Qizning sirin bilganlar  
Noumid qaytadilar,  
Mardumga aytadilar.  
Xalq ichida Parizod  
Chiqaradi yomon ot.

\* \* \*

O'z qizidan pushaymon  
Bo'lib shuning uchun xon  
Kecha-kunduz o'ylaydi,  
Yoz bilan kuz o'ylaydi:  
«El rasmimi qilmagan,  
Sevgi nima bilmagan,  
Qari qizni netayin?  
Chiqib qayga ketayin?  
Qaylarga urayin bosh?  
Buncha sovuq, bag'ri tosh  
Qizni qaydan yaratdim?  
O'zimni o'tga otdim.  
Men nimaga yarayman,  
Yurtga qanday qarayman.  
Boshimga bu Parizod  
Balolar keltirdi bot».

\* \* \*

Qizini chaqirib xon,  
Shunday boshladi fig'on:  
«Eshit, qizim Parizod,

Chiqaribsan yomon ot.  
Sening ba'g'ring tosh emish,  
Ko'zlaring beyosh emish,  
Aslo sevmas emishsan,  
Erga chiqmam, demishsan.  
Men malomatga qoldim,  
Zo'r qiyomatga oldim.  
Sening yomon dostoning  
Meni tuproq bilan teng-  
Qilib uyatga qo'ydi,  
Meni bepichoq so'ydi.  
Qizim men ham qaridim,  
Go'rga tomon daridim.  
Yoshim yetmishga bordi,  
Soch-soqolim oqardi.  
Yurak bag'rimni o'yding,  
Meni nomusga qo'yding.  
O'tangga berma azob,  
Azobga qolmagan tob.  
Tosh yuraging yumshasin,  
Eshitsin qalblar sasin.  
Otang hurmati uchun  
Ko'rsat mardlikning kuchin.  
Kel, birovg'a ko'ngil ber,  
Bir yigitga deb gul ber.  
Bir oz andishaga bor,  
Meni g'avg'odan qutqor!»

## II

Parizod o'ylab qoldi,  
Ko'p uzoq begap qoldi.  
«mayli,- dedi u xonga,  
Bir umid solib jonga,-  
Yolg'iz bir shart qo'yaman,

Bajarganni suyaman.  
Hovlida bor zo'r chinor,  
Chinor emas, u bird or.  
Biladi juda ko'p sir,  
Yashar yuz yil-bir asr.  
Yoshi ko'pga ketadi,  
Bosh ko'kka yetadi.  
O'lkaga jar solaman,  
Yerlarga zar solaman.  
Shartim shuki, ot bilan,  
Go'yoki qanot bilan  
Shu chinorga chiqqanga,  
Chiqib uni yiqqanga  
So'zsiz xotin bo'laman,  
Go'zal otin bo'laman.  
Barcha qarshimdan o'tsin,  
Mard o'zini tanitsin.  
Agar shunda ham qalbim  
Yumshamasdan qolsa jim  
Uzib olib otarman,  
Qassoblarga sotarman».  
Shunday degach Parizod,  
Xon bo'ldi poyonsiz shod.  
Jarchilarni chorlatdi,  
Har biriga so'z qotdi:  
«Yurtga xabar beringiz,  
Aytingiz har biringiz,  
Xon qiziga xaridor,  
Parizod husniga zor  
Bo'lganlarga baxt kuldi,  
Birgalashib taxt kuldi.  
Qo'rqmasdan kela bersin,  
Baxtini bila bersin.  
Sharti shulkim, ot bilan,

Go'yoki qanot bilan  
Zo'r chinorga chiqqanga,  
Chiqib uni yiqqanga,  
Parizod xotin bo'lur,  
Bir go'zal otin bo'lur.  
Ayting, har bir mard kelsin,  
Har bir mard bedard kelsin.  
Sinasin o'z baxtini,  
Baxti qo'llasin uni.  
Ko'rganlar olsin darmon,  
Ko'rmagan qilsin armon».

### III

Har yoqqa xabarchilar-  
Tili uzun jarchilar  
Chopa-chopa ketdilar,  
Bozorlarga yetdilar.  
Karnay, sunray chaldirib,  
Suyunchilar oldirib,  
Qildilar katta e'lon.  
Xabarlar ketdi har yon.  
Xonning xabarin olib,  
Hamma birdan qo'zg'olib,  
Zo'r shov-shuv bo'lib qoldi.  
Yurtga gap to'lib qoldi.

### IV

Ertasiga barcha el,  
Kela berdi bog'lab bel.  
Chavandoz, pahlavenlar,  
Barcha sohibqironlar  
Otlarni gijinglatib,  
Qamchilarni o'ynatib,  
Kela berdilar bari,

Kattakon chinor sari.  
Baxmal jabduqlar urib,  
Suluv qizlarday yurib,  
Arg'umoqlar chopdilar,  
Yer va ko'kni yopdilar.  
So'liqlarni tishlashib,  
Mast bo'lishib kishnashib,  
Dunyo-dunyo chang-to'zon  
Ichida qolib osmon,  
Kela berdilar bari  
Kattakon chinor sari.  
Chumoliday chuvashib,  
Qir va tog'larda oshib,  
Suv bo'ylarida yotib,  
Yurganda o'qlar otib,  
Oshiqlar poda-poda  
Bo'lib cho'lu sahroda,  
Kela berdilar bari  
Kattakon chinor sari.  
Xon qizin olmoq uchun,  
Elga sinalmoq uchun,  
Baxtim bormi ekan, deb,  
Menga yormi ekan, deb,  
Kela berdilar bari  
Kattakon chinor sari.

V

Yetti kecha, yetti kun,  
Yetti kunduz, yetti tun  
Zo'r chinorga chiqmoqqa,  
Chiqib uni yiqmoqqa  
Hamma xezlab ko'rdilar,  
O'zni o'qday urdilar.  
Necha manman deganlar,



Ilon po'stin yeganlar  
Yiqila berdi bir-bir,  
Makon bo'la berdi yer.  
Chinor hech silkinmadi,  
Bir shoxi ham sinmadi.  
Qushday uchib keiganlar,  
Shamol kabi yeiganlar  
Yarim yo'lda tindilar,  
Yana otga mindilar.  
Yana xezlab ko'rdilar,  
O'zni o'qday urdilar,  
Murod hosil bo'lmadi.  
Ko'ngillari to'lmadi.  
Ilonday chirmashganlar,  
Chirmashib tirmashganlar  
Yana qaytdilar ketga,  
Chiqa berdilar chetga.  
Qancha suluv arg'umcq  
Yiqilib bo'ldi cho'loq.  
Qancha-qancha chavandoz  
Bo'ldi tuproq bilan soz.  
Ko'plarning beli sindi,  
Ko'plarning umri tindi.  
Kunlar o'tdi va ammo  
Hal bo'lmadi muammo.  
Zo'r chinorga chiqmoqqa,  
Chiqib uni yiqmoqqa  
Hech kim erisholmadi,  
Jumboqni echolmadi.  
Kelganlar bo'lib hayron,  
Ko'plar bo'lib pushaymon,  
Bir-bir tarqab ketdilar  
Manzillarga yetdilar.

## VI

Bu hollarni ko'rib xon,  
Yutdi laxta-laxta qon.  
Parizod xunob bo'ldi,  
Xunobu betob bo'ldi.  
Qiz berganni qarg'ishlab,  
Peshonasiga mushtlab,  
Yana axtarib chora,  
Xon o'rtandi tobora.  
Odamlarni chaqirdi,  
O't ichida baqirdi:  
Bu maydonga kirmagan,  
Bizning shartni bilmagan  
Ayting, yana kim qoldi?»  
Hamma odam jim qoldi.  
Og'ir o'yga botdidilar,  
Oxir shuni aytdilar:  
«Yolg'iz bir Bunyod qoldi,  
O'sha bir beot qoldi.  
U bir cho'pon bechora,  
Bu ishga topmast chora.  
Parizodga teng bo'lmas,  
Kiyimiga eng bo'lmas.  
Chinorga chiqolmas ham,  
Chiqolmas, yiqolmas ham».  
Xon hech quloq solmadi,  
Pisandiga olmadi:  
«Bu gaplar bari bekor,  
Bu bilan hech bitmask or.  
Qayda bo'lsa ham Bunyod  
Topib keltirilsin bot!  
Men otimni beraman,  
Qanotimni beraman.  
Agar chinorga chiqsa

Va chiqib uni yiqsa  
Ahmoq, bees bo'lsa ham,  
Moxov v apes bo'lsa ham,  
Mening qizim Parizod  
Unga xotin bo'lur bot».   
Bunyodni tog' tagidan,  
Daryoning etagidan  
Topib keltirdilar bot,  
Xon berdi noiloj ot.  
Zo'r chinorga qarandi,  
Ichida bir g'ash yondi.  
Tanini qurshab o'tlar,  
Chinor shoxi bulutlar  
Orasida ko'rindi,  
Bunyod fikr surindi.  
Yonidagi uchqur ot  
Chiqarib bir zo'r qanot,  
Ko'kka qarab kishnadi,  
Yolin tarab kishnadi.  
Butun atrof xaloyiq  
Bilan to'lib ketdi liq.  
Hayot umri qurib, xon  
Tikilar edi hayron.  
Ne bo'larkin, der edi,  
Zahar-zaqqum yer edi.  
Talvasada Parizod,  
Cekar edi fig'on, dod.  
Bunyodga g'ayrat kirdi,  
Yuragiga dard kirdi.  
Yurib bahodirona,  
Otga mindi mardona.  
Qattiq bir qamchin soldi,  
Yolg'on emas, chin soldi.  
Ot yashinday qo'zg'aldi,

O't singari yo'l oldi.  
Bulutlar orasida,  
Osmonning qorasida,  
Yozib borar qulochin,  
Go'yo bir buyuk lochin  
U chinorga o'tirdi,  
Go'yoki o'qday urdi.  
Chinor tomiri bilan,  
Ko'kargan yeri bilan  
Qo'porildi guvillab,  
Shamol kabi uvillab.  
Zo'r shoxlar yerga ketdi,  
Tomir osmonga yetdi.  
Yer uzra tushib Bunyod,  
Bo'lib dunyo-dunyo shod,  
Go'zal duldul otida,  
Otining qanotida.  
Ko'zlarida zo'r yog'du,  
Kulib turar edi u.  
Ko'rsatguvchiga zo'r ish,  
El so'zlar edi olqish.  
Yurak yoriiguday xon  
Xursand edi bepoyon.  
Parizod bo'lib behold,  
Turib qolgan edi lol.

## VII

To'y bo'ladi deya el,  
Bosa berdi go'yo sel.  
Barcha shoshiqar edi,  
To'y deb oshiqar edi.  
Qotib qolgan Parizod  
Oldiga keldi Bunyod.  
Sekin qo'lin uzatdi,

Qalbiga zo'r tosh otdi.  
Parizod bir emrandi,  
Qosh-qovog'I chimrandi.  
«To'g'ri,-dedi,-sen yutding,  
Sovuq qo'limni tutding,  
Nima qilay, roziman,  
O'zimdanda noroziman.  
Baxtim ochilmadi hech,  
Aytganim bo'lnadi hech.  
Faqat, agar unasang,  
Unab yo'lga jo'nasang,  
Yana bir shart qo'yardim,  
Yana sinab ko'rardim.  
Shundan so'ngra umrbod  
Senga bo'lar Parizod».  
Bunyod ham rozi bo'ldi,  
«Gapir,-deya bukildi,-  
Gaping bo'lsa ayta ber,  
Ko'ngling to'lsa ayta ber.  
Har bir ishni bilarman,  
Har nimani qilarman.  
Ko'nglingni olomasam,  
Bir orom sololmasam.  
Yo'ldosh bo'lolmasman hech,  
Sen ham unday yordan kech».  
Tikka turib, Parizod-  
Shartin eshitdi Bunyod.

### VIII

«Kun botarda bir yovuz  
Dev bor emish yalmog'iz.  
Odamga dushman emish,  
Qon emish unga emish.  
Har musibat, har ofat,

Har bir mudhish kasofat,  
Barcha jabr-u jafolar,  
Hamma dardu balolar  
O'shandan kelar emish.  
Odamlarni emirish  
Bilan bo'lar emish shod,  
Ko'ngli g'amlardan ozod.  
O'zi balo tog'ining  
Va ofat bulog'ining  
Boshida o'ltirarmish  
Kunu tunu, yoz ham qish.  
Uni ko'rgan har chaman  
Qo'yarkan tuproqqa tan.  
U tikilgan har bir gul  
To'kilar ekan butkul.  
Uni ko'rgan har bir jon  
Tez bo'lar ekan xazon.  
Daryolar qurir ekan,  
Baliqlar churir ekan.  
Undan har kun tabiat  
Olar ekan qora xat.  
Ikki oyu ikki yil  
Yursang bog'lab mahkam bel  
Makoniga borarsan,  
Andomiga qararsan.  
O'rtangizda jang bo'lur,  
Ikki olam tang bo'lur.  
Shuni jangda o'ldirsang,  
Hayotini so'ldirsang.  
Qo'ling bilan odamzod  
Balodan bo'lsa ozod,  
Devni o'ldirib agar,  
Qaytib kelsang bezarar,

Shu kuni to'y boshlarmiz,  
G'am-g'ussani tashlarmiz».

## IX

Parizod yerga boqdi,  
Bunyodni o'tlar yoqdi.  
Bo'lib xonning holi tang,  
Qotib qoldi hangu mang.  
Kalavasi chuvaldi,  
Bor umidi yo'qoldi.  
Taajubda xaloyiq  
Ko'ziga yosh oldi jiq.  
Bunyod uzoqqa boqdi,  
Charvoqqa, toqqa boqdi.  
Nazari cho'lga tushdi.  
Huv deya yo'lga tushdi.  
Ko'zdan yo'qoldi shu on,  
Tarqaldi hamma hayron.  
Baland tog'lardan oshdi,  
Daralarda adashdi.  
Vodiy'larga ko'z yoshi  
To'kib aylandi boshi.  
Daryolardan o'tdi ul,  
Yana uzoq ketdi ul.  
Yurti qoldi uzoqda,  
Tushunchasi tuzoqda.  
Zo'r bir ishga qo'shib bosh,  
O'ziga o'zi yo'ldosh,  
Uzoq cho'llarga yetdi,  
Qaynoq ko'llarga yetdi.  
Poyoni yo'q keng sahro  
O't purkab soldi sado.  
Oyog'I ostida qum  
Yotadi uyum-uyum.

Biror ko'kat ko'rinmas,  
Bir jonivor urinmas.  
Yoniga tushib quyosh,  
Kuyar edi ichu tosh.  
Boshdan ter quyar edi,  
Oyog'I kuyar edi.  
Halqumlari bo'lib qoq,  
Toqatlari bo'lib toq,  
Qimirlar edi sekin,  
Zo'rg'a olar edi tin.

X

Bir yildan so'ng banogoh,  
Bir sirdan bo'ldi ogoh.  
Poyoni yo'q keng cho'lda,  
Qaynagan qumlik ko'lda  
Bir zo'r daraxt ko'rindi,  
O'shanga ko'zi to'ndi.  
Ko'p toliqqan bu odam  
Shu tomon qo'ydi qadam.  
Daraxt qurigan edi, qurib churigan edi.  
Edi minglar yoshida,  
Uning baland boshida-  
Qush uyasi bor edi,  
Ham zo'r hamda tor edi.  
Daraxtga bir zo'r ilon  
Chirmashib, u oshiyon.  
Sari zahar sochardi  
Ham og'zini ochardi.  
Chaqalar chirqirashib,  
Faryod qilib tutashib,  
Onani kutar edi,  
Qon, zardob yutar edi.  
Bag'rini o'rtab bu dod



Yaqinroq bordi Bunyod.  
Yordamga fahmi keldi,  
Qushlarga rahmi keldi.  
Qilichini chiqarib,  
Daraxt yoniga borib,  
O'sha yovuz ilonni,  
Xunuk va mudhish jonni  
To'grab tashladi shu on,  
Qumlar bo'ldi qizil qon.  
Chaqalar omon qoldi,  
Ancha omon jon qoldi.  
Chaqalarni qutqarib,  
Ilonni qonga qorib,  
Daraxtning soyasida,  
Uya himoyasida  
Uzoq uyquga ketdi.  
Joniga orom yetdi.  
Kun choshgohdan oqqanda,  
Quyosh tikka boqqanda,  
Qo'zg'algan kabi bo'ron,  
Guvillab qoldi osmon.  
Yashin uchganday bo'ldi.  
Poda ko'chganday bo'ldi.  
Ko'kni tutib qanoti,  
Butun olamning oti-  
Semurg' qush kelib qoldi,  
Bunyodni bilib qoldi.  
Changalida zo'r arslon,  
Tumshug'ida botmon don,  
Ko'zi ichidagi o't  
Olamni qilib nobud,  
Uyasiga qo'nmasdan,  
Bir oz bo'lsin tinmasdan  
Bunyodning boshi uzra

Chiza berdi doira.  
Jahon buzib o'kirdi,  
Qh-qah urib bo'kirdi.  
Yemak uchun odamni,  
Torta berdi u damni.  
Chaqalari chirqirab,  
Ko'z yoshlari tirqirab.  
Yalindilar: qizg'an, deb,  
U bir gunohsiz jon, deb:  
«Qizg'an, ona, o'ksizni,  
O'sha qutqazdi bizni.  
Bo'lmasa o'lar edik,  
Ochilmay so'lar edik.  
Bizni yer edi ilon,  
Ayrilarding, onajon».

#### XI

Semurg' o'ylanib qoldi,  
Qalbini shafqat oldi.  
Qumning bag'riga botgan,  
Quyoshda kuyib yotgan  
Bunyodga soya soldi,  
Qanot ostiga oldi.  
Qush nomli bu buyk zot,  
Undagi kumush qanot,  
Butun borliqni tutdi,  
Bor osmonni berkitdi.  
Bunyod salqin soyada,  
Bunday zo'r himoyada  
Yeti tunni uxladi,  
Yeti kunni uxladi.  
Uyg'ona bermagach u.  
Bosib tobora uyqu,  
Semurg' daryoga ketdi,

Hayal o'tmasdan yetdi.  
Suvni shimirdi cho'llab,  
Qanotlarini ho'llab.  
Shu zamon uchib keldi,  
Jaladay ko'chib keldi.  
To'xtab Bunyod qoshida,  
Bir silkindi boshida.  
Bunyod uyg'ondi darhol,  
Uni k'ldi bu hol.  
Birdan t'rib seskandi,  
Qushni ko'rib seskandi.  
Odamlarga o'xshabroq  
Semurg' boshladi so'roq:  
«Ikki ming yildan beri  
Shu keng sahroning yeri  
Bo'lmishdir menga makon.  
Mendan boshqa biror jon  
Kelolmadi bunga hech.  
Qunlar ko'chib erta-kech,  
Vatanidan ajraldi,  
Sahro giyohsiz qoldi.  
Qurtlar sarson bo'ldilar,  
Uchgan qushlar o'ldilar.  
Bunda faqat topdi jon  
Sen halok qilgan ilon.  
Hech yog'madi yomg'ir ham,  
Yer ko'rmadi zarra nam.  
Qadam bosmadi inson,  
Darimadi hech hayvon.  
Shuncha yil yolg'iz turdim,  
Yer va osmonni ko'rdim.  
So'yla menga, ey, odam,  
Boshingga tushdi ne g'am?  
Zo'r bir mardlik qilibsan,

Lekin bekor kelibsan.  
Tilagingni ayt menga,  
Ne ko'mak beray senga?»

## XII

«Meni go'zal Parizod  
Jo'natdi,- dedi Bunyod.-  
Dunyoni g'amga ko'mgan,  
Jafo-alamga ko'mgan  
Devni,bir ko'rmoqchiman,  
Ko'rib o'ldirmoqchiman.  
Odamlarga baxt bermoq,  
Baxtliiarga gul termoq  
Eldan shiorim bo'ldi,  
Nomus va orim bo'ldi.  
Shuni qilsam Parizod,  
Yorim bo'lib, qilur shod».  
Qush dediki: «yey, inson,  
Bekor bo'libsan sarsonj.  
Parizod xo'p aldapti,  
Qo'rqinch yo'llarga sopti.  
Xonning qizi dev bilan  
Oshna edi burundan.  
Yomon ko'rganlarini,  
Dushman bilganlarini  
Yo'llar edi o'shanga,  
Do'st emas ekan senga.  
Sen bu yo'lda o'lursan,  
Aniq, qurbon bo'lursan.  
Devga bormay qo'ya qol,  
Boshqa qizni deya qol».  
Esga kelib Parizod:  
«Qaytmayman»,-dedi Bunyod.-  
«Sher izidan qaytmaydi,

Er so'zidan qaytmaydi.  
Uni ko'mguncha uyat  
O'lgani yaxshiroq bot.  
Shuning uchun boraman,  
Nima bo'lsa ko'raman».

### XIII

Qushda mehr uyg'ondi,  
Qizg'anish bilan yondi.  
«Kel, esa ustimga chiq,  
Mening qanotimga chiq.  
Bir nafas o'ltirgin jim,  
Bir nafas ko'zingni yum.  
Men kuningga yarayin,  
Seni olib borayin.  
Dengizlardan o'tganda,  
Dunyoni suv tutganda,  
Ko'zlaring ochilmasin,  
Xayoling sochilmasin.  
O'zingni yo'qotmagil,  
Yana suvga otmagil.  
Seni olib borarman,  
Kurashingga qararman.  
O'lsang gunoh o'zingda,  
Qo'rquv bilmas so'zingda.  
Agar devni o'ldirsang,  
Yerni qonga to'ldirsang,  
Yana olib qaytarman,  
Ofarinlar aytarman».  
Qanotga chiqdi Bunyod,  
Ko'zini chirt yumdi bot  
Va Semurg' qildi parvoz,  
Dunyoni tutdi ovoz.  
Kun botar tomon ketdi,

Kun yotar tomon ketdi.  
Semurg' ostida dunyo  
Aylangan bo'ldi go'yo.  
U o'qday uchib o'tdi,  
Yashinday ko'chib o'tdi.  
Yeru ko'kka soldi jar,  
Shovqiniga dunyo kar.  
Xezlanganda yurt oldi,  
O'lkalar ketda qoldi.  
Qolmay o'tmagan yeri,  
Uch-ucha oxiri  
O'rmonlikka yetishdi,  
Shivillab pastga tushdi.  
Yalmog'izning qoshidan,  
Daraxtlarning boshidan  
Vabo o'tganday bo'ldi,  
Balo yetganday bo'ldi.  
Semurg' bir silkindi bot,  
Ko'zini ochdi Bunyod.  
Kun botarda bir o'rmon,  
Unga bo'ldi namoyon.  
Daraxtlarga ko'z soldi,  
Og'ir hayratda qoldi.  
Tikildi suq kirgudak.  
Bunda o'sgan bir terak  
Boshi osmonga yetgan,  
Ko'kka chirmashib ketgan.  
Atrofga jilva qildi,  
Nafaslari tiqildi.  
Semurg' dedi:»Ey, botir,  
Kel endi o'rningdan tur!  
Borib dushmaningni top,  
Qilich sol, bo'ynidan chop.  
Jo'na, baxting bor bo'lsin,

O'tkir qilich yor bo'lsin.  
Seni shunda kutarman,  
Kelmasang, qon yutarman»-  
Va u ko'zdan yo'qoldi,  
Bir kesak bo'lib qoldi.  
Bunyod o'rmonga kirdi,  
Suv kechib, qonga kirdi.  
O'tkir qilich qo'lida,  
Borar ekan, yo'lida  
Daraxtlar qular edi,  
Yirtqichlar o'lar edi.  
O'rmonda harnaki bor,  
Qurtu qushu jonivor  
Qarshi olar edilar  
Nazar solar edilar.  
Bu ham bo'lar, deb, qurbon,  
Edilar ko'p pushaymon.  
Chumchuqlar chirqirardi,  
Bulbul yig'lab turardi.  
Bunyod esa mardona,  
Mardu bahodirona.  
O'rmonda borar edi,  
Devni axtarar edi.  
Oshiqardi, ko'ray, deb,  
Qarshisida turay, deb.  
Qilar edi ko'p armon,  
Topay deb dardga darmon.

#### XIV

Bunyod yeti kun kezdi,  
Yeti qora tun kezdi.  
Eng oxiri tun chog'i  
Bir hid sezdi dimog'i.  
Tani jimirlab ketdi,

Qalbi qimirlab ketdi.  
Bora berdi u hamon,  
Guvillab qoldi har yon.  
O'rmon shatirlab qoldi,  
Burglar patirlab qoldi.  
U yana yurdi bir oz,  
Oxir dev chiqdi peshvoz.  
Sekin-sekin yurardi,  
Qah-qah urib turardi.  
Dumidan boshigacha,  
Boshdan oyog'igacha  
Xursandlik olgan edi,  
Shodlikda qolgan edi.  
Zahar tomar tishidan,  
O'lim yog'ar ishidan.  
Shoxi osmonda edi,  
Tirnog'I qonda edi.  
Bunyodga kulib boqib,  
Nafsiga yigit yoqib:  
«Salom, o'g'lim kel», - dedi.-  
Dushman emas el, - dedi.-  
Omon-eson bormisan?  
Parizodga yormisan?  
Go'zal qizim, omonmi?  
Sho'x yulduzim, omonmi?  
Tilagingni ayt menga,  
Ne murod kerak senga?»  
Yigit so'zga boshladi,  
Gapni tizib tashladi.  
«Bunyod senga el emas,  
El bo'lganni dev emas.  
Sen biro fat emishsan,  
Zo'r qabohat emishsan.  
Odamizodning yovi,



O'g'lonlarning go'rkovi  
O'zing emishsan yolg'iz.  
Parizod deganing qiz,  
Qancha do'sting bo'lsa ham,  
Alam yutib o'lsa ham,  
Boshingga yetajakman,  
O'ldirib ketajakman».  
Bunyod qilich chiqardi,  
O'rmon yaltirab qoldi.  
Bunyodning qabri keldi,  
Devning ham zahri keldi.  
Ko'zlaridan o't sochdi,  
O'rmonlikdan tun qochdi.  
U har og'iz ochganda,  
U har bir o't sochganda,  
Zo'r bir yong'in ketardi,  
Qancha o'rmon bitardi.  
Nafasidan zo'r bo'ron  
Qo'zg'alar edi har yon.  
Tomirlar ko'char edi,  
Darxtilar uchar edi,  
Osmonni qushlar tutib,  
Hammasi ham qon yutib,  
Chirqirashib turardi,  
Zo'r kurashni ko'rardi.  
To'kilar edi qonlar...  
Barcha yirtqich hayvonlar  
Kezardi besaranjom  
Saqlab qolmoq uchun jon.  
Bunyodni yutmoq uchun,  
Bo'g'zidan tutmoq uchun  
Dev hamla qilar edi,  
Ba'zida qular edi.  
Otashda edi ichi,

Bahodirning qilichi  
Yaltirardi boshida,  
Kular edi qoshida.  
Bunyod qilich solganda,  
Har bir sirmab olganda,  
Devni uzib o'tardi,  
Uzib, buzib o'tardi.  
To'xtamadi qonli jang,  
Bo'ldi devning holi tang.  
Ikki kunu ikki tun  
Solishdi ular butun.  
Tinimni bilmadilar,  
Yarashga kelmadilar.  
Bunyod qilichi bilan,  
Zaharli uchi bilan  
Devni burdalay berdi,  
Qilich qon yalay berdi.  
Dev makon qurgan o'rmon  
Boshdan-oyoq bo'ldi qon.  
Qilichni har solganda,  
Har bir simrab olganda,  
Bir joyni olib o'tdi,  
Bir rahna solib o'tdi.  
Oxiri jon qolmadi,  
Jonu darmon qolmadi.  
Qilich bo'g'zidan tutgach,  
Tog' kabi yorib o'tgach,  
Dev harsillab quladi,  
Bir qarsillab quladi.  
Dev qulab yiqilganda,  
Birdan yakson bo'lganda,  
Yerlar qimirlab ketdi,  
Zilzila gurlab ketdi.  
Cho'zala tushgan chog'I,

Devning boshi oyog'i  
O'rmonni tutib ketdi,  
Sig'may chetga ham o'tdi.  
U tipirlab berdi jon  
Va jimjit bo'ldi o'rmon.  
Shundan so'ng botir Bunyod  
Bo'lib o'zida yo'q shod,  
Qilichni yuvib oldi,  
Bir o'pib, qinga soldi.  
Parrandalar barchasi,  
Go'zali, oy parchasi  
Botirni uzatdilar,  
Olqishlab kuzatdilar.  
Yigit Bunyod mardona,  
Mardu bahodirona  
Yurib o'rmondan chiqdi.  
G'avg'o va qondan chiqdi,  
Botir g'oyat beqaror,  
Semurg'iga intizor  
Turar edi ko'z tutib,  
Har ko'zini yuz tutib.  
Kesak bo'lib yotgan qush  
Go'yo ko'rgan kabi tush  
Qonlar to'kilganini,  
Bunyodning engganini,  
Botirning g'ussadan pok,  
Dev bo'lganini halok-  
Bilar edi hammasin.  
Kesak bo'lib, ko'lkasini  
Yerga solib yotardi,  
Orem olib yotardi.  
Bunyod kelgan zamon ul.  
Shodlikka to'ldi butkul.  
Bir aylanib qush bo'ldi,

Bunyod ko'ngli xush bo'ldi.  
Botir izidan o'pdi,  
Ikki ko'zidan o'pdi.  
Dedi: «Kel, ustimga chiq,  
Mening qanotimga chiq!  
Endi ketga qaytaylik,  
Elga doston aytaylik.  
Botir yigit kettik, bo'li!  
Kelgan joyga yetdik, bo'li!»  
Botir qanotga chiqdi,  
Zo'r «duldul ob»ga chiqdi.  
Ko'zini yumgan zamon,  
Xayolga cho'mgan zamon  
Semurg' ko'kda yo'l oldi,  
O'rmonlar ketda qoldi.  
Bir yurt ko'chib borganday,  
Ko'chib uchib borganday  
Shovqin-suron zo'r edi  
Va beimkon zo'r edi.

## XV

Go'zal qush qanotida,  
Ko'kning chopqir otida  
Uchib borarkan, Bunyod-  
Xayolida Parizod.  
Qush keng sahroga yetdi,  
Iniga qarab ketdi.  
«Ey, Bunyod< ko'zingni och,  
Jahonni ko'r, nazar soch!  
Endi yo'lni toparsan,  
Kerak bo'lsa choparsan.  
Bor, yaxshilar yor bo'lsin,  
Botir, baxting bor bo'lsin».  
Qaytadan qo'l ushlab, qo'l

Semurg' bilan xushlashib,  
Bir-birini quchoqlab,  
Mehru muhabbat bog'lab,  
Ajraldilar ikkovlon.  
Bunyod jahonni javlon  
Urrib yana yo'l ketdi,  
Sahro bilan cho'l ketdi.

### XVI

Tog'lar oshdi, qir oshdi  
Oylar bo'yi adashdi.  
So'nggi qirdan o'tganda,  
O'z yurtiga yetganda.  
Kunlarini sanadi,  
Tunlarini sanadi.  
Angladi, rosa uch yil  
Kezganini muttasil.

### XVII

Rosa uch yil o'tganda,  
Olamni gul tutganda.  
Yam-yashil erta bahor,  
Parizodga intizor.  
Bunyod bo'ldi namoyon-  
Ham xursandu ham hayron.  
Yuragi urib keldi,  
Olamni ko'rib keldi.  
Parizodni so'roqlab,  
Bag'rini o'tda dog'lab.  
Xonning eshigin qoqdi,  
Erib suv bo'lib oqdi.  
Parizodni ko'rgali,  
Ahvolini so'rgali.  
Jahonni urib javlon,

Semurg' bilan ikkovlon.  
Osmonda uchganini,  
Yovuz devning tanini  
Qilichda to'g' raganin,  
Olganing uning jonin  
So'ylagali shoshardi,  
Daryo kabi toshardi.  
Qalbini bir og'ir g'ash  
O'rtardi misli otash.  
Bir shubhasi bor edi,  
Shubha do'sti zor edi.  
Ne kechdi pari holi,  
So'lmadimi niholi?  
Uzoq uch yil muttasil  
Nelar qildi ekan ul?»-  
Deya azob cekardi,  
Zo'r iztirob chekardi.

\* \* \*

Bunyod saroyga kirdi,  
Taxt turgan joyga kirdi.  
O'zini yo'qotdi xon  
Botirni ko'rgan zamon.  
Xonning yuziga qarab  
Qalbi ichra oralab,  
Bunyod bahodirona,  
So'z boshladi mardona:  
«Olanini ko'rib keldim,  
Devni o'ldirib keldim.  
Daryolarni qurutgan,  
Baliqlarni churitgan.  
Insonni dardu balo  
Bilan qilgan muhtalo  
Yovuzning oti o'chdi,  
Otu hayoti o'chdi.

Kerakkim, qilmay jafo,  
Va'daga aylab vafò,  
Parizodni bergaysan,  
Ul ozodni bergaysan.  
To'y boshlamoq lozimdir,  
Kuy boshlamoq lozimdir».  
Qovog'ini uyib xon,  
Uyatiga kuyib xon,  
So'zga kirishdi ojiz:  
«Senga va'da qilgan qiz  
So'zingga javob bersin,  
Kerak bo'lsa tob bersin.  
Ixtiyori o'zida,  
Turgan bo'lsa so'zida.  
To'y boshlarmiz shul zamon,  
Bo'lisharmiz shodmon.  
Qani Parizod kelsin,  
O'sha hur, ozod kelsin».  
Mulozimlar chopdilar,  
Parizodni topdilar.  
Paydo bo'lgach Parizod,  
Hayratda qoldi Bunyod.  
Ixtiyori yo'qoldi,  
Sovuq bir terda qoldi:  
Xonning qizi Parizod  
G'amgin emas, juda shod,  
O'g'lin oldiga solib,  
Qizini qo'lga olib,  
Kelar edi ul tomon,  
Boqar edi ko'p yomon.  
Bunyod hangu mang qoldi,  
Holi zori tang qoldi.  
Unga Parizod makkor  
Shularni qildi izhor:

«Cho'ponni sevolmadim,  
Hech ko'ngil qo'yolmadim.  
G'urbatga qorganimning,  
Devga yuborganimning  
Sababi shunda edi,  
Ko'nglim tugunda edi.  
O'lib ketar, deb edim,  
Churib ketar, de bedim.  
Qancha botir bo'lsang ham,  
Zo'r bahodir bo'lsang ham.  
To'shaging xas deb bildim,  
Aslingni past deb bildim.  
Sevolmadim seni men,  
Chunki men xon qizimen.  
Men saroyning eriga,  
Otamning vaziriga  
Allaqachon tekkanman,  
Shart qilib safarga san  
Chiqib ketgan kuningda,  
Yo'lda bo'lgan tuningda  
To'y bo'lib o'tgan edi,  
Hamma ish bitgan edi».

\* \* \*

Yerga tikilgancha xon  
Jim qoldi uzoq zamon.  
Parizod yerga boqdi,  
Bunyod o'tda tutoqdi.  
Ne aytarin bilmasdan,  
Tili so'zga kelmasdan.  
G'azabda yonar edi.  
Yonar, qiynalar edi.  
Parizodni, xonni ham,  
Ikki nomard jonni ham  
Qilichdan o'tkazmoqqa,



O'limga yutqazmoqqa  
Hozir edi shul zamon,  
O't ichida beomon.  
Shu g'azab, shu o'ch bilan,  
Shu qasos, shu kuch bilan  
Saroyni tashlab chiqdi,  
Ko'zini yoshlab chiqdi.  
Bavafo xon qizini,  
Nomard xonning o'zini,  
Unutmadi hech qachon,  
Qarg'ab o'tdi beomon.

1939-yil, 3-aprel

## SAROB (HIKOYA)

Said Ahmad

*«Ota qarg'ishi misoli o'q — u oxiratda emas,  
shu dunyoning o'zida nishonga tegadi».*

(Buxorolik 100 yil yashagan temirchi Usto Amin boboning o'gitlaridan)

Bugun lagerimizga yangi mahbuslarni olib kelishdi. Ko'rinishidan ularni yangi deb bo'lmasdi. Egnilaridagi kiyimlariga, yelka va tizzalaridagi raqamlarga qaraganda, ko'p yillardan beri lagerdan lagerga ko'chib yurgan daydi mahbuslar ekanini darrov payqash mumkin edi. Odatda, yangi kelgan mahbuslarning oyog'ida yangi etik, yangi botinka, egnida ohori to'kilmagan kostyum yo gimnastyorka bo'lardi. Lagerimizning blatnoy-zo'ravonlari ularning egnidagi kiyimlarni ko'rishlari bilanoq o'zaro taqsimlab olardilar. Oradan biron hafta o'tib, o'sha kiyimlarni blatnoylarning egnida ko'rardik. Bu galgi etapda kelganlar zo'ravonlarimizga yoqmadi. Har biri o'n-o'n besh yillab SSSRning jamiki lagerlarida yashab, qirriq bo'lib ketgan, nainki birovga o'z kiyimini beradigan, aksincha, birovlarinikini qiyqirtirib yechib oladigan, beti qattiq mahbuslar edi.

Soldatlar, lager nazoratchilari ularni bitta-bittalab sanab, yuvilaverib rangi unniqib ketgan kulrang kurtkalaridagi, shimlaridagi raqamlarni tekshirib o'tkaza boshladilar. Shunda mahbuslardan bittasi menga juda tanish tuyuldi. Uning g'amgin va lekin loqayd ko'zlari... Qayerda ko'rganman uni? Tanish, juda tanish! Oldi tikanli sim bilan to'silgan barakda yangilarni bir necha kun karantinda saqlaydilar. Hozircha ularni boshqa mahbuslarga qo'shmaydilar. Ovqatni ham paqirda oborib beradilar.

Bahorning iliq-issiq kunlari edi. Yangilar yalang'och bo'lib barak oldidagi maydonchada chalqancha yotib, badanlarini oftobga toblardilar. Ular Shimol lagerlarida oylab oftob ko'rmay, ranglari siniqqan kishilar edi. Ularni bir-ikki oygina yoz bo'ladigan, oftob esa tuman orasidan xuddi doka orqasiga yoqilgan shamdek xira ko'rinadigan, bizda bahor oftobi charaqlab turgan shu kezlarda ham qish bo'ronlari uvillab turgan joylardan olib kelishgan. Bu mahbuslar uchun Jezqozg'on eng yaxshi kurortlardan ham afzal edi. Yalang'och yotganlarning badanida igna sanchib yozilgan so'zlar, turli sharmsiz suvratlar, birida «tuqqan onamni unutmayman» degan yozuv bo'lsa, boshqasining ko'kragida karta, ayoi kishining rasmi bilan bir shisha aroq tasvirlangan. Tagida: «Mana shular bizni xarob qildi», degan yozuv bor. Deyarli ko'pchiligining ko'ksida yalang'och ayollarning turli holatdagi suvratlari bor edi. Bu manzara qamoqxonadagi «rassom»larning asarlari namoyish qilinayotgan ko'rgazmaga o'xshardi.

Menga tanish tuyulgan maxbus esa negadir yechinmay, kiyimboshi bilan oftobda yotardi. Kim u? Ko'zimga juda issiq ko'rinyapti. Borib o'zidan so'rasammikan? Buning imkoni yo'q. Soqchilar, nazoratchilar ularga yaqin yo'latmaydi. Mendan sal narida yoshi yetmishlardan oshgan, umrining o'n besh yildan ortig'ini lagerlarda o'tkazayotgan Olimjon domla ham ularga ma'yus qarab turibdi.

Domla g'alati odam edi. U hech kim bilan sirlashmasdi. Birovga na dardini aytardi, na quvonchini. Ko'pchilik uni orqavorotdan «indamas domla» deb atardi. U yaxshilikka ham, yomonlikka ham birdek loqayd edi. Ammo uning hozirgi holati boshqacha. Oftobda yalang'och yotganlarga qarab ichi yonib, kuyib, o'rtanib ketayotgani

shundoqqina bilinib turardi. Zimdan unga ko'z tashlayman. Uni hech qachon bunday alpozda ko'rmagandim. U yig'lardi. Ko'zlaridan oqqan yosh soqollariga tomardi. Domla qimirlamas, har kiprik qoqqanda mijjalarida to'planib qolgan yosh duv to'kilardi.

Nazoratchi kelib sim to'siqning beriyog'ida to'planib qolgan to'moshabin mahbuslarga, ketinglar, deb buyurdi. Maxbuslar nari ketishdi. Domla ham yoshli ko'zlarini kaftiga artib, boshini egganicha ketdi. Men lagerda rassom edim. Bir vaqtlar rassomlik maktabida o'qiganim yashash, ishlash qiyin bo'lgan bu joylarda asqotdi. Vazifam — mahbuslarning kiyimlariga raqam yozish, jez konida ishlab qaytgan brigadalarning qancha ruda qazib chiqarganini katta-katta plakatlarda aks ettirish va ularni lagerning ko'rinarli joyiga ilib qo'yish edi.

Tushlikdan keyin ustaxonamga bosh nazoratchi bir qop kiyim olib keldi-da, shularga to'kechki ovqatgacha raqam yozib, tayyor qilib qo'yishimni buyurdi. Bu yangi kelganlarga beriladigan kiyimlar edi. Shimlarning chap tizzasidan yuqorisi, kurtkalarining yelkasidan pasti sovun qutisicha keladigan joyidan qaychida qiyib olingan. Ustidan oq latta tikib qo'yilgan edi. Agar mahbus raqam yozilgan lattani olib tashlab qochib ketsa, qidiruvchilar kiyimidagi qiyib olingan joyidan bilib oladilar. Shu lattalarga mahbuslarning raqamini yozishim kerak. Raqam oftobda ham, qor-yomg'irda ham o'chmaydigan qora lak bilan («Kuzbas lak» bilan) yoziladi. Lak sovuqda toshdek qotib qoladi. Novvoyxonadan toshko'mir cho'g'ini kurakchada olib kelib, lak solingan bankani uning ustiga qo'ydim. Lak erigandan keyin boya nazoratchi berib ketgan ro'yxatga qarab, raqamlarni yozishga kirishdim. Raqam yoniga mahbusning ism-familiyasi qayd etib qo'yilgan edi. O'n yettinchi kurtkaga raqam yozmoqchi bo'lib ro'yxatga qaradim-u hayratdan yoqamni ushladim. «YeYe3781» raqami yoniga «Kimsanboy Yolqinov» deb yozib qo'yilgan edi. Ertalabdan beri xayolimdan ketmayotgan «kim u» degan jumboq yechilgan edi.

Olisda qolgan beozor, sho'x, yerga ursa osmonga sakraydigan tizginsiz bolaligim, tezroq katta bo'lib, aziz va jonajon Vatanga xizmat qilish, «xalqlar dohiysi, ulug' va mehribon otamiz Stalinga sodiq bo'lish» orzusi yurak-yuraklarimizda jo'sh urgan qaynoq yoshligimiz

ko'z o'ngimdan chaqmoqdek bir yalt etib o'tdi. Kimsanboy! U bizning bolalardan chiqqan qahramonimiz edi. O'ttizinchi yillarda uning suvrati gazetalardan tushmasdi. Maktablarda, pioner uylarida, istirohat bog'larida, yoshlar lagerlarida odam bo'yi qilib chizilgan suvratlari bir qarashda ko'zga tashlanadigan joylarga ilib qo'yilardi. Va suvrat tagiga: «Pioner! Qahramon Kimsanboy Olimjonovga salyut berib o'tishni unutm!» deb yozib qo'yilardi. Butun O'zbekiston bolalari undan ibrat olishga, u ado etgan vatanparvarlik jasoratini takrorlashga qasamyod qilishardi. Uning otasi Olimjon Raxmonov rayon maorif bo'limining mudiri edi. Tarix bilimdoni bo'lgan bu odamni rayondagi jami tarix o'qituvchilari ustoz deb atardilar. Hatto uyiga ham kelib, undan Turkiston tarixi bo'yicha bilmaganlarini so'rab bilib olardilar. Uning uyida kitob ko'p edi. Alohida bitta uydagi tokchalarga juda noyob kitoblar terib qo'yilgan edi. Domla bu kitoblarni birovlariga bermasdi. Zarur bo'lsa, shu yerga kelib o'qishgagina ruxsat berardi. Amir Temur, Mirzo Bobur, Narshaxiy, Forobiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Najmiddin Kubro, Al-Beruniy, Xoja Ahror, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning o'tgan asrlarda xattotlar tomonidan ko'chirilgan noyob qo'lyozmalarini Domla ko'z qorachig'idek asrardi. Kechalari yettinchi lampa yorug'ida tong otguncha mutolaa qilardi. Ko'pincha Domlanning uyiga keksa ziyolilar to'planib, tarixda o'tgan o'zbek mutafakkirlari to'g'risida suhbatlar qilishardi. Yig'ilganlar Olimjon domlanning bilimiga, bilag'onligiga qoyil qolardilar. Suhbat o'z-o'zidan ota-bobolari Shahrisabz barloslaridan bo'lgan buyuk shoir Mirzo Abdulqodir Bedilga borib taqalardi. Bedilxonlik boshlanardi, ko'plashib Bedilning sir-u sehriga to'la g'azallarining mag'zini chaqishga kirishib ketardilar. Albatta, Olim domlanning talqinlari hammani lol qoldirardi. O'shanday suhbatlarning birida gap aylanib Fuzuliyning bitta g'azaliga borib qadaldi. Mehmonlardan birovi Fuzuliy ham o'zbeklar orasida Navoiy darajasida mashhur ekanini, uning ko'p g'azallari o'zbek hofizlari tomonidan qo'shiq qilib aytilishini gapirib qoldi.

— Domla, Fuzuliyning bir g'azali bor, mag'zini sira chaqolmadim. Ko'p bilimdonlardan so'raganimda tayinli bir javob berolmadilar. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchi edim. Olimjon domla narigi

xonadan Fuzuliyning devonini olib chiqdi. Ko'zoynak taqib, do'stining tishi o'tmagan o'sha g'azalni topdi. Chiroqqa solib, ikki-uch marta o'qidi.

— Xo'sh, qaysi joyiga tushunmadingiz? — deb so'radi do'stidan.

— Fuzuliy shunday deb yozadi: «G'amlarim shuncha ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo'ladi». Xo'sh, nima uchun ozod bo'ladi?

— Tushunmadim. Domla o'ylanib qoldi. Darhaqiqat, tuyaning ustiga g'am yukini ortsa, nega kofirlar ozod bo'ladi? Domla ko'p o'yladi. Keyin boshini ko'tarib mehmonlarga qaradi.

— Gap bundoq. Bu sirning ma'nisiga yetish uchun Fuzuliy yashagan davrga murojaat qilish kerak. O'sha davrdagi rivoyatlarni, maqol-u matallarni, hatto qo'shiqlarni ham bilmoq kerak. Bir rivoyatda odamlar Allohdan, ey tangrim, zindonda yotgan kofirlar qachon ozod qilinadi, deb so'rabdilar. Alloh, tuya ignaning teshigidan o'tgandagina kofirlar ozod qilinadi, deb javob qilgan ekan. Fuzuliy ana shu rivoyatni g'azaliga asos qilib olgan. Ya'ni: «Mening g'amlarim shunchalik ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, ko'tarolmay, ozib, ipdek bo'lib qoladi». Ipdek ozib qolgan tuya ignaning teshigidan bemalol o'tishi mumkin. Demak, kofirlar zindondan ozod qilinadi.

Domlani bu qadar bilimdonligiga qoyil qolishdi, taxsinlar o'qishdi. Domlani bu bo'yiga yetib qolgan egizak qizlari bor edi. Shu egizaklardan keyin ko'rgan bolalari turmadi. Bir yoshga to'lar-to'lmas vafot etaverdilar. U har gal oy-kuni yaqin qolgan xotiniyning do'ppayib qolgan qorniga qarab: «Kimsan, o'g'ilmisan, qizmisan?» deb kulardi. «Agar qiz bo'lsang, otingni Kimsanoy qo'yaman, o'g'il bo'lsang, Kimsanboy ko'yaman», derdi shirin bir entikib. Xayriyat, o'g'il tug'ildi. Oti Kimsanboy bo'ldi. Shu bola o'n ikki yoshga kirdi. Beshinchi sinfda o'qiydi. Domla kitob titish bilan ovora. Tong otguncha o'tirib, nimalarnidir yozadi. Yozgan maqolalari «Maorif va o'qituvchi», «Madaniy inqilob» gazetalarida bot-bot bosilib turadi.

Kimsanboy maktabda faol pionerlardan. U Lenin, Stalin to'g'risida yozilgan she'rlarni ajib bir mahorat bilan deklamatsiya qiladi. Uni rayon, hatto viloyat miqyosida o'tadigan tantanali yig'iniarga,

o'qituvchilarning konferentsiyalariga chaqirib, she'rlar o'qitishadi. Olimjon domla unga, bolam, bunaqa havoyi ishlarga juda ham berilib ketma, yo artist bo'lmoqchimisan? Yaxshisi, darsingni tayyorla. Jamoat ishlari darsdan keyin bo'lsin, deb nasihat qilardi. Bir xonada domla qalam qitirlatadi, Kimsanboy boshqa xonada har xil harakatlar qilib, baland ovoz bilan she'r deklamatsiya qiladi. Bir kuni maktab direktori uni dars paytida, idora-ga chaqirtirdi. Direktorning kabinetida notanish odam o'tirardi.

— Bu o'rtoq sen bilan gaplashgani kelganlar. Sizlarni xoli qoldiraman, gaplashib olinglar, — deb direktor chiqib ketdi. Notanish odam gapni nimadan boshlashni bilmay, birpas unga tikilib o'tirdi. Keyin portfelidan gazeta olib uning oldiga qo'ydi. Bu Moskvada chiqadigan «Pionerskaya pravda» gazetasi edi.

— Ikkinchi sahifadagi maqolani yaxshilab o'qib chiq, — dedi u, — suratga ham yaxshilab qara. Qahramon pioner Pavlik Morozov shu bo'ladi. Kimsanboy o'rischani durust bilmasdi. Pavlik Morozovni xalq dushmanlari vahshiylarcha o'ldirishgan. U vatanga sodiq, Lenin-Stalin ishiga hayotini bag'ishlagan zamondoshimiz. Uning otasi xalq dushmani, Sho'ro tuzumini ag'darib tashlashni niyat qilgan. Pavlik o'sha dushmanning sirini fosh etadi. Hozir Sho'rolar jumhuriyatining hamma joyida Morozovchilik harakati boshlanib ketdi. Yosh vatanparvarlar ichki dushmanlarni fosh qilish uchun qasamyod qilmoqdalar. Sen ham shu harakatga qo'shilishing kerak. Bu sening muqaddas burching. Biz aytgan ishlarni bajarsang, seni Butunittifoq pionerlarining «Artek» nomli lageriga yuboramiz. Faol pionerlarning Moskvada bo'ladigan slyotida ham qatnashasan. O'sha yerda buyuk ustozimiz, dohiymiz Stalinni ko'rasan.

Kimsanboyning ko'zlari yashnab ketdi. «Muqaddas poytaxtimiz ulug' Moskvani, tirik dohiyni ko'rish, Qora dengiz sohilidagi jahon bolalari dam oladigan lagerda shohsupaga ko'tarilib she'r o'qib bersa bormi!..» Kimsanboy shoshib qoldi.

— Men nima ish qilishim kerak?

— Avvalo, o'rtamizda bo'lib o'tgan bu suhbatni birovga aytmalikka so'z berasan. Bundan keyingi suhbatlarimizni ham sir

saqlaysan. U shunday deya turib, portfelidan bir varaq qog'oz olib unga uzatdi.

— Bunga imzo chekib ber. Avval o'qi, keyin imzo chek. Qog'ozga shundoq so'zlar yozilgan edi: «TILXAT. Men kim, Kimsanboy Olimjon o'g'li GPU xodimi M.Mansurov bilan bo'lgan suhbatimizni birovga aytmayman. Otam Olimjon Rahmonovning xatti-harakatlarini kuzatishga so'z beraman. Uyga keladigan mehmonlar bilan nimalar to'g'risida gaplashganini yozib beraman. Agar bo'lib o'tgan gaplarni, otam haqida to'plangan ma'lumotlarni birovga aytsam, jinoyat kodeksining tegishli moddasi bo'yicha jazolanaman».

— O'qib bo'ldingmi? Endi imzo chek! Kimsanboy o'ylab o'tirmay tilxat ostiga imzo chekdi.

— Tilingga ehtiyot bo'l. Otang haqida yozib qo'ygan xatlarni har haftaning dushanba kunlari o'zim kelib, shu yerdan olib ketaman. Agar birovga aytsang, yo otangga bildirsang, xuddi Paviik Morozovdek halok bo'lasan. Yanagi kelishimda, agar aytganlarimni uddalasang, viloyat pioner tashkiloti seni qo'l soat bilan mukofotlaydi, bildingmi? GPU xodimi Mansurov har dushanba kuni maktabga kelar, Kimsanboy yozib qo'ygan ma'lumotlarni o'qib ko'rgach, boshqatdan yozdirardi.

— Kerakli gaplarni yozish kerak. Faktlarga siyosiy tus berishni o'rgan! Bobokalon dohiymiz Karl Marks: «Din xalq uchun afyundir», degan. Uyimizga kelgan mehmonlar Axmad Yassaviy degan reaktion dindor shoirmi ko'klarga ko'tarib maqtashdi. Xalqni asoratga soluvchi she'rlarini o'qishdi, deb yozish kerak. Alisher Navoiy «Xamsa»ni, «Chor devon»ni yozganda Pushkinning xabash bobosi O'rta Yer dengizining janubiy qirg'oqlarida chig'anoq terib yurardi. Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona barpo etgan paytlarda o'rislar xoxollarning malayi edi. chipta kovush kiyib yurishardi, degan gaplarni aytishdi, deb yozgin!

— Bunaqa gaplarni endi sizdan eshitib turibman... Qandoq qilib yolg'onni yozaman?! Birdan Mansurovning jahli chiqib ketdi.

— Yozavermaysanmi, tirrancha! Aytmagan bo'lishsa, endi aytishadi! Xalq dushmanlari hamma gaplarni birdan aytib qo'ya qolishmaydi. Ular nihoyatda pixini yorgan, niqoblangan yovlarimiz.

Kimsanboy bir hafta mobaynida jonini jabborga berib to'plangan ma'lumotlarni qaytadan Mansurov aytgandek qilib yozdi. Tagiga imzo chekdi.

— Ha, balli! Mana shunaqa qilib yozish kerak. Menga qara, viloyat pioner tashkiloti seni qo'l soati bilan mukofotladi. Ma, taqib ol! Eh-he, seni hali qancha mukofotlar kutyapti! GPUning pioner tashkiloti nomidan bergan soatini Mansurov Kimsanboyning bilagiga taqib qo'ydi. Kimsanboy o'zida yo'q shod edi. Ertaga bolalarning ko'zini o'ynatib taqib yuraman. deb quvonchini ichiga sig'dira olmay, Mansurovga minnatdorchilik bildirib, u bilan xayrlashdi. Mansurov ketar chog'ida: «Qanaqa yozishni bilib olding-a?» deb eslatib qo'ydi.

Bu xil ma'lumot yozishlar uch oydan ortiq davom etdi. Bu orada «pioner tashkiloti» Kimsanboyi velosiped bilan ham mukofotladi. O'sha oyning oxirlariga borib Kimsanboy Butunittifoq pionerlari slyotida qatnashish uchun Moskvaga ketdi. O'zbekistondan Kimsanboyga o'xshagan «Morozovchi»lardan yana o'n bir bola bor edi. Slyot qatnashchilaridan o'n yetti nafar bola «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlandi. Ular orasida Kimsanboy Olimjonov ham bor edi. Kimsanboy Ittifoq oqsoqoli Kalinin ko'liidan orden olar ekan, prezidiumda qarsak chalayotganlar orasida «buyuk dohiy, xalqlar otasi Stalin»ga ko'zi tushdi. O'zini tutolmay ho'ngrab yubordi.

U Moskvadan qaytib kelganda dadasi yo'q edi. Olimjon domla bilan yana yetti o'qituvchi qamoqqa olingan ekan. Ular nima gunoh qilgan ekanlar, deb hayron bo'lgan odamlar gazetada bosilgan «Maorifga uya qurgan quzg'unlar» nomli maqolani o'qiganlaridan keyin nima gapligini bildilar. Birov: «Buni qaranglar-a, domla tuppa-tuzuk odam edi, odamning olasi ichida, deganlari bejiz emas ekan», desa, yana birovi: «Puxta niqoblangan, ayyor odam ekan», deydi. «Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi, hushyor bo'lish kerak, bunaqalardan hali oramizda ko'p bo'lishi mumkin», deydigani ham bo'ldi. Dunyoning ishlari xo'p qiziq-da, ota — sotqin, bolasi — chin vatanparvar! Kimsanboyi ikki marta tergovga chaqirib, otasi bilan yuzlashtirdilar. Olimjon domla bu ishlarda o'g'lining ham qo'li borligini bilmasdi. Yuzma-yuz paytida Kimsanboy aytgan gaplarni eshitib,



yoqasini ushladi. Tergovchining: «Shu gaplar rostmi? Tasdiqlaysizmi?» degan so'rog'iga javob bermadi. Peshonasiga shapillatib urib: «E-e, attang, attang! — deya o'g'lining betiga qarab: — Iloyo, juvonmarg bo'! Umring xor-zorlikda o'tsin! — deb yuziga fотиha tortdi.

Moskvadan «Troyka» Olimjon domlani o'n besh yilga hukm qilgani to'g'risida qog'oz keldi. Oradan sakkiz yil o'tdi. Kimsanboy yigirma yoshga to'ldi. 1942-yili armiya safiga chaqirildi. Qishloqlardan frontga ketayotganlarni tantanali kuzatish marosimiga yuzdan ortiq komsomol a'zolari to'plandi. Bo'lajak jangchilar nomidan «Hurmat belgisi» ordeni nishondori Kimsanboy Olimjonovga so'z berildi.

— Men hayot-mamot jangiga ketyapman. Xalq dushmanining o'g'li bo'lib emas, asl vatanparvar, dohiy Stalin farzandi bo'lib urushga kiraman. Bugundan boshlab familiyam Olimjonov emas, Yulqinov bo'ldi. Ko'ksida buyuk Stalin bilan jangga kiraman! — U shunday deb ko'yilagi yoqasini echib yubordi. Uning ko'ksida igna sanchib ishlangan Stalinning suvrati bor edi. — Ulug' dohiy jangda menga madadkor bo'ladi, — deb so'zini tugatdi Kimsanboy. Qarsaklar yangradi. Oiqishlardan mast bo'lgan Kimsanboy ko'ksini ochgancha tantanavor iljayib turardi...

Shu tobda qamoqxonaning kulrang kurtkasiga «YeYe3781» raqamini yozar ekanman, ko'zlarimga ishonmay, raqam yonidagi familiyaga yana bir marta qaradim. Adashmabman. Unga «Kimsanboy Yulqinov» deb yozilgan edi. Boya oftobda yotgan mahbuslarga qarab yum-yum yig'layotgan Olimjon domla — Kimsanboyning otasi. Kiyimini echmay yotgan, boshi bir tomonga qiyshaygan mahbus — sobiq qahramon pioner Kimsanboy Olimjonov edi. Olimjon domla o'g'lini tanidi. Ammo Kimsanboy otasini tanimadi. Oradan besh-o'n kun o'tib yangi mahbuslar karantindan chiqdi. Ularni uchta-to'rttadan qilib baraklarga joylashtirishdi. Ochiq konda portlatilgan ruda xarsanglarini vagonchalarga ortadigan brigadalarga qo'shib yuborishdi. Kimsanboy lagerning o'zida — «zona»da qoldirildi. Chunki uning o'ng qo'li sinib, qiyshiq bitib qolgan. Yurganda boshi u yoq-bu yoqqa og'ib ketaveradi. Ko'zi ham xiralashgan. Oldida turgan odam tuman orasidan ko'rinayotganga o'xshayveradi. Lekin eshitish qobiliyati juda kuchli.

Yangilar kelgandan keyin lagerdagi mahbuslar hayoti birdan o'zgarib ketgandek bo'ldi. Hayot hayot ekanda. Mahbuslar har qanday azob-uqubatlar ichida ham, ertaga ularni dahshatli fojia kutayotganini sezganda ham yashash tarzini o'zgartirmaydi. Og'ir, juda og'ir mehnatdan toliqib kelib, to'rt qoshiqqina suli bo'tqani yeb olib, barakda o'ringa echinmay yotib orom oladi. Nazoratchi maxbuslarni sanab, barakni ustidan qulflab qo'ygandan keyin bir damgina asil insonlikka qaytgandek bo'ladilar. Bu barak ularning daxlsiz vatani, uyi, hovlisi bo'lib tuyuladi. Bunda uyat, juda uyat latifalar aytiladi. Barak derazalari kulgidan zirillab ketadi. Bunda mahbuslar xayollariga erk beradilar. Boshlaridan o'tgan voqealarni so'zlab beradilar. Aytayotgan sarguzashtlari, albatta, yolg'on gaplar. Hech kim yolg'on aytyapsan, demaydi. Yolg'on bo'lsa ham qiziq bo'lsa bas. Biri professorning o'g'liman, deb Bolshoy teatrning yosh bir raqqosasini yo'ldan urganini, juda ozg'in ekansan, deb ertalab uyidan haydab yuborganini xuddi rost gapdek hayajon bilan aytib beradi.

— Shu desangiz, — deb gap boshlaydi yana biri, — SIBLAGdalik paytimda juda battarin, johil bir nachalnigimiz bo'lardi. Bir ko'zi shishadan edi. Jahl bilan stolni mushtlaganda shisha ko'zi otilib chiqib stolga, undan sakrab yerga tushardi. Shisha ko'zni ko'pchilik bo'lib izlab tuproqdan topib, yuvib berardik. Bir kuni ko'zi otilib yerga tushganda bildirmay bir tepgan edim, ruda olib ketayotgan transportyor lentasiga borib tushdi. Ruda bilan vagonga to'kildi. Buni hech kim sezmad. O'sha kuni kechgacha ellik kishi ko'zni qidirshdi. Topilmadi. Nachalnik yangi ko'z buyurtma qilish uchun Moskvaga ketdi. Bir oy yo'q bo'lib ketdi-yu yangi ko'z bilan kelguncha otpuskaga chiqqandek yayraganmiz, — deya g'urur bilan g'irt yolg'on hikoyasini kula-kula tugatadi. Yana biri «Ogonyok» jurnalida bosilgan chiroyli bir yigitning suvratini qiyib olib, mashhur kinoaktrisaga o'ldim-kuydim deb yozgan xatiga qo'shib jo'natganini, aktrisadan «ikkinchi bunaqa ahmoqlik qilmang, bu o'z erimning suvrati-ku» degan javob olganini aytganda barak ichi, bomba portlagandek, kulgidan larzaga tushgandi. Yangilar kelgandan keyin bu kulgilar, bu xil quvnoq suhbatlar barham topgandi. Bunga sabab — yangilar asosan «seksotlar», «stukachlar» edi

(«seksotlar», «stukachlar» mahbuslar to'g'risida boshliqlarga yashirincha ma'lumot berib turadiganlar). Yangi kelganlar ichidagi zo'raonlar «mahalliy» zo'raonlarning ko'zini ochirmay qo'ydi. Ular oshxonaga borib, ko'pchilik bilan ovqatlangani or qiladilar. Bizning zo'raonlarimiz ularga ovqat tashib, qo'lini artishga sochiq tutib turadilar. Qarindoshlaridan posilka olganlar quruq qo'l bilan qolaveradilar. Tuqqan onasi pishirib yuborgan tansiq shirinliklar ham o'sha zo'raonlarning nasibasi bo'lib qolgandi. Seksotlarni, stukachlarni bir lagerda uzoq ushlab turmasdilar. Ularning ayg'oqchiligi ochilib qolishi bilan boshqa lagerga jo'natardilar. Agar jo'natmasalar, mahbuslar ularni albatta o'ldirib yuborardilar.

Kimsanboy ham faol seksotlardan edi. Vorkuta lagerida mahbuslar uni urib, ma'lumot yozadigan o'ng qo'lini tirsagidan sindirishgan edi. Balxash lagerida orqa miyasining pastiga, qoq ensasiga belkurakning sopi bilan urib, chuqurga tashlab ketishgan. Soqchilar uning dodlagan ovozini eshitib, chuqurdan chiqarib olishgan. Ana shundan keyin uning o'ng qo'li tirsagidan qotib, boshi goh o'ngga, goh chapga o'zidan-o'zi burilib qoladigan, sog' qo'li bilan to'g'rilab, oldinga qaratib qo'ysa, boshi musichaning kallasidek old-orqasiga siltanib, borib-kelaveradigan bo'lib qolgandi.

Iyul oyining oxirlariga borib havo nihoyatda isib ketdi. Daraxtsiz, giyohsiz, tuprog'iga mis kukuni aralashgan yer qizdirilgan tovadek bo'lib, kirza botinkaning tag charmidan o'tib, oyoqni kuydirardi. Mahbuslar baraklarning soya tomonlarida jon saqlashardi. Terdan shalabbo bo'lgan kurtkalarini toshlarga, qizigan tuproqqa yozib quritishardi. Ko'pchilikning kurtkasi yuvilaverib, raqamlari o'chib ketgandi. Shunday paytlarda menga ish ko'payardi. Kiyimida raqami o'chgan mahbuslarni soqchilar darvozadan chiqarishmas, menga yuborishardi. Olimjon domla oldimga kelib, orqa o'girib tizzaladi-da, yelkasini tutdi. Yangilar kelgandan beri domla ozib ketdi. Yana besh-olti yosh qarigandek edi.

— Domla, yaxshi yuribsizmi? — dedim yelkasiga raqam yozarkanman.

— Xudoga shukur, o'lmagan qul yashayverarkan.

— Shu deyman, domla, yoshingiz ham bir joyga borib qoldi. Kattalarda insof yo‘q-da. Sizni ishga chiqarmasalar ham bo‘lardi. Domla sergaklandi. Uning ko‘nglidan, nega bunday deyapti, seksot emasmikan, degan xayol o‘tdiyov!

— Juda unchalik qari emasman. Bergan nonini oqlab yuribman. Sut ichib og‘zi kuygan odam qatiqni ham puflab ichadi, degandek, domlani ham ko‘p marta og‘zi kuygan ko‘rinadi. Qamoqxonalarning «telegrafi» juda aniq ishlaydi. Qaysi lagerda qandoq voqea yuz bergani uch kunga qolmay hamma lagerlarga yetib boradi. Qaysi shahar turmasida kimlar yotgani, ular qaysi modda bilan ayblanayotganlari, ular orasida seksotlar bor-yo‘qligini aniq biladilar. Yangilarning ko‘pchiligi seksot ekani to‘g‘risidagi xabar o‘sha kuniyoq kelgan edi. Olimjon domla uzoq yillardan beri qamoqda yashab lager hayotining ming bir chiyrig‘idan o‘tib, pishib ketgan odam edi. Shuning uchun ham u biron bilan dardlashmas, o‘z yog‘iga o‘zi qovrilib yuraverardi. Mahbuslarni konvoylar ishga haydab ketgandan keyin uch ming kishilik lager bo‘shab qoldi. Mening ertalabki xizmatim ham shu bilan tugadi. Endi barakka ketmoqchi bo‘lib turganimda, kallasini likillatib Kimsanboy keldi.

— Birodar, shu ortib qolgan lakni menga bersangiz.

— Lakni nima qilasisiz? — dedim.

— Kerak, yo‘q demang.

— Mayli, oling, — dedim lak solingan tunuka bankani unga uzatib.

— Rahmat, — deya orqasiga burilar ekan, sog‘ qo‘li bilan kallasini barak tomonga to‘g‘rilab qo‘ydida, asta keta boshladi. Ajab, Kimsanboy tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketibdi. Navqiron yoshida yuzlarini ajin qoplabdi. Ko‘z kosalari chuqurlashgan, sochlari to‘kilib, boshi yalang‘ochlanib qolgandi. Ammo ko‘zlari, ovozi o‘sha-o‘sha, bolaligidagidek edi. Kunlar chidab bo‘lmas darajada isib ketgan bo‘lishiga qaramay, u hamon tomog‘igacha tugmalari qadalgan kurtkasini terdan bijg‘ib ketgan bo‘lsa ham echmasdi. U har kuni ertalab qora lak olgani oldimga keladigan bo‘ldi. Shunday kunlarning birida uning kimligini o‘ziga aytdim.

— Otangiz sizga xo'p bilib ot qo'ygan ekan. Qarang, kimligingizni o'zingiz ham bilmaysiz. Uning ko'zlari olazarak bo'lib qoldi. Qo'liga tirilib o'rnidan turmoqchi bo'lgandi, chap qo'li kuchsizlik qilib yana o'tirib qoldi.

— Kimsanboy, mendan yashirmay qo'ya qoling, — dedim bosiqlik bilan. — Ikkovimiz bitta qishloqning bolasimiz. Kimligingiz kaftimning chizig'idek ayon. Siz Pavlik Morozovning sadoqatli izdoshisiz. O'z otangizni GPUga sotganingiz uchun «Hurmat belgisi» ordeni bilan mukofotlangan Kimsanboy Olimjonovsiz. Sizlarni frontga kuzatish marosimida qishloq komsomollariga: «Men ko'ksimda buyuk Stalin bilan jangga kiraman», deb ko'kragingizdagi Stalin suvratini minbarda turib ko'rsatganingizda men ham bor edim. Sizga qora lak nima uchun kerakligini bilaman. Stalinning suratini chaplash uchun kerak. Bunaqa qilishning endi foydasi yo'q. Saraton issig'ida terlagan badanga bo'yoq yopishmaydi. Ko'chib ketaveradi. Bundan tashqari... — deb zimdan unga nazar tashladim. Bopga o'ng tomonga burilib qolgandi. — Ko'ksingizda Stalin borligini zeklar allaqachon bilib olishgan. Yakshanba kuni sizni yechintirib, ko'kragingizdagi qora lakni kerosin bilan, solyarka bilan, benzin bilan Stalinning suvratini ko'ringuncha ishqalamoqchilar. Ko'ksingizdagi Stalinni ming-minglab mahbuslarga ko'rsatishmoqchi. Sizga maslahat, xo'jayiningizga ayting, sizni yo vaqtincha qamab qo'ysin, yo boshqa lagerga jo'natib yuborsin. Xoinni ogohlantirib to'g'ri ish qildimmi, bilmadim. Harholda bir qishloqdan bo'lganimiz uchun shunday qildimmi, bilmayman, bilmayman.

Kimsanboyning kallasi chapdan o'ngga, o'ngdan chapga muttasil borib kelaverdi. Xuddi tutqanoq tutayotganga o'xshardi. U mashaqqat bilan o'rnidan turib, boshini barak tomonga to'g'rilab qo'ydi. Baribir boshi yon tomonga silkinaverganidan yo'lni ko'rolmay gandaraklay boshladi. Ikki marta yiqildi. Yana turdi. Ko'r odamday tasmollab yura boshladi. Unga ham rahmim keldi, ham undan jirkanib ketdim. Ertasiga u qora lak olgani kelmadi. Tushlikka yaqin uchinchi barakda nima'dir bo'ldi. O'sha tomonga sanitar yugurib o'tdi. Lager kasalxonasining jarrohi — katorjpik Shtokman va zambil ko'targan ikki sanitar izma-iz

o'sha yoqqa yugurib ketishdi. Bir ozdan keyin zambilda qonga belangan Kimsanboyni kasalxonaga olib o'tishdi.

— Ko'ksiga pichoq sanchibdi, — dedi barak navbatchisi. — Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi. Kechqurun ishdan qaytgan Olimjon domla kasalxona baragi oldida u yoqdan bu yoqqa asabiy borib-kelib turibdi. Eshik oldida maxorka chekib turgan sanitardan:

— Ahvoli qalay? — deb so'radim. — Bilmadim, hozircha bir nima deyish qiyin. Pichoq yuragiga bir santimetrcha kirgan. Ertalab sanitar oldimga kelib:

— Bemor Yolqinov sizni so'rayapti, — dedi. Kimsanboy ko'kka boqib yotibdi. Ora-sira ojizgina ingrab qo'yadi. Tepasiga borib, ahvolini so'radim. Uning xushi joyida edi. Faqat ko'p qon ketganidan juda holsiz, bemajol.

— Hamqishloq, yaqinda muddatingiz tugab uyga ketasiz, — dedi u past tovushda. — Iltimos, dadam qamoqdan qaytib kelgan bo'lsa, mening uzrimni yetkazing. Gunohini qoni bilan yuvdi, deb ayting. U charchadimi, hartugul, ancha paytgacha indamay yotdi. Navbatchi sanitar, kerakli gapini ayta olmayapti, deb o'ylab bizni xoli qoldirib chiqib ketdi.

— Bu dunyoning azoblaridan kutulishimga sanoqli soatlar qolgan. Sizdan o'tinib so'rayman, Shtokmanga ayting, jonim uzilishi bilan tanam sovumay, jasadim qotmay turib ko'ksimdagi Stalin suratini terim bilan shilib olsin. Fashistlarning kontslagerida o'liklarning terisini shilishda Shtokman assistentlik qilgan. Qandoq shilishni yaxshi biladi. U dunyoga ham Stalin bilan ketmay. U bilan bitta qabrda yotgulik qilmasin.

Uning bu gaplari iltimos emas, vasiyat edi.

— Xotirjam bo'ling, albatta, unga aytaman, — deb va'da berdim. Fashistlarning kontslagerida Kimsanboy Yolqinov o'likxonaga qorovul bo'lgan deb eshitgan edim. O'lgan asirlarni tikanli sim bilan o'ralgan joyga sarjingga o'xshatib taxlab qo'yganlar. Qish chillasida o'liklar toshdek qotib, muzlab qoladi. Ularning og'izlaridagi tilla tishlarini o'g'rilar qoqib ketmasin, deb qo'riqlashardi. Badanida yara-chaqasi yo'q

o'liklarni ichkariga, issiqxonaga olib kirganlarida muz erib, murdalarning badani yumshab qoladi. Shundan keyin terisini shilish oson bo'ladi. Bu terilardan tannoz xonimlarga sumkachalar, tanga-chaqa soladigan hamyonchalar, qayishlar yasashardi. Ba'zan yorilgan barabanlarga ham qoplashar edi.

Kimsanboyning oldidan chiqib, jarrox Shtokmanning xonasiga kirdim. Yolqinovning vasiyatini unga aytdim. Shtokman bosh chayqadi.

— Buni hatto xayolingizga keltirmang. Umrimda bunaqa ish qilmaganman. Ammo qilmagan ishinni zo'rlab bo'ynimga qo'yib, otuvga hukm qilishgandi. Keyin otuv hukmini yigirma yillik katorgaga almashtirishdi. Kechirasiz, yana boshqatdan otuvga hukm etilishni istamayman! Shu bilan Shtokman gapni qisqa qildi-yu meni xonasidan chiqarib yubordi. Ertalab borganimda sanitar Yolqinovning sahar paytida jon berganini aytdi. Ichkariga kirib murdani ko'rmoqchi bo'ldim. Ikki sanitar uning ustidagi choyshabni ochib, Stalinning suratini tomosha qilishayotgan ekan. Pichoq Stalinning chap ko'zidan sal pastrog'iga sanchilgan edi. «Dohiy»ning surati shu qadar mahorat bilan ishlangan ediki, xuddi tirikka o'xshab ko'rinardi. Ajab, o'lik tanada tirik Stalinning surati. Mendan oldin Olimjon domla kelib, murdaga uzoq tikilib o'tirganini, o'pkasini bosolmay o'kirib yig'laganini aytib berishdi. Qaytib chiqqanimda domla eshik kesakisiga boshini tirab, holsiz bir alpozda turardi.

— Domla, bir musulmonning bolasi olamdan o'tdi, — dedim. — Shunga janoza o'qitsak bo'larmidi? Domla indamadi. Uzoq sukutdan so'ng:

— Unga janoza lozim emas, — dedi.

— Ko'kragida kofirning surati bor. Endi u bejanoza, bekafan ko'miladi. U shunday dedi-yu gandraklab-gandraklab, barak orqasiga o'tib ketdi. «Dohiy» Stalinning jasadı tuproqqa ko'milmadi. Uni ichiga poxol tiqib, mavzoleyga, ustozı Lenin yoniga yotqizib qo'ydilar. Bu yerda esa u bir xoinning badaniga yopishib, atigi bitta murda arang sig'adigan go'riga sherik bo'lib yotibdi. Shu bilan ichimizdan chiqqan xoinning jirkanch umri yakun topdi.

*1999-yil, 17-iyun.*

## ONAJON

*Muhammad Yusuf*

Topmoq – yo‘qotmoqdir,  
Yo‘qotmoq – topmoq,  
Sen so‘lib,  
Men yashab,  
To‘lishimga boq.  
Sensiz topganimdan  
Ko‘proq yo‘qotdim –  
Sen meni yupatding,  
Seni yig‘latdim,  
Sen meni yaratding,  
Seni tugatdim.  
Uyalmay ONA deb,  
Kelishimga boq!..  
Sog‘inch haqda she‘rlar  
Yozdim o‘zimcha,  
Mendan peshanangda  
Dog‘lar tizimcha.  
O‘g‘il bo‘lmay o‘lay,  
Attang ming attang.  
Qiz tug‘ sang netardi,  
Ko‘proq qiz tug‘sang!..  
Tirgak bo‘lolmadim  
Bitta qizingcha  
Uyalmay shoirman  
Deyishimga boq.  
Joningdan aylanay,  
Turgil, jonajon,  
Yo‘l qarab bo‘ldimi  
Jigarginang qon?  
Boqma, ko‘zlarimga  
Bemajol, xasta,  
Mening topganlarim



Gulmi bir dasta,  
Yo'qotganim senmi  
Endi ONAJON?..  
O'z etimni o'zim  
Yeyishimga boq.  
Bilsang yuragimni  
Bir alam elar.  
Buyursang qo'limdan  
Kelmaydi nelar,  
Ayt,  
Pichan yig'aymi,  
O'tin yoraymi,  
Yerni haydayinmi,  
Ko'k ag'daraymi?..  
Itdek oyog'ingga  
Suykalgim kelar –  
Uchib-uchib, mana  
Qo'nishimga boq.  
Hech narsa kerakmas,  
Bolam, hech deysan.  
Endi kech deysan-da,  
Endi kech deysan.  
Yuzimni bosaman  
Muzday yuzingga,  
ONAJON,  
Zor qilib ketma izingga!  
O'lim oldida ham  
G'amimni eysan,  
Men-chi, jim, taqdirga  
Ko'nishimga boq.  
She`rim bitdi,  
Xayr,  
Do'stlar xush qoling.  
Bedil yashamakka

O'rganmang menday  
Boring,  
Volidangiz  
Ko'nglini oling,  
Ertaga  
Kech qolib  
O'rtanmang menday.

**BADOYI' UL-BIDOYA»DAN**

\* \* \*

Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga,  
Yo'qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,  
Har kahfi kifoyatingni dor ayla manga,  
Har durri inoyating nisor ayla manga.

\* \* \*

Jonimdog'i «jim» ikki dolingg'a fido,  
Anding so'ng «alif» toza niholingg'a fido,  
«Nun»i dog'i anbarin hilolingg'a fido,  
Qolg'on iki nuqta ikki xolingg'a fido.

**«G'AROYIB US-SIG'AR»DAN**

Yo koshifi asrori nihon bo'lsa kishi,  
Halloli rumuzi osmon bo'lsa kishi.  
Yo oshiqi zori notavon bo'lsa kishi,  
Devonavu rasvoyi jahon bo'lsa kishi.

\* \* \*

Furqat sahari g'amg'a yo'liqturdi meni,  
Hijron kuni yuz balog'a topshurdi meni.  
G'am shomi o'lum holig'a yetkurdi meni,  
Tong otqucha uyqusizlig' o'lturdi meni.

*(Alisher Navoiy)*

Tishing dur, labing marjon. xading gul, xating rayhon,  
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.  
Meynon menging, so'zing mul, anbar soching, yuzung hur,  
Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Tafohur ko'zum, ko'nglum qilurlar magar bordur,  
Ko'zunga ko'ngul vola, yuzunga ko'zum hayron.  
Hayron ko'zum yuzunga, vola ko'ngul ko'zunga,  
Bordur magar, qilurlar ko'nglum, ko'zum tafohur.

Tafakkur necha qilsam topilmas sening misling,  
Pariydek seni ko'rdum emassen magar inson.  
Inson magar emassen, ko'rdum seni pariydek,  
Misling sening topilmas qilsam necha tafakkur.

Balodur manga hajring, davodur manga vasling,  
Itobing manga ofat, hadising manga darnnon.  
Darmon manga hadising, ofat manga itobing,  
Vasling manda davodur, hajring manga balodur.

(Bobur)

Bir qo'lda Qur'onu bittasida jom,  
Ba'zida halolmiz, ba'zida harom,  
Feruza gumbazli osmon ostida  
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom.  
Men keldimu, dunyo ko'rdimi foyda?  
Ketsam martabasi osharmi? Qayda!  
Hech kim tushuntirib bera olmadi:  
Kelishim - ketishim sababi qayda.  
Dedim, endi mayi gulgun ichmayman,  
May tok qoni, men xun ichmayman,  
Keksa aqlim aytdi: Shu gaping rostmi?  
Dedim: hazillashdim, nechun ichmayman!  
Sen bo'lsang-u, men bo'lsam-u, may bo'lsa,  
O'rtada bir qizil gul ham nay bo'lsa,  
Nayni chalib navo qilsang nozanin  
Jon bermoqqa yurakkinam shay bo'lsa.  
O'ylama pulsiz-u nochor ichmayman,  
Rasvolikdin qilib yo or ichmayman,  
Men mayni dilxushlik uchun ichardim  
Bu kun-chi, qalbim-da sen bor ichmayman!  
May ichsang, oqil-u dono bilan ich,  
Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich.

Oz-oz ich, goh-goh ich ham yashirin ich,  
Ezma, rasvo bo'lma, hayo bilan ich.

(Umar Hayyom)

### KOSHG'ARIY YODI

*Eshqobil Shukur*

Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?  
Toshni yorib chiqar ulug' yo'lchilar...  
Toshlar to'lg'og'iga doya bo'lmasmi  
O'zbekistondagi tilchilar?  
Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?  
Tilning gul chehrasin yorgan qamchilar  
Sinmasmi, ozod bir So'zga aylansa  
O'zbekistondagi hamma tilchilar?  
Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?  
Horitib qo'ydimi adashgan yo'llar.  
Tunlari "Devonu lugotit turk"da  
Qushlarday chug'urlab chiqmasmi dillar?  
Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?  
Til – ega, davrlar aniqlovchilar...  
Yig'larmi, o'lgan so'z uzra "Bolam!" deb  
O'zbekistondagi tilchilar.  
Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?  
Yurakday yorilib bormoqda toshlar,  
Ulardan shoirlar chiqib kelmoqda,  
Ko'ksini to'ldirgan alvon quyoshlar.  
Siz nega notinchsiz, Mahmud Koshg'ariy?

### MILLAT VIJDONI

*Eshqobil Shukur*

(Hazrat Navoiy tavalludining 572 yilligi  
tantanalarida oqilgan she'r)

Safma-saf o'tarkan ellar karvoni  
Tarixlar, zamonlar dovonlarida,

Porlab ko‘rinadi millat vijdoni  
Hazrat Navoiyning devonlarida.  
Mangu safardoshlar So‘z va Haqiqat,  
Nur bermish azalning chiroqlariga.  
Yastanib yotadi ulug‘ mamlakat  
“Xamsa”ning muborak varaqlarida.  
Bunda har bir satr – besh yuz yillik yo‘l,  
Har so‘z farishtaday silkitar qanot.  
Har bir umidvorga uzatadi qo‘l  
Baytlar orasidan Hikmat va Najot.  
Ona Til, Ona Yurt, aziz ona Yer –  
Ajdodlar ruhi bu, avlodlar shoni!  
Bu jahon mulkida hazrat Alisher  
Ma‘no olamining O‘zbekistoni.  
Bobo tarix o‘zi haq so‘zga roviy,  
Vaqtini-da kesolgay rost qalam shaxti.  
Olti asr bo‘ylab hazrat Navoiy –  
Tafakkur poytaxti, Tuyg‘u poytaxti.  
Safima-saf o‘tarkan ellar karvoni  
Tarixlar, zamonlar dovonlarida,  
Porlab ko‘rinadi millat vijdoni  
Hazrat Navoiyning devonlarida.

## YASHAMOQNING O‘ZI BAXT

Jumagul Suvonova

Siz-u bizning umrimiz muborak bir navodir,  
Kahkashonlar chorlagan saodatdir, safodir,  
Qalbimiz muhabbatdek nurga to‘liq dunyodir,  
Chunki yashamoq bir baxt, tirikligimiz davlat.

Qadr bo‘lar orada mehr-u oqibat bo‘lsa,  
Yurakda yashash uchun bir ulug‘ niyat bo‘lsa.  
Odamlar bir-birovga do‘st bo‘lsa, hamdard bo‘lsa,  
Yashamoqning o‘zi baxt, tirikligimiz davlat.

So'raganda bermayin, so'ramasang mo'l berib,  
Oloñ inoyat etsa, yo'lga tushsang, yo'l berib,  
O'lguningcha yasholsang yaxshilarga qo'l berib,  
Yashamoqning o'zi baxt, tirikligimiz davlat.

Qay yumushing bitmasa, qay tashvishing qolsa ham,  
Dushmanlaring boshingga turli savdo solsa ham,  
To'g'ri bo'lsang, olg'irlar oshing tortib olsa ham,  
Baribir yashamoq baxt, tirikligimiz davlat.

Oh-voh dema, uyingda burda noning bo'lmasa,  
Chamanlarga burkangan oshiyoning bo'lmasa,  
Qo'l-oyog'ing but bo'lsa, lek darmoning bo'lmasa,  
Baribir yashamoq baxt, tirikligimiz davlat.

Siz-u bizga yaratgan yashashga quvvat bersin,  
Tiriklik, umr nomli yuksak toj-u taxt bersin.  
Hamмамizga ushbu yil omad bersin, baxt bersin,  
Axir yashamoq zo'r baxt, tirikligimiz davlat.

Ranjimagin birodar, hayotni sevmagandan,  
Bu kunlarni quvonch-u shodlik deb bilmagandan,  
Hayqirib kelgan yaxshi dunyoga kelmagandan,  
Axir yashamoq zo'r baxt, tirikligimiz davlat.

30.12.2008.

## MEN SHOIR EMASMAN

*Jumagul Suvonova*

Men shoir emasman, lekin kimningdir  
Quvonchini ko'rsam, ko'kka yetaman.  
Men shoir emasman, biroq kimningdir  
Ko'zyoshini ko'rsam, cho'kib ketaman.

Men shoir emasman, ammo tabiat  
Yashil bog'laringni quchgim keladi.  
Gulbarglarga o'rab atr-u bo'yingni,  
Moviy xilqatingda uchgim keladi.  
Shoirilar ba'zida sal xud, sal bexud,  
Men mudom o'zimni tutib yashayman.  
Sal kam o'ttiz yildir dardimni yutib,  
O'n sakkiz yoshimni kutib yashayman.  
O'sha o'n sakkiz yosh orzu va armon,  
Hanuz tushlarimda tovlanar ishq-cho'g'.  
Juda uzoq yurdim o'shandan buyon,  
Sening manzilingni topolganim yo'q.  
Men shoir emasman, bor-yo'g'i bir dard  
Va ko'ngil sharhiga qo'yganim ixlos.  
Zaminni, samoni, daraxtlarni ham  
Seni sevganimdek sevganim xolos.  
Men shoir emasman, ammo, kimdir d-o-o-d!..  
Shunchaki she'r yozsa, shu on ko'raman.  
She'rparast telbaga baland havasim,  
She'rni sevmaganni yomon ko'raman.  
Men shoir emasman, shunday ekan bas,  
Sal telba, sal darvesh, salgina oshiq.  
Shoirlik shunchaki she'r yozish bo'lsa,  
Menda bundayin nom bo'lmaydi ortiq.  
Shoirlik azobdir, shoirlik otash,  
Isyon, iztirobga lim-lim to'laman.  
Kimdir she'rim o'qib «oh» desa bexos,  
Faqat o'sha kuni men shoir bo'laman.

10.05.2007



# NAZARIY MA'LUMOTLAR

## III qism

## Xalq og‘zaki ijodi

Har bir narsaning tarixi bo‘lgani kabi, badiiy adabiyotning ham ilk ko‘rinishlari, tarixi bor. Bu xalq og‘zaki ijodidir. U mehnatkash omma tomonidan yaratilgan eng qadimiy san‘at bo‘lib, o‘zida o‘sha xalqning turmush tarzi, fe‘l-atvori, ruhiyati, urf-odati, udumlari, orzu-istaklari, tabiati, iqlimi kabilarni mujassamlashtiradi.

Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi “folklor”, “xalq og‘zaki poetik ijodi” kabi atamalar bilan ham yuritiladi. Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgan va yozma adabiyotning bunyodga kelishiga asos bo‘lgan adabiyot turidir. Folklor barcha san‘atlarning boshlanishi, sarchashmasi, shu sababli ham ko‘pgina san‘atlar unga ergashadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida folklor atamasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: **FOLKLOR** [ingl. *folklore* < *folk* – *xalq*, *lore* — *bilim*; *fan*] *Xalq ijodiyoti; xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (ertak, doston, qo‘shiq, lapar, masal, maqol, matal, topishmoq va b.) (qarang: OTIL, 4-tom).*

Og‘zaki adabiyot namunalariga xalq dostonlari, xalq qo‘shiq-lari, maqollar, topishmoqlar, ertak va shu kabilarni kiritish mumkin. Ushbu sanab o‘tilgan janrlar asrlar davomida turli o‘zgarishlarga uchragan, ko‘plab sinovlarni boshidan kechirganligi sababli, ularning mazmuni va shakli o‘zgarishi, tarkibiga yangi va qismlar qo‘shilishi yoki olib tashlanishi ham mumkin.

Xullas, xalq og‘zaki ijodi xalqimiz turmush tarzi tarixidan xabar beruvchi eng yorqin va ishonchli manbalar majmuidir. Uni asrash, o‘rganish, targ‘ib qilish hamda kelgusi avlod vakillariga yetkazish har bir ziyoli shaxsning farzi sanaladi.

## MAQOL VA TOPISHMOQ

Inson nutq so‘zlash jarayonida turli xil ibratli so‘zlardan foydalanadi. Ulardan biri maqoldir.

Maqol – xalq og‘zaki ijodining janri sifatida nutq bezagi bo‘lib, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni bir jumlada ochib beradi va ta‘sirchanligini oshiradi. Shu sababli nutqida maqollardan ko‘p foydalangan kishilarning

soʻzi qadrli va eshitimli boʻladi. Maqol hayotiy tajribalari yuqori boʻlgan ota-bobolarimizdan qolgan xulosalar jamlanmasidir.

Maqol soʻzi arab tilidan olinga boʻlib, “soʻz” degan maʼnoga ega. Uni “otalar soʻzi” deb ham atashadi. OʻTIL da keltirilishicha, *MAQOL* [a. -maqola, kichik asar; soʻz, nutq] *Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega boʻlgan ixcham, obrazli, tugal maʼnoli va hikmatli ibora.* (qarang: *OTIL, 2-tom*)

Unda uchta xususiyat talab etiladi: fikrning aniqligi, xulosaning tugalligi, ifoda loʻndaligi. Bundan tashqari maqollar nafaqat nutq jarayonida, balki badiiy adabiyotda, jumladan, dostonlar, ertaklar, hikoyalar, roman va sheʼrlar tarkibida uchraydi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari maqollar eng koʻp qoʻllanilgan (400 dan ortiq) asar sifatida talqin etilishi barchaga maʼlum.

Turkiy tillarning ilk maqollaridan M.Koshgʻariyning “Devonlu lugʻotit turk” (XI asr) asari orqali xabardor boʻlamiz:

*“Kishi olasi ichtin,*

*Yilqi olasi tashdin”*

*Maʼnosi:*

*Odam olasi ichida,*

*Mol olasi tashida.*

Tilda mavjud boʻlgan soʻzlar asrlar davomida sekinlik bilan oʻzgargani kabi, maqoliar tarkibidagi soʻzlarning ham maʼnosi xuddi shu tarzda oʻzgaradi, biroq tushuncha saqlanaveradi, mazmun-mohiyati oʻzgarmaydi.

Shuningdek, maqollarda ichki qofiya shakllangan boʻladi. Masalan,

*Ona yurtiing omon boʻlsa,*

*Rangi roʻying somon boʻlmas.*

Maqollarning yana bir xususiyati borki, unda soʻzlar aksariyat hollarda koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi va ushbu soʻzlarningasl maʼnosi tushunilsa, hech qanday maʼno-mazmun chiqmaydi. Masalan:

*Qolgan ishga qor yogʻar.*

*Qalovini topsang, qor ham yonadi.*

*Yer haydasang kuz hayda,  
Kuz haydamasang, yuz hayda.*

Antiteza hodisasining ko'p uchrashi ham maqollarga xos xususiyatlardan biridir:

*Kattaga hurmatda bo'l,  
Kichikka izzatda.*

*Do'st achitib gapirar,  
Dushman kuldirib.*

*Yaxshi otga bir qamchi,  
Yomon otga ming qamchi.*

Topishmoqlar ham xalq og'zaki ijodining eng sevimli va eng qiziqarli janrlaridan sanaladi. Uni turli nomlar bilan ham atashadi: "topmacha", "jumboq", "matal", mumoz adabiyotda "chiston" deb yuritiladi. O'TIL da topishmoqqa adabiy nuqtayi nazaridan quyidagicha izoh keltirilgan: **Topishmoq** - Topishmachoq o'yinida: *topilishi kerak bo'lgan narsa, hodisa va sh.k. ning ramz va o'xshatmalar orqali ifodalangan qisqa tavsifi; jumboq (qarang: OTIL, 4-tom).*

Maqol va topishmoq janrlari bir qarashda shaklan bir-biriga o'xshasa-da, ularning farqli tomonlari talaygina. Maqollar pand-nasihad va tarbiyaviy sifatlarga ega bo'ladi, fikr aniq va tugal bo'lib, bu fikr rad etib bo'lmas shaklga ega bo'ladi. Topishmoqlarda esa yashirin ma'no majoziy shaklda keltiriladi, ya'ni narsaning nomi biror qush, hayvon, o'simlik va shu kabilarga qiyoslangan holda keltiriladi. Uning aqlni charxlash, bolalarni mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi ekanligi ham barchamizga ma'lum.

Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra bir predmetli va bir necha predmetli turlarga ajraladi. Masalan:

Bir predmetli topishmoqlar:

*Bir parcha patir,*

*Olamga tatir. (oy)*

*Zar gilam, zar-zar gilam,*

*Ko'taray desam og'ir gilam. (yer)*

Bir necha predmetli toishmoqlar:

*Bir otasi, bir onasi,*

*Necha yuz ming bolasi. (quyosh, oy, yulduzlar)*

*Otasi uzun xo'ja,*

*Onasi yoyma xotin,*

*Bolasi shirin-shakar. (tok, bargi, uzumi)*

Mavzu jihatidan ham rang-baranglik kasb etgan topishmoqlar o'zida olam va odam, tabiat hodisalari, hayvonot olami, mehnat va o'quv qurollari, cholg'u asboblari, turarjoy, qurol-yarog'lar va shu kabilarni mujassamlaydi. Ularni *tabiat hodisalari, odam va uning a'zolari, hayvonot dunyosi, parranda va qushlar, hasharotlar, o'simliklar dunyosi, haqida topishmoqlar, ekin va o'simliklar, poliz ekinlari va sabzavot haqida, oziq-ovqatlar haqida, mehnat, ish qurollari, uy xo'jalik asboblari, uy-joy va unga tegishli jihozlar, olov, tutun, chiroq haqida, kiyim-kechak, bezak va tikuvchilik asboblari, kitob va yozuv, cholg'u asboblari, o'yinlar va o'yinchoqlar, ot asboblari va yo'l haqida, kema va qurol-yaroqlar haqidagi, ertakli va har xil mavzudagi topishmoqlar guruhlariga ajratish mumkin.*

Maqol va topishmoqlarda so'zlarning o'zaro qofiyadosh bo'lib kelishi ularni umumiy xususiyati sanaladi. Lekin ularning biri ibratli fikrni, ikkinchisi jumboqda yashiringan mazmuni topish kerakligini anglatadi.

Shunday qilib, maqol va topishmoqlar bir-biridan farq qilsa-da, avvalo, inson tarbiyasi, ma'naviy kamolotining shakllanishiga xizmat qiladi.

## HADIS

Hadis so'zi arab tilidan olingan bo'lib, xabar, gap, yangilik degan ma'nolarni anglatadi. O'TIL da unga HADIS [a. 40. — so'z; suhbat; hikoya, rivoyat] *din*. Islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg'ambarning faoliyati va ko'rsatmalari haqida rivoyatlar

majmui (Rasululloh sallallohu alayhi vassallamning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so'zlari ham hadisdir)-deya ta'rif berilgan. (*qarang: OTIL,5-tom*)

Hadislar Muhammad (sav) ning aytgan so'zlari, qilgan amallari haqidagi rivoyatlar jamlanmasi bo'lib, islom dinida Qur'ondan keyin ikkinchi o'rinda turadigan muqaddas manba sanaladi. Hadislarda insonni komillikka eltuvchi ezgu amallar, insoniy fazilatlar, mehr-oqibat, poklik, insofli bo'lish, halollik, adolatlilik kabi xislatlar ulug'lanib, yomon illatlar: razolat, kibr, nafs, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, zulm, fitna kabi illatlar qoralanadi.

Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi:

1. Hadis matni (mazmuni);
2. Hadis sanadi (kim tomonidan aytilgani);

Hadislarni Payg'ambar vafotidan so'ng yozma shaklda to'plab, targ'ib qilish odat tusiga kirdi. Ularni aytuvchilar ikkiga- sahobalar (payg'ambarimizning o'zlari bilan ko'rishgan, suhbat qilganlar), tobeinlar (sahobalardan eshitganlarini aytuvchilar) ga bo'linadi. Bunday holatlar hadislarni to'plashda noaniqliklarni keltirib chiqardi, ya'ni sahobalar va tobeinlarning fatvolari aralashib ketib ishonchsiz hadislarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Hadisning yana ikki turi bor:

1. Hadisi qudsiy (Alloh taoloniki, aytilishi Rasululloh tomonidan bo'lgan hadislar); 2. Hadisi nabaviy.

E'tiborga olinishi jihatidan esa uch turga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif;

Hadisshunos olimlarimizdan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiylar umrlarining aksariyat qismini hadis ilmiga, ularni to'plashga va targ'ib qilishga sarflaganlar. Ular orasida Imom Buxoriyning o'rni beqiyos sanaladi. Uning "Al-jome' as-sahih" (yoki "Sahih al-Buxoriy") asari Hadisshunoslikda alohida salmoqqa va qadrga ega. Ishonchli hadislardan iborat bu to'plam ustida alloma 16 yil ishlaydi va 60000 hadis ichidam 7397 tasini sahihlarga ajratib chiqadi.

## MASAL

Masal arabcha soʻzdan olingan boʻlib “namuna”, “misol” degan maʼnolarni anglatadi. OʻTIL da unga quyidagicha izoh keltirilgan: *Masal* [a. — *namuna, andoza; oʻxshashlik; ramzli hikoya*] *Kishilarga oʻgit boʻladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya. (qarang: OTIL, 2-tom)*

Didaktik adabiyot janri sifatida masal oʻzida taʼlimiy, axloqiy xislatlarni jamlagan holda, kichik sheʼriy yoki nasriy shaklda yozilgan boʻladi. Unda ishtirok etayotgan qahramonlar, asosan, ramziy-majoziy maʼnoda qoʻllangan turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iborat boʻladi. Masalning eng asosiy xususiyati, u butunligicha tarbiyaviy maqsadga yoʻnaltirilgan.

Adabiyotda ilk masalchi sifatida Ezop (milodiy 6-5-asrlar) ni olish mumkin. Uning 500 ga yaqin masallari bizga maʼlum. Bundan tashqari grek masalchilari Fedr, Babriylar esa Ezop ijodining tom maʼnodagi davomchilari sanalishadi. Shundan soʻng Fransuz masalchisi Lafonten (XVII asrda), German masalchilari Gellert va Lessing (XVIII-XIX asr), Rus masalchisi Krilov (XIX asr)lar ushbu janr ravnaqiga yanada ulkan hissalarini qoʻshishdi.

Sharq adabiyotida ham masal janrining ilk koʻrinishlari qadimgi hind adabiyotining nodir namunasi sanalgan “Pantachantra”, “Kalila va Dimna” asarlarida koʻzga tashlanadi.

Oʻzbek adabiyotiga masal janri yuzasidan nazar solinganda, Alisher Navoiy (“Hayrat-ul abror”, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”), Muhammad Sharif Gulxaniy (“Zarbulmasal”), XX asrlarga kelib esa A.Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, M.Xudoyqulovlarning asarlarida masal janriga oid juda nodir va takrorlanmas namunalar uchraydi.

## ERTAK HAQIDA

Xalq ogʻzaki ijodining eng goʻzal, eng ajoyib janrlaridan biri ertakdir. OʻTIL da ertakning mazmun-mohiyati quyidagicha ochib berilgan: **ERTAK** 1. Xalq ogʻzaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; toʻqima va uydirmaga asoslangan, sehrli, sarguzasht va maishiy

mazmundagi epik badiiy asar; cho'pchak (*qarang: OTIL,5-tom*). 2. Hikoya, qissa, voqea.

“Ertakchi”, “matalchi”lar tomonidan aytilgan ertaklarda, asosan, yaxshilik va yovuzlik, yolg'on va haqiqat o'rtasidagi kurash, ertak yakunida esa yaxshilik va haqiqatning tantana qilishi tasvirlanadi. Chunki ushbu janrning ham asosiy xususiyati xalqning azaliy orzu-unidlari, xohish-istaklarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ertaklarni turlarga ajratganda ularni ikkiga - xayoliy uydurmalar asos bo'lgan ertaklar, hayotiy uydurmalar asos bo'lgan ertaklarga bo'lish mumkin. Bundan tashqari, obrazlar talqini, g'oyasi, o'zaro ziddiyatlari, sujet va kompozitsiyasi, tili, uslubiga ko'ra shartli ravishda sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlarga bo'linadi.

Sehrli ertaklarda voqea-hodisalar fantastik uydurmalar, mubolag'alar juda ko'p uchraydi. Bularda, asosan mardlik, pahlavonlik g'oyalari ulug'lanadi. Sehrli ertaklarga “Semurg”, “Devbachcha”, “Yalmog'iz”, “kenja botir” kabilarni kiritishimiz mumkin.

Hayvonlar haqidagi ertaklarda majoziy ma'noning roli beqiyos ekanligi barchaga ma'lum. Bunda insonlarga xos xususiyatlar, illatlar hayvonlar obrazlari orqali ochib beriladi. Masalan, ayyorlik va tilyog'lamachilik tulki orqali, laqmalik bo'ri, aqllilik ayiq orqali ushbu xarakter-xususiyatlari yoritib beriladi. Bunday ertaklarga “Susanbil”, “Bo'ri bilan tulki”, “Tulkinging taqsimoti”, “Ikki boyqush” kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Hayotiy-maishiy ertaklarning asosiy mavzusi adolatsizlik, zulm kabi illatlarning qoralanishidir. “Uch og'a-ini botirlar”, “Oyguil bilan Baxtiyor”, “Tohir va Zuhra”, “Zolim podsho”, “Zumrad va Qimmat”, “Ziyod botir”, “Ozodachehra”, “Farhod va Shirin”, “Malikayi Husnobod” ertaklari aynan hayotiy-maishiy ertaklar sirasiga kiradi. Ulardagi voqealar hayotga yaqinligi, obrazlarda insoniy xislatlarning ulug'lanishi, yovuzlik ustidan ezgulikning g'alaba qozonish holatlari tasvirlanadi.

Umuman olganda, ertaklar insonni ma'naviy kamolotida alohida o'ringa ega bo'lib, ularda chinakam insoniy fazilatlarni shakllantiradi,



o'zligini anglashga, ota-onaga mehr, g'amxo'rlik, vatanga sadoqat, do'stlarga sodiqlik, mardlik, jasorat, mehnatsevarlik, sofdillik tuyg'ularini mavjlan tiradi. Hech bir ertak yo'qki, o'quvchini yomonlikka yetaklasa. Shunday ekan, farzandlari aqlli va dono bo'lib yetishishini istagan har biro ta-ona ularni go'dakligidanoq ertaklar og'ushida tarbiyalasin.

### ERTAK - DOSTON HAQIDA

Doston – xalq og'zaki ijodining liro-epik janriga oid badiiy asar. Dostonda hayot voqealari keng qamrovda olinadi va ikki yoki undan ortiq bosh qahramonlar, ko'plab personajlar ishtirok etadi. Dostonlar yaratilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: xalq dostonlari va adabiy dostonlar. Xalq dostonlarining aniq yaratuvchisi bo'lmaydi, ular ma'lum baxshilar tomonidan kuylanadi va aynan shuning uchun ham bir xalq dostonining ko'plab variantlari mavjud bo'ladi. Adabiy dostonlarda esa muallif aniq, biror shoir tomonidan yozilgan, hamda bir variantga ega bo'ladi.

Bundan tashqari badiiy adabiyotda ertak-doston degan janr ham uchirab turadi. Ushbu janr, nomidan ham ma'lumki, o'zida ham ertakning, ham dostonning badiiy xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'lib, ular biror bir shoiriar tomonidan yaratiladi. Mazmunan ertakka, shaklan esa dostonga o'xshashlik ertak-dostonning asosiy xususiyatidir. Bunda sodir bo'layotgan voqealar, xuddi ertakdagi singari, boshlanma, voqealar rivoji, tugallanmadan iborat bo'ladi, lekin ushbu voqealar nasriy usulda emas, lirik usulda bayon qilingan bo'ladi.

Shoir ertak-doston yaratar ekan, dastlab, uning qiziqarliligiga, voqealar rivojining keskin bo'lishiga e'tibor qaratishadi va ushbu voqealarni shoir yashab turgan davr bilan moslashtirishga, unga nimadir qo'shish yoki olib tashlashga harakat qiladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, barcha ertak-dostonlarning asosi xalq ertaklari va afsonalari emas. Ular orasida shoir tomonidan o'ylab topilgan voqealar ham jonlantirilishi mumkin.

Ertak-dostonlar jahon va o'zbek adabiyotida talaygina. Ularni yozga adiblardan, jahon adabiyoti vakillaridan, Ubayd Zakoniy, A.S.Pushkin, K.Chukovskiy, S.Marshaklarni, o'zbek adabiyoti

vakillaridan Abdulla Avloniy, Quدرات Hikmat, Zafar Diyor, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'minlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Hozirgi davrga kelib ham ushbu janr ko'plab ijodkorlar tomonidan boyitilib borilmoqda.

### SHE'R HAQIDA

She'r so'zi arabcha "shuur" so'zidan olingan bo'lib, sezgi degan ma'noni anglatadi. Izohli lug'atda *She'r [ a. — nazm, poeziya] Ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar, deya keltirilgan. (qarang: OTIL, 4-tom)*

She'r inson fikrining his-tuyg'uga yo'g'rilgan, hayajonli nutq orqali ifoda etiladigan badiiy asar turidir. Badiiy adabiyotning eng qadimiy turi sanalgan she'r ba'zan "nazm" atamasi bilan ham yuritiladi. Rivoyatlarga qaraganda ilk she'r Odam alayhissalom tomonidan, o'g'li Hobil bevaqt o'ldirilganda, uning firoqida kuygan holatida yaratilgan ekan. Balki, shu sababdan ham, ko'plab she'rlarda yozuvchining ichki oniy tuyg'ulari aks etsa ajab emas.

Hozirgi adabiyotimizda yuqoridagi "qolip"lardan chekinish, "she'r" atamasini erkin tushunish va talqin etish, bu borada yangiliklar yaratish holatlari ko'paymoqda. Mana shu tamoyillarning vujudga kelishi yangi o'zbek she'riyatida "oq she'r", "sochma she'r", "nasriy she'r", "tasbih", "uchchanoq" kabi she'riy shakllarning shakllanishiga asos bo'lmoqda. Ushbu she'riy shakllarda qofiya deyarli mavjud bo'lmaydi, tinish belgilari, grammatik qoidalarga amal qilinmaydi.

She'r tarixiga nazar soladigan bo'lsak, o'zbek xalq og'zaki ijodida she'rlar, asosan, kuylash uchun yaratilganligi sababli "qo'shiq" deb atalgan. Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan asarlar orqali qadimda she'rlar qanday mavzularda va qanday ko'rinishlarda mabjud bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Mumtoz she'riyatda she'r bandi 2 misradan iborat bo'lsa-masnaviy, 3 misradan iborat bo'lsa-musallas, har bir band 4 misradan tashkil topgan bo'lsa-inurabba', 5 qator bolsa-muxammas, 6 qator bo'lsa-musaddas, 7 misra bo'lsa-musabba', 8 misrali banddan tashkil topgan bo'lsa-musamman, 9 qatorli bandlardan iborat bo'lsa-

tasne'(mustasne'), 10 qatorli bandlardan tashkil topgan bo'lsa-muashshar (mashru') deyilgan.

Zamonaviy adabiyotimizning she'riy janrda ijod qiladigan vakillari tomonidan, so'nggi yillarda jahon she'riyati tajribalaridan ko'nikmalar o'zlashtirishlari natijasida sonet, romans, xoyku, tanke, elegiya, barokko, rondel va shu kabi janrlar paydo bo'lmoqda.

## TUYUQ VA TAJNIS

O'zbek she'riyati qadim-qadimdan janrlar xilma-xilligi bilan ajralib turgan. Shunday lirik janrlardan biri tuyuq janridir. Tuyuq ad. so'z o'yiniga, ko'pincha tajnis qofiyasiga asoslangan, to'rt satrdan iborat she'r; she'riy janr. *Navoiy tuyuqlari. Tuyuqlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish amri mahol.* G'.Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish (*qarang: OTIL, 4-tom*).

U faqat turkiy adabiyotga xos janr bo'lib, arab va forsiy adabiyotlarda yo'q. Tuyuq, dastlab, xalq og'zaki ijodida paydo bo'ladi va keyinchalik yozma adabiyotga ko'chib, ma'lum qoidalari shakllanadi. Tuyuq janrining quyidagi talablari mavjud:

Tuyuq doimo to'rt misradan iborat bo'lishi shart.

Tuyuqda misralar, ruboiydagi kabi, a-a-a-a yoki a-a-b-a shaklida qo'fiyalanishi kerak.

U ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida yozilishi shart. Unda ohangdorlik "*foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon)*" ko'rinishida bo'ladi. Taqtesi esa: - V - - / - V - - / - V - (yoki V-~).

Tuyuqdagi o'zaro qo'fiyalanayotgan so'zlar, albatta, tajnisli ya'ni omonim, shakldosh so'zlardan tashkil topishi kerak.

Dastlab, tuyuqda to'rtinchi qoidaga unchalik ahamiyat qaratilmagan. Keyinchalik esa bu janrni tajnissiz tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga kelib qolgan.

**Tajnis** – badiiy san'at turlaridan biri. U "jinsdosh", "shakldosh" degan ma'nolarni anglatadi. **Tajnis** [a.] — o'xshash, bir xil shaklga keltirish; to'la uyg'unlik. 1. Til birliklarining shakldoshligiga asoslanadigan so'z o'yini.

2. *ad.* Og'zaki va yozma adabiyotda: shakldosh (omonim) so'zlarni qo'llash, so'zlarni shakldosh qilishdan iborat badiiy san'at turi (tuyuq janrida keng qo'llanadi). *Masalan: Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim, Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot. "Ravshan".*

Tajnisda nutq jarayoni yoki she'r tarkibida shaklan bir-biriga o'xshash, mazmunan boshqa-boshqa ma'nolarni anglatuvchi so'zlar qo'llaniladi:

Ey ko'ngul, yorsiz sanga ne bor bor?

Qaydakim ul zulfi anbarbor, bor.

Chek jafu-u javr-u nozi borini,

Bir kun o'lg'aykim, degaylar: "Bor-bor!"

Yuqoridagi Lutfiy qalamiga mansub tuyuqning birinchi misrasida "bor" so'zi "yuk", "tashvish, g'am" ma'nosida, ikkinchi misrada "Anbarbor" so'zi "Xushbo'y hidga boy" ma'nosida, uchinchi misrada mavjudlik, to'rtinchi misrada esa "Bor-bor" ya'ni "ket" ma'nosida qo'llangan tajniga duch kelamiz. Ushbu misoldan ma'lum bo'ladi, tajnis san'ati faqatgina omonim so'zlardan foydalanish degani emas. Sababi, omonimlar qat'iy bir xil shaklga ega bo'ladi, tajnisda esa muallif tomonidan bir martalik shakldoshliklar yaratilishi mumkin. Yuqoridagi tuyuqda keltirilgan "bor", "anbarbor" kabi jinsdoshlik shular jumlasiga kiradi.

## RUBOIY

Ruboiy arabchadan tarjima qilinganda "to'rtlik" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishicha *Ruboiy* [a. — *to'rtlik*] *ad. To'rt misradan iborat, tugal ma'no ifodalovchi, birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralari yoki to'rtala misrasi ham qo'fiyadosh bo'lgan mustaqil she'r; Sharq xalqlari she'riyatida keng tarqalgan poetik janr sanaladi (qarang: OTIL, 3-tom).*

Sharqiy adabiyot namunalari orasida juda ko'p uchraydigan va keng tarqalgan poetik janr sanaladi. Ruboiy 4 misradan iborat, falsafiy, axloqiy, ta'limiy, ishqiy mavzularda yozilgan she'rdir. U hazaj bahrida

yoziladi, boshqa bahrlarda yozilganlari esa dubaytiy, kuylanadiganlari tarona deb tomlanadi.

Ruboiyda qofiyalanish masalasiga alohida e'tibor beriladi va bu jihatdan ikki xil bo'ladi. Birinchi qofiyalanishda 1-, 2-, 4- misralar o'zaro qofiyalanadi:

*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur, (a)*

*Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur. (a)*

*Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek, (b)*

*Borg'on sori bu ortadur, ul kam bo'ladur. (a)*

(Z.M. Bobur)

Ikkinchi xil ruboiylarda keltirilayotgan misralarning to'rtalasi ham qofiyalanadi:

*Yo qahr-u g'azab birla meni tufroq qil! (a)*

*Yo bahri inoyatingda mustag'roq qil! (a)*

*Yo Rab, sengadur yuzum qaro oq qil, (a)*

*Har nav' sening rizong erur, andoq qil! (a)*

(Z.M. Bobur)

Ruboiy shaklidagi she'rlar, dastlab, xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan bo'lib, uning ilk namunalarini Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida uchratamiz. Bundan tashqari dastlabki ruboiylar Rudakiy va Shaxidi Balxiy tomonidan yozilganligi ma'lum. Arab, fors va turkiy tillarda Badriddin al Qavomiyning ruboiylari salmoqli o'rinni egallaydi. Bundan tashqari A.Runiy, S.Salon, Ibn Sino, Umar Xayyomlar ham ruboiy janrida samarali ijod etishgan. Alisher Navoiy davriga kelib bu janr yanada yuqori bosqichga ko'tarilganligiga guvoh bo'lamiz. Uning ruboiylarida hayotiy kechinmalarning tabiiyligi, ijtimoiy-siyosiy holatlar, falsafiy-axloqiy fikrlar to'g'risidagi mulohazalar yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etilgan. Z.M.Bobur ham ruboiylar yozib, bu janrni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan. Endilikda Bobur ruboiysidan bilmaydigan biror kishi bo'lmasligi tabiiy. Negaki, uning ruboiylari hayotiy jo'shqinlik, qalbga yaqinlik, inson his-tuyg'ularining shaffof ifodasi, tilining sodda va tushunarlilikka ega. XIX asrga kelib Ogahiy, Komil Xorazmiylar ham ruboiyning juda go'zal va betakror namunalarini yaratga. Hzirgi o'zbek

adabiyoti vakillaridan Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Ramz Bobojon, Tolib Yoʻldoshlar ijodida ruboiylar uchraydi. Lekin, ularning baʼzilari ruboiy vazniga mos kelmaganligi sababli dubaytiy yoki toʻrtlik deb ataladi, xolos.

Xullas, ruboiy adabiy janrlar ichida eng goʻzal va betakrori boʻlib, bugungi kun ijodkorlaridan ushbu janrni yanada rivojlantirish, salmogʻiga salmoq qoʻshish talab etiladi.

## QITʼA

Sheʼriy janrlar haqida gap ketganda, avvalo, ularning har biri alohida vazifa yuklash uchun mavjudligi haqida oʻylash lozim. Biz yuqorida bir qancha lirik janrlar, ularning oʻziga xos xususiyatlari haqida qisqacha boʻlsa-da maʼlumot berib oʻtdik. Yana bir takrorlanmas sheʼriy janrlardan biri qitʼadir. U gʻazaldan ham avvalroq mavjud boʻlgan boʻlib, lugʻaviy jihatdan “parcha”, “boʻlak” maʼnolarini anglatib koʻplikda **muqattaot** shaklida boʻladi. Qitʼa mavzu doirasi chegaralanmagan va bir qancha oʻziga xos sifatlarga ega boʻlgan, ikki yoki undan ortiq baytdan tashkil topgan sheʼriy janr sanaladi:

Odatda, qitʼada birinchi bayt qofiyalanmaydi, shu sababli baytlarning hammasi bir xil – *ab*, *db*, *eb*, *fb* kabi koʻrinishlarda qofiyalanadi.

Hajm jihatidan qatʼiy boʻlmaydi, eng kamida ikki, baʼzan esa 19 qoʻsh misradan iboratlari ham uchraydi. Gʻazaldan farqli oʻlaroq, qitʼada mavzu koʻlami chegaralanmagan boʻladi, shaklan va mazmunan erkin tuziladi. Qitʼalarda shoirlar oʻz taxalluslarini kamdan kam holatlarda qoʻllaydilar. Qitʼalarga nasriy sarlavhalar qoʻyiladi.

Gʻazal yozish niyatida oʻrta baytlari mavjud boʻlib, matlaʼ va maqtaʼsi boʻlmagan misralar ham qitʼa sifatida shoirlar devonlariga kiritilib yuborilaverilgan.

Qitʼada pand-nasihath ruhi ustunlik qiladi va ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, axloqiy-taʼlimiy yoʻnalishlarga bagʻishlanib yoziladi. Oʻzbek adabiyotida Alisher Navoiyning yozgan qitʼalari alohida ajralib turadi. Uning birgina “Xazoyin ul-maoniy” nomli toʻrt kitobdan iborat devonida hammasi boʻlib 210 ta qitʼa mavjud. Shulardan:

“G‘aroyib us-sig‘ar”da – 50 ta;  
“Navodir ush-shabob”da – 50 ta;  
“Badoe‘ ul-vasat”da – 60 ta;  
“Favoyid ul-kibar”da – 50 ta;

Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi asarlarida ham ushbu janning go‘zal namunalari uchraydi. Navoiydan tashqari Bobur, poshshoxo‘ja, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Munis Xorazmiy, Avaz O‘tar kabi yozuvchilar tomonidan qit‘aning go‘zal namunalari yaratilgan.

### G‘AZAL

O‘zbek mumtoz adabiyotida g‘azal janri o‘zining murakkabligi, shu bilan bir qatorda nafis va jo‘shqin mazmun aks etishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. “G‘azal” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “oshiqona so‘z”, “ayollarga xushomad” degan ma‘nolarni bildiradi. G‘AZAL [a. — xotin-qizlarning ko‘nglini olish, erkalash; lirik she‘r] *ad.* Aruz she‘riy tizimida uch baytdan o‘n to‘qqiz baytgacha bo‘lgan, sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek adabiyotidagi lirik she‘r (birinchi baytning har ikki misrasi, qolgan baytlarning ikkinchi misralari qofiyadosh bo‘lib keladi).

Sharq adabiyotining eng ko‘lami keng va ko‘p tarqalgan lirik janri hisoblangan g‘azal dastlab arab she‘riyatida (VI-VII asrlarda), so‘ngra boshqa xalqlar adabiyotiga tarqala boshlagan. Turkiy adabiyotda ilk bor “Qisas ar-Rabg‘uziy” asarida g‘azallar keltirilgan. Undan so‘ng Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida ham g‘azalning go‘zal namunalari uchraydi. G‘azal janrini ham o‘ziga xos xusisiyat va talablari mavjud:

Aksariyat g‘azallar ko‘pincha ishqiy mavzuda bitiladi. Bundan tashqari, Allohni maqtash (*hamd*), Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ni ta‘rifi (*na‘t*)ga bag‘ishlangan, shuningdek, *rindona* ya‘ni may va mayxona bilan bog‘liq tasvirlarga ega bo‘lgan hamda *orifona*, ya‘ni pand-nasihat ruhidagi, *peyzaj*ga bag‘ishlangan g‘azallar ham mavjud.

Hajm jihatdan 3 baytdan 19, 27 baytgacha bo‘lishi mumkin. Ular orasida 7 va 9 baytli g‘azallar eng mukammal g‘azallar sanaladi. Bir g‘azal boshidan to oxirigacha bir xil vaznda bitirishi kerak. Unda bitta

qofiya tizimiga amal qilinadi. Ya'ni misralar *aa, ba, ea, fa* va shu kabi ko'rinishlarda qofiyalanadi.

G'azal baytlari nisbiy ma'noda mustaqillikka ega bo'ladi. Ya'ni ularni butundan ajratib olganda ham ma'no mustaqilligiga ega bo'lishi kerak.

## SAYOHATNOMA JANRI

Sayohatnoma ham badiiy adabiyotning maxsus janri sifatida barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri o'zida sayohatning barcha xotiralari bilan bog'liq bo'lgan voqealar tafsilotining aks etishidir. U nasriy yoki she'riy shaklda yozilishi mumkin. O'TILda ham uning mazmuni izohlangan: *Sayohatnoma [sayohatnoma] Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvirlovchi badiiy asar; adabiy janr (qarang: OTIL,3-tom).*

O'zbek adabiyotida sayohatnomaning o'ziga xos shakllanish tarixi mavjud bo'lib, uning asoschisi Muhammad Aminxo'ja Muqimiydir. Uning murabba' shaklida yozilgan "Sayohatnoma"si ushbu janrning original namunasi hisoblanadi. Muqimiyning "Sayohatnoma" asari el orasida mashhurlikka erishgach, uning ortidan xuddi shu uslubni davom ettirgan holda Zavqiy, Furqat, Tajalliy kabi zamondosh shoirlar o'zlarining "Sayohatnoma"larini yaratganlar. Ushbu davrda yaratilgan "Sayohatnoma"larning ichki jihatdan tuzilishi quyidagicha bo'lgan:

1. Kirish qismi. Bunda sayohatga chiqishdan maqsadi va sabablari yoritiladi.

2. Yo'lda sodir bo'lgan barcha voqealar batafsil yoziladi.

3. Sayohat yakunidan chiqarilgan xulosalar bayon etiladi.

Sayohatnomalar shaklan ikki xil, nasriy va she'riy ko'rinishda yoziladi. Nasriy sayohatnomalarda joy va voqealarning izchil bayoni keltiriladi, she'riy sayohatnomalarda esa ushbu tavsilotlarning to'liqligiga e'tibor berilmaydi, ifoda ixcham va xulosa umumlashma holda beriladi.

Bugungi kunga kelib ham zamonaviy sayohatnomalar yaratilmoqda. Ular jurnalistlar, adiblar, shoirlarning chet mamlakatlarga



yoki yurtimizning biror go'shasiga qilgan sayohatlari natijasida bitilmoqda.

## HAJVIY ASAR HAQIDA

Badiiy adabiyotda hajviy asarlarga ham duch kelamiz. **HAJVIYOT** [a. — hajviyalar, satiralar] Hajviyalar, hajvlar, hajviy asarlar. "O'TA" (qarang: OTIL, 5-tom).

**HAJVIYA** – hajv bilan aytilgan, yozilgan she'r va sh.k. *San'atkor, xalq hajviyasining kulgi, kinoya, piching yo'llaridan foydalanib, personajlarning jonli nutqini obrazli xalq tili yordamida beradi ("O'TA")*.

**HAJVCHI** – hajv qiluvchi, hajviy asar yozuvchi. *Mavlono Abdulvosi degan mashhur hajvchi-latifachining so'z va harakatlari hammaning ichagini uzdi. Oybek, Navoiy. Fors-tojik adabiyotining klassigi, mashhur hajvchi adib Ubayd Zokoniyning tug'ilganiga 700 yil to'ldi (Gazetadan)*.

**HAJVCHILIK** – hajv, hajviy asar yozish ishi, ijodning shunday sohasi. *Faqat she'r yozib qolmay, nasriy hajvchilikda ham kuchini sinamoqda ("Mushtum"). Men birgina jurnalist bo'libgina qolmay, bu qozonda [gazetachilikda] shoirlik, hajvchilik, hikoyanavislikda ham pisha boshladim. S.Abdulla, Mening dorilfununim*.

U tanqidiy ruhda yoziladi va o'qigan kishida kulgu uyg'otish xususiyatiga ega asardir. Shakl va mazmuniga ko'ra satirik va yumoristik ruhda yoziladi. Hajviy asarlarni o'qib, uning asl mohiyatiga e'tibor qaratsak, ularda jamiyatda sodir bo'layotgan va mavjud bo'lgan kamchiliklar, illatlar, unda yashovchi ba'zi kishilarning fe'l-atvoridagi kamchiliklari, qusuriari kulguli tarzda tasvirianadi. Aslida, bu kulgu ostida qanchadan qancha insonlarning azoblari, ushalmagan orzu-istaklari yashiringan bo'ladi.

Hajviy asarlar turli usullarda, ya'ni she'riy hikoya, pyesa, hikoya, roman janrlarida bitilishi mumkin. Masalan, Muqimiyning "Maskovchi boy ta'rifida", "Saylov", "Dodhohim", "Tanobchilar" asarlari she'riy hikoya shaklida yozilgan. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi", "Tuhmatchilar jazosi", Abdulla Qahhorning

“Og‘riq tishlar”, Gogolning “Revizor” kabi asarlari pyesa shaklida yaratilgan. Chexovning “Yovuz niyatli kishi”, “Chiqdi”, “Qiyshiq oyna”, Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” hajviyotlari hikoya janri asosida bitilgan bo‘lsa, If va Petrovlarning “O‘n ikki stul”, “Oltin buzoqcha”, Ne‘mat Aminovning “Yelvizak” kabi hajviy asarlari roman janrida yozilgan.

Hajviy asarlarning eng asosiy xususiyati jamiyatdagi chirkin illatlarni, badfe‘l kimsalarning qilmishlarini fosh etishdan iboratdir. Ushbu narsalarni yanada yaqqolroq aks ettirish uchun yozuvchi tasviriarni bo‘rttirib ko‘rsatadi, turli tasvir vositalarida, mubolag‘a, fantaziya, o‘xshatish, qarshilantirishlardan keng foydalanadi.

Hajviy asarlar nafaqat jahon adabiyotida, balki o‘zbek adabiyotida ham taraqqiy etib kelmoqda. Gulxaniy, Muqimiy, Maxmur, Zavqiy, Said Ahmad, Ne‘mat Aminov, Anvar Obidjon kabi yozuvchilarning ijodida hajviy asarlarning yorqin namunalarini ko‘rishimiz mumkin.

## BALLADA HAQIDA

Ballada so‘zi fransuzcha “ballade” so‘zidan olingan bo‘lib, “raqsga tushaman”, “raqs qo‘shig‘i” degan ma‘nolarni anglatadi. Dramatik, tarixiy-afsonaviy, fojiviy yoxud qahramonlik mavzularida yozilgan, muayyan shakldagi lirik, liro-epik she‘r; she‘riy janr. *Ballada sujetiga ko‘pincha insonlar hayotida tasodifan ro‘y berib, ularning taqdirini hal etadigan yoki hayotida burilish yasay oladigan keskin voqealar asos qilib olinadi.*

Ushbu adabiy janr XIV-XV asrlarda fransuz adabiyotida taraqqiy etgan lirik janr sifatida baholanadi. Ballada hajm jihatidan unchalik katta bo‘lmagan lirik asar sanalib, unda shoirning his-tuyg‘ulari va bu tuyg‘ularga sabab bo‘lgan voqealar ham tasvirlanadi. Ular turli mavzularda yoziladi:

1. Romantik balladalar.
2. Fantastik balladalar.
3. Folklor yo‘nalishdagi balladalar.
4. Afsonaviy-tarixiy balladalar.

## 5. Maishiy balladalar.

Jahon adabiyoti qatorida o'zbek adabiyotida ham ushbu janrda ijod qilgan yozuvchilar va ularning asarlari talaygina. Sayfi Saroyining "Suxayl va Guldursun", Alisher Navoiyning "Xotami toyi", keyinchalik, Maqsud Shayxzodaning "Sulh daraxti", Shuhratning "Mardlik afsonasi", Hamid Olimjonning "Jangchi Tursun", G'afur G'ulomning "Suv va nur" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bizda balladalar, asosan, qahramonlik, ishqiy-qahramonlik va falsafiy talqinlarda bitiladi.

## ROMAN VA UNING TURLARI

Badiiy adabiyotning bir qancha janrlari mavjud bo'lib, ular orasida eng kattasi roman sanaladi. **ROMAN** [fr. roman < romane — lotin tilida emas, roman tilida hikoya qilish] hajmi ancha katta, xilma-xil qahramonlar, sertarmoq **sujetga** ega bo'lgan, odatda proza yo'li bilan yoziladigan asar; adabiy janr turi. *Tarixiy roman. She'riy roman. Kichkinagina bir hikoya shunchalik azob bilan yozilsa, eng kamida qirq-ellik hikoyaga teng keladigan roman qandoq yozilar ekan?* U.Norinotov, Talant tarbiyasi. *Romandagi ayollar obrazi ham alohida e'tiborga molik.* S.Ka-romatov, Oltin qum. *Sharq xalqlarida roman janrining tug'ilishi va kamolotida muayyan mushtaraklik mavjud.* Gazetadan. (qarang: OTIL,3-tom)

Roman nasriy yo'lda yoziladigan, hayot voqealarini katta ko'lamda tasvirlashi, **sujet** jihatdan ko'p qamrovli ekani, insonlar taqdiri va ularning ruhiyatlari keng qamrovda tasvirlashi, hajm jihatdan ham katta ekanligi bilan boshqa janrlardan tubdan ajralib turadi.

Roman janri tasvir qamrovi, tuzilishi va hajmiga ko'ra diologiya, trilogiya, tetralogiya kabi ko'rinishlarga ega bo'ladi. Endi ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

**Roman-diologiya** — shaklan ikki kitobdan iborat bo'lgan romanlar. Ularga P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha", H.Nu'mon va A.Shorahmedovning "Ota" romanlari misol bo'ladi.

**Roman-trilogiya** — uch kitobdan iborat bo'lgan hamda jamiyat hayotidagi voqeliklarning juda katta davrini qamrab olgan, shuningdek,

diologiyaga qaraganda sujet davomida ko'proq insonlar taqdiri yoritiladigan, personajlar soni ham ko'proq bo'lgan adabiy asardir. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi ushbu turning yorqin namunasi. U uchta "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" nomli qismlardan iborat.

**Roman-tetralogiya** – to'rt kitobdan iborat bo'lgan narsiy asar. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" romani tetralogiyaning asl namunasi bo'lib, u "Jahongir Mirzo", "Umarshayx Mirzo", "Mironshoh Mirzo", "Shohrux Mirzo" nomli romanlar jamlanmasidan iborat.

Romanlar hajman qanchalik katta bo'lmasin, unda voqealararo uzviy bog'liqlik, barcha qismlarni birlashtirib turuvchi obrazlar mavjud bo'lishi talab etiladi. Asar qanchalik katta bo'lmasin, romanning talablariga javob bera olmasa uni bir roman deya atay olmaymiz. Negaki, badiiy adabiyotdagi barcha janrning o'ziga xos xususiyati va majburiyatlari bo'ladi.

O'rta Osiyo romanchilik maktabining asoschisi shubhasiz Abdulla Qodiriydir. Uning "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotidagi ilk roman sanalib, u roman janrining barcha qoida va talablariga mos keladi.

## TRAGEDIYA

**TRAGEDIYA** [*yun.* tragoidia — echki qo'shig'i < tragos — echki Q ode — qo'shiq; yunon mifologiyasida: nabotot, vino va xursandchilik ma'budi Dionis sharafiga echki qurbonlik qilinayotgan paytda aytiladigan birinchi qo'shiq] 1. *ad.* O'ta keskin, o'tkir yoki kelishtirib bo'lmaydigan hayotiy ziddiyatlarni tasvirlovchi va ko'pincha qahramonning o'limi bilan tugallanuvchi dramatik asar. *Shekspirning «Gamlet» tragediyasi.*

2. Dahshatli voqea, hodisa; mudhish ahvol; fojia. *Jizzax qo'zg'oloni stixiya bilan boshlanib, beqiyos tragediya bilan mag'lubiyatga uchradi.* N.Safarov, Olovli izlar. (*qarang: OTIL, 4-tom*)

Bunday atalishining o'z sababi bor. Qadimgi yunonlarda hosil xudosi Dionis sharafiga bag'ishlab xalq bayramlari tashkil etilgan va unda echkilar so'yilib *tragos* (qiziqchilar) tomonidan echki terilari

yopinilib, turli sahna ko'rinishlari qo'yishgan va oxiri fojia bilan tugaydigan sahna asarlariga nisbatan shunday nomlanish urf bo'lgan.

Tragediyaning komediya, drama, monodrama, intermediya kabi dramatik janrlardan farqi shundaki, unda asar qahramonlari o'rtasida juda kuchli qarama-qarshilik – ziddiyat mavjud bo'ladiki, uning oxiri, albatta, o'lim fojiasi bilan yakunlanadi. Qahramonlar o'rtasidagi dushmanlik munosabatlari juda murosasiz va keskin janglar tasviri bilan keltiriladi.

Ushbu janr Yevropa adabiyotida juda keng tarqalgan va unda ispan yozuvchilarida Lope de Vega, Kalderon, Inglizlardan V. Shekspir, nemis adabiyoti vakillaridan Gyote, Shiller, rus adiblaridan A.S. Pushkinlar aynan tragediya janri ravnaqiga munosib hissalarini qo'shganlar.

O'zbek adabiyotida esa Mahmudxo'ja Behbudiyning 1911-yilda yaratilgan ilk "Padarkush" dramasi, Abdurauf Fitrat tomonidan 1926-yilda yaratilgan "Abulfayzxon", Maqsud Shayxzodaning 1944-yilda yozilgan "Jaloliddin Manguberdi", 1961-yilda yozilgan "Mirzo Ulug'bek" dramalari o'zbek dramaturgiyasi shakllanishiga omil bo'lgan asarlardir.

## XALQ DOSTONLARI VA ULARNING TURLARI

Og'zaki adabiyotning eng katta va qiziqarli janrlaridan biri doston sanaladi. **Doston** so'zi forschadan tarjima qilinganda **qissa**, **hikoya**, **sarguzasht**, **ta'rif** ma'nolarini anglatadi. **Doston** [forscha — qissa, hikoya; tarix] 1. *ad.* Nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa; poema. *Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni. Doston ustida jiddiy ishlay boshladim. Shukrullo, Saylanma. Maktab darsliklarida uning "Ko'kan batrak" dostonini alohida dars qilib o'qitishgan edi. S.Ahmad, Ufq.-Bir o'lkaki, dunyoda biroq Bitilmagan dostonidir bori. A.Oripov, Yurtim shamoli.* 2. *ad.* Xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar. *O'zbek xalq dostonlari. Fozil Yo'ldoshning "Alpomish" dostoni (qarang: OTIL, 1-tom).*

Xalq tomonidan yaratilgan, qahramonlar hayoti nasriy yoki she'riy yo'lda yoritilgan, muallifi ma'lum bo'lmagan yirik epik asarlar **xalq dostonlari** deyiladi.

O'zbek folklorida alohida o'ringa ega bo'lgan dostonlarning XIX-XX asrlarda xalq baxshilari tomonidan kuylangan 150 ga yaqini mavjudligi aniqlangan. Har bir doston o'zining variantlariga ega va ularning umumiy soni 400 dan ortadi. Sababi, ular og'izdan og'izga o'tishda turli xil baxshilar tomonidan kuylanishi natijasida o'zgarishlarga uchragan. Birgina "Go'ro'g'li" dostonlari turkumiga kiruvchi dostonlarning 100 dan ziyod varianti, "Alpomish"ning esa 40 dan ortiq variantlari mavjud. Ular orasida kompozitsion jihatdan eng mukammali Ergash Jumanbulbul tomonidan kuylangan "Kuntug'mish" dostonidir.

Xalq dostonlarining olimlar tomonidan belgilab berilgan quyidagi turlari mavjud:

1. Qahramonlik dostonlari.
2. Jangnoma dostonlar.
3. Romantik dostonlar.
4. Tarixiy dostonlar.
5. Kitobiy dostonlar.

"Alpomish" destoni qahramonlik, "Go'ro'g'li", "Ravshan", "Rustamxon", "Oshiq g'arib va Shohsanam" dostonlari esa ishqiy-sarguzasht dostonlar guruhlariga kiradi va shu kabilar.

O'zbek xalq dostonlari aytilishiga ko'ra bir nechta yo'nalishlarga bo'linadi:

1. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik yo'nalishi.
2. Samarqand dostonchilik yo'nalishi.
3. Farg'ona dostonchilik yo'nalishi.
4. Xorazm dostonchilik yo'nalishi.

Xalq dostonlarini yozma dostonlardan farqlash lozim. Yozma dostonlarning muallifi aniq bo'ladi va bunday asarlar adabiyotshunoslikda poemalar deyiladi. Xalq dostonlari shaklan she'riy va nasriy ko'rinishda yoziladi va bunday holat odat tusiga kirgan. Undagi she'rlar, asosan, barmoq vaznida, o'n bir bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi. Ba'zi hollarda esa doston talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'rlar ham keltirilgan bo'lishi mumkin.

## MEMUAR ASAR

“Memuar” soʻzi fransuz tilidan tarjima qilinganda “esdalik” maʼnosini anglatadi. MEMUAR [*fr.* *memoires* — esdaliklar < *lot.* *memoria* — xotira, eslash] oʻtmish haqida, esdaliklar shaklida yozilgan adabiy asar. *Bobur memuarlari. ...soʻnggi yangiliklarni oʻzinning kundalik daftarimga yozib chiqdim. Memuar yozish vaqti kelganda yarab qoladi.* A.Hakimov, Ilon izidan (*qarang: OTIL, 2-tom*).

Oʻzbek adabiyotida esdalik tariqasida yozilgan, yozuvchining oʻz koʻzi bilan koʻrgan voqealar tasviri koʻrsatilgan asarga memuar asar deb ataladi. Bunday asarlar bir qarashda bayon qilish shakliga koʻra kundalikalarga, badiiy toʻqimalarning yoʻqligi, hayotning, voqealarning aniq va real tasvirlanishiga koʻra ilmiy asarlarga oʻxshab ketadi. Oʻzbek adabiyotida memuar asarlarning ikki xil turi mavjud. Bular: **tarixiy memuar asarlar** va **badiiy memuar asarlar**.

Memuar asarlarning asosiy xususiyati shundaki, ularda muallif voqealar markazida guvoh sifatida turadi. U faqatgina oʻzi ishtirok etgan va bevosita koʻrgan voqealarnigina hikoya qiladi. Bunday asarlarga Oybekning “Boʻlalik”, A.Qahorning “Oʻtmishdan ertaklar”, Z.M.Boburning “Boburnoma” asarlari yorqin namuna boʻla oladi.

## KOʻCHIM, RAMZIY OBRAZ HAQIDA

Har bir badiiy asarda ijodkor tomonidan ayrim tushunchlar boshqa bir predmetlar orqali tasvirlanadi. Bu — koʻchim deyiladi. **Koʻchim** *ad.* badiiy ifodalilikni oshirish uchun koʻchma maʼnoda qoʻllangan nutq birligi; kinoya, ramz bilan qoʻllangan soʻz, ibora (*qarang: OTIL, 2-tom*).

U orqali asarda yashiringan maʼnoni juda aniq tushunish hamda bundan rohatlanish mumkin boʻladi. Yozuvchi asar yozishda koʻchimlarga koʻp bor murojaat qiladilar. Biroq boshqa predmetga maʼno yuklashda duch kelgan, xayoliga kelgan narsani keltiravermaydilar. Maʼnoni koʻchirishda narsa-hodisalarning oʻzaro umumiy jihatlari hisobga olinib, tashqi, ichki, mazmunan aloqador jihatlari keltirilishi talab etiladi.

Adabiyoshunoslikda koʻchimning *ramz, majoz, istiora* kabi koʻrinishlari mavjud boʻlib, ularning har biriga alohida toʻxtalib oʻtamiz.

Adabiyot atalmish sirli xilqatning chin ma'nodagi muxlisi uchun ramziy obraz tushunchasi birmuncha yaqin va tushunarli bo'lishi tabiiy. Shunday bo'lsa-da, ana shu tushunchaga biroz to'xtalib o'tishni joiz hisoblaymiz. Avvalo, ramz tushunchasiga to'xtalsak. Ramz arabcha, "simvol" grekcha so'z bo'lib, qadimgi greklardagi maxfiy tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llaniladigan shartli belgini anglatgan. Badiiy adabiyotda esa arabchadan olinganda "ishora qilmoq" ma'nosini anglatib, voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli sifatida baholanadi. Ramzni majozdan farqlash lozim. U barcha xalqlar adabiyotida qadimdan mavjud bo'lib ularda ramziy obrazlar unumiy mushtaraklikni ifoda etadi. Masalan, sher – mardlik, tulki – ayyorlik, bo'ri – ochko'zlik, gul – go'zallik, ma'shuqa, bulbul – oshiq, sariq rang – mahzunlik, qora rang – motam, yashil rang – hayot, jo'shqinlik ramzlarini ifodalaydi.

Xalq og'zaki ijodi, hozirgi zamonaviy adabiyotimiz namunalarida ramziy obrazlardan juda keng foydalanilgan. Birgina Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarini olsak, undagi shoxdor ona bug'u azaliy ezgulik, mehr-oqibat timsolidagi ramziy obraz sanaladi. Bundan tashqari uni xalq ramzi sifatida ham baholash mumkin. Oq kema va baliq obrazlari ham o'z navbatida ramziy obrazlar vazifasida keladi. Bola uchun baliq suvda uzoq va bemalol suza olganligi sabab erk va qudrat ramzida, oq kema esa to'kislik, diydor va mehr-oqibat ramzida ifodalangan. O'zbek adabiyotida bunday ramziy obrazlar asosida yozuvchi qalbidagi ayrim nozik tamoyillarni ochib berishga xizmat qiladigan ramzlar juda ko'plab uchraydi.

**Majoz** – ramzning bir ko'rinish bo'lib, narsa-hodisalarning keltirilgan mavhum tushunchalarini aniq tasvirlarni ifodalovchi obrazni qo'llashdir. U adabiy asar tarkibida qo'llanganda o'quvchiga tushunarsiz bo'lgan tushunchalarni ularga ma'lum bo'lgan narsalarga xos xususiyatlar bilan ifodalash usuli sanaladi.

**Majozni allegoriya** (yun. allegoria – o'zgacha ifodalash, kinoya, qochirim) deb ham atashadi. Badiiy adabiyotdagi ko'plab majozlar xalq og'zaki ijodidan kirib kelgan. U turli janrlar, asosan, masal, ramz, rivoyat, hajv, parabola kabilarga juda keng qo'llanadi. Majozda ikki



tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Masalan, Gulxaniyning “Maymun bilan najjor”, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Toshbaqa bilan chayon” kabi asarlarida insonlarga xos xususiyatlar hayvonlar obraziga ko‘chiriladi va bu majozni tashkil etadi.

Ko‘chimning yana bir turi **istioradir**. Istiora so‘zi arabchadan tarjima qilinganda “qarzga olish” degan ma‘noni bildiradi. Unda ham biror narsa-hodisani boshqasiga ko‘chirish bilan badiiy ma‘no ifodalanadi, biroq bunda tashqi o‘xshashlik muhim emas. Ulardagi o‘zaro ichki tomonlama o‘xshashlik ichki mantiqiy bog‘liqlikka asoslanadi. Istiorani kichik o‘xshatish deb ham atash mumkin. U badiiy asarda aks etayotgan hodisalarning aniq gavdalanishida, asar jozibasining oshishida juda katta ahamiyat kasb etadi.

Istioraning ikki turi mavjud;

1. Ochiq istiora.
2. Yopiq istiora.

Bundan tashqari istiora o‘xshatilgan va o‘xshagan unsurlardan tashkil topadi. Masalan, sarv qomad, sheryurak, oqko‘ngil va shu kabilar.

## BADIIY OBRAZ VA MUBOLAG‘ALI TASVIR

Badiiy adabiyotning o‘rganish va tasvirlash obyekti, shubhasiz, insondir. Inson talqin etilmagan o‘rinda badiiy adabiyot ham mavjud bo‘la olmaydi. Shunga ko‘ra u hayot va unda y obraz [r. obraz — yuz, yonoq; tasvir, timsol; ikona] 1. Badiiy asarlarda yaratilgan tip, xarakter. *Oybek o‘zining «Navoiy, «Qutlug‘ qon» romanlarida ne-ne usta firibgar, makkorlar obrazini yaratgan.* 2. San‘atning o‘ziga xos bir kategoriyasi: san‘atkorning voqelik haqidagi tasavvurining aniq his etiladigan bir tarzda gavdalanishi. *Badiiy obraz. Shoir obrazlar orqali tafakkur etadi.*

Obraz, badiiy obraz tushunchalarini keng va tor ma‘nolarda tushunish mumkin. Keng ma‘noda obraz – ijodkor tomonidan voqelik san‘anga xos o‘zlashtirilib, unga ayrim o‘zgartirishlar kiritilishi hamda hayot manzarasining tasvirini o‘zida mujassamlasa, tor ma‘nodagi obraz

badiiy asarda ishtirok etuvchi inson siymosini anglatadi. obraz murakkab tuzilish va ko'rishga ega bo'lib, borliq bilan ruhiy olamning bir-biri bilan aloqasi, subyektivlik bilan obyektivlik, yakkalik va umumiylikning, ideallik bilan reallikning o'zaro muvofiq munosabatlari aks ettiriladi.

Bundan tashqari badiiy asarda obraz so'z vositasida yuzaga chiqariladi. Insonning tanho o'zi asarning muhiyatini ochib berolmaydi. Negaki, inson jamiyatda, odamlar orasida, tabiat qurshovida yashaydi. Aynan o'sha vositalarning ham qo'llanilishi ham obrazning yaqqolliigi va asar qimmatini belgilab berishda zarur sanaladi.

Umuman olganda badiiy obraz badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs sifatida yaratilgan, uning ruhiy va jamiyat hayotidagi roli ochib berilgan siymodir. Obrazilarning ikki bosh va epizodik singari turlari mavjud. Badiiy asarning bosh obrazlari asar boshlanishidan to oxirigacha ishtirok etishadi. Masalan, "Kuntug'mish" dostonining bosh qahramonlari bunga misol bo'la oladi: Kuntug'mish, Xolbeka, Xolmo'min, Gurkiboy, Mohiboy va shu kabilar. Ushbu personajlarsiz dostonni tasavvur etish mushkul. Ular asarda boshdan oyoq mas'uliyatli vazifalarni tashishga xizmat qiladi. Epizodik obrazlar esa asarning ma'lum qismlarida bir-bir ko'zga tashlanib, keyin boshqa tilga olinmaydigan obrazlar tizimidir. "Kuntug'mish" dostonidan epizodik obrazlar ham mavjud: Zamongul, zamonqul, Qosim, Kampir va boshqalar. Bular ma'lum maqsadlarda, biror voqeani amalga oshirish uchun bir-ikki o'rinlarda qo'llanilib, boshqa o'rinlarda takrorlanmagan.

Badiiy asar personajlarini tasvirlashda, ularning ta'sir ko'lamini oshirish, voqea-hodisalarni bo'rttirib ko'rsatilishiga **mubolag'a** deyiladi. **MUBOLAG'A** - kuchaytirish, bo'rttirish; giperbola] 1. ad. tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va sh. k. ni o'quvchilarga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish; shu maqsadda ishlatilgan so'z, ibora; giperbola. 2. Umuman, bo'rttirish, oshirib yuborish; lof.

Mubolag'a xalq dostonlarida juda ko'p qo'llangan badiiy tasvir vositasidir. Deyarli har bir dostonda bunday vositalar uchraydi. "Kuntug'mish" dostonida ham Kuntug'mishning jasorati, tashqi

ko'rinishi, Xolbekaning husn-jamoli, g'azablanish holatlari juda bo'rttirib tasvirlangan. Masalan, Xolbekaning kanizlari Kuntug'mishni ko'rgan holatidagi jumlagi e'tibor qarataylik: "...ular ko'shkidan pastga tushib to'raga qarasa, sherday haybatiga, ajdarday suratiga, Rustamday quvvatiga, arslonday siyosatiga, bulutday savlatiga bosib kelolmadi..."

Yana bir misolni keltiramiz: "shahzoda oh tortib, sherday chirpinib, yo'lbarsday yutinib, o'rdasini oldirgan bo'riday achinib, qoplonday chopinib, belini mahkam bog'lab, etagini ko'tarib: "shu karvonlarni bu yerda ko'rib qolsam, bearmon bo'lar edim",-deb ayiqday hayqirib, ajdarhoday ishqirib, yo'lning yuzi bilan, karvonlarning izi bilan, otday chopib, kiyikday sakrab ravona bo'ldi".

Mubolag'aning nihoyatda orttirilgan ko'rinishiga mumtoz adabiyotda bulug' yoki ifrot deyiladi. G'ulu degan turi ham borki, u o'zida aqlga sig'mas darajadagi mubolag'alarni aks ettiradi.

Umuman olganda, badiiy obraz va mubolag'a bir-biri bilan bog'liq tushunchalar bo'lib, ular badiiy adabiyotning ajralmas qismi sanaladi.

### **TASHBEH, TANOSUB, IRSOLI MASAL SAN'ATLARI**

Uzoq davrlar davomida shakllanib kelgan sharq she'riyati o'zining bitmas-tuganmas boyliklari, zaxirasiga egaligi sababli unda bir qancha she'riy qonuniyatlar paydo bo'la boshlagan. Badiiy adabiyotning she'riyat deb nomlanga ulkan olami o'zining nafosati, nozikliklarini she'riy san'atlarsiz namoyon eta olmaydi. Shulardan biri bo'lmish *tashbeh* adabiyotda juda keng qo'llaniladigan san'atlardan biridir.

Tashbeh arabcha so'z bo'lib, "o'xshatish" degan ma'noni anglatadi. U narsa-hodisalarni bir-biriga qiyoslaydi va bu holat tasvirlanayotgan tushunchani anglashga ko'maklashadi. Tashbehning yuzaga kelishida to'rt unurning ishtiroki kuzatilishi mumkin:

1. O'xshamish (mushabbah) – o'xshatilayotgan narsani, tasvirda fikr qaratilgan tushuncha;
2. O'xshatilmish (mushabbahunbeh)- tasvirda qiyoslanayotgan narsa yoki tushuncha;
3. Asos (vajhi tashbih) - o'xshatilish sababi;

4. Vosita (adoti tashbih) – o‘xshatish belgisi;

To‘rtinchi unsur (vosita) ishtirok etgan o‘xshatishlarda tashbih aniq ko‘zga tashlanib turadi. Asosan, **-dek, -day, -cha, -simon, -vor, -oso, -vash, -iy, -oyin** kabi qo‘shimchalar, **kabi, singari, misli, go‘yo, yanglig‘, xuddi, o‘xshab, nechukki** kabi so‘zlar vosita vazifasida keladi. Bunday holatlarda ko‘pincha asos ishtirok etmaydi.

Ba‘zi holatlarda vosita tushib qolib, o‘xshamish bilan o‘xshatilmishgina qoladi. Masalan, “so‘zi asaldek shirin” deyish o‘rniga “so‘zi bol”, “qomati sarvdek tik” deyish o‘rniga “sarvqomad” ishlatilishi mumkin.

Demak, o‘xshamish bilan o‘xshatilmish ishtirok etgan o‘xshatish mutlaq tashbih (aniq o‘xshatish) deyiladi.

Ba‘zan esa o‘xshamish tushib, o‘xshatilmishning o‘zigina qoladi. “Hilol”, “sarv”, “oy”, “gul” kabi so‘zlarning o‘zi o‘xshamishga ishora qiladi va bu **kinoya tashbeh** (ishora o‘xshatish) deyiladi. Tashbih tuzilishi va xususiyatlariga ko‘ra bir nechta turlarga bo‘linadi:

O‘xshatilayotgan narsa yoki hodisalarning bir-biri bilan qanchalik mos tushgan-tushmaganligiga qarab **to‘liq va to‘liq bo‘lmagan** tashbehlariga bo‘linadi.

**Tanosub** – san‘ati she‘riy bendlarda mazmunan bir-biriga bog‘liq, bir-biriga aloqador tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llash bilan hosil bo‘ladi. Biror narsani o‘yiaganimizda, avvalo, uning xususiyatlari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Masalan, yuz haqida gap ketganda uning bilan bog‘liq bo‘lgan og‘iz, ko‘z, burun, lab, qosh kabilar hayolga keldi. She‘riyatda ham shoir biror hodisani tasvirlash jarayonida unga yaqin so‘zlarni qo‘llash orqali uning mazmunini yanada ishonchliroq, yaqqolroq tasvirlashga erishadi.

*Zulfiing cheriki jamol mulkin,*

*Oldi ko‘zung ittifoqi birla. (Atoiy)*

**Irsoli masal** – “maqol keltirish” degan ma‘noni anglatib, uning asosiy xususiyati badiiy asarda maqol, matal yoki ibratli so‘zlardan ma‘lum maqsadlarda foydalanish san‘atidir:

*Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitar,*

*Besabrlar o‘z ayog‘in yitar. (Gulxaniy)*

Ushbu san'atning arabchada irsol ul-masal fil-bayti deb atalsa-da, ko'plab adabiy manbalarda irsoli masal (forsiy izofa) tarzida qo'llaniladi.

Irsoli masal juda uzoq tarixga ega ekanligini bugungi kunga qadar yetib kelgan badiiy manbalarning deyarli barchasida uni uchratishimiz mumkinligidan bilib olishimiz mumkin. Eng qadimiy asarlardan sanalmish "Qutadg'u bilig", "Hibat ul-haqoyiq" kabi nodir durdonalarda ham irsoli masalning go'zal namunalarini uchratamiz. Shuningdek, Lutfiy, Atoiy devonlarida ham uning yaxlit irsoli masal bilan tugagan g'azallarini uchratish mumkin:

*Ayog'ingg'a tushar har lahza gesu,  
Masaldurkim: charog' tubi qorong'u.  
Tutarmen ko'zki, ko'rsam orazingni,  
Ki derlar: oqqan ariqqa oqar su(v). (Lutfiy)*

Alisher Navoiy davriga kelib esa ushbu san'at yuqori cho'qqiga ko'tarildi.

*Yeti jon og'zimgakim, chiqmas uyidin ul hur,  
Chiqmag'an jondin umid-ushbu masaldur mashhur.  
Ko'ngulni tuz, tilosang foyiz o'lsa tuz ma'ni,  
Nedinki egri esa, egri ko'rguzur ko'zgu. (Navoiy)*

Irsoli masal san'ati zamonaviy adabiyot vakillarining ijod namunalarida ham uchraydi. U har bir jumlag qo'shimcha ma'no yuklash bilan bir qatorda, baytlarning mazmunini to'laroq aks ettirish, uning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

## CHISTON HAQIDA

**Chiston.** U forscha "chist" (nima) va "on" (u) so'zlaridan olingan bo'lib "u nima?" degan ma'noni anglatadi. CHISTON – u (bu) nimadir?! 1. Topishmoq, jumboq. 2. Qochirliqli ran, ibora; qochiriq, qochirim. *Ha, tilingizdan olganmi, nega indamaysiz? — chiston qildi yana Lobarxon. Gazetadan. Olimboy aka endi to'y-u hashamlarda ilgarigidek gapirmas, askiyaga aralashadigan bo'lsa, yumshoqroq qilib, suyab chiston qilar edi. S.Ahmad, Oydin kechalar.* 3. *ad.* Sharq she'riyatida lirik janrlardan biri: narsa yoki hodisaning muhim

belgilarini majoziy tavsiflab, uning nima ekanligini topishni o'quvchiga havola etadigan, ikki baytdan o'n baytgacha bo'lgan she'riy shakl. *Shoiraning [Uvaysiyning] she'rlari «Devon»da jamlangan bo'lib, u asosan chiston janrida katta shuhrat qozongan.* S. Matjon va Sh.Sariev, O'zbek adabiyoti (qarang: OTIL, 4-tom). Chistonchi chiston, qochirim bilan gapiruvchi, chistonga, qochirimga usta odam. Chistonlar hajman cheklanmagan bo'lib, istalgan shaklda yozilishi mumkin. Biroq ularning aksariyati bir yoki ikki baytdan iborat.

Turkiy adabiyotning yirik namoyondasi Alisher Navoiy ushbu tilda chistonlar yozishni boshlab bergan. Fors-tojik adabiyotida esa ushbu janr avvaldan mavjud bo'lgan va u lug'z deb atalgan. Yana bir shoiramiz Uvaysiy ijodida ham ushbu janrning go'zal namunalarini uchratamiz. Uning chistonlari orqali ushbu janrning o'ziga xos xususiyatlarini yanada yorqinroq tushunib olish imkoniyati tug'iladi. Uvaysiy qalamiga mansub "Anor", "Yong'oq", "Kun va tun" chistonlari badiiy adabiyotimizda juda mashhurdir:

Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon;  
Sindurib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,  
Yuzlarig'a parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

(anor)

Ul nadurkim, sabzto'nlik, yoz yog'ochning boshida,  
Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.  
Barcha qushlarning so'ngoki ichida,  
Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.

(yong'oq)

Ikki mahbubni ko'rdim, bir-birisin ko'rmagan,  
Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan

(kun va tun)

Ko'rinadiki, shoiraning keltirilgan birinchi chistonida anorning tashqi ko'rinishi bilan bir qatorda ichki tuzilishi, hatto oq pardalarigacha tasvirlangan va ozgina tafakkur qilgan kishi ushbu yashirin predmetning nima ekanligini osonlik bilan topa oladi. Anor, haqiqatdan ham, shaklan gumbazga o'xshaydi, hech bir tomonida teshigi yo'q va uning ichini

ko'rish imkonsiz. Uning donachalari esa qizil kiyimli, bag'riqon qizlarga qiyoslanadiki, oq pardalar esa gumbaz ichidagi harir pardalardek.

Xullas, chiston janr sifatida badiiy mumtoz adabiyotimizning ko'rki sanaladi. Ushbu janrni yanada takomillashtirish, yangidan-yangi shakllarini yaratish bugungi kun shoirlari zimmasida turgan vazifalardan biridir.

## QOFIYA VA RADIF

Inson qalbiga shukuh, tuyg'ulariga tug'yon beruvchi, vaqti kelganda, taskin, ba'zan esa mag'zunlik baxsh etuvchi she'r o'zida yuqoridagi xususiyatlardan tashqari bir qancha unsurlarni ham mujassamlashtiradi. She'r deganda, avvalo, kishi ko'z o'ngida qofiyadosh so'zlar tizilmasi gavdalanadi. Qofiya she'riy matn tarkibida yarq etib namoyon bo'ladi va shoirlar ham mazmunning eng zalvorli ma'nosini aynan qofiyadosh so'zlar zimmasiga yuklaydi. QOFIYA [a. — she'rda bir necha bayt yoki misralar oxiridagi so'zlarning o'zaro ohangdosh, mos bo'lishi; so'z o'yini] 1. She'riy misralarning muayyan o'rni ohangdosh so'z yoki so'z birikmalarining izchil takrorlanib kelishi.

2. She'rdagi qofiyadosh so'zlarning oxirgi harfi.

3. *esk.* She'r yozish haqidagi ta'limot

Mumtoz adabiyotimizda qofiya qoidalarini o'rganuvchi soha "*ilmi qofiya*" deb yuritiladi.

Qofiya arab tilidan tarjima qilinganda "ergashish", "izidan borish" degan ma'nolarni anglatadi. U she'riy misralar tarkibida bir-biriga ohangdosh bo'lgan so'z va so'z birikmalari ketma-ket takrorlanib kelishidir. Qofiya orqali she'rning janri, shakli va kompozitsiyasi haqida to'la tasavvurga ega bo'lish mumkin. Asosan, qofiyalar o'zak bilan o'zak yoki qo'shimcha bilan qo'shimcha o'rtasida bo'lishi mumkin. Qofiyani tashkil qilgan so'zlar **qofiyadosh** so'zlar deyiladi. Ularning yana bir asosiy xususiyati she'rda intonatsiya (ohangdoshlik)ni hosil qiladi va she'rning poetik mazmuni, so'zlar ohangdorligi, ritmi, vazni, band tuzilishi bilan birgalikda intonatsion vazifa bajaradi. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi unli yoki undosh so'zlarning ohangdoshlik hosil qilishiga **raviy** deyiladi. Qofiyadosh so'zlarda raviy qat'iy o'rinlarda

keladi. Masalan, Alisher Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalidagi “gulro”, “badxo” qofiyadosh so‘zlarida “o” unlisi, “uyqu”, “kulgu”, so‘zlarida esa “u” unlisi raviy sanaladi. Ularda qofiya raviy bilan tugagan va bunday qofiyalar **muqayyad qofiya** deb ataladi. Ayrim ohangdosh so‘zlarda raviydan keyin ham qofiya davom etishi mumkin:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,  
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

Navoiyning ushbu g‘azalining “qaro”, “balo” qofiyadosh so‘zlarida “o” tovushi raviydir. Biroq undan keyin ham qofiya davom etmoqda va bu qofiya turiga **mutlaq qofiya** deb yuritiladi.

Yana shuni ham unutmaslik kerakki, faqat cho‘ziq unililargina (o, u, o‘) raviy bo‘la oladi. Qisqa unililar (a,i,e) raviy bo‘lolmaydi.

Qofiyadan so‘ng takrorlanib keladigan so‘z yoki so‘zlar birikmasiga **radif** deyiladi. U arabcha (aslida, suvoriyga mingashgan kishi degan ma‘noni anglatadi) “yo‘ldosh”, “hamroh”, “ketma-ket” kabi ma‘nolarida ham qo‘llanadi. Sharq xalq-lari she‘riyatida misra yoki bayt oxirida asosiy qofiyadan keyin takrorlanib keluvchi so‘z, ibora.

Radif qofiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular doimo yonma-yon keladi, qofiyasi radif mavjud o‘lmaydi. Ayrim g‘azallarda radifning miqdori ko‘payib ketishi oqibatida qofiya qoidalari o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari, qofiya va radif birgalikda she‘riy ohangdoshlikni yuzaga keltiradi.

Radiflar shaklan, ko‘p hollarda, bir so‘zdan tashkil topadi va bunday holat “**qisqa radif**” deyiladi:

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,  
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?!

(A. Navoiy)

Ushbu 7 baytli g‘azalda “deyin” so‘zi 8 bor radifda, 12 bor takror holda qo‘llangan. G‘azalda qo‘llangan radif qisqa radifning aynan ko‘rinishidir.

Radif g‘azalda bir nechta so‘zdan iborat bo‘lsa, u “**yoyiq radif**” deyiladi. Masalan, Lutfiyning “Xoh inon xoh inonma” radifli g‘azali bu jihadan xarakterlidir:

Sensen sevarim, **xoh inon, xoh inonma,**



Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Yoki

Tuz, **oh Zahiriddin Muhammad Bobur,**

Yuz, **oh Zahiriddin Muhammad Bobur,**

Sarrishtayi ayshdin ko'ngulni zinhor

Uz, **oh Zahiriddin Muhammad Bobur.**

Yuqoridagi ruboiy ham yoyiq radifning asl namunasi. U musiqiylik va ohangdorlikni tashkil etib, she'rxonga mayin kuydek yoqimli tuyg'ularni baxsh etadi.

Radif she'riy matnda asosiy yukni o'ziga oladi hamda ma'no kuchaytirishga xizmat qiladi. Shoir she'rda asosan nimaga e'tibor qaratmoqchi bo'lsa, uni radifning zimmasiga yuklaydi. Mana shunday asardan radif olib tashlansa, she'r o'z ahamiyatini butunlay yo'qotib qoladi.

Bir nechta she'riy janrlar (masnaviydan boshqa, g'azal, qit'a, murabba', muxammas, musaddas)da bir bandning o'zida ikki xil radif qo'llangan bo'lishi mumkin. Ular **ichki va asosiy radif** deyiladi. Masalan, Navoiyning quyidagi g'azalida ichki radifga duch kelamiz. Undagi "ovoramen", "bechoramen" so'zlari mana shunday radif turiga misol bo'la oladi:

To muhabbat dashti bepayonida **ovoramen,**

Har baliyat kelsa ishq oshubidin **bechoramen...**

Asosiy radifga misol keltiramiz:

Ulki husn etti bahona elni shaydo **qilg'ali,**

Ko'zgedek qildi seni o'zini paydo **qilg'ali.** (Lutfiy)

## TASHXIS

"Tashxis" so'zi arabcha "shaxs" so'zining o'zagidan hosil bo'lgan bo'lib, (ta-oid qo'shimcha) "shaxsiantirish" degan ma'noga ega bo'ladi. U mumtoz adabiyotning eng ko'p qo'llanadigan badiiy tasvir vositasi sifatida faqat insonga xos xususiyatlarni, ruhiy va jismoniy holatlarni hayvonlar, tabiat hodisalari, narsa-buyum va atrof-muhit manzaralariga ko'chirish san'ati sanaladi. Tashxis orqali tasvirlanaotga jihat yanada qaytadan jonlanadi, ta'sir ko'lami oshadi.

O'zbek adabiyotida jonlantirish mavjud bo'lgan ijod namunalari talaygina. Masalan,

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,  
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.  
Aytadir: bir ko'rib, yo'limdan ozib,  
Tog'-u toshlar ichra istab yuramen!

(Cho'lpon)

## GLOSSARIY

**Badiiy matnlar** – soʻz tartibining erkin boʻlishi, toʻliqsiz gaplar va boshqa sodda gaplarning keng qoʻllanishi, xilma-xil takrorlarning ishlatilishi xarakterli boʻlgan matnlar.

**Badiiy publitsistika** – matbuot bilan adabiyotni bir-biriga uzviy bogʻlash vositasi sifatida namoyon boʻladigan publitsistikaning turi.

**Badiiy stilga xos matnlar** – ekspressiv-emotsional soʻzlar, turli xil arxaik va dialektal leksemalar, iboralar koʻp qoʻllanadigan matnlar.

**Bir tilli lugʻatlar** – bir til materialiga asoslangan lugʻatlar.

**Boʻgʻiz boʻshligʻi** – traxeyaning yuqori (kengaygan) qismi. Unda un paychalari va bir qancha togʻaylar mavjud. Boʻgʻiz boʻshligʻi ovoz manbai hisoblanadi (un paychalari tebranishidan ovoz hosil boʻladi).

**Bosh maʼno** – leksemaning semantik tarkibidagi hosila maʼnolarning oʻsib chiqishiga asos boʻlgan maʼno.

**Burun boʻshligʻi** – qoʻshimcha ton manbai.

**Dialektizmlar** – qoʻllanishi territoriyaga koʻra chegaralangan til birliklari.

**Dialektizm-soʻz** – shevaga xos soʻz.

**Dominanta** – sinonimik qatordagi betaraf maʼnoli soʻz.

**Eski leksik maʼno** – leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan maʼnosi.

**Etimologik leksik maʼno** – leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos boʻlgan dastlabki maʼno. U maʼno etimoni deb ham ataladi.

**Etimologiya** – tilshunoslikning soʻz va morfemalarning kelib chiqishini oʻrganuvchi boʻlimi.

**Fonetik dialektizmlar**– dialekt yoki shevaga xos fonetik birliklar tizimi.

**Fonetik soʻz** – leksemaning fonetik qiyofasi, nomi.

**Fonetika** – tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida maʼlumot beruvchi boʻlimi.

**Frazeologik butunlik** – frazemaning umumlashgan koʻchma maʼnosini shu frazema tarkibidagi soʻzlar maʼnolari bilan izohlash mumkin boʻlgan ibora.

**Frazeologik monosemiya** – frazemalarda bir maʼnolilik hodisasi.

**Frazeologik omonimiya** – omonimlar doirasidagi shakliy tenglik hodisasi.

**Frazeologik paronimiya** – tarkibidagi birorta leksema bilangina farqlanuvchi frazemalar.

**Frazeologik polisemiya** – frazemalarda ko‘p ma’nodlilik hodisasi.

**Frazeologik sinonimlar** – bir ma’no asosida birlashgan sinonimlar.

**Grammatik dialektizmlar** – biror shevaning o‘zigagina xos (adabiy tildagidan o‘zgacha) grammatik shakllari.

**Izohli lug‘atlar** – so‘z ma’nolari izohlangan, sharhlangan lug‘atlar.

**Jargonizmlar** – yashirin ma’no bilan birga tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo‘rttirib baholash xususiyatiga ega so‘zlar.

**Kalkalab olish** – boshqa tildagi so‘zning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa ko‘chirish orqali so‘z yasalishi, bu so‘zda boshqa til leksemasi ma’nosining ifodalanishi.

**Kasb-hunar leksikasi** – ijtimoiy mehnatning, ilm-fan yoki san’atning, ishlab chiqarishning u yoki bu turiga mansub maxsus tushunchalarning nomlari.

**Ko‘p tilli lug‘atlar** – bir necha til materiallariga asoslangan lug‘atlar.

**Lahja** – fonetik, leksik va grammatik umumiylik asosida birlashgan shevalar yig‘indisi. U dialekt nomi bilan ham ataladi.

**Leksik ma’no** – leksemaning nimanidir nomlashi, atashi, anglatishi.

**Leksik omonimiya** – omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi ko‘rinishi.

**Leksik-frazeologik antonimlar** – so‘z va frazema orasidagi ma’no ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

**Leksik-frazeologik sinonimlar** – so‘z va frazemalar o‘rtasidagi ma’no birligiga asoslangan sinonimlar.

**Leksikografiya** – tilshunoslikning lug‘atchilik bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

**Lug‘aviy birliklar** – so‘z va iboralar (leksema va frazemalar).

**Ma’no sinonimlari** – bir umumiy ma’noga ega bo‘lsa-da, ma’no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.

**Ma’no tartibi** – omonim yoki polisemantik xarakterdagi so‘zlarning (yoki birikmali nomlarning) joylashtirilishida ularning ma’nosiga va tematik guruhlanishiga tayanish prinsiplari.

**O‘z qatlam frazemalari** – o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan frazemalar.

**O‘z qatlam** – o‘zbek tili leksikasining umumturkiy va sof o‘zbekcha so‘zlardan iborat qismi.

**O‘zlashgan qatlam frazemalari** – boshqa tillardan kalka usulida yoki o‘zicha (o‘zgarishsiz) o‘zlashtirilgan frazemalar.

**O‘zlashgan qatlam** – boshqa tillardan olingan leksik o‘zlashmalar qatlami.

**Oddiy so‘zlashuv stiliga xos matnlar** – til vositalari rang-barangligi, individualligi, ekspressiv-emotsionalligi bilan ajralib turadigan matnlar.

**Oddiy so‘zlashuv stiliga xos matnlar** – to‘liqsiz gap qurilmalari, birgina so‘zdan iborat so‘z-gap shakllari qo‘llanadigan matnlar.

**Omonfonlar** – talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo‘lgan leksemalar.

**Omoformalar** – ayrim grammatik shakllari o‘zaro teng bo‘lgan leksemalar.

**Omoformalar** – shaklan teng bo‘lgan frazemalar.

**Omograflar** – yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo‘lgan leksemalar.

**Omonimiya** – til birliklarining ifoda planidagi tenglik hodisasi.

**Paronimiya** – ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi.

**Professionalizmlar** – kasb-hunar leksikasining o‘zi.

**Qiyosiy fonetika** – qardosh yoki noqardosh tillarning tovush tizimlarini qiyoslab o‘rganadigan fonetika.

**Sheva** – muayyan tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi.

**Singarmonizm** – so‘zning asosi va affiks tarkibidagi unilarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, garmoniyasi.

**Sinonimik qator** (sinonimik uya) – bir ma’no anglatishiga ko‘ra guruhlangan sinonim so‘zlar yilindisi.

**Stilistika** – hozirgi davrda til stillari yoki funksional stillar markaziy termini bo‘lib qolgan tilshunoslik sohasi.

**Terminlar** – professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyot yoki san’atga oid bir turi.

**Terminologik lug‘atlar** – u yoki bu sohaga oid terminlar haqida ma’lumot beruvchi lug‘atlar.

**Umumturkiy so‘zlar** – o‘zbek tili lug‘at boyligidagi eng qadimgi lug‘aviy birliklar.

**Umumxalq lug‘aviy birliklar** – ishlatilish doirasi chegaralanmagan so‘z va iboralar.

**Uslubiy bo‘yoq** – frazemalarning ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi semalari.

**Uslubiy bo‘yoq** – so‘zning leksik ma’nosiga qo‘shimcha tarzda orttirilgan uslubiy ottenka, ifoda semasi.

**Uslubiy sinonimlar** – leksik ma’nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.

**Vulgarizmlar** – haqorat ma’nosida qo‘llanadigan so‘zlar.

## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
<b>I QISM. TAHLILY OʻQISH.</b> .....	6
<i>BIRINCHI DARS.</i> “Alpomish” dostonidan parchaning fonetik tahlili...7	
<i>IKKINCHI DARS.</i> “Alpomish” dostonidan parchaning leksik-frazeologik tahlili.....	15
<i>UCHINCHI DARS.</i> “Alpomish” dostonidan parchaning morfologik tahlili.....	23
<i>TOʻRTINCHI DARS.</i> “Alpomish” dostonidan parchaning sintaktik tahlili.....	33
<i>BESHINCHI DARS.</i> Ertaklar. “Uch oʻga-ini botirlar” ertagi tahlili.....	42
<i>OLTINCHI DARS.</i> Hadislar tahlili.....	67
<i>YETTINCHI DARS.</i> Hadislardan parchaning morfologik va sintaktik tahlili.....	75
<i>SAKKIZINCHI DARS.</i> Hamzaning “Vatan” sheʼri tahlili.....	84
<i>TOʻQQIZINCHI DARS.</i> Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasidan parcha tahlili.....	91
<i>OʻNINCHI DARS.</i> Oybekning “Navoiy” romanidan parcha tahlili.....	114
<i>OʻN BIRINCHI DARS.</i> Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinası” romanidan parchaning fonetik, morfologik tahlili.....	121
<i>OʻN IKKINCHI DARS.</i> Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinası” romanidan parchaning morfologik, sintaktik tahlili.....	126
<i>OʻN UCHINCHI DARS.</i> Oʻtkir Hoshimovning “Urushning soʻnggi qurboni” hikoyasi tahlili .....	132
<i>OʻN TOʻRTINCHI DARS.</i> “Asrga tatigulik kun” romanidan parchaning fonetik va leksik tahlili.....	143
<i>OʻN BESHINCHI DARS.</i> “Asrga tatigulik kun” romanidan parchaning morfologik va sintaktik tahlili.....	150
<b>II QISM. OʻQISH UCHUN QOʻSHIMCHA MATERIALLAR....</b>	157
Maqollardan namunalar.....	158
Ertaklardan namunalar.....	163
Ertak-dostondan namuna.....	166
“Sarob” (hikoya).....	201

“Onajon”.....	216
Ruboiylardan namunalar.....	219
“Koshg‘ariy yodi”.....	221
“Millat vijdoni”.....	222
“Yashamoqning o‘zi baxt”.....	223
“Men shoir emasman”.....	225
<b>III QISM. NAZARIY MA‘LUMOTLAR.....</b>	<b>227</b>
Xalq og‘zaki ijodi.....	228
Hadis.....	232
Masal.....	233
Ertak haqida.....	234
She‘r haqida.....	236
Tuyuq va tajnis.....	237
Ruboiy.....	239
Qit‘a.....	240
G‘azal.....	241
Sayohatnoma janri.....	242
Hajviy asar haqida.....	243
Ballada haqida .....	244
Roman va uning turlari.....	245
Tragediya.....	247
Xalq dostonlari va ularning turlari.....	248
Memuar asar.....	249
Ko‘chim, ramziy obrazlar haqida.....	250
Badiiy obraz va mubolag‘ali tasvir.....	252
<i>Tashbeh, tanosub, irsoli masal san‘atlari</i> .....	254
Chiston haqida .....	256
Qofiya va radif.....	258
Tashxis.....	260

## ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Qosimjon Sodiq tahlili, tabdili va talqini ostida. – T.: Akademiya nashriyoti, 2017.
2. Axmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (6-sinf uchun darslik) – T.: Ma'naviyat, 2017. – B.160.
3. Eshqobil Shukur. Bobo so'z izidan. – T.: Mashhurpress, 2018.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili (6-sinf uchun darslik) – T.: Ma'naviyat, 2017. – B.208.
5. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov. Ona tili (7-sinf uchun darslik) – T.: Ma'naviyat, 2013. – B.160.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati.
7. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
8. Rahmonov V. She'r san'atlari. – T.: Yozuvchi, 2020.
9. Rustamov A. Qofiya nima? – T.: Fan, 1975.
10. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (9-sinf o'quvchilari uchun darslik). – T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. 200 b.
11. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot (7-sinf uchun darslik) – T.: Sharq, 2013. – B.368.
12. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? – Т., 1972.
13. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская Россия, 1990.
14. Раҳмонов В. Бадиий санъатлар. – Т.: Тафаккур, 2014.
15. Тўйчиев Б., Йўлдошев Қ. Зоминнинг тил луғати. – Т., Академнашр, 2012.
16. Турсунов У., Дониёров Х., Ўзбек тилида сингормонизм (маколалар тўплами). – С.: СамДУ, 1962.
17. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т., 1971.



I.K.MIRZAYEV

# TAHLILIIY O'QISH

*Darslik*

Muharrir  
Musahhih  
Texnik muharrir

O. Sharapova  
N. Isroilov  
O. Shukurov

ISBN 978-9943-8180-7-1

2022-yil 12 aprelda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.  
2022-yil 16 aprelda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog'oz bichimi 60x84.1/16. "Times New Roman" garnituras.  
Offset qog'ozi. Shartli bosma tabog'i – 15,5.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 68

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISBN 978-9943-8180-7-1



9 789943 818071